ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2023

2-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

2-сан *2023*

март-апрель

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭЩАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Umarov I. A, Jumanova D. U. “Malika ayyor” dostonida ijtimoiy-siyosiy leksika 6
Namazova G. M. Savod o‘rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari 17
Абдувалиева Н. Алишер Навоий ғазалларида паремаларнинг маъновий хусусиятлари 25
Rahmanova D. Nemis tili dialektlari va jonli so’zlashuv nutqi 31
Раметова Б. О характеристиках научной фразеологии 36
Чутбаева А. Б. Трансформация русско-узбекских религиозных паремий в произведениях узбекских писателей 45
Mirzayev A. X. Qualitative adjectives 54
Utambetova A. K. Evaluation category in uzbek and english languages (based on good and bad concepts) 61

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Majidov Sh. S, Sayfullayev L. N. Masofaviy ta’limda pedagogik texnologiyalarning qo’llanilishi 66
Bo’ronov Sh. Sh. Talabalarning ekologik kompetentligini o’stirishda hadis ilmining o’rni va ahamiyati 75
Abdullayev I. X. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishning metod va vositalari 81
Tursunova N. T. Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan integratsiyalashgan ta’lim asosida didaktik yondashuv 88
Жакбарова З. С. Олий таълим муассасаси талабаларида ижтимоий-маданий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-методологик асослари 95
Акбаров А. Т. Ўқувчиларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг илмий-педагогик асослари 100
Abdullayev S. A. Tabiat ob’eklarini adekvat modellashtirish asosida o‘quvchilarning ekodidaktik bilimlarini takomillashtirish 109
Arslanova F. Z., Abdujalilova Sh. A. Inklyuziv ta’lim-muqarrar ta’lim sifatida 118
O‘tayev A. Y. Siyosiy pedagogika fanini o‘zlashtirishning dolzarb muammolari 123
Расулов А. Н., Абдуҳакимова Н. Х., Зайниддинова Х. З., Таникулов А. Р., Исроилжонов А. Қ. Таълим кластери шароитида “Иқтисодий билим асослари” фанини ўқитиш зарурлиги 128
Расулов А. Н., Ҳакимова И. Х., Сайфиев С. Ш., Абдуллоев Ж. А. Таълим кластери шароитида “Иқтисодий билим асослари” фанини ўқитишнинг услубий-дидактик таъминотини яратиш 134
Эрназарова Г. О. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик компетенцияларни шакллантириш 139
Хуррамов К. М. Тадбиркорликни миллий иқтисодиётдаги ўрни, моҳияти ва мезонлари 145
Рашидова Ш, Бердикулова Н. Э. Особенности использования инновационных и интегрированных технологий обучения 151
Эргашева Д. Д. Модульно-кредитное обучение в вузе на базе дидактических педагогических принципов 156
Наркабилова Г. О необходимости развития цифровой культуры среди студентов 163

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rashidova G. G‘. Tarix o‘qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetentligi 168
Eshchanova X. X, Xodjaniyozov S. U. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlanishining tarixiy-pedagogik jihatlari 177
Nafasov D. Sh., Atamuratova S. Q., Xodjaniyazov S. U. Bo’lg’usi pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik jihatlari 185
Abdullayev S. S. Daxldorlik-insonning mafkuraviy immuniteti sifatida 191

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Xurramov A. J. Raqamli texnologiyalar bo’lajak o’qituvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirish vositasi sifatida 196
Turdiyev U. SH. Talabalarning ilmiy ko’nikmalari asosidagi ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash 203
Ramonova S. K. Elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtirish metodikasi (oliy harbiy bilim yurtlari misolida) 208
Иркабаев ДЖ. У. Техника университетда физикани ўқитишда компьютер моделларидан фойдаланиш имкониятлари 216
Yakubjonova M. I. Stoxastik dunyoqarash va uni maktab o‘quvchilarida rivojlantirish 223
Nosirova D. T. Xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimining tuzilishi va tahlili 227

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Tursunova M. B. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish 236
Abduvaliyeva X. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishning psixologik – pedagogik tadqiqot muammosi sifatida 240
Umarov X. E, Kenjaboyeva S. H. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ilmiy-ijodiy faoliyatini kompetensiyalarini shakllantirish 244
Berdiyeva M. B. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ kompetentsiyasiyalarini aniqlash 253
Gaynazarova G. A. Maktabgacha yoshdagi (3-4 yosh) bolalarni tarbiyalashda ota-onalar pedagogik-psixologik bilimlarining ahamiyati 262
Ashurova O. A. Bo’lajak maktabgacha ta’lim mutaxasisslarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi 267
Turapova R. B. Variativ yondashuv asosida bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (boshlang’ich ta’lim misolida) 275
Abdunazarova N. F. Ertaklar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o’rgatish metodiakasini takomillashtirish (tayyorlov guruhlar misolida) 282
Otajonov J. M, Axmadjonova D. A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish 290
Musaeva U. X. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak o’qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish 301
Astanakulova M. B. Maktabgacha ta’lim menejmenti fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish 307
Mansurova M. SH. 5-6 yoshli bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda abdulla avloniy asarlarining amaliy aspektlari 312

Abdunabiyeva F. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi 316
Ro`ziqulova Sh. T. Matematika darslarida kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari 323
Xaitova N. F. Geymifikatsiya tushunchasi, tarixi va uning ta'lim jarayonidagi roli 327
Boltayeva B, Axmedova M. Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda shaxsiy fikr omili 333
Raxmatova G. T. Maktabgacha yoshdgi bolalarga ta'sviriy faoliyat vositasida kombinotsion qabilyatlarini rivojlantirishning zaruriyati 338
Umarova M. I . Qoidali o'yinlar asosida bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanish uyg'unligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish 343
Қайнарова И. В. Бошланғич синф ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш 353
Bozorboyeva M. Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tillarida nutq faolligini rivojlantirish 359

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Toshpulatov F. U. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarning estetik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 364

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Danieva Y. Ch., Shodmonova S. Ch. Talaba qizlar jismoniy tarbiyasida harakatli o`yinlarni qo`llashning metodologik asoslari 371
G'ofurov A. U. Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni 375
Одилов О. Н. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг назарий асослари 387
Nurmatov F. A. O'smirlarning sog'ligiga ongli munosabatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari 393
Sultonov A. I Belbog'li kurashni o'rgatishning nazariy omillari 397
Исматов А. Ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вазифалари 400
Radjapov U. R., Maxmudova M. Q. Maktab o'quvchilariga gimnastika mashg'ulotlarini o'rgatishning asosiy metodik tamoyillari 406
Xusanov Z. Z. Maktab valeybol jamoasining texnik va taktik tayyorgarligni oshirishda klaster metodi orqali yondashuvining tutgan o'rni 412
Одилов О. Н. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш 415
**Radjapov U. R., Jo`rayeva Sh.** Gandbol sport turi bilan shug`ullanuvchi maktab o'quvchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikalrini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati 420
Ismoilova A., Abdikamalov Kh. The process of teaching volleyball to central asian students with the help of interactive technologies 428

ҚУТЛЫҚЛАЎ

Бегдулла Султанов Мудамы изленистеги устаз 433

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

“MALIKA AYYOR” DOSTONIDA IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKA

Umarov I. A.
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jumanova D. U.
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: doston, matn, ijtimoiy-siyosiy leksika, mansab-martaba oid leksika, harbiy atamalar, kasb-hunar nomlari, turkiy qatlam, arab tilidan o‘zlashgan, forscha-tojikcha tildan o‘zlashgan, mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan so‘zlar.

Ключевые слова: эпос, текст, общественно-политическая лексика, карьерная лексика, военные термины, профессиональные названия, тюркский пласт, заимствование из арабского, заимствование из персидско-таджикского, монгольские слова, заимствованные из языка.

Key words: epic, text, socio-political lexicon, career lexicon, military terms, professional names, Turkic layer, words borrowed from Arabic, Persian-Tajik language, words borrowed from Mongolian language.

Ijtimoiy-siyosiy leksika. Ijtimoiy-siyosiy sohaning ko‘pgina qirralariga oid leksemalar o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, ular o‘zbek tilshunosligida H.Dadaboyev va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan[4, 42-59]. Xalq dostonlari leksikasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlarda [11, 28-36] mansab-martaba ma’nosini bildiruvchi so‘zlar haqida yo‘l-yo‘lakay fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, lekin Fozil shoir kuylagan «Malika ayyor» dostoni tili misolida bu masala bo‘yicha biror maqola yoki ilmiy axborotni hanuzgacha uchratmadik. Ayni holni hisobga olib, ishimizning ushbu faslida ijtimoiy-siyosiy leksikani muayyan semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganishni lozim topdik.

1. Mansab-martaba ma’nosini ifodalovchi leksemalar. Funksional-semantik jihatlarni aks ettiruvchi mavzuiy guruhlaridan biri mansab-martaba ma’nosini ifodalovchi leksemalarni tahlil qilish jarayonida quyidagi semantik guruhlarga ajratdik:

a) eng yuqori lavozim, oliy mansab nomini bildiruvchi semantik guruhdagi so‘zlar. *Podsho, sulton, xon* kabi leksemalar doston tilida faol qo‘llanganligi aniqlandi. Bunday so‘zlarning tarixiy-etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligini va ma’nosini izohlashga, tegishli misollar bilan qisqacha dalillashga harakat qilamiz.

Pod(i)shoh, podsho: turkiy tilga forscha-tojikchadan o‘zlashgan *pod(i) shoh* [10, 396] leksemasi “Ba’zi Sharq mamlakatlarida: mutlaq hokimlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday nomga ega bo‘lgan shaxs, shoh” [16, III.282] ma’nosini ifodalaydi. *Poshsho (aslida podshoh)* - Usmonli turk imperiyasida fuqaro va harbiy amaldorlarga berilgan faxriy unvon ma’nosini ham ifodalagan[15, 33]. Xalq dostonlari tilida bu atama podshoh, poshsho, podsho kabi fonetik variantlarda eskirgan so‘zlarning eng faol namunasi sifatida qo‘llanilgan: *Men bo‘laman Torkistonning podshohi (92); Xizmatkorlar borib podshoga xabar berdi (95); Bu ikki podshoga ovqat, dasturxon, har xil taomlardan olib kelib berdi (154)* kabi.

Xon, sulton: “turkiy va mo‘g‘ul xalqlari unvoni” ma’nosidagi xon [16, IV,410] istilohi dostonda yuqori unvonli va mansabdor, muayyan epik makon (yurt)ning hukmdori sifatida tasvirlangan: Aslimni so‘rasang, *Chin-Mochin xoni (55); Har qaysingiz bir mamlakatning xoni (78); Necha vaqtlar bo‘lding Chambilning xoni (85); Tarzingga qarayman, bir yurtning xoni (155); Bizlar mergan, xon amrini qilamiz (200); Xon Go‘ro‘g‘li yaqin yetdi (203); Yugurib-yelib xonga qildi xizmatlar (204)* kabi.

Arabcha o‘zlashma sulton atamasi “oliy hukmdor, podsho [16, II,584] ma’nosida doston tilida xon so‘zi o‘rnida uning sinonimi sifatida qo‘llanilgan, muayyan epik yurtning hukmdori ma’nosini ifodalagan. Masalan: *Ey podshohi olam, sultoni bokaram! (88); Bu so‘zlarni aytar Go‘ro‘g‘li sulton (15); Sizni bilganiday qilgan // Olib kelgan Zargar sulton (129); Sadag‘ang bo‘layin sultoni Abror (176)* kabi.

Tadqiq qilingan doston tilida epik mamlakatlarning hukmdorlari ba’zan *sulton*, ba’zan b*ek,* ayrim hollarda *shoh,* ko‘pchilik o‘rinlarda *podsho, xon* atamalari juft holda, mamlakatlarning yagona boshlig‘i, sarkardasi, hukmdori, yurtboshisi ma’nosida qo‘llangan. Biz to‘plagan ma’lumotlarda bunday atamalarning qo‘llanilish chastotasida *shoh, podsho, xon* atamalarining qo‘llanish darajasi yuqoriligini, hukmdorlar unvonlari sifatidagi *bek* va *sulton* atamalari esa ancha past darajada qo‘llanilganligini tasdiqladi.

b) muayyan vazifa uchun mas’ul shaxs tushunchasini bildiruvchi semantik guruhdagi so‘zlar. Doston tilida *vazir, amir, qozikalon, qozi, noyib, to‘ra,*

qo‘rg‘onbegi, zakotchi, mirshab, shabgir, xudaychi, bek, qo‘rboshi, dahaboshi kabi leksemalar qo‘llanganligi aniqlandi. Ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Amir: arab tilidan o‘zlashgan va tarixiy so‘z hisoblangan amir leksemasi “Buxoroda va boshqa musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi” [16, I, 78] ma’nosida iste’molda bo‘lganligi aniqlangan. Biz o‘rganayotgan doston matnida bu istiloh “hokim, hukmdor; boshliq” ma’nolarida qo‘llangan: *Amir Hamza bul oyda safar qildi // Uhud tog‘ida shahid bo‘ldi (6)* kabi.

Elchi leksemasi dostonda bir necha ma’nolarda qo‘llangan: a) epik makon rahbari (shohi) yoki muayyan hukmdor tomonidan biror topshiriq bilan yuborilgan kishi: *Kelsin, deb chorlaydi buvishim sizni // Elchi qilib yubordi bizday kanizni (183); Endigi gapni bu yoqdagi shohning elchilaridan eshiting (131).* b) Urishayotgan tomonlarning o‘zaro muzokara olib borish uchun yuborgan vakili: *Oqdev shohning uchib yuradigan elchilari osmonda uchib yurib, yerdagi odamzodni ko‘rib, Malika pari bilan Tillaqizni bu uch o‘g‘lon bilan hamroh, ko‘rib, qaytib borib ko‘rgan ishlarini Oqdevshohga bildirib, elchi devlar bir so‘z deb turibdi (131)* kabi.

Qozi leksemasi arab tilidan o‘zlashgan va tarixiy so‘z sifatida ijrochi, amalga oshiruvchi; hukm chiqaruvchi ma’nosida qo‘llanadi. *Qozi* musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sudya, shar’iy mahkama raisi vazifasini bajargan [16, V, 322]. Biz o‘rgangan doston leksikasida bu istiloh ancha faol uchragan va “hukm chiqaruvchi, hurmati baland amaldor” ma’nosida qo‘llanganligi kuzatildi: *Qozining oldida shabgir noyibi (22); Bek Go‘ro‘g‘li berdi katta sarpoyni // Olib kelib bu maydon katta qozini(206)* kabi.

Ma’lumotlarning tasdiqlashicha, XV-XVI asrlarda mang‘it va o‘zbek uluslarining har bir qabilasi juda mayda bo‘linmalardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘z qarindoshlari va yaqinlari orasidan *biy* va *bek*larni tayinlashgan. Bir necha beklar ustidan *beklarbegi* tayinlangan, ular *ulug‘ bek* yoki *buyuk bek* deb yuritilgan. *Beklarbegi* katta qo‘shinga qo‘mondonlik qilib, xon kengashida qatnashgan[16, 97]. O‘zbek tiliga turk tilidan o‘zlashgan *bek* leksemasi “xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hukmdorlariga berilgan unvon” [16, I, 21] ma’nosini ifodalagan, «Malika ayyor» dostoni tilida bu so‘z yuqori unvonli va mansabdor shaxslar nomi sifatida talqin etilgan: *Sardor beklar qildi elda maslahat (10); Beklar holi zabun bo‘ldi, biladi (178); Qayta boshdan bek Go‘ro‘g‘li buyurdi (200) kabi. Dostonda bek leksemasining bekdan, bekdir, bekka, beklar, beklarga, beklari, beklarini, beklarni, bekligim, bekligimda, bekligini, bekman, bekning kabi qator shakldoshlari qo‘llanganligi*

kuzatildi. Shuningdek, bek (farzandga) nisbatan bekvachcha, bekzoda, bekzodi kabi shakldoshlar ham matnda uchraganligi aniqlandi.

Dostonda *bek* atamasiga *to‘ra, qo‘chqor* atamalari sinonim ma’nodosh sifatida qo‘llanilgan: *Chambil elda men ham bekman, to‘raman, Chambilning qo‘chqori o‘zim bo‘laman (38)*. Matnda baxshining ijodiy uslubiga xos bir lisoniy holatni uchratdik: bu *“qo‘chqor”* so‘zining qo‘llanishida ko‘zga tashlanadi. Binobarin, xalq tilida elning koriga yaraydigan, mard, iymoni butun va xalqparvar yigitlarning eng sarasini *“qo‘chqor”* deb atash azaldan urfi bor. Dostondan olingan yuqoridagi misoldagi *“Chambilning qo‘chqori” ifodasida muayyan epik makon - yurtning begi (boshlig‘i), to‘rasi (rahbari), xoni, podshosi* ma’nolarini ifodalab kelganligini kuzatamiz. Aniqrog‘i, “Misqolman Yunusning joni-dili”, “Go‘ro‘g‘lining uli” sanalgan botir Avazning qirq devning eng kattasi Yaproq devga qilgan murojaat nutqida “ko‘chqor” so‘zi o‘rinli qo‘llanilgan.

v) muayyan xizmatni bajaruvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi semantik guruhdagi so‘zlar. Doston matnida *jig‘ador, tug‘dor, so‘fi, kanizak, qalandar, sardor* kabi leksemalar qo‘llangan. Tarixiy leksema sifatida *“jig‘ador*: 1. jig‘a taqqan, jig‘ali, 2. *tar.* O‘rta Osiyo xonliklarida: jig‘alarni saqlovchi kishi [16, II, 96-97] *jig‘a* – bosh kiyimiga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi” [16, II, 96] ma’nolarini ifodalaydi: *Jig‘ador bo‘ldi, naylayin // Kelib kishining yurtiga (59)*. *Tug‘dor* eskirgan leksema sifatida doston matnida “bayroq ko‘targan kishi; bayroqdor”, yoki “askariy qism, davlat va shu kabining bayrog‘ini saqlovchi lavozimli kishi; bayroqdor” ma’nolarida qo‘llanganligi kuzatildi: *Hayda lashkaringni, bayroq-tug‘dorlar // Endi maydon bo‘lsin, qonlar to‘kishing (132); Yig‘ilishgan katta-kichiklarini // Asabador, tug‘dor, yasavullarini (204)* kabi.

Arab tilidan o‘zlashgan *so‘fi* leksemasi “masjidda azon aytuvchi kishi; muazzin”, shuningdek, ko‘chma ma’noda sodda, go‘l, xudojo‘y odam” ma’nolarida [16, III, 620] qo‘llanganligi aniqlangan. Biz o‘rgangan doston matnida bu leksema *darvesh* istilohi bilan birga qo‘llangan. Forscha-tojikcha tildan o‘zlashgan *darvesh* leksemasi “tarkidunyo qilgan, go‘shanishinlikka berilgan odam; so‘fiy”, ko‘chma ma’noda “hech narsasi yo‘q, qashshoq, gado”, “hech narsa bilan ishi yo‘q, o‘taketgan sodda va sipo odam” ma’nolarini ifodalashi [16, I, 560] qayd etilgan. «Malika ayyor» dostonida bu leksemalar (so‘fi-darvesh) juda sodda, xudojo‘y epik qahramon ma’nosida qo‘llangan: *Shu kunlarda so‘fi-darvesh bo‘libman // G‘ayri dinning volloh yuzin ko‘rmay, deb (32)* kabi.

2. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so‘zlar. O‘zbek tilshunosligida bu borada fundamental tadqiqotlar yaratilgan[8, I-II-III]. Shuningdek, metalsozlik (S.Ibrohimov), amaliy san’at (T.Tursunova), kiyim-kechak (A.Asamuddinova), zardo‘zlik (M.Baqoyeva), kulinariya (N.Ikromova), dorbozlik (A.Sobirov), zargarlik (I.Pardayeva), pedagoglik (N.Usmonov) kabi kasb-hunar sohalariga oid so‘z-terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertasiyalar yozilganligi ilmiy jamoatchilikka sir emas. Tilshunosligimizda ilmiy-texnikaviy terminlari tadqiqiga bag‘ishlangan 20 dan ortiq ilmiy ishlar ham qilinganligini ta’kidlash lozim: texnika (R.Doniyorov), kishi tanasi a’zolari, zoologiya (D.Bozorova), harbiy va ijtimoiy-siyosiy (H.Dadaboyev), farmasevtika (A.Qosimov), binokorlik (Q.Sapayev), kasalliklar (A.Husanov), kimyo (A.Madvaliyev), kutubxona, bibliografiya (I.Yuldashev), matematika (O.Ramazonov), geografiya (Q.Xurramov), gippologiya-yilqichilik (S.Usmonov) va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Lekin badiiy asarlarda kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so‘zlar tizimi va qo‘llanilishi masalasi hanuzgacha yoritilmagan, maxsus tadqiqot ob’yekti bo‘lgan emas. Ayni mulohozani xalq dostonlari leksikasiga qarata ham aytish mumkin. Biz bu o‘rinda «Malika ayyor» dostonida qo‘llangan *sayis, jallod, usta* kabi o‘nga yaqin kasb-hunarni ifodalovchi so‘zlarning lisoniy, etimologik, funksional va semantik tabiati haqida qisqacha so‘z yuritishni lozim topdik.

Arab tilidan o‘zlashgan *jallod* leksemasi “o‘lim jazosini ijro etuvchi” ma’nosini bildiradi. O‘rta Osiyo xonliklarida: o‘lim jazosiga hukm qilinganlarning boshini oluvchi, o‘lim jazosi haqidagi hukmni ijro etuvchi odam [16, II, 67]. Biz o‘rgangan doston matnida ham ayni ma’noda qo‘llangan. *Jallod charlab torttirarman go‘shingni // Kestiray taningdan aziz boshingni (87); Hukmkushga, shohim, uni buyurdi // Girdini olib turdi jallodlar (89)*. Dostonda bu leksema kallakesar, qotil, shavqatsiz, jahldor kabi qator ma’nolarda qo‘llanganligi kuzatildi: *Keling endi munda mirg‘azab jallodlar (89); Jallod kelib qalandarni haydadi (89); Keling endi munda mirg‘azab, jallodlar // Boshin kesib, dorga osing loshini (89)* kabi.

Forscha-tojikcha tildan o‘zlashgan usta leksemasi “o‘rgatuvchi, muallim” [16, IV, 300] ma’nosini ifodalaydi. Bu istiloh doston matnida faol qo‘llangan va quyidagi leksik-semantik ma’nolarni ifodalab kelgan: a) muayyan kasb yoki hunarni egallashga o‘rgatuvchi shaxs; rahbar, ustoz: *«Bu turgan qalandarlar juda usta ekan. Bulardan bir narsani olgan olib qoladi, qolgan bulardan hech nimani ololmaydi»...(98); To‘qson usta dev olib kelinglar, quti yasab bersin, yuzukni qutiga solib mahkamlab qo‘yayin, - dedi (112)*; b) muayyan shaxslarni bildiruvchi so‘zlarga, masalan, epik qahramon (usta) ismiga qo‘shib ishlatilgan:

Yuring, sher yasagan, ustai Zargar (98); Ko‘rmakchi sizdayin usta Zargarni // Juring endi, usta Zargar (98); v) biror ish, sohaning mashhur, mohir bilag‘oni [16, IV, 300] yoki biror kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi malakali mutaxassis ma’nosida: *Ustalar ishlatar po‘lat qirg‘ini (13); Ustalar chopadi tesha-tabarni (14); «Sherni sher suratli qilib ustalik bilan yasabdi (97); g) qadrli, e’zozli, e’tiborga loyiq ma’nosida: Ustalarga bo‘lib turur xizmatkor // Bizning elga ish ko‘rsatgan ustalar (105); G‘irko‘k ot urushga ustadi, boshqa otlar qistadi», - deb otlanib, yaqinlab bora berdi (138)* kabi.

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashib kirgan sayis leksemasi “otboqar, hayvonlarga qarovchi; umuman, otboqar” [16, III, 422] ma’nolarini ifodalaydi. Biz o‘rgangan doston matnida sayis leksemasi otlarni parvarish qiladigan xizmatkor ma’nosida qo‘llangan: *Bu beklarning bedov otlarini, tulporlarini tablaxonalarga bog‘lab, ayil-pushtanlarini bo‘shatib, sayislar terisini qashlab, o‘xshatib, sozlab, boqib qola berdi (185)* kabi.

Ilm maskanlari va unga aloqador tushuncha nomlarini ifodalovchi so‘zlar ichida mulla leksemasi doston matnida qo‘llanganligi kuzatildi. O‘zbek tiliga arabchadan o‘zlashgan va arabiy qatlamga xos *mulla* leksemasi “din arbobi, ulamo, shuningdek, ma’lumotli, o‘qimishli kishi” [16, II, 634] ma’nolarida tahlil etilgan doston tilida uchraydi: *Mullalar o‘qiydi zeru zabarni (14)* kabi.

3. Harbiy atamalar. O‘zbek tilshunosligida yozma asarlar misolida harbiy leksika maxsus o‘rganilgan. Lekin xalq dostonlari tilidagi harbiy atamalar mutlaqo o‘rganilmagan. Ayni holni hisobga olib, «Malika ayyor» dostoni matnida qo‘llanilgan harbiy atamalarni muayyan semantik guruhlarga ajratib, kuzatishlarimizni bayon qilishga e’tibor qildik.

a) harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi epik qahramon (shaxs) tushunchasini ifodalovchi atamalar. Doston tilida *sipoh, askar, askar-lashkar, dushman, yov, otliq, piyoda, yayov, mergan* kabi atamalarning qo‘llanganligi aniqlandi. Quyida ayrimlarining leksik-semantik xususiyatlarini ko‘zdan kechiramiz. Forscha-tojikcha sipoh leksemasi “askar, qo‘shin, lashkar” ma’nosida eski o‘zbek tilida faol qo‘llanganligi aniqlangan[2, 100]. Biz o‘rgangan doston matnida ushbu leksema “podshoh, xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor” ma’nosida qo‘llangan: *Chambilning el-yurti Avazjonning otlanib borayotganini ko‘rib, po‘sh-po‘shlab, Chambil amaldorlari, sipohilari, beklari Avazxonni jo‘natmoqchi bo‘libdi (16); Qaysi eldan, qaysi yurtdan kelasan // Qanday sipohning, qanday bekning o‘g‘lisan (52)*; Dostonda bu leksemaning “jangchi, askar” [16, III, 519] shuningdek, “g‘ayratli, tezkor jangchi, qurollangan askar” kabi ma’nolari juda faol qo‘llanganligi kuzatildi: *Tosha kelar Avazxonning g‘ayrati // Shunday bo‘lar sipohining odati (20); Qon*

deganing selday bo‘lib // Tog‘ askarin chaldi tuman (29) kabi. Shuningdek, dostonda sipohilik leksemasi tarixiy so‘z sifatida “amaldorlik, ish boshilik” [16, III, 519] ma’nosida ham qo‘llanganligi aniqlandi: *O‘zining tamom shohlik, sipohilik asboblarini o‘ziga boyladi. Bir xilini kiyib oldi. Hech bir yeridan kamsiz bo‘ldi (158)* kabi.

Forscha-tojikcha “yov, muxolif, badhoh” ma’nolarini ifodalovchi *dushman* leksemasi doston leksikasida anchayin faol qo‘llangan. Bu istiloh “xatti-harakati bir-biriga dushman bo‘lgan, o‘zaro g‘anim, raqib sifatidagi tomonlarning har biri” ma’nosida qo‘llangan: *Atrofimni oldi jodugar dushman (177)*; *Dushman ko‘rsak, jazosini beramiz (200)*. Shuningdek, dostonda dushman lyeksemasi “biri ikkinchisiga mutlaq qarshi, bir-biriga qarshi urush e’lon qilgan yoki bir-biriga qarshi turuvchi tomonlardan har biri, yov” ma’nolarida ham qo‘llanganligi aniqlandi: *O‘lib ketdi necha dushman (180); O‘lguday dushman bo‘b Avaz qo‘ziga (707)*; Do‘stlar shod, dushmanlar g‘amli bo‘lib, Asad, Shodmon uyalib qoldi (207). O‘zbek tilida dushman leksemasining sinonimi sifatida qo‘llanadigan yov istilohi doston matnida “qarama-qarshi maqsaddagi kishi, dushman, raqib” [16, II, 22] ma’nosida faol qo‘llangan: *Mendayin o‘g‘lonning ko‘nglin bo‘lasan // Sinamagan yovda nima qilasan (33)* va boshqalar.

Mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan mergan leksemasi dostonda “o‘q otish bo‘yicha g‘olib, o‘qni aniq otuvchi” epik qahramon nomi bilan birga tilga olinadi. *Asad mergan parli yoy tortar edi. Shodmon mergan ashrafi miltiq otar edi. Bu ikkovi ham Chambilda daftari mergan edi, ular qushning ko‘zidan otar edi (16); Bu so‘zni Asad mergandan eshitib, Shodmon mergan Asad merganga qarab, bir so‘z dedi (32)* kabi. Doston matnida mergan istilohi “o‘qni aniq otuvchi, o‘qchi askar, jangchi” [16, II, 580] ma’nosida faol qo‘llangan: *Merganlar qarasa, Avazxon irg‘alib kelayotir. Avazni ko‘rib, Shodmon merganga Asad mergan qarab, bir so‘z deb turibdi (17); Shuldir merganlar sanashi // Bosh kesar maydon ichinda (34); Nogahondan borayotib merganlar // Yo‘lda ko‘rdi G‘irko‘k otning izini (34)* kabi.

b) qurol-yaroq tushunchasini ifodalovchi leksemalar. Dostonda *pichoq, qalqon, qilich, nayza, sipar, sovut, miltiq, yov-yaroq, xanjar* kabi so‘zlar ham faol qo‘llangan. Eski o‘zbekcha leksemasi sanalgan sovut “qattiq qobiq – ko‘krak qafasini o‘q, nayza va qilich zarbidan saqlash uchun kiyiladigan, mustahkam po‘lat simdan to‘qilgan o‘rta asr harbiy kiyimi” [16, III, 540] ma’nosini ifodalaydi. Dostonlar tilida aynan shu ma’no ham ifodalanganligini kuzatamiz: *Avazxon sovut, qalqonini jomilib, otiga minib urushga tayyor bo‘lib, lashkarga qarab, bu so‘zni aytib, yuzlanib bora berdi... (28); Oq kirovka, oltin sovut // Kiymaganlar nomard bo‘lsin (30)* kabi.

O‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan tarixiy leksema sifatidagi *sipar* “qalqon, sovut, o‘q, nayza, qilich va sh.k. qurollar zarbidan saqlanish uchun qo‘llangan doira va yoki biror boshqa shakldagi qadimiy aslaha; qalqon” [16, III, 518] ma’nosini ifodalaydi. *Sipar* so‘zi *sovut* so‘zining sinonimi sifatida Fozil shoir kuylagan xalq dostonlari tilida qo‘llanganligi va yuqoridagi ma’noni anglatganligini G.Jumanazarova ta’kidlagan. Lekin xalq baxshisining «Malika ayyor» dostonida sipar leksemasi urush-jang qurollari va unga daxldor tushunchalarni ifodalashini kuzatilmadi. Bu leksema epik qahramonlardan birining nomini ifodalab kela olganligi aniqlandi: *Enamning otidir pariyi Sipar // Otamning otini Qosimxon derlar (9)* kabi.

Doston leksikasida o‘z qatlamga tegishli o‘tkir tig‘li qurol nomini bildiruvchi “pichoq, xanjar” ma’nosida *pichoq* leksemasi qo‘llanilgan: *Shunda sen ulay-bulay de, o‘zimni o‘ldiraman, deb jo‘rttaga bir pichoqni olib qorningga urmoqchi bo‘l (76); Shunda bu bola qo‘liga bir pichoqni oldi: —...bu kun o‘zimni o‘ldirayin, bir boshga hamma vaqt bir o‘lim-da, — dedi (76)*.

Doston leksikasida “jangchining tanasini qilich, nayza va shu kabi tig‘li qurollar zarbidan himoya qiluvchi moslama” ma’nosidagi [16, III, 82] qalqon leksemasi ham qo‘llangan: *Olmos po‘lat belda, egnimda qalqon(8); Mening umid bilan to‘qqiz qavat qarq terisidan qilgan qalqonim bor, shuni boshimga jomilib turayin, dedi(26)*. Doston matnida “bir tig‘li, g‘ilof (qin) bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol” ma’nosidagi *qilich* [16, V, 290] leksemasi ham faol qo‘llangan: *Isfahonda ishlangan qilich, qilichning ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin deb zaharni yalatgan(14); Qilichin qon bilan yuvgan(33); Qilichin o‘ynatib ikki ajdahor(134)* kabi.

Dostonda qurol-yarog‘ tushunchasini ifodalovchi *nayza, miltiq, yoy, dovul* kabi leksemalar ham faol qo‘llanganligi kuzatildi. Fors-tojikcha nayza leksemasi dostonda “qo‘l bilan otish yoki urib sanchish uchun mo‘ljallangan, uchi o‘tkir qurol” ma’nosida, miltiq istilohi “o‘q otadigan qo‘l quroli” ma’nosida qo‘llangan: *Nayza tegsa oq badandan qon oqar (21); ...o‘zlari pana bo‘lguday yerni kovlab, ashrafi miltiqni o‘qlab, parli yoyni qo‘liga olib, Avazning yo‘lini to‘sib yotdi (17)* kabi. Tilimizdagi eskirgan dovul leksemasi “ovchilar, to‘pchi qorovullar yoki harbiylar uchun mo‘ljallangan, teridan yoki po‘latdan yasalgan maxsus nog‘ara” [16, I, 633] ma’nosida doston leksikasida uchragan: *G‘irotni minsam, Shakarko‘liga borsam, dovul tuyib, ko‘lga qushimni solsam, Shakarko‘lidan so‘na-suqsurni olsam, dedi(6); Maydonli kun po‘lat dovul // Tuymaganlar nomard bo‘lsin (141)* kabi.

v) harbiy inshootlar nomini bildiruvchi leksemalar. Doston tilida *zindon, qal'a, darband, quduq, bandargoh, qo'rg'on-qal'a* kabi so'zlar qo'llanganligi aniqlandi. "Yer ostidagi zax va qorong'u qamoqxona" ma'nosidagi [16, I, 306] zindon leksemasi forscha-tojikchadan o'zlashgan bo'lib, eski turkiy tilda iste'molda bo'lganligi aniqlangan. Mazkur leksema Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasida qo'llanganligi ham kuzatilgan[2, 102]. Tahlil etilayotgan doston matnida ham *zindon* leksemasi qo'llangan: *Yusuf kabi meni solma zindona (8); Yoqub o'g'li hazrati Yusuf // Anga zindon dog'i tushdi(160)*. "Dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandak bilan o'ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta'minlangan shahar" [16, V, 231] ma'nosidagi arabcha qal'a atamasi ham doston matnida uchragan: *Izlab endi shahzodasin // Ko'rdi-ku qo'rg'on-qal'asin(151)*; "O'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan, asosan bir darvozali shahar qal'a" hamda "qal'a, shahar va shu kabilarni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor" ma'nosini ifodalovchi turkiycha *qo'rg'on* [16, IV, 416] atamasi doston matnida muayyan epik makon – "qo'rg'on, qal'a" ma'nosida qo'llangan: *Chambilning qo'rg'oni boshqadan qildi (38); Qarasa, Boymoq devning makoni - qo'rg'oni ko'rinib turibdi (152)* kabi.

Fors-tojikcha *darband* atamasi eski o'zbek adabiy tilida "istehkom, qal'a" ma'nosida qo'llanilgani kuzatilgan[8, 65]. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasida ham bu istiloh mavjudligi aniqlangan[2, 102]. Tahlil etilayotgan doston matnida bu leksema ayni ma'noda qo'llanmasa-da, harbiy inshootlar nomi bilan bog'liq Darband tog'i tilga olingan: *...necha manzil yo'l yurib, horib-charchab, Darband tog'iga kelib, deb shu Darband tog'ida birovi qo'liga ashrafi miltiq olib, birovi parli yoyni olib, Avazxonning yo'lini to'sib yotib edi (198)* kabi.

Forscha-tojikcha *bandargoh* leksemasi "cho'l, dasht yoki tog'li yerlarda yo'llar kesishgan, savdogarlar, umuman kishilar qo'nib o'tadigan gavjum joy; karvonsaroy" [16, I, 158] ma'nosida doston leksikasida qo'llangan: *Shu tulporni mingan kishi Malikani olib ketadi... bandargohda qirq ming ajdarho buni ko'rsa pishqiradi (77); Hech kim kelolmaydi Chambil elidan // Qanday o'tar bu bandargoh yo'lidan (106)* kabi.

Alisher Navoiy tarixiy asarlari matnida quduq leksemasi "chuqur, tubsiz, chuqurlik" ma'nosida qo'llangani kuzatilgan[2, 102]. Ushbu atama ham doston matnida harbiy inshootlar nomini bildiruvchi epik makon sifatida ta'kidlangan ma'noda qo'llangan: *Qirq gaz quduq qilib, yuzukni quduqqa tashlab, ustidan qo'rg'oshinni eritib tashlanglar (112)* kabi.

g) harbiy-harakat usullari va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi atamalar. Dostonda *xarba, urmoq, savash, bandi, asr qilmoq, bosmoq, sipoh tortmoq, yurish, urush* kabi so‘zlar ham qo‘llangan. Arab tilidan o‘zlashgan xarba leksemasi folklor asarlarida “nayza, sanchqi, qilich kabi jang qurollari” [16, V, 508] ma’nosini anglatadi. Biz o‘rgangan doston matnida xarba qilmoq birikmasi “hamla qilmoq; biri ikkinchisiga hamla qilmoq; olishmoq, tortishmoq” ma’nolarida qo‘llangan: *«Malikaga qalandar xarba qilibdi, yuzugi yo‘lda tushib qolibdi (109); Malikaning bog‘da guli so‘libdi, qalandarlar unga xarba qilibdi (110); Uyib tashlagandi murda loshdi // Xarba qilib necha devlar yetishdi (147)* kabi.

Savash (savashmoq) istilohi “Malika ayyor”da “urush, jang yoki urushmoq, jang qilmoq” kabi harbiy harakatlar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalab kelgan: *Eram bog‘da devlar bilan savashdi (13); Solayinmi Alining savashini (24); Ikki polvon birday bo‘b savashadi (133)*; Shuningdek, doston matnida savashli kun (35), tanho savash (30), mardning savashi (32), tanti savash (135) kabi so‘z birikmalari ham yuqoridagi ma’nolarda qo‘llanganligi kuzatildi.

Forscha-tojikcha bandi leksemasi “asirga tushgan odam, tutqun, asir” [16, I, 158] ma’nosida doston matnida qo‘llangan: *Agar biz bir qadam bosib o‘tsak, qo‘limizni bog‘lab, siynamizni dog‘lab, bandi qilib, arbanglatib, haydab olib ketib qoladi (59); Yetti yildan beri devlarning qo‘lidan ayrila olmay, bandi bo‘lib yuribman, - dedi (75). Bandi* leksemasi ko‘chma ma’noda, ya’ni “bog‘langan, kishanlangan, zanjirband” ma’nosida ham qo‘llanganligini kuzatamiz: *Bolam Avaz, eshit mening hasratim, qo‘l-oyog‘im bandi, kimga aytayin dardim [16, I, 158]* kabi.

Yurish leksemasi doston matnida harbiy harakatlar bilan bog‘liq tushunchani ifodalash maqsadida “dushmanga, yovga qarshi qo‘shin tortish, jangga otlanish” [16, V, 91] yoki “hujum qilmoq, urushga kirmoq, urush boshlamoq” kabi ma’nolarda ham qo‘llangan: *Xon Qalandar urush qildi // Devlarga qarab yurish qildi (164); G‘irotiga qamchi urib // Jilov tortib yurish qildi (165)* kabi.

Adabiyotlar:

1. Abdiyev M. Sahoviy leksikaning sistem tahlili. – T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 262 b.

2. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – T.: Fan, 2016. 100-102 b.

3. Abduvaliyeva D. Ko‘rsatilgan manba, 102 b.

4. Dadaboyev X. Obщyestvenno-politicheskaya i sosialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazыchnыx pismennыx pamyatnikax XI-XIVvv. – T., 1991. –S. 42-59.

5. Dadaboyev X.A. Voyennaya leksika v starouzbekskom yazыke, Avtoref, diss.... kand. filol. Nauk, –Tashkent, 1981.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “Malika ayyor” dostonida qo‘llagilgan ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid qadimgi turkiy til davrida keng iste’molda bo‘lgan va hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos podsho, sulton, xon, amir, qozi, jig‘ador, tug‘dor, so‘fi, kanizak, qalandar, sardor kabi turkiy leksik birliklarning ma’no xususiyatlari ochib berilgan; “Malika ayyor” dostonidan olingan ushbu so‘zlarning ma’no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье социально-политическая лексика, использованная в эпосе «Хитрая царевна», широко использовалась в период древнетюркского языка и типична для современного узбекского литературного языка, семантическая характеристика тюркских лексических единиц, таких как тугдар, раскрываются суфий, канизак, каландар, сардар; Смысловые характеристики этих слов, взятых из эпоса «Малика Айяр», анализируются на основе первоисточников.

SUMMARY

In this article, the socio-political lexicon used in the epic «Maliká Ayyor» is related to the Turkish lexicon, which was widely used in the period of the ancient Turkic language and typical of the modern Uzbek literary language, such as king, sultan, khan, amir, qazi, jigador, tugdor, sufi, concubine, qalandar, sardar. the semantic characteristics of the units are revealed; The meaning characteristics of these words taken from the epic «Malika Ayyar» are analyzed based on primary sources.

SAVOD O‘RGATISH METODIKASINING ILMIY, PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK ASOSLARI

Namazova G. M.
ORIENTAL universiteti Boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: alifbo, o’qish, o’quvchi, savodga o’rgatish, ilmiy, psixologik, lingvistik, yozish, ko’nikma.

Ключевые слова: алфавит, чтение, ученик, обучение грамоте, научный, психологический, лингвистический, письменный, навык.

Key words: alphabet, reading, student, teaching literacy, scientific, psychological, linguistic, writing, skill.

Kirish. Maktabda o’qitish elementar o’qish va yozishga o’rgatishdan boshlanadi. ,,Alifbe“ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o’quvchilar o’qish va yozishga o’rgatiladi. ya’ni o’qish va yozish ko’nikmasini egallaydilar. Savod o’rgatish davrida o’qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o’qish va yozish ko’nikmasi deyiladi. Bu ko’nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko’nikma bilimsiz shakllanmavdi. Bilim ko’nikmaga aylanmagan bo’lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o’quvchi harflarni tanib, ularni o’qiy olmasligi mumkin.

Yozish ko’nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to’g’ri o’tirish, ruchkani barmoqlar orasida tulish, daftarni qiyalikda qo’yish kabilar ham o’rgatiladi. O’qish va yozish ko’nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o’quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o’ylab o’tirmay, so’z va gaplarni yoza boshlaydi.

Demak, o’qish va yozish malakasi harakatning o’ylab o’tirm ay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o’qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi. O ‘qish va yozish kishi nutq faoliyatining turi bo’lib, u nutqqa oid malakadir. O’qish malakasi ham, yozish malakasi ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya’ni og’zaki

hikoya qilish, o’zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog’liq holda shakllanadi.

Maktabda o’qitishning muvaffaqiyati savod o’rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog’liq. O’quvchini savod o’rgatish jarayonida elementar o’qish va yozishga o’rgatishda o’quvchilam ing faoliyat ko’rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo’lishi, o’z fikrini og’zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga kcltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvafifaqiyatli amalga oshuvini ta’minlaydi. Shuning uchun ham o’qishga o’rgatish bilan yozuvga o’rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat m untazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o’rgatish jarayonida bola juda ko’p o’qishi va yozishi zarur. O’qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o’qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko’pincha o’qilgan m atnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o’stiradi. O’quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad — o’qish va yozishni o’rganish hamda hozirda bajarishi shart bo’lgan kundalik maqsad — topishmoqni o’qish va javobini topish, so’z va gaplarni o’qish, rasm asosida so’zlab berish kabilar turadi. O’zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya’ni fonematik yozuvdir.

Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O’qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o’qish va yozish faoliyatida o’quvchi uchun qiyinchilik tug’dirgandek tuyulsa-da, aslida o’qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko’p emas. O’qish va yozishni o’zlashtirish uchun tovush va harflaming o’zaro munosabaliga oid qoidalarni o’zlashtirish kifoya. Savod o’rgatish metodikasida o’zbek tili tovushlar va harflar tizimining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili. O’zbek tili yozuvi fonematik yozuv hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrdagi „Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriv etish to’g’risida»gi qonunga muvofiq o’zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har bir tovushi uchun unga mos grafik shakl qabul qilindi. O’qituvchi savod o’rgatish jarayonida o’quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o’qishga o’rgatishda o’zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Savod o’rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So’z bo’g’inga bo’linadi, bo’g’indan kerakli - o’rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o’rganiladigan

harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlami yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi.

Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega:

1. Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, i, e, u, o'. E harfi so'z va bo'g'in boshida qo'llanadi (ekin, echki, aeroplan), undoshdan keyin o 'rta keng lablanmagan unli tarzida o'qiladi (kel, tez).

2. Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan e, so'ngra undoshdan keyin keladigan e tovush-harfi bilan tanishtiriladi.

3. Shuning uchun bu unli qatnashgan ruscha-baynalmilal so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

2. O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Yozuvda ular 23 ta harf bilan ifodalanadi: shulardan 3 tasi harf birikmasi, 21 tasi yakka harf bilan belgilanadi. U lar quyidagilar: b, d, f, g, h, j (jurnal), j (jo 'ja), k, 1, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng. UndoshJarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslaniladi. Alifbo davrida undosh tovushlar bilan tanishtirishni sonor, ya'ni ovozdor tovushlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki sonor tovushlami bo'g 'in va so'z tarkibidan ajratib olish oson. Lekin ng sonor undoshi n va g undosh tovushlari va harflari bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi. H arf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Birinchi darsda portlovchi j tovushini o'rgatish, talaffuzini tushuntirish, analitik-sintetik m ashqlar yordam ida ko'nikm alar hosil qiliinadi, keyingi darsda esa sirg'aluvchi j tovushi va uning talaffuzi o'rgatiladi. So'ng bu ikki tovushning talaffuzidagi farq taqqoslash usuli orqali tushuntiriladi. Berilgan bilim analitik-sintetik mashqlar yordamida m ustahkamlanadi. Sh tovushini ifodalovchi sh harf birikmasi ham s va h harfi bilan, ch tovushini ifodalovchi ch harf birikmasi h harfi bilan tanishtirilgach, o'rgatiladi.

Tadqiqotlar metodalogiyasi. O'quvchilar bu harf birikmalarini bir yaxlit tovush sifatida o'qish va yozishga ko'nikishlari lozim. Bu davrda s'h (is'hoq) tarzida o'qiladigan holatga to'xtalmaydi. Jarangsiz jufti borjarangli undoshlar talaffuzi (b —p, d —t, v ~ f g —k, Z~s kabi) haqida dastlabki amaliy tushunchalar hosil qilinadi, ularning talaffuzi va yozilishiga e'tibor qaratiladi. X va h tovushlarining talaffuzi va imlosi haqida ham dastlabki tushunchalar beriladi, ulam i farqlash bo'yicha maxsus mashqlar ham uyushtiriladi. Tutuq

belgisi (’) unli tovushdan so’ng kelsa, uni cho’zib talaffuz qilishga, undosh tovushdan so’ng kelsa. undoshni unlidan ajratib talaffuz qilishga xizmat qilishi haqida ham tushunchalar berilib, asta-sekin uni qo’llashga doir ko’nikm alar shakllantiriladi. Savod o’rgatish jarayonida harflaming 4 xil (bosma, yozma, bosh va kichik) shakli va ularning ishlatilish o’rni o’rgatiladi. O’quvchilarni o’qishga o’rgatish bo’g’in asosida olib boriladi. Bo’g’inlab o’qishga o’rgatish uchun so’zni bo’g’inga bo’lish, bo’g’in chegarasini aniqlashni o’rgatish muhim sanaladi. Savod o’rgatish davrida o’quvchilar so’zlarni bo’g’inlarga to’g’ri ajrata olsalar, o’qish ko’nikmasini ham yaxshi egallaydilar. O’qishning dastlabki bosqichida orfografik o’qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o’qish ko’nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so’zlar oldin orfografik, so’ngra orfoepik o’qib beriladi va ulaming o’qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O’quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo’lganlaridan so’ng orfoepik o’qish mashq qilinadi.

Tahlil va natijalar. O’qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o’quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o’quvchini o’qishga o’rgatishda quyidagilar kuzatiladi: 1. Bola o’qish paytida bitta harfni ko’radi, uni bilish uchun rasmlarni ko’z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflami eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o’qituvchi aytishga yo’l qo’ym aydi, undan bo’g’inni aytishni talab qiladi. O’quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo’shib bo’g’in, bo’g’indan so’z hosil qilguncha, o’qish jarayoni sustlashadi.

Ko’pincha bola o’qiyotgan qatorni yo’qotib qo’yadi, harfni, bo’g’inni, so’zni qayta o’qishiga to’g’ri keladi. O ‘quvchining diqqati kengaygan sari bo’g’in va so’zni butunligicha idrok eta boshlaydi. O ‘qishni endi o’rganayotgan bola o’qiyotgan matn mazm unini o’zlashtirm aydi, chunki u so’zni qanday o’qishga ko’p kuch beradi. Darslikdagi rasmlar, o’qituvchining savollari, ko’rgazm ali qtrrollar ularning ongli o’qishlarini ta ’minlaydi.

Tajribasiz kitobxon so’zni birinchi bo’g’iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o’qishga olib keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun so’z bo’g’inlab o’qitiladi, so’zni bo’g’in-tovush tom ondan tahlil qilishga, tovush-harf tom ondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi. O’qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o’quvchilam ing idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o’stirishga katta e ’tibor berish kerak. Savod o’rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o’stirishga, ya’ni tovushni aniq talaffuz qilishga, boshqa tovushlardan farqlashga o’rgatish, bo’g’in yoki so’zdan o’sha tovushni ajrata olish ko’nikm asini o’stirish muhim sanaladi. Fonem atik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim

shartidir. Shu bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o'stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir. Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlashni, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bu jarayon o'quvchini aqliy va jism onan charchatadi, ayniqsa, ularning barm oq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jism oniy m ashqlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchi aichkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qim irlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va nam una bilan solishtiradi, b a'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rilaydi. Bunda u o'qituvchiga har daqiqada m urojaat qiladi, uning qo'li va boshi yozishda birgalikda harakat qiladi. Yozuv jarayoni o'quvchilam ing ongli harakat qilishlarini ham talab etadi. Shu sababli o'qituvchi yozuv jarayoniga sabr-qanoat bilan katta e 'tibor qaratishi juda muhim. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to'g'ri bo'lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodining an 'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta 'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi, nutqiy m ashqlar orqali aqliy o'sishini ta'm inlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi: a) alifbegacha tayyorlov davri; b) alifbo davri. Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e 'tibor qaratiladi:

a) savod o'rgatish bolalaming jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi;

d) o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir: 1. Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqt'ai nazaridan: savod

o’rgatish jarayonida o’quvchilarga differensial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o’qish va yozishga tayyorligiga bog’liq).

2. O‘qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so’z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish. 3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o’qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflam ing mosligini, osonligini, ta’¬ limning tarbiyaviy va o’stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tam oyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar. „Alifbe“ sahifalarida do’stlik, baynalmilal munosabat, bolalar m ehnati, tabiat, kattalar m ehnati. bolalar o’yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda m atnlar keltirilgan. Bular bolalarda o’zaro do’stlik, mehnatsevarlik, m ehnatni qadrlash, kattalarga hurm at, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o’qishni sevish, umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Dem ak, bolalarga axloqiy, g’oyaviy-siyosiy, m ehnat va estetik tarbiya berish ham savod o’rgatish vazifasiga kiradi. B olalam ing savod o ‘rgatishga tayyorgarligini o ‘rganish Savod o’rgatishni to’g’ri tashkil etish uchun bolalaming unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o’rganish talab etiladi. Oldin bolalami maxsus o’rganish avgust oyida, hatto undan oldin — bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o’quvchining oilasiga yoki bolalar bog’chasiga borilgan, suhbat o’tkazilgan, bolalaming um um iy bilim saviyasi aniqlangan. Hozir 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar savod o’rgatishga maxsus tayyorlanyaptilar. U lar uchun bir-ikki, ba’zi joylarda uch-to’rt oylik tayyorlov sinflari tashkil qilingan. Tayyorlov m ashg’ulotlarda bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elem enter tarzda yozuvga ham o’rgatilyapti. M etodistlar tayyorlov sinflar uchun aniq talablar, metodik tavsiyalar ishlab chiqishmoqda. Tayyorlov sinflarning ta’lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo’lm asa-da, lekin bu davrda bolalaming nutqiy tayyorgarfigini o’rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi: 1. 0 ‘qish ko‘nikmasini aniqlash. a) so’zni sidirg’a o’qiydi; b) bo’g’inlab o’qiydi; d) harflab o’qiydi (noto’g’ri o’qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o’qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi. 2. Yozuv ko‘nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so’z yozadi (bosma yoki yozma): b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni um um an bilmaydi.

Ma’lumki, o’quvchilar 1-sinfga har xil tayyorgarlik bilan keladi. O’quv materiallari 1-sinf o’quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. Shunga

qaramay, har xil tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchilarning o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi. Bu savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashishni taqozo etadi. Bunday yondashish ta'limning barcha bosqichlarida ham yaxshi natija beradi. Differensial yondashishda o'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruhning saviyasiga va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linishi mumkin. Topshiriqlar ham 3 variantda ishlab chiqiladi. O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiali „Alifbe» hisoblanadi, unga qo'shim cha tarzda tarqatm a materiallardan, jadvallardan, mustaqil ishlardan foydalanish mumkin. Alifbedagi o'quv materiali yoki o'qilayotgan m atnning qiyin o'rni oldin tayyorgarligi puxta o'quvchiga, so'ng bo'sh o'quvchiga o'qitiladi. Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi.

Xulosa. Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi6: a) cilifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta); b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi). Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid m ashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni o'stirishdan iboratdir. Alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo'linadi: /. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta). 2. Unli tovush va ha/f o 'rganiladigan bosqich (1 hafta). 1-bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlam ing bo'g'inlarga bo'linishi, bo'g'inlarning tovushlardan tashkil topishi haqida m a'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilam ing bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga „Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, " Ba'zi adabiyotlarda bu jarayon 3 davrga bo'lingan. o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishm oq, xalq ashulalari, alia, qo'shiqlar, latifalardan ayttiriladi. Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, „Alifbe» sahifalaridagi so'zlam ing talaffuzi, o'qilishi va m a'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzdagi ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi). Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elem entlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash - o'z-o'zini tekshirish, harf

oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko'nikm alar hosil qilinadi. 2-bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi.

Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o'quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim:

a) talaffuzda (og'izda) to'siqqa uchramasligi;

b) cho'zib aytilishi;

d) faqat ovozdan tashkil topishi. Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi m a'lum otlar kitob ochtirilmay beriladi.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. –T.: O'qituvchi, 1968. –114 b.

2. Abdullaeva Q., SHodmonova SH., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi. –T.: O'zbekiston, 1996. –80 b.

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –188 b.

4. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. matnni nashrga tayyorlovchi Vahob Rahmon. –T.: G'afur G'ulom, 1991. –462 b.

5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: Fan, 2008. –160 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarning savodga tayyaorgarlik davrlari haqida, savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari tog'risida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье дана краткая информация о периодах подготовки школьников к грамоте, научных, психологических и лингвистических основах методики обучения грамоте.

SUMMARY

This article provides brief information about the periods of schoolchildren's preparation for literacy, the scientific, psychological and linguistic foundations of the literacy teaching methodology.

АЛИШЕР НАВОИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА ПАРЕМАЛАРНИНГ МАЪНОВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Абдувалиева Н.
ФарДУ ўқитувчиси

Таянч сўзлар: фраземалар, фикран чоғиштирув воситаси, сабаб-натижа муносабати, образлилик, омоним ва синоним мақоллар, тамсил санъати.

Ключевые слова: фразы, сравненые идей, причинно-следственные связи, омонимы и синонимы, пословицы, ключевые слова.

Key words: phrases, comparisons, cause and effect relationships, imagery, homonyms and synonyms, fiction.

Сўз кўрки бўлган мақол ва иборалардан фойдаланиш ҳар бир қалам аҳлининг сўз бойлигини орттиради, унинг нутқини ўткир ва таъсирли қилади, унга бадиий жиҳатдан сайқал беради. Алишер Навоий ижодида ҳам халқ оғзаки ижоди намуналари – мақол ва иборалардан кенг фойдаланилган. Бу воситалар фикрни образли қилиб ифодалаш, гўзал бадиий тимсоллар яратиш учун хизмат қилган. Навоий ғазалларида мақоллар мазмунан ғазал байтининг муайян мисрасида ифодаланган фикрни асослаш ёки чоғиштириш учун келтирилган. Бу билан ифодаланаётган фикрнинг ўткир ва таъсирчан, содда ва равон бўлишига эришилган. Масалан:

Келди манга чу белини чектим, масалдурур
Ким «тортса бўлур келури бўлса қил била» (FC) [2,164]

Ушбу байтда маъшуқасининг белидан тутган ошиқ ҳолати кейинги мисрада жойлашган «Келишга хоҳиши бўлса, қил билан тортишнинг ўзи кифоя» мазмунидаги халқ мақоли билан қиёсланади.

Қуйидаги:

Чун масал бўлди сочинг зулм ичра ёшурмоқ не суд,
Мушк иси яшурса бўлмас, бу масал машҳур эрур (FC)

байтида иккинчи мисрада келтирилган Мушк иси яшурса бўлмас халқ мақоли биринчи мисрадаги фикрга чоғиштирилади. Бу мақол бугунги кунда “Касални яширсанг, иситмаси ошкор қилади” шаклида кенг қўлланади.

Навоий ғазалларида мақол мазмунан байтда ифода этилган маълум фикр билан қиёслаш учун келтирилар экан, кўпинча байтда “масалдурур”, “масалким”, “чун масал бўлди” сингари жумлалар қўлланган. Чунки мазкур

бирликлар, аввало, байтда қўлланган мақолга ишора қилиб турса, иккинчидан, таъкид ва қиёсни кучайтириш учун хизмат қилган.

Шоир ғазалларида мақоллар, асосан, байтнинг иккинчи мисрасида келтирилади. Бундай байтларни шакллантирувчи гаплар ўзаро сабаб-натижа, қиёс ва ўхшатиш муносабатларини ифодалайди. Чунончи:

Пил ўлса сенинг хасминг, десангки зарар топмай,
Бир пашшаға оламда еткурма зарар ҳаргиз. (FC)

Биринчи мисрани шакллантирган "Агар душманинг фил бўлса, зарар топмай десанг" мазмунидаги шарт гап кейинги мисрада инсонларни дилозорлик қилишдан қайтарувчи «Пашшага ҳам озор берма» мазмунидаги мақол билан хулосаланган.

Қуйидаги мисолларда ҳам мақолнинг байтда ўрнашуви иккинчи мисрага тўғри келади:

Чун Навоий кўнгли синди эмди лутфунг не осиғ,
Ким ушатса шишани бутмас они пайванд ила (FC)

ёки:

Май батининг кўр нишот афзолиғин ҳузн аҳлиға,
Ким куяр ўлу қуруғ чун найистонға тушти ўт (FC)

Байтларда ушатса шишани бутмас они пайванд ила, куяр ўлу қуруғ чун найистонға тушти ўт" мақоллари аввалги мисрадаги фикрни таъкидлаш ва тасдиқлаш учун хизмат қилган. Бу мақолларни ҳозирги кунда «Синган шишани бутлаб бўлмайди», «Қамишзорга ўт тушса хўл-у қуруғ баравар ёнади» шаклларида учратиш мумкин. Навоий байтда сабаб –натижа муносабатини ифодаламоқчи бўлса, иккинчи мисрани ким боғловчиси ёрдамида шакллантирган, ўхшатиш муносабатида эса иккинчи мисра ўйлаким боғловчиси билан бошланган. Масалан:

Ашк ичинда ғарқамен, зулфунгни туткайменму деб,
Ўйлаким тожир тенгиз ранжин чекар савдо учун (FC)

байтида шоир ўхшатиш муносабатини тамсил санъати орқали ифодалаган ва байтдан "Зулфингни тутиш илинжида кўз ёши ичида ғарқ бўлмоқдаман, бу шундайки, савдогар савдо учун денгиз заҳматини чекканга ўхшаш" мазмуни англашилади. Ушбу мисолда ҳозирги тилимизда тез-тез қўлланадиган "Жон куйдирмасанг жонона қайда, тоққа чиқмасанг дўлона қайда" халқ мақоли Навоийда Тожир тенгиз ранжин чекар савдо учун шаклида берилган.

Услубий жиҳатдан мақолларни иккинчи мисрада қўллаш анча қулай бўлган. Навоий ғазалларида мақоллар байтнинг биринчи мисрасида ҳам келтирилган, лекин бу жуда саноқли мисоллардагина учрайди. Масалан:

Олтун эзилиб-эриб куйган сойи холис бўлур,

Не ажаб сорғорса юз етган сою эмкак манго (ҒС)

байтида «Олтин ўтда билинади» халқ мақолини келтириш билан, ишқ машаққати туфайли сарғайган ошиқ юзини олтинга чоғиштириш орқали шоир ўзгача шеърий тимсол яратади.

Шеъриятда қўлланган мақол ҳамма вақт ҳам айнан, ўзгаришсиз қўлланавермайди. Кўпинча, мақоллар айрим таҳрирлар билан шеър мазмунига сингдириб юборилиши мумкин. Алишер Навоий томонидан қўлланган халқ мақолларининг баъзилари шоир даври учун хос бўлиб, бугунги кунда уларнинг шакл ва мазмун жиҳатдан янги вариантлари қўлланади. Қуйидаги:

Ҳажр қолмас ёшурун оҳу фиғон чек, эй кўнгул,
Ким яшурмоқ бирла ҳаргиз колмади пинҳон ўлум (ҒС)

байтининг иккинчи мисрасида жойлашган яшурмоқ бирла ҳаргиз колмади пинҳон ўлум мақолидан «Касални яширсанг, иситмаси ошкор килади» мазмунидаги халқ мақолини англаш қийин эмас.

Нутқимизда тез-тез қўлланиб турадиган “Юзинг қийшиқ бўлса, ойнадан ўпкалама” халқ мақолини Навоий ғазалларида “Эгри эса эгри кўргузур кўзгу” шаклида учратиш мумкин. Масалан:

Кўнгилни туз, тилосанг фойиз ўлса туз маъни,
Нединки, эгри эса эгри кўргузур кўзгу (ҒС)

Алишер Навоий ғазалларини ўрганар эканмиз, унда мақолларга қараганда иборалардан кўпрок фойдаланилганлигига амин бўламиз. Бунинг сабабини хилма-хил бадиий тимсол яратиш, фикрни жозибали ва таъсирчанроқ ифодалашда мақолларга нисбатан ибораларнинг услубий имкониятлари ортиқроқ эканлиги билан изоҳлаш мумкин. Чунки ибораларда фикр образли қилиб ифодаланган бўлади. Навоий шеъриятида халқ ибораларини тилимни лол этиб (281-б), олур ҳушингни (281-б), жон етти оғзимға (281-б), машаққат чектим(329-б) , жон талошур (333-б), силк этак(343-б), кулини кўкка совурдинг(372-б), бошга чиқмоқ (382-б), кўзум наззорадин тўрт ўлди (384-б), тошдек кўнглин онинг мум қил (399-б), юз қаролиғ (414-б), оқарди бошим (414-б), кўнглум очилур (439-б), берса эмди панд(412-б), жон бериб (445-б), ики юзлик(192-б) шаклларида учратиш мумкин.

Ғазал байтларида шакл ва маъно муносабатига кўра кўп маъноли, омоним ва синоним ибораларни ҳам учратиш мумкин. Шоир улар воситасида бетакрор бадиий тимсоллар яратган. Қуйидаги мисолларда бош кўтармок кўп маъноли ибораси турли хил маъноларда қўлланган:

Майда соқий аксини кўргач эгилдим ўпгали,
Бош кўтармон эмди яъниким топибмен инфиол (ҒС)
Санам оллида майдин бош кўтармон,
Ки қилди дайр пири мундоқ иршод (ҒС)

Бош кўтармок ибораси биринчи мисолда уятдан бош кўтаролмаслик, иккинчи мисолда эса майдан бош кўтаролмаслик маъносини ифодалаган. Мазкур ибора бошқа бир байтда бош олма шаклида қўлланган, шунингдек, аёғ сўзи билан бирикиб, икки хил маъно ифода этган. Масалан:

Эй Навоий, дайр аро тутса аёғ ул муғбача,
Нўш этиб олма аёғидин анинг ўлгунча бош (ҒС)

байтида олма аёғидин анинг ўлгунча бош бирикмасини икки хил мазмунда – ўлгунча ёрнинг оёғидан бош олмаслик ва ўлгунча кадаҳ (аёғ)дан бош олмаслик мазмунида тушуниш мумкин. Яна бир мисолда паймонаси тўлмоқ бирикмаси ҳам ўз маъносида, ҳам мажозий маънода қўлланган. Шу ўринда шоир мумтоз адабиётимизга хос лафзий санъатлардан бири–ийҳом [5,44] санъатининг гўзал намунасини яратган. Чунончи:

Ўлтурай бир май била деб, тиргузурсен, соқиё,
Обиҳайвон бирла гўёким тўлар паймонамиз (ҒС)

байтида кейинги мисрада ифодаланган гап икки хил маънода қўлланган: а) май билан қадаҳимиз тўлади(сўз бирикмаси); б) май билан паймонамиз тўлади(ибора). Шоир паймона сўзининг маъноларидан фойдаланиб, байтда ўзига хос сўз ўйини қўллаган. Паймонаси тўлмоқ ибораси тилимизда ҳануз қўлланиб келинмоқда.

Ибораларнинг синонимияга бойлиги улардан фойдаланишда катта услубий имкониятлар яратади. Чунки бир синонимик уяни ташкил қилувчи иборалар ўзаро образлилик даражаси жиҳатидан фарқланади. Масалан, қуйидаги байтда қўлланган кўнглакин чок айламиш, яқо чок қилса, кўкси чок ўлмай фраземалари айни бир маънони англатса-да, аммо образлилик даражасига кўра фарқ қилади. Ушбу ибораларнинг сўнггиси маъно даражасининг кучлилиги, образлилиги ва ифодалилиги жиҳатидан ажралиб туради. Иборалар маъносидаги ана шу нозик жиҳатлар ҳам Навоий эътиборидан четда қолмаган ва шоир байтда ибораларни образлилик даражасига кўра кетма-кет қўллаган. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, мазкур синонимик уяда кўкси чок ўлмоқ иборасида образлилик даражаси кучли:

Кўнглакин чок айламиш андуҳдин гул, чун яқо
Чок қилса найласун булбулнинг ўлмай кўкси чок (ҒС)

Мазкур байтда ўзаро маънодош ибораларни қўллаш ошиқ ҳолатини таъкидлаш учун хизмат қилган.

Қуйидаги мисраларда эса пешонага ёзилганини кўрмок ва тақдирдан қочиб қутула олмаслик каби иборалар синонимлигини кузатиш мумкин:

Ҳар не ёзмиш оллингга қилки қазо кўрмак керак,
Эй Навоий, қочмоқ ўлмас тенгрининг тақдиридин(ҒС)

Навоий синуқ кўнгул иборасига йўқтурур бори оламда бир кўнгил ғамсиз турғун бирикмасини синоним сифатида қўллайди:

Синуқ кўнгулда чу йўқ шодлиқ, соғинурмен,
Ки йўқтурур бори оламда бир кўнгил ғамсиз (ҒС)

Алишер Навоий ғазалларида ибораларнинг маъносига кўра сифат, феъл ва равиш сўз туркумларига хосланган турларини учратиш мумкин. Масалан:

Икки юзлук бўлмаким, бу боғнинг раъно гули
Гар қизорур бир юзи,лекин яна бир сорғорур (ҒС)
Қилди овора мени хастани овора кўнгул,
Хонумонимни қаро қилди юзи қаро кўнгул (ҒС)

байтларида қўлланган хонумонимни қаро қилди ибораси ҳаракат тушунчасини, икки юзлик, юзи қаро, қора кўнгил иборалари эса белги тушунчасини ифодалайди. Шуни ҳам айтиш керакки, ўзбек тилида қора лексемаси иштирокида , асосан, салбий маъноли фраземалар шаклланган. Чунки бу ранг ёмонлик тимсоли ҳисобланади. "Қора лексемаси фраземалар таркибида предметнинг рангини кўрсатмайди, балки кўчма маънода қўлланиб, шахс характеридаги мунофиқлик, ғаламислик, ғийбатчилик, бераҳмлик каби салбий хислатларни ёки "энг оғир, энг ёмон" сингари маъноларни эмоционал-эспрессив ва образли ифодалашда қўлланади" [1,11]

Феълларда уюштирувчилик кучли бўлиб, кўпинча бошқа сўзларни ўзига эргаштириб, уни бошқариб келади.[3,9] Феълларнинг бу хусусияти фраземаларда ҳам ўз аксини топган. Феълларнинг нутқ элементларини бирлаштирувчилик хусусияти ўзбек тилида "ибораларнинг асосий қисмини феъл фразеологик иборалар ташкил қилиши" [4,316]ни таъминлайди. Феъллар фразема таркибида грамматик таянч аъзо сифатида қатнашади. Бундай компонент бутун фраземага феъллик хусусиятини ўтказиб, фраземалар иш-ҳаракат фаолиятини ифода этади. Масалан:

Лабинг кўргач илигим тишларам ҳар дам таҳайюрдин,
Ажаб ҳолатки, болни тутмайин бармоғ ялайдурмен. (ҒС)

Ушбу байтда келтирилган компонентларидан бири эскирган илигим тишларам иборасининг ҳозирги варианти бармоғини тишламоқ шаклида ишлатилади ва ҳайратланиш маъносини англатади.

Яна бир мисол:

Кетинг, кўнгул била жонким, видоингиз килдим,
Фироқ агар будур, эрта кунни кеч қиласиз (ҒС)

Мазкур байтда фироқ изтиробларидан азобланган ошиқнинг кўнгил ва жонга мурожаати берилган. Бу ҳолатни образли ифодалаш учун эрта кунни кеч қилмоқ феъл фраземаси қўлланган. Ушбу иборанинг характерли жиҳати шундаки, гарчи феъл-кесим бўлишли шаклда ифодаланган бўлса-да, аммо

мазмун ҳамиша бўлишсиз шаклда ифода топади, яъни “эрта кунни кеч қилмаслик” .

Қуйидаги мисолда равиш туркумига мансуб кечани кеча демай, кундузни кундуз демай турғун бирикмаси маҳбуба юзи ва зулфининг иштиёқида, кундуз ва кечанинг фарқига бормай қолган ошиқ тимсолини таъсирчанроқ ифодалаш учун ишлатилган:

Юзу зулфунгни соғиниб келмишам, эй маҳжабин,
Кечани кеча демай, кундузни кундуз демай (ҒС)

Биргина “Ғаройибус-сиғар” девонидан танлаб олинган мисоллардан кўриниб турибдики, Навоий шеъриятида халқ мақоллари ва ибораларидан кенг фойдаланилган. Ғазалларда халқ оғзаки ижодининг шаклан ихчам, мазмунан таъсирчан унсурлари бўлган мақол ва ибораларнинг ранг-баранг ифода усулларини учратиш мумкин. Шуни айтиш жоизки, асрлар давомида Навоий асарларининг халқчиллигини таъминлаган жиҳатлардан бири ҳам ана шунда бўлса керак. Зеро, ижод аҳли сўзни халқдан олади, унга бадиий сайқал бериб яна халққа тақдим этади.

Адабиётлар:

1. Алимаматова Ш. Ўзбек тилида фраземаларнинг компонент таҳлили. Фил. фан. номз. дисс. . автореф. –Т., 2008.–Б.11.

2. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I т. Ғаройибус-сиғар. –Т.: ФАН, 1959.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. –Б. 9.

4. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1992.-Б. 316.

5. ҲожиаҳмедовА. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. –Т., «Шарқ», 1998. –Б. 44.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада Алишер Навоий ғазалларида паремаларнинг қўлланилиши, ғазал мисраларида уларнинг жозибадор маъно-муносабати талқин этилган. Мақолларнинг айримларида шоир яшаган даврига оид вариантларининг ҳозирги даврдаги турига ўзгарган варианти ҳамда ибора ва мақолларнинг бадиий тасвир воситалари орқали ифодаланганлиги тадқиқ этилган.

РЕЗЮМЕ

В этой статье обсуждается использование пословиц и фраз в газелях Алишера Навои и их привлакательное значение в ститах газели. В некоторых пословицах изучается , что варианты периода жизни поэта изменилысь на нынешний тип и что выражения и пословицы выражены с помощью художественных средств.

SUMMARY

This article discusses the use of proverbs and phrases in Alisher Navoi’s ghazals and their attractive meaning in ghazal verses. In some of the proverbs it is studied that the variants of the period of the poet’s life have changed to the present type, and that the expressions and proverbs are expressed by means of artistic means.

NEMIS TILI DIALEKTLARI VA JONLI SO'ZLASHUV NUTQI

Rahmanova D.
Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: dialektologiya, idioma, fraza, frazeologizm, leksema, lingvomadaniyat.
Ключевые слова: диалектология, идиома, словосочетание, фразеологизм, лексема, лингвокультура, эквивалентность.
Key words: dialectology, idiom, phrase, phraseologism, lexeme, linguistic culture, equivalence.

Germaniyada lahjalar va mintaqaviy variantlar shunchalik ko'pki, ba'zida nemislar bir-birlarini qanday tushunishlari hayratlanarli. Aslida, Germaniyadagi til bilan bog'liq vaziyat ko'p jihatdan tarixiy sharoitga bog'liq. Dialektlarning chegaralari va mintaqaviy variantlari ilk nemis va o'rta nemis feodal knyazliklari va birlashmalarining chegaralariga borib taqaladi. Bundan deyarli ikki ming yil avval, 1-2-asrlarda hozirgi Germaniya hududida turli xalqlar va qabilalar yashab, doimiy ravishda bir-biri bilan kurashib, yangi hududlarni egallashga intilishgan. «Xalqlarning buyuk ko'chishi» deb atalgan hodisa natijasida qabilalar janubdan shimolga ko'chib, Alp tog'laridan tashqarida joylashgan bo'lib, o'zlari bilan til, dialekt farqlarini olib kelgan. O'sha paytda mavjud bo'lgan eng katta qabila guruhlari alemanlar edi (Alemannen), Bavariyaliklar («Bavariya»), Svabiyaliklar (Shvaben), Tyuringiyaliklar (Tyuringer), hesses (Hessen), frank (franken), sakslar (Saksen) va frizlar (Frizen).

Vaqt o'tdi, knyazliklar va siyosiy tuzilmalar chegaralari o'zgardi - masalan, alemanlar ilgari yashagan hududda, hozirda Baden-Vyurtemberg yerlari, Bavariyaning g'arbiy qismi, Avstriyaning g'arbiy qismi, Shveytsariyaning bir qismi mavjud.

Dialektizmlar asosan og'zaki nutqda ishlatiladi, èzuvda esa o'ziga xos struktura va qonuniyatlar mavjud.

Germaniyaning barcha xududlarida german qabilalarining in'ikosi sifatida shevalar saqlanib qolgan. Dialektizmlar muloqotning emosional va ifodali shakllanishi uchun xizmat qiladigan vositalardir. Masalan, birlikda ishlatiladigan otlarning shevada ko'plikda ishlatilishi bunga misol bo'la oladi. Die Eiche ist

ein schöner Baum – dialekt. Eichen sind schöne Blume; er hat blondes Haar – dialekt. Er hat blonde Haare.

Aksariyat shevalarda negativ ma'noga ega bo'lgan emosional so'zlar maydoni kengroq bo'ladi.

Nemis tili normasi yozma va og'zaki muloqot shakllariga ega bo'lgan murakkab tarixan shakllangan tizimni anglatadi. Bu til normasi Germaniya, Shveytsariya va Avstriya uchun umumiy bo'lib, nemis tili rasmiy til hisoblanadi. Dialekt - bu kichik, nisbatan yopiq odamlar guruhi uchun aloqa vositasi bo'lgan til tizimi. Til normasining dialektdan asosiy farqi yozma aloqa shaklining mavjudligidir. Dialektdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari oilaviy va kundalik muloqotdir. Nemis tilining mintaqaviy navlari xronologik jihatdan oldingi aloqa shaklidir.

Baden-Vyurtembergdagi ko'plab bolalar sof nemis tilini deyarli bilishmaydi. Ularning birinchi "tili" shevadir. Uyda odamlar shvabiya yoki aleman tilida gaplashishadi. Har doim ham sof shaklda emas: yuqori nemis tili ko'pincha dialektlarga qo'shiladi.

Baden-Vyurtemberg Germaniyaning janubi uchun namuna hisoblanadi, chunki bugungi kunda bu erda juda ko'p dialekt so'zlashadi, garchi o'tmishdagidan kamroq bo'lsa ham. Dialekt deyarli o'ziga xos tilga o'xshaydi. Agar siz u bilan o'smagan bo'lsangiz, uni haqiqatan ham o'rganishingiz kerak va ko'pincha sizda aksent bo'ladi.

Dialektlar gapiriladi, ular kamdan-kam yoziladi. Va dialektlar odatda mintaqaviy jihatdan juda cheklangan: friz o'zining Bavariyalik vatandoshiga qaraganda qo'shni gollandiyalik bilan yaxshiroq muloqot qila oladi va Badenlik olmonlar Elzasliklarni osongina tushunishi mumkin.

Shimolga qarab, standart nemis tili allaqachon dialektlarni siqib chiqargan. Buni faqat katta yoshdagilar gapiradilar. «Berlindagi, Rur mintaqasidagi yoki Saksoniyadagi eski lahjalar yo'q bo'lib ketdi», deb tushuntiradi Bonnning Ren mintaqaviy tadqiqotlari bo'limidan Georg Kornelissen.

Chunki bu lahjalar va standart nemis tili o'rtasida tafovud mavjud. Ular tubdan farq qiladi. essen- eeten, fünfzehn esa fofftein deb talaffuz qilinadi. Bu nemis tilidan ko'ra ko'proq inglizcha eshitiladi. Bir nuqtada odamlar yuqori nemis tili foydasiga va ularning dialektiga qarshi qaror qabul qilishdi, chunki dialekt o'sha paytda «ijtimoiy quyi tabaqalik» bilan sinonim edi. Natijada ularning shevalaridan deyarli hech narsa qolmadi. Haqiqiy quyi nemis-vestfal lahjalarini tushunish esa, Reynland aholisi uchun muammo tug'diradi, chunki nafaqat tovushlar, balki grammatika va lug'at ham yuqori nemis tilidan aniq farqlarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, quyi nemis tilida so'zlashuvchilar soni shunchalik kamki, ko'pchilik

Reynland aholisi Vestfaliyaliklarga qaraganda quyi nemis tilini kamroq mashq qila oladi.

Yoshlar tili turli guruhlardagi yoshlarning turli vaqtlarda, turli vaziyatlarda va turli yoshda ishlatadigan til naqshlari yoki nutq usullarini tavsiflaydi.

Shunday qilib, yoshlar tilining yagona ta'rifi yo'q. Buning o'rniga, turli xil muloqot vaziyatlarda turli guruhlar tomonidan ishlatiladigan ko'plab «mikrotillar» mavjud.

Hozirgi yoshlar tilida mubolag'alar, hazil-mutoyiba, so'z birikmalari va hokazolar muhim o'rin tutadi. Yoshlar tiliga raqamli sohadagi iboralar ham tobora ko'proq ta'sir qilmoqda.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Snapchat, TikTok & Co.) va messenjer xizmatlari (masalan, WhatsApp, Signal yoki Telegram) yosh avlod tiliga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv va madaniyatlararolik bir xil darajada muhimdir. Qadimgi yuqori nemis tili davriga kelib ko'p sonli dialektlar umumlashadi: ularda bir-birlariga yaqin bo'lgan belgilar paydo bo'ladi. Bularning hammasi qandaydir yangi tilning namoyon bo'lishiga olib keladi. Germaniya franklar davlatidan ajralib chiqqandan so'ng u Frankoniya, Bavariya, Shvabiya, Saksoniya va Tyuringiya kabi gersogliklardan iborat bo'ladi. Dastlabki yozma yodgorliklarning paydo bo'lishiga qadar (VIII asr) ushbu gersogliklar o'rtasida juda yaqin aloqalar mavjud bo'ladi va ularning tillari bilan birgalikda qadimgi yuqori nemis tili tashkil etiladi. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarga nazar tashlar ekanmiz, dialektlarning o'zlariga xos xususiyatlarga egaligiga va shu bilan birgalikda ularning bir-birlariga ta'sir qila olishlariga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Sotsial tushunchalarning kengayishi bilan nemis tilining qo'llanishi, savodxon odamlarning ko'payib borishi, ona tiliga bo'lgan munosabatlarni kuchaytirishga va uning obro'yini oshirishga olib keladi. Kitoblar nashr qilishining ixtiro etilishi til unifikatsiyasini tezlashtirishda muhim qudratli qurol bo'lib xizmat qiladi. Har qaysi matbaachi bevosita o'zining mahsulotini til jihatdan barcha uchun tushunarli bo'lishiga intiladi. XVI asrdan boshlab matbaachilar ongli ravishda tilni

normalashtirishni amalga oshiradi. Shunday qilib, XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida matbaachilar tilni katta unifikatsiyasi tomon yo'naltiradi, biroq bunday harakatlar dastlabki vaqtlarda ancha katta muvaffaqiyatlarga erishmadi, chunki dialektlar o'rtasidagi farqlar ancha katta edi. M. Lyuterning fikricha: «Germaniyada juda ko'p xilma-xil dialektlar mavjud, ya'ni gapirish usullari. Shunga ko'ra 30 mil uzoqda turgan kishi bir-birini tushunmaydi, ayniqsa quyi nemislar». Boshqa bir joyda u shunday yozadi: «Masalan bavariyalik saksoniyalikni tushunmaydi, ayniqsa sayohatga chiqqanida. Hatto bavariyalikning

o‘zlari ham bir-birini tushunmaydi, ayniqsa qo‘pol bo‘lgan bavariyaliklar…» XVI asrning birinchi yarmiga tegishli bo‘lgan bu guvohlikda, og‘zaki tilning territorial jihatidan juda katta farq qilishini yoki dialektlar o‘rtasidagi farq u yoki bu hodisaning feodal jihatidan tarqoq bo‘lishi, ya‘ni bularning barchasi Germaniyaga xos bo‘lgan shu davrning xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqishi tasdiqlandi.

Dastlabki kapitalistik rivojlanish davriga kelib bilimga bo’lgan intilish yanada kuchayadi, ma’lumotli kishilarga bo’lgan zarurat yanada oshadi, natijada XVI asrdan boshlab nemis tili o’zini hukmronlik pozitsiyasini egallay boshlaydi. Maktablarda lotin tili siqib chiqarila boshlanadi, uning o’rnini to’lig‘icha nemis tili egallaydi. Bu davrga kelib keng ommaga tushunarli bo’lishiga intilib, Gutten va Reyhlin kabi gumanist olimlar o‘z asarlarini nemis tilida yozishga harakat qiladilar. XVI asrdan boshlab grek alfaviti o’rniga nemis tilidagi matnlarni bosish uchun lotin alfaviti qo‘llanila boshlanadi. O’sha davrda iqtisodiy jihatdan ravnaq topgan Saksoniya reformatsiyaning o’chog’iga aylanadi.

Ma‘lumki, Germaniya territoriyasida mayda mustaqil davlatlar ancha vaqtgacha saqlanib kelingan. Germaniyaning milliy va siyosiy jihatdan birlashish jarayoni ham ancha kech, ya‘ni XIX asrning ikkinchi yarmida amalga oshadi. Shu sababli ham bu yerda dialektlar mustahkam o‘rnashib oladi. Dialektlarning ko‘p bo‘lishi ham aholining ko‘pchilik qismini hayotida muhim rol o‘ynab kelmoqda. Bunday vaziyatni biz Ovruponing boshqa biror mamlakatida uchrata olmaymiz. Mahalliy dialektlar Germaniyada juda ham mayda bo‘laklarga bo‘linib ketadi: Reyn daryosi oqimi bo‘ylab, Shvetsariyadan Niderlandiyagacha sayohat qilar ekanmiz, biz har 40-50 kilometrdan keyin bir- birlaridan juda keskin farq qiluvchi dialektlarni uchratamiz, har 10-15 kilometrda esa bir -biridan sezilarli darajada farq qiladigan dialektlarni ko‘ramiz. Ayrim hollarda hatto qo‘shni qishloqlar ham bir- birlarining dialektlari jihatdan ham farq qilishadi.

Mahalliy dialektlar o‘rtasidagi farq shunchalik keskin va chuqurki, ularning mana shu farqlari nuqtai nazaridan ayrim mustaqil tillarga o‘xshatish mumkin: jumladan, polyak, chex, serb va bolgar tillariga. Boshqacha qilib aytganda, polyak, chex, serb va bolgar tillari o‘rtasidagi farq qanchalik kuchli bo‘lsa, nemis tili dialektlari o‘rtasidagi farq ham shunga o‘xshab ketadi. Bu vaziyatni XVIII asrda Germaniyada ko‘p yillar mobaynida yashagan rus olimi M. V. Lomonosov shunday ta‘riflaydi: «Rossiya xalqi juda katta territoriyada bir-birlaridan ancha uzoq masofada yashaydilar va shunga qaramasdan ular shaharda ham, qishloqda ham bir-birlariga tushunarli bo‘lgan tilda gaplashadilar. Germaniyada esa aksincha, bavariyalik dehqon meklenburglik dehqonni, brandenburglik Shvabiyadan kelgan kishini tushunmaydi. Shunisi qiziqki, ularning barchasi nemis tilida

gaplashishadi» (to'liq asarlar to'plami, 7-tom, 590-bet. M., 1952-yil). Bu haqda Lomonosovga bog'liq bo'lmagan holda XX asrning boshida germanshunos olim, prof. Hirt quyidagilarni yozadi: «Shimolda yashovchi nemislar bilan Shvabiya va Bavariyada yashovchi nemislar bir- birlarini tushunish imkoniyatlariga ega emaslar. Hatto mening o'zim ham bavariyalik, badenlik yoki gessenlikni tiliga tushuna olmayman» Yuqorida aytilgan fikrlarni tasdiqlash uchun hozirgi zamon nemis tilida juda ko'plab misollarni keltirish mumkin: masalan Kartofel so'zini ifodalash uchun nemis tilida 37 sinonim (ma'nodosh so'zlar) mavjud: Kartoffel Toffel, Tüfke, Erdtoffel, Potate, Schockke, Pumser, Grundbirne, Erdbirne, Bodenbirne, Erdrübe, Erdnuss, Erdapfel, Bodenapfel va boshqalar; buta mevasini (chernikani) ifodalash uchun 35 ta sinonim birliklari qo'llaniladi: Heidelbeere, Besinge, Hagelbeere, Moosbeere, Schwarzbeere, Bickbeere va boshqalar. Bunday sinonim so'zlarni nemis tilida ko'plab keltirish mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi nemis dehqoni ikki tilda so'zlashadi desak, xato qilmaymiz, chunki u bir tomondan nafaqat adabiy til yordamida, xususan, mahalliy dialekt yordamida ham boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Chunki mahalliy dialektlardan u eng avvalo oilaviy hayotda, keyinchalik esa qo'shnilari va korxonada ishlaydigan hamkasblari bilan muloqotda bo'lganida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ ЯСАШ УСУЛЛАРИ (КОМПОЗИЦИОН УСУЛ МИСОЛИДА).

2. Рахманова, Д. А., Усмонходжаева, М. А., Санакулов, З. И., & Зарипова, Г. Ф. Қ. (2020). Немис ва ўзбек тиллари замонавий тилшунослигида сўз ясалиши тизими. Science and education, 1(8).

3. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhalilova, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8).

4. Raxmanova, D. (2021). NEMIS VA O‟ZBEK TILIDAGI VAQT KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLAR. Scientific progress, 1(5).

5. Dildora Abdinabiyevna Rahmanova (2021). DIE BEDEUTUNG DES ONLINE-LERNENS IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 470-473.

6. Berdiqul Tursunov NEMIS TILI TARIXI (maruzalar matni) 25-30.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola nemis tili shevalariga bag'ishlangan bo'lib, unda nemis tili tarixi, nemis xalqlari shevalari va ularning farqlari hamda olmon yoshlari jonli so'zlashuv nutqi va ularning tarjima masalalari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена диалектам немецкого языка, в ней рассматривается история немецкого языка, диалекты немецких народов и их различия, а также разговорная речь немецкой молодежи и вопросы их перевода.

SUMMARY

This article is devoted to the dialects of the German language, it discusses the history of the German language, the dialects of the German peoples and their differences, and the conversational speech of German youth and their translation issues

О ХАРАКТЕРИСТИКАХ НАУЧНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Раметова Б.

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель кафедры русского языка и методики преподавания факультета русской филологии

Tayanch so`zlar: frazeologik birlik, idioma, ilmiy uslub, ilmiy uslub frazeologiyasi, frazeologik birlik transformatsiyasi.

Ключевые слова: фразеологизм, идиома, научный стиль, фразеология научного стиля, трансформация фразеологической единицы.

Key words: phraseological unit, idiom, scientific style, scientific style phraseology, phraseological unit transformation.

Введение. Фразеология (от греч. φράσις — выражение и греч. λογος — понятие, учение) – лингвистическая дисциплина, изучающая устойчивые идиоматические (в широком смысле) словосочетания – фразеологизмы; множество самих фразеологизмов того или иного языка также называется фразеологи. Фразеология как самостоятельная лингвистическая дисциплина возникла в 40-х г.г. XX в. в советском языкознании. Предпосылки теории фразеологии были заложены в трудах А.А. Потебни, И.И. Срезневского, А.А. Шахматова и Ф.Ф. Фортунатова. Влияние на развитие фразеологии оказали идеи французского лингвиста Ш. Балли (1865-1947). В западноевропейском и американском языкознании фразеология не выделяется в особый раздел лингвистики. Вопрос об изучении устойчивых сочетаний слов в специальном разделе языкознания – фразеологии был поставлен в учебно-методической литературе ещё в 20-40-х годах в работах Е.Д. Поливанова, С.И. Абакумова, Л.А. Булаховского. Особое влияние на развитие фразеологии как раздела русского языка произвели работы В.В. Виноградова, в которых были поставлены вопросы об основных понятиях данного раздела, обозначены задачи и границы изучения данных языковых единиц. Основными работами В.В. Виноградова в рамках изучения фразеологии были «Очерки по истории русского литературного языка XVII—XIX вв.» и «Об основных типах фразеологических единиц в русском языке (Лексикология и лексикография: Избранные труды. М., 1977)».

В научной сфере наиболее важными фразеологическими элементами являются клише. Без них нельзя говорить о том, что лектор владеет научной стилистикой. Приведем в пример некоторые научные клише, представленные на различных интернет-сайтах.

- ***Актуальность проблемы (темы)***, которой посвящен обзор.
- В современной науке (какой) особенную остроту приобретает тема (какая)...
- Актуальна проблема (чего)...
- Внимание ученых привлекают вопросы (чего)...

Особое место среди данных видов в трудах В.В. Виноградова заняли фразеологические сращения. Лингвист отмечал, что именно во фразеологических сращениях, образующих целостное высказывание или подводимых под категории состояния и наречия, «внешняя форма иногда бывает очень неустойчивой и в другом отношении.

Так, идиома с боку припёка без всяких грамматических оснований превращается в парное созвучие с боку припеку. Например, у Гоголя в «Женитьбе» в речи Подколесина: «Ну, да как же ты хочешь, не говоря прежде ни о чем, вдруг сказать с боку припеку: «Сударыня, дайте я на вас женюсь!». В фразеологическом сращении все элементы настолько слиты и недифференцированы в смысловом отношении, что эллиптическое опущение или экспрессивное сокращение хоть одного из них либо вовсе не влияет на значение целого, либо приводит к полному его распаду. С одной стороны, такие сращения семантически неизменны, хотя и могут обладать формами грамматического словоизменения, например у черта на куличках и к черту на кулички (ср. у П. Боборыкина в романе «Из новых»: «жалуется, что его шлют к черту на кулички»). Но, с другой стороны, «при экспрессивном употреблении сращения, если позволяют синтаксические условия, опорная часть его может быть равна целому и выступать в значении целого». Ученый подробно изучил и фразеологические единства, отметил, что в данной фразеологической единице «слова подчинены единству общего образа или единству реального значения».

Кроме этого лингвист изучил и производность, и мотивированность значения фразеологического единства в русском языке: «Понимание производности, мотивированности значения фразеологического единства связано с сознанием его лексического состава, с сознанием отношения значения целого к значению составных частей. Семантическая замкнутость фразеологического единства может также создаваться эвфоническими средства-

ми - рифмическими созвучиями, аллитерациями. Эти средства спайки и им подобные также содействуют образованию фразеологических единств.

Литературный анализ. На современном этапе развития русского языка многие лингвисты, изучая фразеологию, по-разному ее интерпретируют: одни считают ее частью лексической системы, другие утверждают, что фразеология – автономный раздел русского языка. По определению С.И. Ожегова, фразеология - раздел лингвистики, в котором изучаются семантические, морфолого-синтаксические и стилистические особенности фразеологизмов, совокупность идиом и фразеологизмов какого - либо языка.

Говоря об английских и американских исследователях, можно уточнить, что изучение фразеологии в основном осуществлялось в работах, посвященных семантике и грамматике, например, в работе У. Вайнрах «Языковые контакты». Кроме того, к фразеологии обращались при написании предисловий к фразеологическим словарям. Ярким тому примером являются работы лингвиста и лексикографа Л. Смита. Важно добавить, что он был первым лингвистом, который ввел термин «идиомы». Ему принадлежит работа «Фразеология английского языка» (1959 г.). Л. Смит писал, что слово «idiom» используется в английском языке для обозначения французского термина «idiotisme», а именно для обозначения грамматической структуры сочетаний. Данные сочетания характерны только для английского языка, хотя очень часто значения этих сочетаний невозможно объяснить с грамматической и логической точки зрения. Так, А.В. Кунин описывал фразеологию как самостоятельную науку о фразеологических единицах (фразеологизмах), то есть об устойчивых словосочетаниях с осложненной семантикой. Россия занимает первое место в области исследования фразеологии. Нельзя не обратить внимания на то, что впервые в России Е.Д. Поливанов поставил вопрос о фразеологии как об отдельной науке. Он считал, что действительно возникла потребность в такой дисциплине, как фразеология, которую можно было бы соизмерять с синтаксисом, но в то же время, которая учитывала бы особые значения отдельных словосочетаний. В его понимании новая дисциплина займет достойное место, как фонетика или морфология. Данную сферу языкознания он называл фразеологией. «Этому разделу языкознания, как и совокупности изучаемых в нем явлений, я и уделяю наименование фразеологии (укажу, что для данного значения предлагается и другой термин-идиоматика)».

Б.А. Ларин продолжил работу Е.Д. Поливанова и представил для этого различные методы исследования фразеологии как отдельной дисциплины. В своей работе «Очерки по фразеологии» автор отметил следующее:

«Фразеология как лингвистическая дисциплина находится еще в стадии «скрытого развития, но еще не оформилась как зрелый плод подготовительных трудов». А. И. Смирницкий поддерживал определение фразеологии как отдельной лингвистической дисциплины. Он писал: «Хотя изучением фразеологической сочетаемости занимается специальная наука - фразеология, которая является разделом лексикологии, фразеологическая сочетаемость должна обязательно учитываться при изучении синтаксического строя языка». Существуют абсолютно разные взгляды на объем фразеологии. Порой эти взгляды различны и даже противоречивы. Н. М. Шанский отмечал, что «фразеология как лингвистическая дисциплина уже не находится в стадии скрытого развития». Фразеология интересует многих людей, над ней задумываются, экспериментируют. «Междометные фразеологизмы служат для выражения различных чувств, эмоций, волевых побуждений. Например: ну и ну!- разг., употребляется при выражении удивления; чёрт возьми! – разг., восклицание удивления, досады или негодования; знай наших! – разг. шутл., о восхвалении самого себя; в добрый час! – пожелание удачи; милости просим – выражение вежливого приглашения и т.д.».

В 50-х годах главное внимание уделялось вопросам сходства и различий фразеологизмов со словом и сочетанием слов; проблематика фразеологии исчерпывалась в основном выяснением критериев фразеологичности и уточнением основ классификации фразеологизмов. С конца 50-х годов наметилась тенденция системного подхода к проблемам фразеологии, разрабатываются вопросы, связанные с описанием фразеологизмов как структурных единиц языка (А.И.Смирницкий, О.С.Ахманова). 60-70-е годы в развитии фразеологии характеризуются интенсивной разработкой собственно фразеологических методов исследования объектов фразеологии, основанных на идеях системноуровневого анализа фактов языка (В.Л. Архангельский, Н.Н. Амосова, В.П. Жуков, А.В. Кунин, М.Т. Тагиев), изучением системной организации фразеологического состава (И.И. Чернышёва, Н.М. Шанский) и его развития (В.Н. Мокиенко, Ф.Н. Попов, А.И. Федоров), особое внимание уделяется семантике фразеологизмов, её номинативному аспекту (В.Н. Телия), фразообразованию в его динамике (С.Г. Гаврин, Ю.А. Гвоздарев), признакам сочетаемости слов-компонентов (М.М. Копыленко, З.Д. Попова), сопоставительно-типологическому изучению фразеологического состава (Ю.Ю. Авалиани, Л.И. Розейзон), а также разработке описания фразеологизмов в словарях (А.М. Бабкин, А.И. Молотков).

Предметом фразеологии как раздела языкознания являются исследования категориальных признаков фразеологизмов, на основе которых выделя-

ются основные признаки фразеологичности и решается вопрос о сущности фразеологизмов как особых единиц языка, а также выявление закономерностей функционирования фразеологизмов в речи и процессов их образования. Однако в условиях наличия единого предмета исследований существуют разные точки зрения на то, что такое фразеологизм, каков объем фразеологии русского языка.

Перечни фразеологизмов русского языка, предлагаемые разными учеными, настолько отличаются друг от друга, что с полным основанием можно говорить о различных, часто прямо противоположных, даже исключающих друг друга взглядах на предмет исследования, о разнобое в научной терминологии, употребляемой для обозначения соответствующих понятий. Этим объясняется и нечёткость понимания задач, целей и самой сущности термина фразеология. Тот факт, что нет единой классификации фразеологических оборотов русского языка с точки зрения их семантической слитности. Хотя наиболее распространенной (с уточнениями и дополнениями) является классификация В.В. Виноградова. Именно поэтому многое в русской фразеологии только начинает изучаться. Обобщая широкий спектр взглядов на фразеологию, можно отметить, что в современной лингвистике четко наметилось два направления исследований. Первое направление исходной точкой имеет признание того, что фразеологизм – это такая единица языка, которая состоит из слов, то есть по природе своей словосочетание. При этом одни ученые высказывают мысль, что объектом фразеологии являются все реально возможные в данном языке конкретные словосочетания, независимо от качественных различий между ними. Так, например, М.М. Копыленко, З.Д. Попова говорят следующее: «Фразеология охватывает все … сочетания лексем, существующие в данном языке, в том числе и так называемые «свободные» словосочетания» .

Анализ и результаты. С другой стороны, объектом фразеологии в границах этого направления признаются только некоторые разряды и группы словосочетаний, которые выделяются из всех возможных в речи особым своеобразием. В зависимости от того, какие признаки принимаются в расчет при выделении таких словосочетаний, и определяется состав подобных единиц в языке.

Только эти «особые» словосочетания и могут быть названы фразеологизмами. Несмотря на условность понятий и связанное с этим разграничение, обычно говорят, что фразеология может быть представлена:

а) как фразеология языка в «широком» смысле слова, включающая в свой состав и словосочетания, переосмысленные полностью, и словосоче-

тания, в которых есть не переосмысленные слова-компоненты. Примером такого «широкого» понимания объема и состава фразеологии может служить точка зрения В.Л. Архангельского, О.С. Ахмановой, Н.М. Шанского;

б) как фразеология русского языка в «узком» смысле слова, включающая в свой состав только словосочетания, переосмысленные до конца. К числу работ, отражающих такое понимание объема и состава фразеологии русского языка, относятся работы В.В. Виноградова, В.П. Жукова и др. Современное состояние фразеологии неустойчиво. Всякий поворот общественной истории создает свою фразеологию, отличную от предыдущей эпохи, прежде всего в социально-политической сфере. Не стал исключением и нынешний период. В.Г. Костомаров отмечает, что эти процессы, как и формирование нового политического словаря под влиянием каждого «текущего момента», не заслужили, к сожалению, достаточного внимания со стороны лингвистов, не стали до сих пор объектом исследовательской русистики.

Причиной этого является то, что филология традиционно признает достойным предметом анализа преимущественно лишь художественные тексты, и то, что коммуникация в политике, отражаемая масс-медиа, была у нас омертвелой, строжайше регламентируемой сверху Фразеология отражает все существенные события политической жизни; достаточно вспомнить сочетание «ближнее зарубежье», но лидирует сегодня сфера экономики и торговли, где коренная перестройка всех отношений требует новых терминов, обозначений и фраз. Из сотен новшеств, происходящих на современном этапе развития фразеологии, исследователи выделяют следующие: социально-рыночная политика государства, социально-экспортная переориентация промышленности, конверсия оборонной промышленности, освобождение от налогов прибыли, коммерческие структуры, налог с продаж, ввозить из-за старого и нового рубежа, торговые отношения с сопредельными странами, таможенные правила ближнего и дальнего зарубежья, ваучерная приватизация, оплата акций приватизационными чеками, инвестиционные, фонды, акции гражданского неповиновения, забастовочное движение протеста, социальные отстойники, адресная помощь неимущим.

Можно выделить несколько аспектов изучения современной фразеологии:

- грамматический (синтаксический и морфологический), который представляет собой распределение по лексико-грамматическим типам, а также соотношение фразеологических единиц и частей речи. Включает в себя основные структурные модели, функции фразеоло-

гических единиц в предложении, синтаксические связи внутри фразеологических единиц, функции фразеологических единиц в предложении;

- лексический, когда можно обнаружить всевозможные подразделения по стилистическому использованию и происхождению. Кроме того, определение семантических отношений (полисемия, синонимия, антонимия, вариативность), а также лексикографические проблемы;
- лингвострановедческий, так как владение иностранным языком подразумевает не только блестящее знание грамматики, фонетики, лексики и фразеологии, но элементарные знания по истории фразеологизмов. Например, иностранец, изучающий русский язык, никогда не догадается о значении выражения «бить баклуши», если не обратится к лингвострановедческому материалу. По определению С.И. Ожегова, «баклуша - обрубок древесины, следовательно, бить баклуши - стучать деревяшками, что значит проводить время впустую, бездельничать».

Таким образом, взгляды лингвистов на фразеологию как раздел русского языка различны. За последние десятилетия фразеология была исследована огромным количеством зарубежных и отечественных ученых и продолжает развиваться до сих пор. Наука не стоит на месте, в настоящее время происходит образование новых фразеологических единиц (лексические изменения, когда сохраняется значение фразеологической единицы, но частично изменяется ее лексический состав, например: я был суров, я все сгущал от «сгущать краски»), исчезновение устаревших фразеологизмов (фразеологизмы исчезают вместе с устаревшей в его составе лексемой (титулярный советник, институт благородных девиц, реальное училище, столбовые дворяне, социалистическое соревнование, секретарь обкома).

Ключевые слова: оценка, категоризация, хорошие и плохие концепты, эксплицит, имплицит, компоненты, лексикология, стилистика, лингвистика.

Key words: evaluation, categorization, good and bad concepts, explicit, implicit, components, lexicology, stylistics, linguistics.

In the 90s of the twentieth century, there was a formation of such a branch of philosophy, as an axiology - a science that studies the issues of values. Concerning there was an awareness of such a concept as «assessment», an independent phenomenon. Axiological directions in social and philosophical practice have become an integral part of learning. Many scientists prove that assessment is a philosophical category that means «axiological a person's attitude to all normally represented diversity objective incarnations of human life and their capabilities cognitive and practical development. Assessment favors manifestation of values that are actualized in the course of cognition. Values, being a social phenomenon, they are the result of social being, the life of public institutions. Values are not only in social consciousness, but also in personal consciousness, therefore they act as models for evaluating a particular phenomenon. How values of comparisons and evaluation are studied by philosophers, sociologists, psychologists, since values can be objective and subjective at the same time. That's why the concept of «value» is inextricably linked with the concept of «valuation». Linguistics can be included in this list of sciences. Evaluation problem is one of the key topics of modern linguistic research. This is due to the fact that linguistics seeks to study anthropological phenomena of reality. The anthropocentric paradigm deduces a person to the fore, while language is the most important condition for the existence human. Language reflects objective reality, where a person enters with his actions,

thoughts, utilities. Everyone has an idea of what is good, what is bad, can distinguish good from evil, that is, to assess a particular phenomenon.

Evaluation often depends on the opinion and worldview of the speaker. Many scientists agree the opinion that the assessment belongs to the number of strictly human categories is subjective. According to N.D.Arutyunova, for assessment object, a person must «pass» this object through himself, because the nature of evaluation is inherent in the person himself. Moreover, the estimate do not have reasons, all logical connections are in the mind of a person. The only thing, what determines the assessment of the subject - its actual properties, which motivate the subject. The motives can be different: the properties of the object, attitude to the set goal, patterns of perception.

The object of the research is the evaluative categories of «good» and «bad» concepts in English and Uzbek languages, which are considered as a result of the evaluative categorization of objects of reality and abstract entities. Under evaluative categorization in the work, following N.N. Boldirev understands the mental correlation of an object or phenomenon with a certain axiological category (dynamic aspect), or the grouping of objects and phenomena according to the nature of their assessment into the corresponding evaluative categories, that is, a system of evaluative categories (static aspect) (Boldirev 2002). The specificity of the object lies in the fact that the evaluation categories are not directly related to the real world. The speaker aims not at reflecting the real features of objects of reality, but at their interpretation them.

The subject of the research is the nature, structure and content of the evaluation categories «good» and «bad». The processes of forming evaluative meanings based on the use of specific linguistic means.

The hypothesis of the research is that the evaluative categorization implies the establishment of a certain relationship between the subject of the assessment and its object. The subject can be as explicit and implicit component, the object is always explicit. In this case, the assessment always belongs to a certain person, the team or society as a whole. In other words, the estimate is always relative.

The relevance of this topic lies in the fact that it is associated with cognitive linguistics. Cognitive linguistics reveals the connection linguistic processes and human knowledge. When examining the estimated categorization, cognitive linguistics makes it possible to define the role a person in the formation of an assessment in terms of language and cognitive aspect. Thus, the evaluation categories «good» and «bad» in the present work are considered in the aspect of mental processes of evaluative categorization. Accordingly, the evaluative

categories «good» and «bad» in this study are considered from the point of view of the mental processes of evaluative character, in the semantics of linguistic units.

Te purpose of this work is to study the evaluative meaning in the language, which is formed through the evaluation categories «good» and «bad». Based on the purpose of the study, it seems possible to determine the following tasks:

- to clarify the features of evaluative concepts as a basis for the formation of evaluative categories in the language in relation to the research topic: to identify the foundations of the formation of evaluative categories in the language;
- to consider the content of the evaluation categories;
- to consider the principles of forming evaluation categories in the context of cognitive linguistics;
- to highlight the evaluative categorization of various types;

The theoretical basis of the research is the main provisions, developed in the framework of the following scientific directions:

- cognitive linguistics (E.G. Belyaevskaya, H.H. Boldyrev, E.S. Kubryakov, V.I. Karasik, R.I. Pavilenis, R. Lanecker, J. Lakoff, R. Jackendoff, J.R. Taylor, etc.);
- structural linguistics (N.D. Arutyunova, Y.D. Apresyan, E.M. Wolf, A.Vezhbitskaya, G.V. Kolshansky, T.V. Markelova, V.N. Telia, etc.);

The materials used for the analysis were 85 examples obtained by the method of continuous sampling from works of art of modern English and American writers and as a result of the use information resources of the Internet. As an illustrative material data from English dictionaries were also used. Magazines and journals containing articles on teaching technologies.

The methods of investigation used in this research are as following: The study of the factual material was carried out using a complex of methods, including conceptual and contextual analyzes, cognitive modeling, and analysis of dictionary definitions. Cognitive analysis, comparative method, procedure cognitive assessment and observation method.

The scientific novelty of the research lies in the fact that in this work describes the processes of evaluative categorization in terms of interaction of linguistic factors and conceptual structures. Using this approach in the study, it seems possible to identify specifics of evaluative concepts and categories, their structure and areas evaluative categorization.

The theoretical significance of the work is the development of the theory evaluative categorization in language, identification and study of language and cognitive mechanisms of evaluative categorization.

The practical significance of the work lies in the fact that the results obtained can be used in lecture courses on lexicology, stylistics and interpretation of text, typology, in the development of special courses in cognitive linguistics, in diploma and dissertation research, in the theory and practice of translation, as well as in teaching practical proficiency in English.

Conclusion. Summing up the above, we can conclude that number of factors determine the formation of general evaluation categories. “GOOD” and “BAD”, as a result of which these categories have a complex structure.

The specificity of the evaluative concepts «good» and «bad» is that they have a dependent, relational character, i.e. specific content evaluative concepts is formed only when they interact with others concepts belonging to abstract and natural categories. In the content of the evaluative concepts «good» and «bad» can be distinguished by the gradation of their signs, i.e. a rating scale that can be based on both objective and subjective knowledge. At the same time, there are common characteristics that are central and prototypical. Objective characteristics and subjective characteristics make up the periphery concept. The categorical boundaries of evaluative concepts are not clear, they are dependent and vague, which determines the dependent nature evaluation category. This fact explains the presence of transition zones between evaluative categories. For each of the above areas of evaluative categorization the most significant characteristics were identified based on conceptual analysis. Interaction of these characteristics with characteristics of evaluative concepts «good» and «bad» determines evaluative categorization of the object, resulting in the formation of a certain evaluative meaning. Moreover, the totality of all knowledge and ideas of a person about a particular object forms the basis to highlight a figure - a directly assessed characteristic.

Definite cognitive and linguistic mechanisms form the basis evaluative categorization. Among the cognitive mechanisms, one can distinguish following: profiling, comparison, metaphorical comparison, metonymic transfer.

Thus, the study of linguistic categorization is one of the main aspects of the individual’s mental activity, while it is necessary to study the general principles and mechanisms for the formation of evaluative categories.

Literature:

1. Artyunova N.D. Yazik i mir cheloveka M., 1999. page. 131.

2. Arutyunova N.D. Ob obyekte obshiy otsenki//Voprosi yazikoznaniy.1985 pages 13-14.

3. Arutyunova N.D. Aksiyologiya v mexanizmax jizni i yazika//Problema strukturniy lingvistiki 1982.M., 1984 page 5-23.

4. Baranov A.N. Aksiyologiycheskie strategiy v strukture yazika// Voprosi yazkoznaniya.-1989 pages 74-90.

5. Berry J., Goldman J., Janda K. The Challenge of Democracy / J. Berry, J. Goldma, K. Janda. - Boston : Houghton Mifflin Company, 1992. - P. 759.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola baholovchi kontseptualizatsiya va baholovchi turkumlashning tildagi ifodalarini o‘rganishga, ya’ni baholovchi tushunchalarning ingliz va o‘zbek tillarida baholash ma’nolarini shakllantirish mexanizmlari asosida ifodalanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена изучению языковых выражений оценочной концептуализации и оценочной категоризации, а именно изучению специфики выражения оценочных концептов на основе механизмов образования оценочных значений в английском и узбекском языках.

SUMMARY

This article is devoted to the study of language expressions of evaluative conceptualization and evaluative categorization, and namely, the study of the specifics of the expression of evaluative concepts based on mechanisms for the formation of evaluative meanings in the English and Uzbek languages.

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

MASOFAVIY TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

Majidov Sh. S.
JDPU o'qituvchisi
Sayfullayev L. N.
JDPU talabasi

Tayanch so'zlar: masofaviy o'qitish, ta'lim, o'quvchi, talaba, hamkorlik, ota-ona, birlamchi model, ikkilamchi model, aralashgan model, konsorsium, franchaysing, validasiya, uzoqlashgan avditoriyalar, proyektlar.

Ключевые слова: дистанционное обучение, образование, ученик, ученик, партнерство, родитель, первичная модель, вторичная модель, смешанная модель, консорциум, франчайзинг, валидация, удаленные аудитории, проекты.

Key words: distance learning, education, pupil, student, partnership, parent, primary model, secondary model, mixed model, consortium, franchising, validation, remote audiences, projects.

Kirish. Hozirgi davr talabiga asosan yangicha o'qitish usuli har tomonlama eskicha o'qitish tizimini orqada qoldirib bormoqda. Misol sifatida 2003 yilni oladigan bo'lsak EXM lar uchun dsturlarga patentlar olish uchun faqatgina 140 ariza qabul qilingan. Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish keng qo'llanilayotgatligi ham quvonchli hol. Ko`pchilik Internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, informatsiya qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni Internet turli sohalarga tadbiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o`qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqalar. Quyida bu texnologiyalarning qisqacha, lekin asosiy tavsiflarini keltiramiz.

Masofaviy o'qitish-yangi va ancha progressiv bo'lgan o'qitish shaklidir. Bu usulning turli xil ta'lim muassasalariga, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sohalarga tatbiqi o 'quvchi-talaba va o'qituvchi(pedagog)larni dunyoning ilg'or

ilmiy maktablarining yuqori sifatli o'quv-uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so'nggi axborot - laridan, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyatini beradi. Bulaming barchasini e'tiborga olgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi «Ustoz» fondi qiyofasida jahon institutlari bilan oliy ta'limda masofaviy o'qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi. Bunday loyiha, nafaqat O'zbekiston uchun, balki O 'rta Osiyoning barcha hududlari va Qozog'iston hamda hamdo'stlik davlatlari uchun masofaviy o'qitish sohasida jahon banki institutining ilg'or loyihalaridandir. Jahon banki loyihasi masofaviy o'qitish tizimini rivojlantirish uchun boshlang'ich maydon bo'ladigan masofaviy o'qitish tarm oqlari infratuzilmasi baza elementlarini yaratish, masofaviy o'qitish usullarini qo'llash sohasini kengaytirish va masofaviy o'qitishni amalga oshiruvchi zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Toshkent shahrida joylashgan universitetlarda jahon banki loyihasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi uning hayotiyligi va yuqori ko'rsatkichga erishilganligini tasdiqladi. Oliy o'quv yurtlaridan 30 nafardan ortiq yetuk o'qituvchilar tanlab olinib, ular masofadan o'qitishlar bo'yicha qayta tayyorlandi. 2000-yilda jahon banki tashabbusi bilan Moskva va Bishkekda o'qitish markazlari tashkil etilib, unga taklif etilgan qatnashchilar yangi o'quv metodologiyasini masofadan rejimli boshqarish va elektron kurslari metodlari bo'yicha qayta tayyorlandi. Loyihaning universitet ishtirokchilari uchun iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha masofaviy o'qitish tartibida mashg'ulotlar o'tkazish uchun texnik baza vositalari tashkil etildi. Intemetga ulanish yo'llari izlanmoqda. Bulaming barchasi berilgan texnologiya turlarining istiqbollari to'g'risida gapirishga imkon beradi. Masofaviy o'qitishning an'anaviy o'qitish shakllaridan quyidagi xususiyatlarini farqlash mumkin; Egilnvchanlik. O'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkoniyatini beradi. Modullik. O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holatda shaxsiy hamda guruh talabiga javob beradigan o'quv rejasini amalga oshiradi. Qurshov. Bir vaqtda ko'p ishtirokchilarga o'quv axboroti bo'yicha murojaat qilish, tarmoq yordamida o'zaro axborot almashinuvini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Tejamkorlik. O'quv maydonlari, texnik vositalar, moddiy va m a'naviy ashyolardan unumli foydalanish, o'quv axborotlarini to'plangan va bir xillikka keltirilgan holda ifodalash hamda ularni o'zlashtiruvchi mutaxassislami tayyorlash bo'yicha xarajatlami kamaytiradi. Ta'lim berish jarayonida insonni jahonning industrial fazosiga kiritishga imkon beradigan yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish. Ijtimoiy teng huquqlilik. O'qituvchining turar joyidan, salomatligi, moddiy ta'minlanganligidan kelib chiqib, katta ko'pchilikka mustaqil ta'lim uchun teng imkoniyat yaratiladi. Baynalmilallik. Ta'lim xizmatlari bozorida erishilgan yutuqlarning eksporti va

importi ta’minlanadi. O‘qituvchi(pedagog)laming yangi vazifalari. Masofaviy o’qitish o’qituvchi(pedagog)ning vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O’qitilayotgan kurslami doimo takomillashtirish, tinglovchilarning ijodiy faolligini va ularning malakasini oshirish, kiritilgan yangilik va innovatsiyalaiga mos bilim berish jarayonlarini muvofiqlashtirish zarur.

Masofaviy o’qitish talabaga ijobiy ta’sir etadi. O’zini-o’zi tashkil etishda, bilim olishga intilishda, kompyuter texnikasi bilan o’zaro ishlash va mustaqil mas’uliyatli vazifalarni hal qilishda uning ijodiy va tafakkur salohiyatini o’stiradi. Masofaviy o’qitish sifati kunduzgi ta’lim olish tartibidan sifat jihatidan qolishmaydi. Masofaviy o’qitish quyidagi ijtimoiy ahamiyatli masalalami yechishga ta’sir etishi lozim: www.ziyouz.com kutubxonasi - ta ’lim xizmatlarida aholining ehtiyojini amalga oshirish; - sifatli tayyorlangan mutaxassislar bilan davlat ehtiyojlarini qondirish; - aholining ijtimoiy va professional harakatchanligini oshirish; - tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi, o’zligini anglashi tevarak-atrof to‘g‘risidagi bilimlarni kengaytirish; - davlatimizning oliy maktablarida yig’ilgan bilimlar hamda kadrlarning moddiy salohiyatini saqlash va ko’paytirish; - butun jahon hamjamiyati chegarasida ta’lim fazosining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta’lim olish imkoniyatini ta’m inlashni o’z ichiga olgan yaxlit ta’lim fazosini rivojlantirish; - geosiyosiy masalalarni yechish va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili. O’qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibi hamda amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi. O’qitishning obyekti. Masofaviy o’qitishda ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilar ushbu usulda ta’lim oluvchilar uning obyekti bo’ladi. O’qitish subyektlari. Masofaviy o’qitish subyekti o’qituvchi (pedagog) lar hisoblanadi. O’qituvchi (pedagog) ta’lim jarayonining yuqori samarasini ta’minlashda asosiy bo’g’indir. Masofaviy o’qitish o’qituvchi (pedagog) faoliyatining muhim ahamiyatini uning maslahatchilik funksiyasida hamda informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishida ta’kidlaydi. O’qitish usullari.

Masofaviy o’qitish tartibi o’z ichiga beshta umumdidaktik o’qitish usullarini qamrab oladi: informatsion-retseptiv, reproduktiv, muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o’qituvchi (pedagog) va o’quvchi-talabalaming o’zaro harakatlari pedagogik aktlarining butun to’plamlarini o’z ichiga qamrab oladi. O’qitish usuli. O’qitish maqsadlariga erishish uchun o’qituvchi (pedagog) va o’quvchi-talabalar o’zaro harakati ta’sirining me’yoriy tizimini nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdir. O’qitishning mazmuni. Bu o’quv axborotining tarkibi, tuzilishi, ma’lumotlari hamda masalalar, topshiriqlar va mashg’ulotlar to’plam ini aks ettiradi, o’qitish jarayonlari va ularning

metodikasini belgilaydi, bilim oluvchilarning kasbiy malaka va idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi. www.ziyouz.com kutubxonasi O'qitish vositalari. Masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan ham foydalaniladi. U lar AKT ni qo'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida so'nggi erishilgan natijalarga asoslangan. 0 'quv-ilmiy va moddiy asosi. O'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'quv va o'quv-yordamchi joylami, o'qitishning texnikaviy vositalari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy materiallarni oladi.

Ta'limda bozor munosabatlari qatnashchilari sifatida faqat ta'lim muassasalari ta'lim xizmati buyurtmachilari bo'lib kelmasdan, balki davlat ham buyurtmachi va iste'- molchi bo'ladi. Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy o'qitish texnologiyasidan foydalanuvchi o'quv tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, umumiy tashkillashtirishning o'ziga xosligini ochib beradi: - uzluksiz ta'lim; - o'quv jarayonining olib borilishiga individual yondashish; - geografik joylashishi uzoq bo'lgan o'quv muassasalarini yetakchi oliy o'quv yurtlari bazasi markazida masofaviy o'qitishni markazlashtirish; - tinglovchilar yo'nalishiga ko'ra o'qituvchi(pedagog)-maslahatchilaming mavjudligi.

Masofaviy o'qitishning qulayligi. Kelgusida maqsadga muvofiq ravishda laboratoriya amaliyotlarini o'tkazishni qisqartirish mumkin. Masofaviy o'qitish nazorati. Bu o'rganilayotgan o'quv materiallarining nazariy o'zlashtirilish natijalarini tekshirishdan iborat. Test haqiqatdan ham fan bo'yicha juda ko'p savollardan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Talaba ular orasidan to'g'ri javobni tanlashi lozim. Testlar o'z-o'zini tekshirishga yaxshi mo'ljallangan va individual mashg'ulotlar uchun juda qulay. Masofaviy o'qitish qatnashchilari, ya'ni tinglovchilar, o'quvchitalabalar va o'qituvchi(pedagog)lar yetarli darajada tayyor bo'lishlari, ya'ni masofaviy o'qitishning o'rgatish usullaridan, vositalaridan va tashkiliy shakllaridan foydalana bilishlari kerak. Shuning uchun ham fundamental informatika AKTlaming nazariy va amaliy asosi sifatida masofaviy o'qitishning harakatga keltiruvchi kuchi va uning ajralmas qismi bo'lishi shart. www.ziyouz.com kutubxonasi Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi. Modul — pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi. uning tarkibiy boMaklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo'ladi. Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi mumkin. Ularning bir-biriga nisbatan

proporsionalligi qat'iy bo'lmasligi, ularning o'zaro ta'siri umumiy jarayonda turlicha bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Modulli o'qitish — pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'laklari o'zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari algoritm deyiladi. Eng kichik bo'lak pedagogik texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to'plami o'qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Modullarning o'zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o'qitish — tartibli o'qitish demakdir. Bunda o'quv materiali bitta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismi oMchamida, ya'ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o'qitilishi mumkin. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar (bloklar) tarzida o'qitish keng qo'llanilm oqda. Davlat ta 'lim standartlarining tarkibiy bo'laklariga mos keladigan bloklardan ham foydalanilmoqda. O'quv reja va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Ta'lim usullari, metodlari va vositalari uchun qo'llaniladigan modullar ham yaratilmoqda. Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlami tushuntirishga samaraii xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quvbilish faoliyatlari hamda ularning o'zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Modullashtirish va o'quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin bu borada o 'quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genezisi va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba-sinov ishlari hamda pedagogik eksperimentning qat' iy xulosalariga tayanib ta'lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to'la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qoilanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim sohasidagi o'qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'lim sifatining yanada ortishi kutilmoqda.

Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimediya kabi texnologik usullar o'quvchi-talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, qo'llanmalar asosida kompyuter dasturlarini ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda. Zero, masofaviy o'qitish har qanday sohada ham jahon ta'lim markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy ham ¬ da so'nggi axborotlarni olish va ulardan jamlab foydalanish imkoniyat - larini beradi. Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'lim shakllaridan farq qiladi. U o'quvchi-talabalarni o'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. O'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy va guruh talabi asosida o'quv rejalari ishlab chiqiladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalaiga ilmiy axborot va ma'lumotlar bo'yicha markazlashgan tarmoq orqali o'zaro axborot almashinuvini joriy etish mumkin. O'quv maydonlari, texnik va transport vositalaridan samaraii foydalanish, ma'lumotlami yig'ib bir tizimga solingan holda ifodalab berilishi va mutaxassislami qayta tayyorlashda ham xarajatlami kamaytirishga erishilishi kutilmoqda. Ta'lim-tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va turli samaraii texnologiyalardan foydalaniladi. www.ziyouz.com kutubxonasi Masofaviy ta'lim o'qituvchi (pedagog) va mutaxassislarning ham vaqtini tejab, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda moddiy manfaatdorligini oshirish bilan mustaqil ta'lim olish uchun keng sharoit yaratib beradi. Ta'lim sohasida erishilayotgan yutuqlarning jahon ta'lim tizimi doirasida almashinuvini tashkil etish, bu sohadagi yutuqlami qo'lga kiritishni ta'minlashi shubhasizdir. Masofaviy o'qitish usuli mutaxassis o'qituvchi (pedagog) larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Chunki o'quv materiallarining muntazam to'ldirib borilishi, ta'lim beruvchilarning ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan o'z malakasini oshirishlari va bu ko'rsatkichlami jahon ilmi yutuqlari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etilmoqda. Bu o'qitish usuli ta'lim talabiga asosan o'quvchi-talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv-uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib, to'ldirilishi mumkin. Axborot texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilishi bilan masofaviy o'qitishni bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik masalalami yechishda ham joriy etish mumkin. T a'lim sohasiga bo'lgan fuqarolaming ehtiyojlarini qondirishda qulayliklar yaratish bilan respublikamizning malakali mutaxassislarga bo'lgan talabi ham qondiriladi. Shuningdek, fuqarolaming ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish mumkin. Xususiy tadbirkorlik bilan mashg'ul shaxslaming jamiyat hayotidagi faolligini mustahkamlab, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat

qiladi. Bu esa oliy ta’lim tizimida yig’ilgan ilmiy yutuqlar, mutaxassis xodimlar va ularning ishtirokida yurtimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashdek ustuvor rejalami amalga oshirish vazifasini qo’ymoqda.

Xulosa. Masofaviy ta’lim berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o’tib, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi va jahon miqyosidagi yirik ta’lim markazlari bilan muloqotda bo’lib, ta ’lim olishning yangi zamonaviy yaxlit ta’lim imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Masofaviy o’qitish geograflk jihatdan turlicha joylashgan ta’lim muassasalari uchun mo’ljallangan edi. Lekin zamonaviy axborotlar va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’limtarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo’l ochib berdi. Natijada masofaviy o’qitish uslubi asosida o’qitish tez vaqt www.ziyouz.com kutubxonasi ichida Oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlarida o’qitishda yangi uslublami qo’llashga yana bir turtki bo’ldi. Masofaviy o’qitish bo’yicha Xalqaro Kengashning tahlillari shuni ko’rsatmoqdaki. bugungi kunda jahon miqyosida 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta’lim olishmoqda. AQShda shu uslub asosida o’qitish maqsadida yangi o’quv markazlari barpo etilmoqda hamda ular milliy kadrlarni zamon talablari asosida tayyorlash va qayta tayyorlash afzalliklariga egadir.

Masofaviy o’qitishning quyidagi afzalliklari mavjud: 1. O‘qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko’pgina uslublar asosida o’qituvchi (pedagog) ilm toliblarini o’qitadi, o’quvchi-talabalar esa faqat berilgan materialni o’qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o’qitish asosida esa o’quvchi-talabalaming o’zlari kompyuter axborotlar bankidan kerak bo’lgan ma’lumotlami qidirib topadi va o’zlarining tajribalari yordamida boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo’lishini ta’minlaydi hamda o’z o’rnida mehnat ta’limi olishini rag’batlantiradi. 2. Mustaqil ta’lim olish imkoniyatining borligi. Masofaviy o’qitish asosida ta ’lim berish boshlang’ich, o’rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o’z ichiga qamrab oladi. Tayyorgarligi turli darajada bo’lgan inspektorlar o’zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o’zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo’lishi mumkin. 3. Ish joyidagi katta o’zgarishlar. Masofaviy o’qitish asosida ta ’lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o’qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o’rin tutadi. 4. O’qitish va ta’lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik m a’lumotlar shuni ko’rsatadiki, masofaviy o’qitish asosida ta ’lim berish. ishlab chiqarishdan ajralgan holda o’qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o’qitish asosida ta’lim olish oliy o’quv yurti tomonidan qo’yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta’lim olayotgan o’quvchi-talabalaming

boshqalardan ustunligi ularni eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchi (pedagog)lar bilan ta 'minlashdir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o'qituvchi (pedagog) auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerak. www.ziyouz.com kutubxonasi Masofaviy 0'qitishning axborot-texnologik asoslari. Axborot texnologiyasi - obyekt, jarayon yoki hodisalarning holati haqidagi yangi ma'lumotlami targ'ib etish uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari va ma'lumotlami yetkazib beruvchi vositalar majmuidan foydalanish jarayonidir. Axborot texnologiyalari ta'limiy mahsulot va xizmatlarni tashkil etishda dastgoh hisoblanadi. Ta'limiy mahsulot - ta'lim jarayoniga tatbiq qilish uchun ifodalangan ma'lumotlar majmuidir. Zamonaviy axborot texnologiyasi — shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi axborot texnologiyasidir. Jamiyatni axborotlashtirish - fuqarolaming axborotga bo'lgan ehtiyojini va ularning huquqlarini amalga oshirishni qanoatlantirishdagi maqbul shartlarni bajarish, davlat va hokimiyat, mahalliy va o'zini-o'zi boshqarish oiganlarining talablari asosida axborot resurslaridan foydalangan holda jamoat birlashmalarini tashkil etish va ular faoliyatini yo'lga qo'yishning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikjarayonlaridir. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish - bu jamiyatni axborotlashtirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklar va afzalliklar bilan bog'liq o'zgarishlarda qatnashadi: - jamiyatning har bir a'zosi haqidagi m a'lumotlami va bilimlarni olishga yo'l ochib berishda; - shaxs uchun intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantirishda; -jamiyatning har bir a'zosi hayotida uning faolligi evaziga malaka oshirish xizmatlarini tezkor o'zgartirishda; - masofaviy o'qitish o'zib ketuvchi (ilg'or) ta'limni tashkil etish va uning samarasini oshirishni ta'minlashda; - ta'lim mahsulotlarini va xizmatlarini yaratish va tashkil etish maqsadida turli axborot texnologiyalarini qo'llashda; - guruhlash, turlash, hisoblash, ma'lumotlami agregatlash uchun AKT xizmatlaridan maksimal darajada foydalanishda; - masofaviy o'qitish qatnashchilarining axborot talablarini qondirish uchun boshqaruv axborot texnologiyalaridan samaraii foydalanishda; - masofaviy o'qitish qatnashchilari bilan AKT vositalarining o'zaro axborot almashuvi jarayonlarida; - fanlar bo'yicha ekspertlaming to'plagan bilimlar mahsulotlarini masofaviy o'qitishdan foydalanuvchilar tomonidan olinishining keng imkoniyatini beruvchi ekspert tizimli axborot texnologiyalarini ishga tushirishda va shu kabilar. Bunday tashkiliy-metodik masalalaming asosiy yechimlaridan biri - bu yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, shu bilan birga, respublikaning uzluksiz ta'lim tizimida, aynivsa, birinchi navbatda. oliy ta'limda masofaviy o'qitish uslubi o'z o 'mini egallashi kerakligidadir. Dunyoda masofaviy o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha juda katta tajriba orttirilgan. Jumladan, tajribali

o’qituvchilar va mutaxassislarning o’qitilayotgan kishiga yakka tartibda yordam berish, talabalar o’qishini turli uslubda nazorat qilish, ularning bilim saviyasi va malakaviy mukammalligini baholash maqsadida AKT turli variantlaridan foydalanishi tufayli talaba va o’quvchilarning o’qish sifati va mehnat unumdorligi oshadi.

Adabiyotlar:

1.Сыевко Г.К. Современные образовательные технологии. - М.: Народное образование, 1998.

2. Tolipova J., Numonova N. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. / “Xalq ta’limi” jumali, 2002, №

3. -20-24 b. 20. YoldoshevJ.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. / Toshkent: 0 ‘qituvchi, 2004.

4. Xo’jayev N.X., Xodieyv B. Yu., Baubekova G.D., Ti/abova N. T. Yangi pedagogik texnologiyalar. Obquv qo‘llanma. — Toshkent: Fan, 2002.

5. Qudratov R. O‘quv faoliyati-ijtimoiy hodisa. / “Xalq ta’limi” jumali, 2002, № 4. -58-61 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada masofaviy ta’limning pedagogik texnologiya hayotidagi o’rni va ahamiyati haqida ma’lumot berib o’tilgan. Hammamizga ma’lumki, har bir universitet yoki ta’lim muassasi o‘z ta’lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o‘zining virtual axborot ta’lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta’lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta’lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta’limga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yaratilgan. Bu maqolamizda masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. Maqolada keltirilgan dasturiy majumalar tahlili ko‘p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о роли и значении дистанционного образования в жизни педагогических технологий. Как известно, каждый университет или учебное заведение старается создать собственную виртуальную информационную среду обучения на основе современных технологий для управления своим образовательным процессом. В настоящее время нет необходимости создавать виртуальную информационную среду обучения, поскольку всевозможные программные пакеты, адаптированные к веб-среде, являются результатом совместной работы энтузиастов-программистов и сотрудников, работающих в сфере образования, а также поддержка образовательных фондов, создается бесплатное и открытое программное обеспечение. В данной статье представлен анализ набора бесплатных программ с открытым исходным кодом, которые дают возможность организовать дистанционный образовательный процесс. Анализ программных пакетов, представленный в статье, написан в результате научных исследований, проводившихся на протяжении многих лет.

SUMMARY

This article provides information about the role and importance of distance education in the life of pedagogical technology. As we all know, every university or educational institution tries to create its own virtual information learning environment based on modern technologies to manage its educational process. By now, there is no need to create a virtual information learning environment, because all kinds of software packages adapted to the Web environment, as a result of the collaborative work of enthusiastic programmers and employees working in the field of education, as well as the support of educational funds , free and open source software is created. This article presents an analysis of a set of free and open source programs that provide the opportunity to organize the distance education process. The analysis of software packages presented in the article was written as a result of scientific research conducted over many years.

TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI O'STIRISHDA HADIS ILMINING O'RNI VA AHAMIYATI

Bo'ronov Sh. Sh.
Qo'qon DPI mustaqil tadqiqodchisi

Tayanch so'zlar: Al-Jomi as-Saxix, muxaddis olimlar, hadis, yosh avlod, o'quvchi, ta'lim,tarbiya, odob-axloq, Islom dini, Qur'oni karim, hadis, sahih hadis, muhaddis.

Ключевые слова: Аль-Джами ас-Сахих, мухаддисоведы, хадисоведы, молодое поколение, учащиеся, образование, воспитание, нравы, ислам, Священный Коран, хадисы, достоверные хадисы, мухаддисы.

Key words: Al-Jami al-Sahih, muhaddith scholars, hadith, young generation, student, education, upbringing, morals, Islamic religion, Holy Qur'an, hadith, authentic hadith, muhaddith.

Kirish. Islom dinining asosiy qonuni bo'lgan Quroni Karimdan keyin uni izohlovchisi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasullullohning so'zlagan hikmatli gaplari va va qilgan ishlari, ya'ni qavllari, fe'llari va taqrirlari – ul zotning hadislari hisoblanadi. Hadislarda islom dini ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, odob-axloqqga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashhiq qilinadi, insoniylik shaniga dog' tushiradigan razil sifatlar qoralanadi. Shuning uchun ham islom dinining ilk davrlaridanoq musulmonlar hadislarga juda katta ahamiyat berishgan. Eshitgan har bir hadisni xatosiz, asl holicha boshqalarga yetkazishga rioya qilingan.

Yer, suv, olov, xavo, dov-daraxtlar, o'simliklar, jonivorlarni e'zozlash, yerlarni ishlab, sug'orib, bog'-rog'lar, ekinzorlar qilish, suv va xavoni muqaddas deb bilish to'g'risidagi Islom va zardushtiylik dinlari g'oya va qoidalari butun dunyo olimu fuzalolarida bo'lganidek, Sharq mutafakkirlari ta'limotida xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Darvoqe, mazkur jaxon dinlari g'oyalari IX-XII asrlarda - Ilk uyg'onish davrlarida o'lkamizdan yetishib chiqqan Imom Ismoil Buxoriy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Farobiy yaratgan tibbiy-ilmiy va falsafiy ta'limotlarga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatganligi aniq va ravshandir.

Muxaddislar orasida eng mashxuri, musulmon olamining iftixori, ulug' vatandoshimiz Imom Ismoil Buxoriy qalamiga mansub bexad ko'p buyuk asarlar orasida eng buyugi, shubxasiz, uning shox asari «Al-Jomi as-Saxix»dir. Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytsak, "Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'naviy meros qoldirib ketdi. Bu merosning gultoji – eng ishonchli hadislar to'plami «Al-Jomi as-Saxix» Islom dinida Quron Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi yirik manbaadir. Butun dunyo musulmonlari e'tiqodiga ko'ra u, bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idir" .

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni musaffo, kurrai-zaminni obod va go'zal qilish singari o'ta muhim va dolzarb masalalar muborak hadislarda ham katta o'rin tutadi. Payg'ambarimizning so'zlari, pand-nasihatlari, yo'l- yo'riqlari yig'indisidan iborat bo'lgan Hadislarda Koinotni atrofimizni o'rab turgan barcha narsalarni himoya qilish, saqlash, isrof qilmaslik to'g'risida qoidalar son-sanoqsiz. Hadislarda insonga nimaiki foydali bo'lsa, insonlarga zarari tegmasa ularga ozor bermaslik, yo'q qilmaslik buyurilgan. Imom Ismoil Buxoriy Abu Hurayra roziyallohu anhudan

rivoyat qildilarkim, Sarvari olam marhamat qiladilar: "O'tgan anbiyolardan birini chumoli chaqib olsa, amr qilib chumoli uyasiga o't qo'ydiribdi. Shunda Alloh Taolo vahiy yuborib, seni bir chumoli chaqqani uchun tasbeh aytib turgan ummatlardan birini kuydirib yuborasanmi?", degan ekan.

Islomda, Hadislarda ba'zi hayvon turlarini ov qilish, daraxtlarni kesish qat'iy man qilingan. Imom Buxoriyning "Al-Jomi as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarlarida Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qiladilarkim, Fathi Makka kuni payg'ambarimiz marhamat qiladilarkim, "Makkai mukarrama muqaddas haramdur. Undagi tikon va nabotot uzilmaydi va hayvonlar ov qilinmaydi va tegilmaydi, faqat yaxshi yo'llar bilan ularga muomala qilinur"1. Islom dini nuqtai nazaridan jonivorlarga azob berish, ayniqsa ehromda bo'lgan paytda hayvonlarni ov qilish kechirilmaydi. Hadislardan birida aytilishicha, "Agar sizlarning tilsiz hay-vonlarga nisbatan qilgan zulmlaringiz kechiriladigan bo'lsa, demak, juda ko'p gunohlaringiz kechirilar edi".

Hadisi Shariflardagi "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chatturgan paytda, bexosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yavering", "Qaysi bir mo'min biror narsa eksa yoki mevali daraxt o'tqazsa-yu, ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar esa, bu uning uchun sadaqa hukmida bo'ladi", "Kimki daraxt eksa va uni muhofaza qilishga sabr qilsa va hatto meva berguncha parvarish qilsa, u odamga mevasidan bitgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savoblar bo'lg'ay", "Soyasidan foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni Tangri do'zaxga mahkum etur"3, - deb

zikretilgan hikmatlar ham uzoq o'tmishdagi, ham hozirgi davr va kelajakdagi odamlar, xalqlar va millatlar, shuningdek, umumbashariyat uchun ham bebahodir, hamisha va har doim o'ta muhim va zarurdir.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Xalqimizda "ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi printsipiga asoslangan. Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab muhim farmon, qaror, kontseptsiyalar va dasturlar qabul qilindi. Yaqinda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda etkazib berishlari zarur.

Ta'lim jarayonida allomalarimizning ekologik ta'limotlari, tabiatni muhofaza qilishqa qaratilgan fikr mulohazalarni ta'lim jarayoniga bog'lash ta'lim jarayoniniung yuqori samaradorligiga erishish mumkin. Albatta bu

dars jarayonining qilinayotgan da'vatning hikmatli sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Imom al–Buxoriyning «al–Jome' as-saxix» asarida yosh avlodda ekologik madaniyatni tarkib toptirishga qaratilgan hadis namunalari keltirilgan.

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni musaffo, kurrai zaminni obod va go'zal qilish singari o'ta muhim va dolzarb masalalar muborak hadislarda ham katta o'rin tutadi. Payg'ambarimizning so'zlari, pand-nasihatlari, yo'l-yo'riqlari yig'indisidan iborat bo'lgan Hadislarda Koinotni atrofimizni o'rab turgan barcha narsalarni himoya qilish, saqlash, isrof qilmaslik to'g'risida qoidalar son-sanoqsiz. Hadislarda insonga nimaiki foydali bo'lsa, insonlarga zarari tegmasa ularga ozor bermaslik, yo'q qilmaslik buyurilgan. Imom Ismoil Buxoriy Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qildilarkim, Sarvari olam marhamat qiladilar: "O'tgan anbiyolardan birini chumoli chaqib olsa, amr qilib chumoli uyasiga o't qo'ydiribdi. Shunda Alloh Taolo vahiy yuborib, seni bir chumo-li chaqqani uchun tasbeh aytib turgan ummatlardan birini kuy-dirib yuborasanmi?", degan ekan. Islomda, Hadislarda baъzi hayvon turlarini ov qilish, daraxtlarni kesish qatъiy man qilingan. Imom Buxoriyning "Al-Jomi as-sahih" ("Ishonarli to'plam") asarlarida Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qiladilarkim, Fathi Makka kuni payg'ambarimiz marhamat qiladilarkim, "Makkai mukarrama muqaddas haramdur. Undagi tikon va nabotot uzilmaydi va hayvonlar ov qilinmaydi va tegilmaydi, faqat yaxshi yo'llar bilan ularga muomala qilinur". Islom dini nuqtai nazaridan jonivorlarga azob berish, ayniqsa ehromda bo'lgan paytda hayvonlarni ov qilish kechirilmaydi. Hadislardan birida aytilishicha, "Agar sizlarning tilsiz hayvonlarga nisbatan qilgan zulmlaringiz kechiriladigan bo'lsa, demak, juda ko'p gunohlaringiz kechirilar edi" .

Hadisi Shariflardagi "Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'cha turgan paytda, bexosdan qiyomat qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yavering", "Qaysi bir mo'min biror narsa eksa yoki mevali daraxt o'tqazsa-yu, ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar esa, bu uning uchun sadaqa hukmida bo'ladi", "Kimki daraxt eksa va uni muhofaza qilishga sabr qilsa va hatto meva berguncha parvarish qilsa, u odamga mevasidan bitgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savoblar bo'lg'ay", "Soyasidan foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni Tangri do'zaxga mahkum etur", - deb zikr etilgan hikmatlar ham uzoq o'tmishdagi, ham hozirgi davr va kelajakdagi odamlar, xalqlar va millatlar, shuningdek, umumbashariyat uchun ham bebahodir, hamisha va har doim o'ta muhim va zarurdir.

Atrof-muhitni toza va pokiza holatda saqlash, ekologik muhitni yaxshilash borasidagi hadislar, hikmatli so'zlar ta'lim jarayonidagi ekologik

kompitentlikni sermazmun hamda foydali bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aytib o'tilganlardan foydalanib ta'lim jarayonidagi talabalarning ekologik kompitentligini rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- hadis ilmidan habardor bo'lgan, uni yaxshi tushungan har bir ta'lim oluvchi bunga amal qilishga;
- uni amaliy hayot bilan bog'lashga;
- o'z bilimlarini boshqalarga ham yetkazishga harakat qiladi;
- ajdodlarimiz tabiiy muhitni qay darajada qadrlaganliklari va bu holat bugungi avlod qo'lida qanday holatda ekanligini taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. Tabiat haqidagi bilmlarni hadislar oqrali o'qitib borishning yana bir ijobiy tomoni shundaki, har bir ta'lim oluvchi ta'lim bilan birgalikda, o'zida insoniy fazilatlarning barchasini qaror toptiradi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki bobolarimiz Imom Buxoriy va Imom at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan bu hadisu-shariflarning nechog'li ahamiyatga ega ekanligi va bu hadisu-shariflarni o'qib-o'rganish va ularga amal qilish bugungi biz yashab turgan davrimiz uchun. Yangi O'zbekiston jamiyati uchun suv bilan havodek zarurligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Z. G'ofurov. Tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy va huquqiy asoslari Toshkent 2007. 232 bet.
2. Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. Toshkent 1999. "O'zbekiston"
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021. 460 bet
4. Axloq odobga oid hadis namunalari Toshkent "Fan" 1990 122 bet.
5. O'quvchi yoshlarning dunyoqarashini shakillantirishda va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hadis ilmining o'rni va roli, ilmiy maqola Qulmatov Norqobil Eshmamatovich katta o'qituvchi, dekan o'rinbosari Sam V M I T F.

РЕЗЮМЕ

Tabiatni muqaddas dargox, inson ilk bor ko'z ochib ko'rgan dunyo sifatida e'zozlash, uning bitmas-tuganmas boyliklari, noz-ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash qadim zamonlardan buyon insonlarning e'tiborida bo'lgan. Atrof-muxitni qanday qilib bo'lmasin muxofaza etish xayot-mamot masalasi ekanligi xaqidagi olijanob fikr va tushunchalar, tasavvurlar, g'oyalar va ta'limotlar, rivoyatlar va xikmatlar, qonun va qoidalar, dastur va tuzuklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat tarixi kabi qadimiy va azaliydir.

Shu nuqtai nazardan olganimizda ushbu maqolamizda hadis ilmida tabiatni asrashga qilindan da'vat, undagi qaytariqlar, buyurishlar, har bir jonzotga mehr muruvvat nuqtai nazaridan qaralishi e'tiborga olingan. Albatta hadis olamida insonlarning rioya qilishi lozim bo'lgan amallari amallar qatori tabiat va undagi ne'matlarga bo'lgan munosabatlar ham munosib o'rin egallaydi. Ushbu maqolamizda bu masalaga qo'limizdan kelganicha to'xtalib o'tishga harakat qildik.

РЕЗЮМЕ

Почитая природу как священное место, мир, который человек увидел впервые, хранящий как зеницу ока его неисчерпаемые богатства и лакомства, с древних времен находился во внимании людей. Возникновение и развитие благородных мыслей и понятий, фантазий, идей и учений, ле-

генд и мудростей, законов и правил, программ и положений о том, что охрана окружающей среды является вопросом жизни и смерти, как древних и вечных.

С этой точки зрения в данной статье принято во внимание, что в науке о хадисах рассматривается призыв к сохранению природы, ее предостережения, повеления, доброта к каждому существу. Конечно, в мире хадисов, помимо действий, которым должны следовать люди, достойное место занимают и отношения с природой и ее благами. В этой статье мы постарались максимально затронуть этот вопрос.

SUMMARY

Respecting nature as a sacred place, the world that man has seen for the first time, preserving its inexhaustible riches and delicacies like the apple of an eye has been in the attention of people since ancient times. was. The emergence and development of noble thoughts and concepts, imaginations, ideas and teachings, legends and wisdoms, laws and rules, programs and regulations about the fact that protecting the environment is a matter of life and death. as ancient and eternal.

From this point of view, in this article, it is taken into consideration that in the science of hadith, the call to preserve nature, its warnings, commands, kindness to every creature is considered. Of course, in the world of hadith, in addition to the actions that people must follow, relationships with nature and its blessings also occupy a worthy place. In this article, we tried to touch on this issue as much as we could.

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA KOGNITIV-MOTIVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA VOSITALARI

Abdullayev I. X.
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: chaqiriqqacha harbiy ta’lim, kognitiv-motivsion kompetentlik, kognitiv faoliyat, metod, vosita, dars bosqichlari, intervyu, suhbat, kuzatuv, anketa savollari, maxsus kurs, fakultativ dars.

Ключевые слова: допризывная военная подготовка, познавательно-мотивационные компетенции, познавательная деятельность, метод, инструмент, этапы урока, собеседование, собеседование, наблюдение, анкетные вопросы, спецкурс, факультативное занятие.

Key words: pre-draft military education, cognitive-motivational competence, cognitive activity, method, tool, lesson stages, interview, interview, observation, questionnaire questions, special course, optional lesson.

Bugun jahonda sodir bo‘layotgan jarayonlar chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishida yoshlarga ta’lim berishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bunda chaqiriqqacha harbiy ta’lim darslarida qo‘llaniladigan metodlar va vositalarga talab kuchayadi. Dars maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshishi uchun maqsadga mos ravishda tanlangan metod va vositalar ish samaradorligini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022−2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 noyabrdagi «Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4054 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 30 avgustdagi 105-1-son «O‘zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi» to‘g‘risidagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 12 dekabrdagi PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qarori hamdaa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi “YOshlarni harbiy-vatanpavarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 140-sonli

qarorilari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bu masala nazarda tutilgan.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida “Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish” da harbiy iayyorgarlikni takomillashtirish hamda harbiy kadrlarning yuqori jangovar tayyorgarlikka ega bo‘lishlarini ta’minlashda ta’lim metodlarini bilish, vositalarni to‘g‘ri tanlash va faoliyatda qo‘llay bilish faoliyat samaradorligini oshirishda muhim jihatlardan biri sanaladi. SHu bilan birga harbiy ta’lim muassasalari talabalarida harbiy salohiyatni oshirishda dars jarayonlarining o‘rni katta, dars mashg‘ulotlarida metod va vositalarni o‘rinli qo‘llash maqsadlar sari harakatlarning to‘g‘ri tartibga solinishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda harbiy ta’limda yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish yaxshi samara berishi va unda maqsadga erishishda yangi pedagogik metod va vositalarni qo‘llash kutilgan natijaga erishishni ta’minlaydi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining kognitiv faoliyatini takomillashtirishda dars jarayonlari samaradorligiga erishish katta o‘rin tutadi. Dars maqsadlariga erishishda unga mos metod va usullarni tanlay bilish, mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minlash, vositalarni maqsadga yo‘naltira bilish zarurati birinchi planga o‘tadi. Bu masalalarni atroflicha o‘rganish dars samaradorligiga erishish pirovardida ta’lim sohasining mazmundorligini ta’minlashi maqolada o‘z aksini topgan.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi dars mashg‘ulotlarini tashkillashda zamonaviy metod va vositalarni qo‘llash katta ahamiyatga ega. Xususan, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishida masalaning bu jihati ko‘pincha e’tibordan chetda qolib kelgan. Bu, o‘z navbatida, dars sifatining pasayishi va qiziqish kamayishiga olib keladi. Bu muammoni hal qilishning eng to‘g‘ri yo‘li dars o‘tish pedagogikasiga oid zamonaviy usullarni topish va dars ishlanmalari ishlab chiqish bilan hal qilinishi mumkin.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri – bu differensiyaal yondashuv asoidagi ta’lim-tarbiya tizimidir. Bizga ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Ta’lim – jamiyatning isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylanishning asosiy omilidir. Millatimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi, bugungi kunda ta’lim olayotgan yoshlarning qay darajada ta’lim-tarbiya olishi bilan bog‘liqdir. SHuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida shunday kuchlar yuzaga kelmoqdaki, ular hali ongi to‘liq shakllanib ulgurmagan yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga harakat qilmoqdalar. Bunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Zero, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirish orqali harbiy xizmatga, o‘z Vatani - O‘zbekiston Respublikasini ximoya qilishdagi burchini bajarishga har tomonlama tayyorlash - o‘quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir.

Ma’lumki, harbiy ta’lim talabalarini yuksak jismoniy tayyorgarlik, jangavorlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish davlat taraqqiyoti yurt tinchligining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu asosda ta’lim-tarbiya mazmuni va samaradorligi takomillashib boradi. Mazkur muammoga oid olib borilayotgan tadqiqotchilik kuzatuvlariga muvofiq pedagogik tadqiqotning maydonga chiqishi uchun:

– tegishli shart-sharoit (ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy-texnik) va ijodiy muhit (izlanuvchanlik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish) yaratish;
– harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini jismoniy madaniyat, jangavorlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallar seriyasini ishlab chiqish va ularni keng ko‘lamda amaliyotga joriy etish;
– ilmiy-amaliy izlanish va tashabbus asosida to‘plangan yangilik hamda tajribalarni uzluksiz harakatdagi jarayonga aylantirish;
– harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini jismoniy madaniyat va jangavorlik ruhida tarbiyalash va yuksak taktik tayyorgarligini oshirish tizimini takomillashtirish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, harbiy sohaning etuk kadrlarini tarbyailash imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.. Buning uchun, eng avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek, tegishli shart-sharoit va ijodiy muhit yaratilishi zarur.

Ilm-fanning turli sohalarida amalga oshiriladigan tadqiqot ishlari muayyan metodlarga asoslanadi. Ilmiy-tadqiqot metodlari tadqiqotlarni ilmiy jihatdan

to‘g‘ri tashkil etish, samaradorligini ta’minlash maqsadida tadqiqotchi tomonidan qo‘llaniladigan usullar majumi sanaladi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi ilmiy-pedagogtk metodlardan samarali foydalanildi: pedagogik kuzatish, anketa, suhbat, intervyu, namoyish (prezentatsiya), modellashtirish, matematik-statistik tahlil.

Pedagogik kuzatishni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratildi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik .

Zamonaviy sharoitda anketa metodi nafaqat pedagogik-psixologik yo‘nalishlarda amalga oshiriluvchi, shu bilan birga ilm-fanning turli sohalarida tashkil etiladigan tadqiqotlarning muhim elementi hisoblanadi. Pedagogik-psixologik yo‘nalishda mazkur metodning yuqori samara bera olishi uni qo‘llashda muayyan shartlarga roiya qilish sanaladi. Xususan:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart .

Suhbat ham tadqiqot ishlarining eng muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilindi. Uning samarali qo‘llanishida quyidagi shartlarga amal qilindi:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;

4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;

6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Intervyu metodi bevosita tadqiqot ishlari davrida tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari hamda tadbirlarning talabalar ehtiyojini qay darajada qondira olganligini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Uning samaradorligini ta’minlashda tashkil etishda ham muayyan shartlarga amal qilindi. YA’ni:

1) intervyu uchun ishlangan savollarning aniq, qisqa va mantiqiy asosga ega bo‘lishi;

2) savollarning tashxis xarakterini namoyon eta olishi;

3) berilayotgan savol respondent uchun tushunarli, uning yoshi hamda dunyoqarashiga mos bo‘lishi;

4) savollarning muayyan izchillikda, tizimli berilishi.

Namoyish (prezentatsiya) metodini qo‘llashda ham ma’lum shartlarga rioya etildi. Xususan:

1) namoyishda o‘rganilayotgan mavzuning eng muhim tushunchalari yoki belgilarining ifodalanishi;

2) har bir slayd muayyan mantiqiy izchillik, tizimlilik va uzviylikka asoslanishi;

3) namoyish foni va matn ko‘rinishi (harflarning shrifti, o‘lchami, holati) ning bir-biriga o‘zaro mos kelishi;

4) matnning auditoriyaning turli tomoni va uzoqlikdan o‘qiy olish imkoniyatining ta’minlanishi;

5) o‘rganilayotgan mavzuning eng asosiy o‘rinlarining yoritilishi.

Modellashtirish ham zamonaviy ilm-fanning yo‘nalishlarida keng qo‘llanilayotgan metodlardan biri bo‘lib, uning yordamida ma’lum narsa (buyum, predmet) va hodisa (jarayon)larning mohiyati muayyan shartli belgi, ramz yoki sun’iy til yordamida ifodalanadi. Pedagogik tadqiqot hamda tajriba-sinov ishlarini olib borishda modellashtirish metodidan ham foydalanish ma’lum shartlarga rioya etilishini taqozo qiladi. Jumladan:

1) o‘rganilayotgan jarayon, mavzuning eng muhim element (jihat)larini ajratib olish;

2) uning muhimlik darajasini yana bir bor tahlil qilish;

3) jarayon, mavzuga xos eng muhim element (jihat)lar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va birlikni topish;

4) eng muhim element (jihat)lar o‘rtasida ularni o‘zaro bog‘lovchi aloqani ko‘rsatish.

Matematik-statistik tahlil metodi ham pedagogik-psixologik yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri

bo‘lib, uning yordamida sinov jarayoni, shuningdek, tadqiqotning samaradorligi baholanadi.

Pedagogik jarayonning muvaffaqiyati nafaqat metodlar, shu bilan birga vositalar yordamida ham ta’minlanadi. Ta’lim jarayoni va tarbiyaviy faoliyatda qo‘llaniladigan vositalar ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda ikki guruhga, ya’ni:

1) o‘qitish vositalari;

2) tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositalari.

Agarda o‘qitish vositalari ta’lim jarayonida “axborotni uzatish, o‘zlashtirish hamda aqliy va jismoniy mehnat bo‘yicha ko‘nikma, malakalarni egallash uchun” qo‘llaniladigan o‘quv jihozlari, asbob-uskunalar, ko‘rgazmali qurollar, apparatlardan tarkib topsa, tarbiyavi ta’sir ko‘rsatish vositalari shaxsda muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, uni qayta tarbiyalash va ma’lum faoliyat ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladigan vositalardan iboratdir. Pedagogik jarayonda aniq maqsadga muvofiq o‘qitish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish vositalaridan biri yoki bir nechtasi qo‘llaniladi.

Kursant-talabalarda jismoniy kuch va irodani rivojlantirish, kogniti va motivatsion tayyorgarlikka oid naazriy va amaliy bilimlarni oshirish, maliy mashg‘ulotlarni yangicha ko‘rinishda tashkil etish orqali akmeologik yondashuvning imkoniyatlari sinaladi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi taralabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi vositalardan foydalanildi:

– fakultativ kurs dasturi;
– alloma va buyuk sarkarda (Spartak, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur)larning hayotidan ibratli hikoyalar;
– harbiy va tinchlik qo‘shiqlari;
– plakatlar (urush va tinchlik mohiyatini yorituvchi sxema, tasvir va jadvallardan iborat plakatlar);
– davriy matbuot materiallari jamlangan to‘plam;
– darslik (“Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanidan), o‘quv (hamda metodik qo‘llanmalar;
– hujjatli, ilmiy, ilmiy-ommabop, ommabop va badiiy filmlar;
– harbiy-sport o‘yinlari;
– milliy harakatli o‘yinlar;
– o‘quv xonalari;
– sport maydonlari, zallari va stadionlar;
– nashr ishlari, davriy matbuot nashrlari;
– ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, Internet);
– o‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar;

– O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, harbiy faoliyatni tashkil etishga oid ko‘rsatma va yo‘riqnomalar;
– o‘qituvchilar;
– ish qurollari (yozuv doskasi, ruchka, qalam, ish stoli, markerlar va boshqalar);
– shaxslararo muloqot;
– nutq.

Bugungi zamonaviy ta’lim chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan usullarni modernizatsiya qilish va uning konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi. Bunda o‘zbek xalqining ilmiy merosi, axloqiy qadriyatlari, intellektual salohiyati va ma’naviy imkoniyatlari asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022 yil, 20 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 2020 y., 06/20/6108/1483-son.

3. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.452. Abdurasulov O.A. Harbiy xizmatchilar o‘rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo‘llari va uning nazariy asoslari // O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarixi, buguni va kelajagi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. − Toshkent: O‘zRMV, 2005. – B. 96-98

4. https://review.uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn

5. Abdurasulov O.A., Nazarov A.S. YOshlar ma’naviyati shakllanishida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining roli // Milliy istiqlol g‘oyasi va armiya. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Toshkent: 2004.

6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism /Mualliflar: M.X.To‘xtaxo‘jaeva va boshqalar. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – B.44.

РЕЗЮМЕ

Bugungi kunda chaqiriqqacha harbiy ta’lim bu yo‘nalishi zamonaviy o‘qitish metodlari bilan boyib bormoqda. Xususan, darslarda kognitiv-motivatsion kompetensiyani rivojlantirishning metod va vositalarini tadqiq qilish eng dolzarb masalalardan biridir. Maqolada dars jarayonida qo‘llash mumkin **bo‘lgan metod va vositalar, ularning qo‘llanish shartlari va maqsad-vazifalari haqida so‘z boradi.**

РЕЗЮМЕ

Сегодня эта область военного образования обогащается современными методами обучения. В частности, исследование методов и средств развития познавательно-мотивационной компетентности на занятиях является одной из наиболее актуальных проблем. В статье рассказывается о методах и средствах, которые можно использовать в ходе урока, условиях их использования и их задачах.

SUMMARY

Today, this field of military education is enriched with modern teaching methods. In particular, researching methods and means of developing cognitive-motivational competence in classes is one of the most urgent issues. The article talks about the methods and tools that can be used in the course of the lesson, the conditions of their use and their objectives.

PEDAGOGIKA VA ONA TILI O'QITISH SAVODXONLIK METODIKASI FANLARIDAN INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM ASOSIDA DIDAKTIK YONDASHUV

Tursunova N. T.
TAFU Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: integratsiya, pedagogika, ona tili o'qitish, savodxonlik, metodika, fan, integratsiya, ta'lim, didaktik yondashuv, metodika, akmealogiya, kretiv, hamkotlik, akademik mobillik, qobilyat.

Ключевые слова: интеграция, педагогика, обучение родному языку, грамотность, методология, наука, интеграция, образование, дидактический подход, методология, акмеология, креативность, сотрудничество, академическая мобильность, способности.

Key words: integration, pedagogy, mother tongue teaching, literacy, methodology, science, integration, education, didactic approach, methodology, acmeology, creativity, cooperation, academic mobility, ability.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun 2020-yil 23-sentabr hamda Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni rivojlantirishga, Respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratilishiga uzviy bog‘landi. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobilyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Pedagogik oliy ta’limda guruhli o‘qitish usulining qo‘llanilishi bir necha talabalarning birgalikda muammo ustida izlanishi va unga yechim topishga urinishi, bu jarayonda bir-birini qo‘llab quvvatlashi kuzatiladi. Bu hamkorlikdagi faoliyatni dars mashg’uloti jarayonida bosqichma-bosqich qo‘llab borish talabalarning akademik qobiliyatlari rivojlanishiga olib keladi, ularda o‘z bilimlaridan qoniqmasdan izlanuvchanlikni oshiradi. Oliy ta’limdap pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan integratsiyalashgan ta’lim asosida o‘qitish o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini dars mobaynida nafaqat o‘zi ishlashi balki talabalarni ham dars jarayoniga

qiziqtira olishi, o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina, darsni to‘g‘ri tashkil etish, ilg‘or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin.

Integratsiya (lot. integratio - tiklash, to‘ldirish, integer - butun so‘zidan olingan) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi; Ta’limda integratsiyalash talaba dunyoni bilishi va tasavvur qilishda bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) talabani ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asos bo‘lib, tabiatni to‘g‘ri va to‘la anglashga, mantiqiy fikrlashga, ilmiy- texnika rivojlanishi maqsadida amaliy faoliyatda axborot texnologiyalarini qo‘llanilishi bilan tanishtiradi o‘rgatadi;

Integratsiya-Fanlararo bog‘lanish;

Tashqi integratsiya-o‘zbek tili, ingiliz tili matematika, biologiya, kimyo, geografiya, tarix, adabiyot, informatika, jismoniy tarbiya;

Ichki integratsiya-mavzulararo bog‘lanish, mavzularning bir-biriga, bog‘lanishi va uzviyligi;

Biz integratsiyaning mohiyatini aniqlash jarayonida uning filosofik, pedagogik - psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma’lumki, o‘qitish va tarbiya jarayoni bir - biri bilan uzviy bog‘liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta’lim jarayonining barcha majmuini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy intelektual insonni tarbiyalashda integrativ ta‘limning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o‘zaro bog‘likligini ta’minlaydi. Integrativ ta‘lim jarayonida talaba, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat konunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o‘zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo‘lib kamol topadi. Tabiat go‘zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e’zozlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ta’limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo‘llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta‘lim muassasalari o‘quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o’quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta’minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatib: - ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi; Pedaggogika nazariyasi

va amaliyoti, pedagogik mahorat o‘quv jarayonini o‘zlashtirishda amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- Didaktika (ta’lim nazariyasi);
- Tarbiya nazariyasi;
- Ta’lim shakli, metodi, vositasi, qonuniyatlari, tamoyillari;
- Fanning kategoriyalari.
- Pedagogik faoliyatda ta’lim-taribiyaga oid tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishi;
- Pedagogik faoliyatda ta’lim-taribiyaga oid tushunchalar tahlil qilish;
- Pedagogik faoliyatida muntazam ravishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

Fanlararo aloqadorlik ta‘minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o‘quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Pedagogik OTMning asosiy vazifalaridan biri talabalarda dunyoga yaxlit, o‘zaro aloqador bo‘lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko‘ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan ta’lim mazmunida inson va uning dunyoga bo‘lgan munosabati: - inson va hayot, - inson va jamiyat, - inson va inson, - inson va texnika, tabiat-inson, muammosi tobora markaziy o‘rin egallamoqda. Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan ta’limni o‘rganuvchi fanlarni bir guruhda bir marta o‘rganib bo‘lmaydi. Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan fanlar ta’limi mazmuni inson va ta’lim aloqadorligi atrofidagi muammolarni o‘rganuvchi turli o‘quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog‘i lozim, bu esa Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan fanlar bilan aloqdorligiga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o‘zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o‘ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo‘nalishlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Ular tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi. Pedagogik OTMda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyat qozonishlari uchun ma’lum bir tizim asosida o‘qitilmoqda.

Talabalar Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan qanday qilib Esse yozish, alifboni kataklarda to‘ldirish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qilish ko‘rsatiladi. Ular Pedagogika va ona tili o’qitish

savodxonlik metodikasi fanlaridan tillarida turli xil mavzuga oid matnlarni muhokama qilishni, tinglashni, savollarga javob berishni va tahlil qilishni o‘rganadilar. Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan o’zlashtirishda o‘rganuvchi yoshi nechadaligi, til o‘rganishga qiziqishi va izchillik asosida til o‘rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, kabilar tilni o’zlashtirishda muhim bo‘lsa, foydalaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o‘qituvchi va til o‘rganishdagi to‘g‘ri yondashuv usullari kabilar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba’zan, pedagogik OTMda talabalar Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan o‘rganishdagi qiyinchiliklar muammo tug’diradi. Hozirgi texnologiya va Internet, Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan o‘rgatuvchi turli xil ilovalar rivojlanayotgan davrda bu kabi sabablar o‘rinsiz hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish talabalarda o‘ziga ko‘proq ishonchni his qilish imkonini beradi. Axir, filologik aloqa odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosidir. Shuning uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogika oliy ta’lim sohasidagi asosiy vazifadir.

Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik OTMda Boshlang’ich ta’lim yo’nalish talabalarining shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda o‘qishning birinchi yillari ayniqsa 1-kurs samarali bo‘lishi kerak. Hatto Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan fanlariga qiziqishi, intizomli bo‘lishi, o‘qituvchilarni, tengdoshlarini tinglashni o‘rganishi va o‘z fikrlarini bayon qila olishi kerak. Ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan kommunikativ kompetensiyasiga nafaqat asosiy so‘z boyliklaridan foydalanish, balki og‘zaki nutq so‘zlari, professional so‘zlar va iboralar, boshqa xalqlarning madaniyati, qonunlari va xulq-atvori haqidagi g‘oyalar kiradi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, talabalarni ona tiliga o‘rgatish uchun eng qulay davr 1-2-kurs yangi so‘zlar va grammatikani o‘zlashtirish onsonroq kechadi. Yuqori kursga ko‘tarilganda mutaxassis fanlarni o‘zlashtirishda Pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan fanlariga vaqtni tejashga harakat qiladi. Fanlararo integratsiya va mediata’lim uslubi boshqa uslublardan farq qiladi, chunki talabalar tomonidan boshqa usullarda o‘rganiladigan, hayotdan uzoq bo‘lgan o‘quv-fantastik matnlar kundalik hayotdan dialoglar bilan almashtiriladi. Talabalar ular bilan bir-birlarini suhbatga chorlaydigan, ya’ni boshqa odamni rag‘batlantiradigan tarzda o‘ynashadi. Mavzular talabalar uchun yaqin va qiziqarli bo‘lishi kerak. Muloqotning mavjud bo‘lgan boshqa usullardan farqi shundaki, metodik yondashuv asosida talabalar dars qanday tugashini, u yoki bu savolga kim va qanday javob berishini bilishmaydi, barchasi vaziyatlarga bog‘liq. Har bir darsda munozara uchun yangi mavzular,

yangi mashq turlari mavjud. Bu talabalarni xilma-xilligi va shu bilan birga, o‘rganishdan charchamasliklari uchun amalga oshiriladi. Fanlararo integratsiya va mediata’lim texnologiyasi, avvalo, jonli muloqot qo‘rquvini yo‘qotish uchun kerak. Bu texnologiya asosiy kurslarda olingan tilning ba’zi leksik va grammatik bazalariga ega bo‘lganlar uchun eng ma’qul degan fikr mavjud. Bundan tashqari, ta’lim-tarbiya nazariyasi, ta’lim shakli, metodi vositalari, ta’lim qonuniyatlari va tamoyillari, tarixini o‘rganish, tahlil qilish, xalq pedagogikasi va hozirgi zamon ilmiy pedagogikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, pedagogika tarixuiga oid materiallar, Sharq mutaffakkirlarining pedagogik g’oyalari, pedagogik mahorat, nutq texnikasi va muloqot jarayoni, pedagogik, metodik va didaktik talablar shuningdek OTMda o‘quv tarbiya jarayoni ta’limiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Pedagogika faniga oid bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiriladi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondoshish yo‘llarini ko‘rsatadi. Uni o‘qitish bo‘lajak pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirish, ya’ni o‘qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarishga umumiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan yangi pedagogik tafakkurni tarkib toptirishga yo‘naltirishi lozim. OTMda ta’lim va tarbiya jarayonida milliy g‘oya va ma’naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish; ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo‘llash; talabani rag‘batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste’dodi, iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish, ota-onalar, jamoa, talabalar bilan yakka va guruh bo‘lib ishlash; talabalar guruhlarini boshqarishni bilishi va ulardan foydalana olishi ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

- Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv va ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyasini qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- pedagogik faoliyatni to‘g‘ri yo‘naltirish;
- talabalar bilan olib boriladigan dars mashg’ulotni to‘g‘ri tashkil etish;
- dars mashg’uloti jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish;
- dars ishlanmalarini tayyorlash va ommalashtirish tadqiqotchilik;
- informatsion;
- kommunikativ;
- kreativ;
- ma’naviy-axloqiy;
- akmeologik;
- aksiologik kompetentsiyalarni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar birinchi darsdanoq Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan o'qitishning kommunikativ texnologiyasi birinchi darsdanoq so'zlashadigan muhitga singib ketishini nazarda tutadi. Agar siz Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan qanday gaplashishni xayolingizga ham keltirmagan bo'lsangiz, unda birinchi darsdan so'ng siz bir nechta o'nlab iboralarni o'rganishingiz va ularni suhbatda qo'llashingiz mumkin bo'ladi. Til to'sig'i. Hech qanday ikkilanmasdan vakolatli nutq kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi hisoblanadi. Talaba talaffuzda xato qilishdan qo'rqsa yoki aksentdan qutula olmasa, til to'sig'i hosil bo'ladi. Kommunikativ texnika bularning barchasini mukammal darajada yengadi, chunki aloqa amaliyoti deyarli belgilangan barcha vaqtlarga ajratilgan. Shu bilan birga, o'qituvchi so'zning xatolarini tuzatadi va o'z fikrlarini bayon etishdan qo'rqmaydigan talabalarni rag'batlantiradi.

Ravon nutq. Agar siz Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan unda kommunikativ treningda siz faqat har kuni duch keladigan narsalar haqida gaplashasiz: kundalik muammolar, do'stlaringiz bilan suhbatlashish, yangiliklarni muhokama qilish va hk. Shuning uchun ona tilida bo'lgani kabi muloqot qilish mahorati rivojlantiriladi.

So'z boyligini tez kengaytirish. Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlari darslarida kommunikativ trening texnologiyasi tezda o'rganishni va unda boshqalar bilan muloqot qilishni istaganlar uchun mo'ljallangan. Shuning uchun, o'qishning birinchi oyida Pedagogika va ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan ishlatadigan so'zlarning taxminan 50-70 foizini o'rganasiz. Butun kurs davomida siz o'zingizning so'z boyligingizni 3000-4000 so'zgacha kengaytirasiz, bu sayohat, ish safari, aloqa va hatto yangiliklarni o'qish uchun yetarli bo'ladi. Tilni yaxshi tushunish. kommunikativ treningda talaba nafaqat suhbatlashadi, balki boshqa talabalarni ham tinglaydi. Pedagogik oily ta'limda talabalar to'laqonli dialogni o'tkazish uchun suhbatdosh nima haqida gaplashayotganini tushunishlari kerak. Shunday qilib, talaba tinglash qobiliyatlari yaxshi rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 32-son, 820-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2019-y., 09/19/395/3115-son

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.

3. Axmedova M.E. //"Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari"// Monografiya //"Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi" MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.

4. Axmedova M.E. //"Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi" Metodik qo`llanma //"Tibhbiyot nashriyoti matbaa uyi" Toshkent-2022, 100 bet.

5. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik.”Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.

РЕЗЮМЕ

Ta’limda talabalarning pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan integratsiyalashgan ta’lim asosida didaktik yondashuv mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta’lim muassasalarini ilg’or jahon tajribalari asosida didaktik yondashuvning tamoyillari, ta’lim oluvchi, ta’lim natijalarini tan olinishi. Ta’lim traektoriyasini pedagogika va ona tili o’qitish savodxonlik metodikasi fanlaridan didaktik tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ

Современное состояние и перспективы перехода на педагогика, методика систему развития устной компетенции студентов высшего филологического образования, принципы дидактическая системы вузов на основе передового зарубежного опыта, признания результатов обучения. Обоснована академическая мобильность, накопление оценок, заинтересованность преподавателей и студентов в науке, а также введение четко определенной системыв дидактическая.

SUMMARY

The current state and prospects for the transition to a pedagogiki, metodiksh system for the development of oral competence of students of higher philological education, the principles of a didaktik system of universities based on advanced foreign experience, recognition of learning outcomes. Substantiated are academic mobility, the accumulation of grades, the interest of teachers and students in science, as well as the introduction of a well-defined дидактик system.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Жакбарова З. С.
Фарғона Давлат Университети таянч докторанти

Таянч сўзлар: модернизация, компетентлик, муомала маданияти, ижтимоий-маданий компетентлик, таркибий компонентлар, фаолият, муаммо.

Ключевые слова: модернизация, компетентность, культура обращения, социокультурная компетентность, структурные компоненты, направление, проблема.

Key words: modernization, competence, socio-cultural competence, structural components, direction, problem.

Замонавий ахборот жамиятини модернизация қилишни глобаллашув жараёнисиз тасаввур этиб бўлмаганидек, турли фанларни ривожлантириш ва янги ғояларни жорий этиш жараёнини ижтимоий-маданий ҳамкорликсиз тасаввур этиб бўлмайди. Бу жараёнлар инсон ҳаётининг барча соҳаларига - кундалик, маданий, илмий, сиёсий, иқтисодий тааллуқлидир.

Инсон ҳаёти давомида доимо турли маданият ва урф-одатлар вакиллари билан дуч келади, улар дўстлар, қариндошлар ёки танишлар бўлиши мумкин. Бироқ, улар билан мулоқот қилиш қийин бўлиши мумкин, чунки ҳар бир инсон дунёнинг ўз идрокига, маданий хусусиятларига ва тил тўсиқлари ўртасидаги фарқга эга. Мулоқотни муваффақиятли қуриш ва самарали ҳамкорликни амалга ошириш учун бағрикенглик ва ғамхўрлик каби фазилатлар, шунингдек, тил муҳитига тезда мослашиш қобилияти талаб қилинади. Буларнинг барчасини "ижтимоий-маданий компетентлик" умумий атамаси билан бирлаштирилиш мумкин.

Психологик ва педагогик адабиётларда "компетентлик" тушунчаси кенг тарқалган. Турли олимлар бу тушунчани турли нуқтаи назардан кўриб чиқадилар. Бу соҳада энг машҳур олим Эдинбург университети профессори, доктор Жон Равен бўлади. У компетенцияни "муайян соҳада муайян ҳаракатни самарали амалга ошириш учун зарур бўлган махсус қобилият ва тор мутахассислик, махсус касбий қобилиятлар, фикрлаш усуллари,

шунингдек, уларнинг хатти-ҳаракатлари учун масъулиятни тушуниш” деб таърифлайди.

Компетенция - бу билим ва инсоннинг амалий фаолияти ўртасидаги муносабатлар соҳасига тегишли бўлган тушунчадир. Б.Ю.Элконинниг таърифига кўра, “компетенция - бу ўз фаолиятини ўз ичига олган пайтдаги шахснинг малакавий характеристикаси” [4,56].

А. В. Хуторский, “компетенция” ва “компетентлик” тушунчаларини ажратиб, уларга қуйидагича таъриф беради[5,13].

Компетенция - муайян объектлар ва жараёнлар доирасига нисбатан белгиланадиган ва уларга нисбатан сифатли самарали фаолият учун зарур бўлган шахснинг ўзаро боғлиқ фазилатлари (билим, кўникма, малака, фаолият усуллари) тўпламидир.

Компетентлик - шахсга тегишли ваколатга эга бўлиш, унга ва унинг фаолият мавзусига шахсий муносабатини ўз ичига олади .

Маданият – рамзлар, инонч–эътиқодлар, қадриятлар, мезонлар, артефактлар йиғиндисидир. Маданиятда мазкур жамият, миллат, гуруҳларнинг характерли хусусиятлари ҳам ўз ифодасини топади. Жамият, миллат, гуруҳлар айнан ўз маданияти билан фарқланади. Халқ маданияти – унинг ҳаёт тарзи, кийимлари, яшаш маскани, ошхонаси, халқ оғзаки ижоди, диний тасаввурлари, инонч–эътиқодлари ва бошқалардир.

Маданият ва ижтимоий маданиятнинг диққат марказида инсонда зиёлилик ҳиссини тарбиялаш туради. “Киши қанчалик зиёли бўлса, – деган эди Д.С.Лихачев, – у шунча кўп тушунади ва ўзлаштиради, унинг дунёқараши ва қабул қилиш доираси шунчалик кенгайиб бораверади. Кишининг маданий савияси қанчалик тор бўлса, у ҳамма янгиликларга ва “ғоят эски” ликка нисбатан шунча бефарқ бўлади. Ундай одам ўзининг эски одатлари билан яшайди. Бундай одам дунёқараши торлигидан ҳамма нарсага шубҳа билан қарайди[1;108].

Маданият ва ижтимоий маданиятнинг муҳим вазифаларидан бири - бу инсонда ижодий қобилиятни ривожлантиришдан иборатдир. Маданият фақатгина моддий ва маънавий бойликлар йиғиндисидан иборат эмас, балки ижодий фаолият ҳамдир.

Маданиятни юзага келтирувчи асосий омил жамият ва унда яшайдиган одамлардир. Жамият маҳсули бўлган маданият қанчалик мукаммаллашиб, бойиб борса, унинг инсонга ва жамиятга таъсири кучайиб, мустақил бўла боради[2;57].

Ижтимоий-маданий компетентлик – коммуникатив компетенциянинг таркибий қисми бўлиб, ўрганилаётган тилнинг мамлакатининг ҳақиқатлари, она тилининг ижтимоий ва нутқ хатти-ҳаракатларининг миллий-маданий

хусусиятлари ҳақида билимлар тўплами, бу билимларни мулоқот амалиётида қўллаш ва муайян урф-одатлар, ахлоқ қоидалари, хатти-ҳаракатларнинг қоидалари ва стереотипларига риоя қилиш қобилияти саналади.

Н. Д. Галскова, Н.И.Гез ижтимоий-маданий компетентликни - "маданият мулоқоти" деб атайди, яъни ижтимоий-маданий мулоқот шароитида шахсни маданий мулоқотини амалга оширишга имкон берадиган қобилияти сифатида белгилайди[2;13]. Унинг шаклланиши мулоқотни ривожлантириш ва инсоннинг маданий тажрибасини ривожлантириш билан боғлиқ бўлиб, унда инсоннинг ўзига, дунёга бўлган муносабатини, шунингдек, ижодий фаолият тажрибасини ажратиш мумкин.

Л.И.Корнеева "ижтимоий-маданий компетентлик - бошқа шахсни тушунишни ва унинг фикрини қадрлашни ўргатади, яъни инсон маданият таъсирида бошқа одамни идрок этади, фикрлайди, баҳолайди ва шу асосда фаолиятнинг янги схемасини қуради" - деб ҳисоблайди. [3;640] Бу маданиятлараро ўзаро тушунишда, бошқа маданият вакилларининг хулқ-атворига коммуникатив мослашишда, турли маданиятларнинг қадриятлари ва меъёрларига асосланган янги хулқ-атворни эгаллашда намоён бўлади.

Э.Н.Соловова "ижтимоий-маданий компетентлик - шахсни халқаро даражада тарбиялаш учун бир восита эканлигини қайд этиб, нафақат таълим-тарбия жараёнида балки, талабалар ижтимоий тажрибасини орттириб, бошқа мамлакат анъаналари, қадриятлари тўғрисида маълумот олишни ҳам белгилайди" – деб таъкидлайди[1;84]. Шунинг учун ҳам ижтимоий-маданий компетентлик таълим жараёни билан узвий боғлиқдир.

Й.Г. Татур ва В.Й. Медведевлар бўлажак мутахассиснинг компетентлигини касбий ва ижтимоий соҳада муваффақиятли ижодий фаолият юритиш учун ўз имкониятини (билим, кўникма, тажриба, шахсий сифатлар ва бошқалар) амалиётда намоён қилишга интилиш ва қобилият сифатида, компетенцияни эса, бўлажак мутахассиснинг маълум соҳада муваффақиятли фаолият юрита олиш учун ўзининг бутун имкониятлари (билим, малака, тажриба ва шахсий сифатлар) ни қўллаш ва унинг натижасига онгли равишда масъулиятини англашга тайёрлиги сифатида таърифлаган.

Ижтимоий-маданий компетентлик тўртта асосий компонентдан ташкил топган:

1) ижтимоий-маданий билим (маънавий қадриятлар, урф-одатлар ва маданий анъаналар, миллий менталитетнинг ўзига хос хусусиятларини билиш);

2) алоқа тажрибаси (ижтимоий-маданият услубини танлаш, хорижий маданият ҳодисаларини тўғри талқин қилиш);

3) маданиятга (шу жумладан, мулоқот пайтида юзага келадиган низоларни бартараф этиш ва ҳал қилиш қобилияти) ҳиссий жиҳатдан муносабат;

4) ахлоқ қоидаларини қўллаш усулларини билишб ижтимоий этикетдан тўғри фойдаланиш.

Ижтимоий-маданий компетентлик манбаларда муаммоли ҳолатларда мос ечимларни қабул қилишга тайёргарлик сифатида қаралган. Бундай тайёргарлик шахсий фаолиятни ташкил этишнинг хусусиятларига ва реал ўзаро таъсирлашув ҳамда фаолият маҳсулдорлиги билан боғлиқ.

Ижтимоий-маданий компетентлик ривожлантириш қуйидаги омиллар орқали амалга оширилади:

- тил,
- ижтимоий хулқ-атвор,
- миллий-маданий хусусиятлар,
- мулоқот жараёнида миллий хусусиятлардан фойдаланиш,
- урф-одатлар,
- ижтимоий хулқ-атвор,
- ахлоқ меъёрлар,
- ижтимоий шароитлар,
- миллий қадриятлар.

Бизнинг фикримизча, ижтимоий маданият, ижтимоий-маданий компетентлик маънавий-ахлоқий фазилатларнинг пойдевори ҳисобланиб, ижтимоий маданият кўникмалари ёшликдан таркиб топтирилсагина, бу пойдевор барқарор бўлади. Шунингдек, бўлажак педагогларнинг шахс сифатида шаклланишида ҳал қилувчи омилга айланади. Зеро, маънавий-ахлоқий фазилатлар таркибида муомала муносабат маданияти алоҳида ўрин тутади. Таълим муассасасида ўқувчи-ёшларга оила, маҳалла муҳитидан ташқарида дастлабки муомала, муносабат муаммоларига дуч келади. Айнан таълим муассасасида муомала маданиятини изчил ва узвийликда, таълим-тарбия қонуниятларига асосланган холда шакллантириш амалга оширилиши зарур. Яъни оила, маҳалла тарбиявий таъсиридан фарқли профессионал таъсир кўрсатилади. Шунингдек, тарбияда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигига эришилади. Яъни, оилада, маҳаллада миллий қадриятлар, маҳаллий урф-одатлар тарбияси устувор бўлса, таълим муассасасида дастлабки умуминсоний қадриятлар ва муомала маданияти бўйича тушунча, кўникмаларни шакллантириш йўналишида ҳам иш олиб борилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, илмий тадқиқот ишимиз доирасида олий таълим муассасаси талабаларида ижтимоий – маданий компетент-

ликни ривожлантиришда аввалambор муомала маданиятининг қуйидаги қирралари шакллантирилиши кераклигини аниқладик:

– талабалар ва педагоглар ўртасидаги муносабат;
– талабалар ўртасидаги саломлашиш муносабати;
– ижтимоий фойдали меҳнат жараёнидаги муносабат;
– машғулотлар жараёнидаги муносабатлар;
– бўлажак педагогларнинг хулқ-атвор кўникмаларини шакллантириш;
– оммавий ишлар жараёнида расмий муносабатнинг элементларини шакллантириш;
– ҳамкасблар ўртасидаги муносабат;
– миннатдорчилик билдириш.

Олимларнинг келтирилган илмий ғояларининг таҳлили асосида айтиш мумкинки, талабаларнинг ижтимоий-маданий компетентлиги ижтимоий-маданий билим, ўрганилаётган тил, маънавий қадриятлар ва маданий мерос, алоқа тажрибаси, тилни қўллаш усулларини билиш жараёнида ривожланади ва намоён бўлади.

Адабиётлар:

1. Соловьева, Н. И. Роль страноведческих знаний в формировании социокультурной компетенции. 2015 г. 84 с.

2. Сафонова, В.В. Социокультурный подход: основные социально-педагогические и методические положения / В.В. Сафонова // Иностранные языки в школе. – 2014. – №11. – С. 2–13.

3. Пидкасистый П.И. Педагогика: учеб. пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / П.И. Пидкасистый//. – М: Педагогическое общество России, 1998. – 640 с.

4. Эльконин Д.Б. Понятие компетентности с позицией развивающего обучения. - Красноярск. - 2002.56-с.

5. Хуторский А.В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2.13-с.

РЕЗЮМЕ

Замонавий ахборот жамиятини модернизация қилишни глобаллашув жараёнисиз тасаввур этиб бўлмаганидек, турли фанларни ривожлантириш ва янги ғояларни жорий этиш жараёнини ижтимоий-маданий ҳамкорликсиз тасаввур этиб бўлмайди. Бу жараёнлар инсон ҳаётининг барча соҳаларига - кундалик, маданий, илмий, сиёсий, иқтисодий тааллуқлидир.

РЕЗЮМЕ

Как нельзя представить модернизацию современного информационного общества без процесса глобализации, так и процесс развития различных наук и внедрения новых идей невозможно представить без социокультурного взаимодействия. Эти процессы распространяются на все сферы жизни человека - бытовую, культурную, научную, политическую, экономическую.

SUMMARY

Just as the modernization of the modern information society cannot be imagined without the process of globalization, the process of development of various sciences and the introduction of new ideas cannot be imagined without socio-cultural cooperation. These processes apply to all spheres of human life - everyday, cultural, scientific, political, economic.

ЎҚУВЧИЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Акбаров А. Т.
Фарғона давлат университети
Ҳарбий таълим факультети доценти в.б.,
педагогика фанлари номзоди, захирадаги подполковник

Таянч сўзлар: ватанпарварлик, ҳарбий ватанпарварлик, қадриятга йўналганлик, меҳнатсеварлик, компетенция.

Ключевые слова: патриотизм, воинской патриотизм, ценностная ориентация, трудолюбие, компетентность.

Key words: patriotism, military patriotism, value orientation, hard work, competence.

Жаҳонда ҳарбий таълим сохасига замонавий билим, илғор хорижий тажрибалар, ахборот коммуникация технологияларини кенг жорий этиш асосида таълим муассасаларида ўқувчиларин дастлаб ҳарбийликка тайёрлаш борасида уларда касбий компетентликни ривожлантиришга алоҳида эьтибор қаратилмоқда. Халқаро миқёсида мактаб ўқувчиларнинг компетентлик даражасини ривожлантириш ва бахолаш стратегик аҳамият касб этиб, ҳарбий таьлим тизимини модернизациялаш, ижтимоий муҳит талабларига интеграциялаш, компетенсияларга асосланган давлат таьлим стандартларини жорий этиш таълим муассасаларида таьлим жараёнини самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи илғор инновацион механизмларини ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Таьлим муассасаларида ЧҚБТ фанини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш тизиминимодернизациялаш энг илғор инновацион ёндашувларга асосланган замонавий педагогик технологияларини тадбиқ этиш ва ахборот-коммуникация технологияларининг имкониятларидан кенг кўламда фойдаланишни янги сифат даражасига кўтаришни талаб этмоқда.

Мактабларда, ўрта таьлимда, таьлим сифатини янада ривожлантириш, ёшларда ҳарбийликка бўлган қизиқиш ва ишонч рухиятини, жисмоний маданият, касбий тайёргарлик, касбга йўналтириш масалалари бугунги кунда долзарб аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Бугунги кунда, ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимидаги маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қабул қилинган консепсияларни амалга ошириш доирасида ҳар томонлама ривожланган, билимдон, халқига шунингдек, Ватанга хизмат қилиш ишига содиқлик ёшларни тарбиялаш бўйича кенг миқёсли ишлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, миллий қадрятларга, халқларнинг маданиятига ва ўзлигига бўлган тахдидлар, ёд ғояларни сингдиришга бўлаётган уринишлар кучайиб бораётган глобализация жараёнлари жалал ривожланаётган шароитда ёшлар энг заиф қатлам бўлиб қолаётганлиги сабабли бу йўналишда қўшимча комплекс чора-тадбирлар қабул қилиниши долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг мақсад ва вазифалари.

Абдулла Авлоний тарбия ҳақида сўз юритар экан, шундай фикрларни билдиради. Тарбия – бизлар учун ё хаёт-ё мамот, ё нажот-ё ҳалокат, ё саодат-ё фалокат масаласидир”.

1. Ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни мустақилликнинг онгли фидоийсига айлантириш ҳозирги кундаги миллий-маънавий тарбия ишининг асосий мақсадидир. Мустақил Ўзбекистон тараққиёт йўлида ватанпарварлик тарбиясининг ахамияти республика хаётида содир бўлаётган барча ўзгаришлар ташкил этади. Ватанпарварлик-ўз ватанини севиш, унинг тараққиёт йўли ва истиқлолини англаб олиш, давлат манфаатларини ҳимоя қилиш асосида барча сохаларда фидоийлик намуналарини кўрсатиш билан биргаликда халқимизнинг маънавий меросини эъзозлаш ва кадрлашдир.

2. Ватанпарварлик фақат кўлига қурол олиб унинг дахлсизлиги учун кураш эмас, балки фан, маданият, амалий меҳнат малакаларини чуқур эгаллаб, она юрт довруғини оламга ёйиш хамдир.

3. Миллий ифтихор билан миллий қадрятларни тўла англашда маънавий баркамоллик асос бўлади. Ватанпарварлик ва миллий ифтихор бир бири билан боғлиқ бўлиб, юксак миллий ифтихор заминидагина ватанпарварлик қадрятига айланади. Мустақил Ватанимиз химоячиси эга бўладиган сифатлар унинг умумтаьлим мактабларида, касб-ҳунар таьлими коллежларида ёки академик лицейлардаги ўқишлари давомида шаклланади. Ушбу ўқув юртидаги ўқув жараёни таълим ва тарбиянинг диалектик боғлиқлигидаги бирлиги билан характерланади. Бу тўлалигича ЧҚБТга ҳам тегишлидир. ЧҚБТни амалга ошириш орқали ўқув юртлари Ўзбекистон

Қуролли Кучлар учун муносиб номзодларни ўқитиш ва иарбиялаш билан ўзларинингмуносиб ҳиссаларини қўшмоқдалар.

4. ЧҚБТ фанини ўқитишнинг биринчи куниданоқ ўқувчиларни англаш, хис қилиш бўйича ишларини ва амалий фаолиятларини шундай рағбатлантириш зарурки, уларда бошланғич харбий илмини эгаллашга онгли интилиш пайдо бўлиши, ҳарбий хизматни ўташда зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга қизиқиш ҳосил бўлиши керак.

5. Ҳозирги даврда умумтаьлим мактаблари ва касб-хунар коллежларида ўқувчиларни ҳарбий – ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг қуйидаги йўналишлари шаклланган:

1-йўналиш. Хукуматимизнинг ички ва ташқи сиёсати кенг ва чуқур тушунтириш. Бугун ўқувчи ёшларда мустақил Ватанимизга юракдан муҳаббат ҳисси ошишига мустақил ғояларга содиқлик, Президентимиз бошчилигида олиб борилаётган ислоҳотларнинг ғалабасига ишончни мустаҳкамлайди ва ўзининг Мустақил Ўзбекистондаги туғилганлиги ва шундай буюк давлатнинг фуқароси эканлигидан фахрланишни юксалтиради.

2-йўналиш. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг, “Умумий ҳарбий мажбурият ва умумий ҳарбий хизмат тўғрисида” ги ва “Мудофаа тўғрисида” ги қонунларининг, Мудофаа доктринасининг ҳарбий қурилиш ва мамлакат мудофаа қудратини мустахкамлаш бўйича ҳолатларини тушунтириш. Буларда ўқувчиларни ЧҚБТ бўйича эгаллаган билимлари ҳарбий – ватанпарварлик тарбияси жараёнини аниқ ва лўнда мазмун билан тўлдиради.

3-йўналиш. Ўзбекистон мафкураси, республика мустақиллигини хар томонлама мустахкамлашга истиқбол йўлларни белгилашга миллий маданият ва қадриятларни ривожлантиришга қаратилгани. Булар ўқувчи ёшларда ишонч ва харакат бирлигини шакллантиришга, мустақиллик ғояларини ҳимоя қилишга доимо шай туришлик каби сифатларни шакллантиришга ёрдам беради.

4-йўналиш. Ўзбекистон халқининг ва Қуролли кучларининг меҳнат ва жанговар аньаналари билан таништириш, аждодларимизнинг мустақиллик учун курашлардаги қахрамонона ўтмишини тарғиб қилиш, аждодларимиз кўрсатган жасоратлари билан фахрланишни тарбиялаш.

5-йўналиш. Ўқувчи ёшларда жангда ғалабани қўлда киритишда зарур бўладиган маьнавий, рухий тайёргарликларни амалга ошириш, уларда юксак юқори даражадаги маьнавий, сиёсий, жанговар сифатлари шакллантириш. Ўқувчи ёшида психологик тайёргарликни амалга ошириш

уларда психологик ирода ва интелектуал сифатларни шакллантиришни ўз ичига олади. Бу сифатларга душман билан бўладиган курашда матонат ва жасурлик, ўзини қўлга ола билишлик ва ғалабага бўлган ишонч, қатъийлик ва топқирлик, ўзаро ёрдам киради.

6-йўналиш. Талаба ёшларда қуролли кучлар сафига чақирилгач қисқа муддатларда қурол ва жанговар техникани мувафаққиятли ўзлаштириб олишларида зарур бўладиган ҳарбий билим асосларини, ҳарбий профессионал ва ҳарбий – техник кўникма ва малакаларини шакллантириш.

Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш услублари.

Тарбия услуби деганда ўқувчиларда миллий мустақиллик ғояларига мос дунёқарашни ва хулқ меъёрларини шакллантириш мақсадида уларга педагогик таъсир кўрсатиш усуллари тушунилади. Тарбиянинг мақсади ва вазифаларига мос равишда услубларни қўллар экан ЧҚБТ рахбари ўқувчиларнинг фаолиятини ташкил этади, уни фаоллаштиради, ўқувчиларни рухий ва жисмоний кучларини жалб этади.

Моҳиятига кўра ҳарбий ватанпарварлик тарбияси услублари тарбиянинг умумий услублари билан бир хил лекин бунда ЧҚБТ фанининг хусусиятлари ўқувчиларнинг ҳарбий хизматга тайёрлаш бўйича синфдан ва мактабдан ташқари ишларнинг хусусиятлари инобатга олинади.

Ўқувчиларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда одатий ўқув-тарбия жараёнида қўлланиладиган услубларга нисбатан ишонтириш, ўрнак, рағбатлантириш каби услублар кўпроқ қўлланилади.

Услублардан фойдаланиш шаблонли тарзда бўлиши мумкин эмас. Энг асосийси ҳарбий таълим ўқитувчиси тарбия услубини зарурлигини чуқур тушунган ва ишонган бўлиши керак. Таьлим ва тарбия жараёнининг бирлиги бу жараёнда нафоқат ўқитиш услубларини зарурлигини шарт қилиб қўяди, балки тарбия услубини хам шарт қилиб қўяди. Ўқитиш жараёнида ўқитиш услубсиз ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун зарур бўладиган педагогик шароитларни яратиб бўлмайди.

Ўқитиш услублари нафақат ва ривожлантиришни функцияларини бажаради, балки тарбияловчи функцияни ҳам бажаради.

Ўқитиш услублари ёрдамида асосий тарбиявий ғоялар амалга оширилади. Жамоавий кечинмалар, ҳамкорлик, ўзаро ёрдам, хал қилинган вазифалар учун жамоавий жавобгарлик ҳолатлари яратилади.

Ўқитиш услублари шахсда маьнавий, эстетик сифатларни тарбиялашда ёрдам беради. Чунки улар маълумот мазмунига урғуларни кўйиб беради, ўқувчиларни рухий ривожланишида муҳим аҳамият касб этади.

Ишонтириш услуби. Миллий мустақиллик ғоясига мос дунёқарашни шакллантиришнинг асосий услуби бўлиб, бу услуб ёрдамида ўқитувчи ўқувчиларнинг онгги, ҳиссиёти ва иродасига таъсир этади ва уни ривожланишини йўналтиради.

У миллий мустақиллик ғоясига мос дунёқарашни ўқувчилар ўзларининг ўқув, меҳнат фаолиятларида раҳбарлик қилишига эришади.

Айниқса уруш ва уруш учун мақсади, бурч, ватан ҳимояси учун шахсий жанговарлик, ватанпарварлик каби машғулотларни ўтишда ушбу услуб кенг қўлланилади. Ишонтириш усули шахсда онгли ҳарбий интизомни шакллантиришда, ёшларни ўзбек халқининг шонли аньаналарини давом эттиришга интилишни тарбиялашда ва бошқа ижобий сифатларни тарбиялашда асосий услуб ҳисобланади.

Ўрнак услуби асосида, аввало инсонларнинг ижобий образларига тақлид қилиш, уларга эргашиш каби онгли интилишлари ётади. Ўқувчиларга аждодларимизнинг қаҳрамонона ўтмишлари, уларнинг жасурликлари ва бугунги кундаги Қуролли Кучларимиз сафидаги фидоий офицер ва аскарларнинг жасоратлари ҳақидаги ҳикоялар чуқур таъсир этади. Улар бу қаҳрамонлар ҳаётидан фахрланадилар, улардан ўрнак олишга интиладилар, уларнинг ҳаёт йўлларини ўрганиб, уларга ўхшашга ҳаракат қиладилар.

Ўқувчиларнинг ҳаракатлари ва юриш туришларини фаоллаштириш учун рағбатлантириш услублари қўлланилади.

Рағбатлантириш услуби - ўқувчилардаги ижобий қизиқиш ва интилишлари, уларда ўзига бўлган ишонч туйғуларини ривожлантириш ва эришилган натижаларга масъулият ҳисси, янги муваффақиятларга интилишлар каби ҳислатларни шакллантириш учун қўлланилади. Рағбатлантириш шакллари мақтов, миннатдорчилик, мукофот, фахрий тахтачага ўқувчининг суратини жойлаштириш ва бошқалар бўлиши мумкин.

Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясининг усулларини, улардан фойдаланиш тартиб қоидаларини чуқур билиш, ЧҚБТ раҳбарига ҳарбий ватанпарварлик тарбияси ва оммавий-мудофаа ишларини пухта режалаштириш ва ташкиллашга имкон яратади. Мактабдан ташқари ишларни ташкиллашда қуйидаги тадбирларни ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади:

Савол жавоб кечаларини ўтказиш. Бу кечаларни викториналаридан фарқи саволни ўқувчилар берадилар, кеча қатнашчиси бўлган сержант ва офицерлар жавоб берадилар. Бундай кечалар қисқача кириш сўзи билан бошланиб, кеча якунида қисқача якун чиқарилади. Тарбиялашнинг яна

шакли ўқувчиларни китоб билан мустақил ишлашга ўргатиш. Бу ўқувчиларни билим доирасини кенгайтиради.

Байрамларни ўтказиш. Бу ҳам муҳим тарбиявий аҳамиятга эга. Бундай байрам тадбирларни ўтказиш учун аввал тадбир дастури тузилади ва масъул шахслар тайинланади. Дастур ўқув юрти директори томонидан тасдиқланади.

Ҳарбий спорт мусобоқаларини ўтказиш. Бундай мусобоқалар ўқувчиларда ҳарбий хизматда зарур бўладиган билим, кўникма ва малакаларини ҳосил қилишда муҳим аҳамият касб этади. Бундай мусобақаларга "шунқорлар"," ватанпарвар" мусобақаларини ва бошқа мусобоқаларни қўйиш мумкин. Ушбу мусобақалар туман мудофаа ишлари бўлимлари, "Ёшлар иттифоқи" ва бошқа жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда ўтказилади.

Оммавий мудофаа ойлигида фаол иштирок этиш. Ойликда иштирок этиш учун, ойликни ўтказиш режаси тузилади, режада кўрсатилган тадбирларни ўтказиш масъул шахслар белгиланади ва ойлик охирида якун чиқарилади. Машғулотлар юксак савияда ўтказилса ўқувчиларни ғоявий-маънавий тарбиялашда самарали натижалар беради.

Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактаб ва маҳалла ҳамкорлиги.

Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактаб ва маҳалла хамкорлиги бўйича ишлар "Баркамол авлодни тарбиялашда оила, маҳалла, мактаб хамкорлиги" концепцияси асосида ташкил этилади. Ушбу ҳамкорлик аввалида ҳамкорлик ишларини бошқариш учун жойларда қишлоқ фуқаролар йиғини ва маҳалла фуқаролар йиғини, маҳалла фаоллари, обрўли ота-оналар, таълим муассасаларининг тажрибали ходимлари, маҳалла ҳудудида жойлашган турли ташкилотларидан иборат ҳамкорлик Кенгаши тузилади. Ҳамкорлик кенгаши хар чоракда ўз иш режаларини тузади ва шу асосида олиб борилаётган ишларни муҳокама қилиб боради.

Маҳалла билан ўтказилган тадбирлар ҳар томонлама пухта, қатнашчиларнинг ёшига мос педагогик ва психологик мужассамлашган, мантиқан теран, қизиқарли, таъсирчан бўлиши керак. Ҳамкорлик тадбирлари мавзулари "Соғлом авлод учун", "Ота-онанга рахмат", "Соғ танда соғлом ақл", "Бир йигитга қирқ ҳунар ҳам оз", "Ўғлим посбоним", "Ўзбекистон ватаним маним", "Миллий бурч ва маъулият", "Спортчи оила", "Ватан остонадан бошланади" каби бўлиши мумкин. Бундан ташқари "Уч авлод учрашуви", "Касбим фахрим", "Инсон ва гўзаллик" каби мавзуда учрашувлар ҳам ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бугунги кунда глобал ахборот маконидаги қарама-қаршилик, инсон, айниқса ёш авлоднинг онги ва қалби учун курашнинг кучайиши шароитида ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясининг роли ва аҳамияти ортиб бормоқда.

Шунинг учун давлат рабари томонидан аҳолининг ва биринчи навбатда ёшларнинг ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси тизимини такомиллаштириш, уларни мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида жалб қилиш, интеллектуал ва ижодий салоҳиятни намоён қилишга шароит яратиш юзасидан кўрсатмалар берилди.

Ўсмирларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва давлат хизмати учун кадрлар захирасини тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарорида белгиланган вазифалар ўқувчида ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш.

Президент томонидан 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси асосида, мамлакат ҳаётининг бошқа жабҳалари билан бир қаторда, ҳарбий соҳанинг энг муҳим йўналишлари бўйича замон талабларига мос қарорлар қабул қилингани, амалга оширилган тизимли ва стратегик комплекс чора-тадбирлар натижасида қисқа давр ичида миллий армиянинг жанговар шайлиги ва умуман мамлакатнинг мудофаа қобилияти сезиларли даражада ошгани таъкидлаб ўтилди.

Бунда ҳарбий таълим тизимида бошланган ислоҳотларни узвий давом эттириш, ўқув юртлари, лицей ва коллежлар, жумладан, “Темурбеклар мактаби” ҳарбий академик лицейлари фаолиятини такомиллаштириш, уларда таълим олаётган ўқувчилар қалбида миллий рух, она-Ватанга меҳр ва садофат, адолат туйғусини кучайтириш,буюк аждодлар, жумладан, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Шохруҳ Мирзо, Захириддин Муҳаммад Бобур каби саркардаларнинг бой жанг санъатидан кенг фойдаланиш муҳимлиги алохида таъкидлаб ўтилди.

Шунингдек, президент, - “ўз фарзандларида юксак ватанпарварлик руҳини камол топтира олмаган давлат, қандай қудратли қуролга эга бўдмасин, мудофаа қобилиятини мустахкамлай олмайди”, - дея таъкидлаб ўтди.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам “Ўрта таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш, Ўзбекистон Республикаси Конституциявий тузуми суверинитети, худудий яхлитлигини муҳофаза қилиш, фуқаролик, миллатлараро ва конфессиялараро тинчлик ҳамда тотувликни мустаҳкамлаш, давлатнинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, Ўзбекистон

Республикасининг жанговар қудрати ва салоҳиятини ошириш” каби муҳим вазифалар белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикаси” янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони, 2018-йил 4-августдаги ПК-3898-сон “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” ги Қарори Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 23-февралдаги 140-сон “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори ва мазкур фаолиятига доир бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган.

Бу борада бир қатор муаммолар ҳам бўлиб, соҳада қуйидаги ислоҳотларни амалга ошириш муҳимдир:

– мамлакатимизда шаклланаётган фуқаролик жамиятида демократик тамойилларнинг мавжудлиги, унинг мустаҳкамланиб бориши ўқувчида ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш, уларнинг мафкуравий маънавий ва сиёсий-ҳуқуқий маданиятни шакллантириш миллий хавфсизлигимизни таъминлашнинг муҳим омилидир;
– Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларини чуқур билиш ва юртбошимиз бошчилигида олиб борилаётган ислоҳотларни қўлаб қувватлаш.
– ўқувчи ёшида психологик тайёргарлик амалга ошириш уларда психологик ирода ва интеллектуал сифатларни шакллантириб душман билан бўладиган матонат ва жасурлик, ўзини қўлга ола билишлик ва ғалабага бўлган ишончини оширади.
– мустақиллик мафкураси ўқувчиларнинг маънавий дунёсини бойитиб, ижтимоий фаоллигини оширади;
– ўқувчида ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш орқали ижтимоий-гуманитар фанларни чуқур ўрганиш сиёсий, хуқуқий, маънавий ва эстетик маданиятни камол топтириб, касбий сифат ва хусусиятларни ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади;
– давлат ва жамоат ташкилотлари фаоллигини такомиллаштириш ёшлар ва аҳолининг профессионал армияга бўлган муносабатини янада мустаҳкамлайди, уларнинг кўнгилли хизматига бориш истагини оширади;
– мактаб, лицей, техникум ва ҳарбий қисмлар кутубхоналарини ўқув-услубий ва маънавий-маърифий адабиётлар билан бойитиш

ўқувчиларда сиёсий маданияти ҳамда тафаккурини шакллантириб, кенг қамровли фикрлашга ўргатади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.10.2020 й., 06/20/6079/1349-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.

5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.488.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада муаллиф томонидан ўқувчиларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёни, самарали шакл ва методлари ёритилган. Шунингдек, ўқувчиларда узлуксиз маънавий тарбиянинг таянч компетенцияларни шакллантириш механизмлари атрофлича баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор описывает процесс, эффективные формы и методы воспитания учащихся в духе воинского патриотизма. Также подробно описаны механизмы непрерывного духовного воспитания студентов для формирования базовых компетенций.

SUMMARY

In this article, the author describes the process, effective forms and methods of educating students in the spirit of military patriotism. Also, the mechanisms of continuous spiritual education of students for formation of basic competencies are described in detail.

TABIAT OB'EKLARINI ADEKVAT MODELLASHTIRISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING EKODIDAKTIK BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev S. A.
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ekologiya, tabiat, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, atrof-olam, ekologik tarbiya va madaniyat, ekologik yondashuv.

Ключевые слова: экология, природа, социально-экономическая, научно-техническая, окружающая среда, экологическое образование и культура, экологический подход.

Key words: ecology, nature, socio-economic, scientific-technical, environment, ecological education and culture, ecological approach.

Ekologiya tushunchasi bir butun hamda jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqadorligida turli darajada-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy bilimlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Uning asosiy vazifasi tabiatdagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Ekologiyaning bosh masalasi esa tabiat voqea-hodisalariga inson faoliyatining xilma-xil ta'siri oqibatlarini oldindan ko'ra bilish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishdan iboratdir. Tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqasini izchil tadqiq etish o'quvchilarning atrof-olamning yaxlitligi, harakat-dinamikasi bo'yicha dunyo qarashi va ishonchini boyitadi hamda mustahkamlaydi. O'quvchilarning fuqarolik hamda vatanparvarlik tuyg'ulari va e'tiqodlarini tarbiyalashda ekologik yondashuvning hissasi o'ta muhim ahamiyatni kasb etadi. Atrof-muhit bilan jamiyat o'rtasidagi aloqalar muvozanatining buzilishi tabiiy holatga putur yetkazmoqda. Yer yuzi tabiatining barqarorligi, turg'unligi va uning o'ziga xos qonuniyatlari insoniyat tomonidan buzilishining asosiy sabablaridan biridir. Bunga sabab kishilarda atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarining yetishmasligi hamda tabiatning kelajakdagi ekologik holatini ko'ra bilmasliklaridir. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakillantirish, tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishga o'rgatish ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish va vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi[3]. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

mumkin emas. Insonni tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini oshiradi. Insonning tabiy boyliklardan haddan tashqari ortiqcha foydalanishi oqibatida tabiat qiyofasi o’zgarib, foydali qazilmalar tugab bormoqda, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi, uning tarkibida chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholi salomatligi yomonlashmoqda, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash, energiya va chuchuk suv muammolari tobora murakkablashmoqda. Ular bugungi kunda xalqaro ekologik muammoga aylanib, butun jahon jamoatchiligining muloxazaga chaqirmoqda. Bu albatda, yosh avlod, aholi ongiga ekologik holatining xavf ostida ekanligini tezroq singdirish va uni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqarish kabi muammolarni hal etishni taqazo etmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan fanlar ma’zmuniga, hususan, O’zbekiston tabiiy geografiyasi ma’zmuniga qo’shib olib boorish orqali yoshlarni ekologik madaniyatli qilib tarbiyalamog’imiz darkor.

Ekologik ta’lim:

– o‘quvchilarning tabiat go‘zalliklarini sevishi, estetik zavq olish ruhida tarbiyalash;
– jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar va inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta’siri oqibatlari haqida bilim berish;
– o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

Ekologik tarbiya esa:

– o‘quvchilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda muayyan ko‘nikma va malakalarni hosil etish;

Ekologik ta’lim mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

– tabiat haqidagi bilimlarni egallash;
– tabiatning jamiyat va inson uchun har tomonlama qadriyat sifatida tushunish;
– tabiiy muhitga doir axloqiy meyorlarni bilish;
– tabiat bilan muloqotda bo‘lish ehtiyojlarini rivojlantirish;
– ekologik muhitni yaxshilashga doir faoliyatni takomillashtirish;
– tabiatga yangicha madaniy munosabatni shakllantirish hamda yoshlarning ekologik savodliligini amalga oshirish.

Tabiat bilan jamiyatning o‘zaro aloqasini izchil tadqiq etish o‘quvchilarning atrof-olamning yaxlitligi, harakat-dinamikasi bo‘yicha dunyo qarashi va ishonchini boyitadi hamda mustahkamlaydi. O‘quvchilarning fuqarolik hamda vatanparvarlik tuyg‘ulari va e’tiqodlarini tarbiyalashda ekologik yondashuvning hissasi o‘ta muhim ahamiyatni kasb etadi. O’quvchilarda ekologik bilimlarni

egallashga zarur asosni yaratish uchun maktab geografiya kurslarida ekologik bilimlarni yetarlicha berilishini tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy jarayonlarni o'rganish, unda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni bilish azal-azaldan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Atrof muhitga ta'sir etuvchi ekologik omillarni quydagilarga ajratish mumkin: abiotik (jonsiz tabiat); biotik (jonli mavjudot); antropogen (tabiatga inson tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sirlar). Hozirgi kunda atrof-muhitga, ekotizimdagi o'zgarishlarga inson faoliyatining ta'siri juda katta bo'lmoqda. Tabiiy resurslardan foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish keskin rivojlanib bormoqda. Ekotizimlardagi barqarorlikni saqlab qolish, tolerantlik qonunini buzilmasligi uchun insoniyatdan oqilona faoliyat yuritish talab etiladi. Atrof - muhitga bo'lgan munosabatda noosfera vujudga kelishi lozim. (Akademik V.I.Vernadskiy (1931 yil) tomonidan kiritilgan tushuncha). Noosfera - biosfera evolyusiyasining bosqichi, uning taraqqiyotidagi jamiyat ongli faoliyatining yetakchi rolini ifodalaydi. Insoniyat faoliyati tufayli yer sharida juda katta miqdorda mahsulotlarning harakati vujudga kelmoqda

Modellashtirish - bilish ob`ektlari (fizik hodisa va jarayonlar) ni ularning modellari yordamida tadqiq, qilish mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o`rganishdir.

Modellash uslubidan hozirgi zamon fanida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba`zi hollarda esa murakkab ob`ektlarni o`rganishning yagona vositasiga aylanadi. Mavhum ob`ekt, olisda joylashgan ob`ektlar, juda kichik hajmdagi ob`ektlarni o`rganishda modellashtirishning ahamiyati katta. Modellashtirish uslubidan fizika, astronomiya, biologiya, iqtisod fanlarida ob`ektning faqat ma`lum xususiyat va munosabatlarini aniqlashda ham foydalaniladi.

Modellarni tanlash vositalariga qarab uni uch guruhga ajratish mumkin. Bular abstrakt, fizik va biologik guruhlar.

Abstrakt modellar qatoriga. matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi.

Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

1. Fizik model. Tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o`lchami, tezligi, ko`lami) jixatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo`ladi.

2. Matematik modellar tirik organizmlarning tuzilishi, o`zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo`lib, tajriba ma`lumotlariga ko`ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so`ngra tajriba yo`li bilan tekshirib ko`riladi.

Biologik hodisalarning matematik modellarini kompyuterda o`rganish tekshirilayotgan biologik jarayonning o`zgarish xarakterini oldindan bilish imkonini beradi. Shuni ta`kidlash kerakki, bunday jarayonlarni tajriba yo`li bilan tashkil qilish va o`tkazish ba`zan juda qiyin kechadi. Matematik va matematik-mantiqiy modelning yaratilishi, takomillashishi va ulardan foydalanish matematik hamda nazariy biologiyaning rivojlanishiga qulay sharoit tug`diradi.

3. Biologik model turli tirik ob`ektlar va ularning qismlari - molekula, hujayra, organizm va shu kabilarga xos biologik tuzilish, funksia va jarayonlarni modellashda qo`llaniladi. Biologiyada, asosan, uch xil modeldan foydalaniladi. Ular biologik, fizik va matematik modellardir.

Biologik model - odam va hayvonlarda uchraydigan ma`lum bir holat yoki kasallikni laboratoriyada hayvonlarda sinab ko`rish imkonini beradi. Bunda shu holat yoki kasallikning kelib chiqish mexanizmi, kechishi, oqibati kabilar tajriba asosida o`rganiladi. Biologik modelda har xil usullar: genetik apparatga ta`sir qilish, mikroblar yuqtirish, ba`zi organlarni olib tashlash yoki ular faoliyati mahsuli bo`lgan garmonlarni kiritish va bosha usullar qo`llaniladi. Bunday modellarda genetika, fiziologiya, farmokologiya sohasidagi bilimlar tadqiq qilinadi.

4. Fizik-kimyoviy modellar biologik tuzilish, funksiya yoki jarayonlarni fizik yoki kimyoviy vositalar bilan qaytadan hosil qilishdir.

5. Iqtisodiy modellar taxminan XVIII asrdan qo`llanila boshlandi. F.Kenening «Iqtisodiy jadvallar»ida birinchi marta butun ijtimoiy takror ishlab chiqdrish jarayonining shakllanishini ko`rsatishga harakat qilingan.

Iqtisodiy tizimlarning turli faoliyat yo`nalishlarini o`rganish uchun har xil modellardan foydalaniladi. Iqtisodiy taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlari xalq xo`jaligi modellari yordamida tekshiriladi. Turli murakkab ko`rsatkichlar, jumladan, milliy daromad, ish bilan bandlik, iste`mol, jamg`armalar, investitsiya ko`rsatkichlarining dinamikasi va nisbatini tahlil qilish, uni oldindan aytib berish uchun katta iqtisodiy modellar qo`llaniladi. Aniq xo`jalik vaziyatlarini tekshirishda kichik iqtisodiy tizimlardan, murakkab iqtisodiy tizimlarni tekshirishda, asosan, matematik modellardan foydalaniladi.

Modellashtirish muammosini qo‘yishda va yechishda tadqiqotchi turli masalalarga duch keladi. Asosiy masalalardan biri bu – modellashtirish ob’ekti deb nimaga aytiladi, uning umumiy xususiyatlari nimalardan iborat va qanday xossalarga ega bo‘ladi? Shuning uchun modellashtirish muammosini modellashtirilayotgan ob’ektni o‘rganishdan boshlash mumkin.

Modellashtirish muammosi bilan biz asosan ikki holatda duch kelamiz: birinchidan, bilish jarayonlarida, ya’ni ob’ekt va jarayonlarni bilish modelini tuzishda, ikkinchidan boshqarish jarayonlarida, ya’ni ob’ektni maqsadga tomon

yo‘naltirilgan boshqarishda, ya’ni inson tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun.

Bilish jarayonida bilish modeli yaratiladi. Bu model zaruriy ko‘rinishda ob’ektni ishlash mexanizmini aks ettiradi. Bunday modellashtirishga misol sifatida bizni o‘rab turgan tabiatni o‘rganishni olish mumkin. Tabiat xususiyatlarini tushuntira olish, ularni o‘zaro bog‘lanishi, mexanizmlarni tahlil etish va h.k. Modellarni asosiy maqsadi, shunday modellar yaratish kerakki ular inson uchun muhim bo‘lgan tabiat ob’ektlarini aks ettiruvchi modellar ishlab chiqishdan iborat. Bunday xususiyatlar har bir ob’ekt yoki hodisadagi kirish - chiqish bog‘lanishlarini turlicha ko‘rinishda aks ettirilishi bilan ifodalanadi.

Ob’ektni hamma kirish kanallari tashqi muhitni ob’ektga bo‘lgan ta’sirini ifodalaydi hamda muhitni holatini va vaqtini ma’lum bir funksiyalari hisoblanadi. Holbuki, tashqi muhit modeli mavjud bo‘lmaganligi saababli, ob’ektni kirish kanallarini tabiiyki vaqtning tasodifiy funksiyalar sifatida ko‘rish mumkin, ya’ni Bu vaqtning tasodifiy funksiyalarining statistik xususiyatlari umuman olganda noma’lum.

Bizning dunyomizni yaxshiroq qilish uchun tabiatan bizga berilgan resurslardan yanada oqilona foydalanish, ekologik ta’lim asoslarini yosh avlodning ongiga investitsiya qilish juda zarur. Bu juda chiroyli yoshda amalga oshirilishi kerak, chunki u holda bolalar har qanday axborotga juda ma’qul keladilar va agar ular to’g’ri taqdim etilsa, ularni xotirasida qoldiradilar.

Ma’lumki, bolalarning har qanday ma’lumotni eslab qoladigan eng yaxshi shakli o’yin shaklidir. Ekologik tarkibning ko’plab didaktik o’yinlari ishlab chiqildi, eng oddiy odamlardan - yosh bolalar uchun murakkab bo’lganlarga to’g’ri javobni talab qiladi, bu esa katta auditoriyaga mo’ljallangan.

Didaktik o’yinlar orqali ekologik ta’lim bolalar uchun eng kichik guldan boshlab atrofdagi tabiatga bo’lgan muhabbatni uyg’otadi. Atrofimizdagi barcha narsalarga diqqatli bo’lishni o’rgatish uchun, biz bolalarni oddiy qilib o’rgatishimiz, bularni sevishimiz kerak.

Tabiat bilan muloqot qilish, o’zgacha xilma-xil dunyoga hayron bo’lish quvonchi, bolaning ufqini kengaytiradi. O’qituvchining vazifasi bug’doyni olishdir. ekologiya bo’yicha o’yinlar yoshga qarab, vazifalar juda oddiy bo’lmaganligi uchun, bolaning o’zi bilan muomala qilishi mumkin edi.

Bolalar uchun ekologiya bo’yicha didaktik o’yinlar

«Sehrli doiralar»

O’yin uchun to’rtta sektorga bo’lingan, ularning har biri muayyan mavsumni ramziy qilib, aylananing rangi osilgan kiyingan ashyoga osib qo’yilgan karton doiraga kerak. Voyaga etgan kishilar jumboqlarni taxmin qilishadi yoki savollarni

so’rashadi, va javobni biladigan bola mos keladigan sohaga kiyimpin yopishadi. Ushbu o’yin boshqa har qanday mavzuda bo’lishi mumkin.

«To’g’ri narsani toping»

Jadvalda rasm qo’yiladi va o’qituvchi chaqirilgan belgi bilan bog’liq bo’lganlarni tanlashni taklif qiladi. Masalan: «sariq» - bu quyosh, tovuq, banan va boshqalar. Yoki «ho’l» - yomg’ir, tuman, ko’lmak.

Bolalar qo’llarini orqasiga olib, o’qituvchi ularga meva yoki sabzavotlar beradi. Keyin u ularning oldida turadi va o’z navbatida yangi tug’ilgan chaqaloqlarga o’xshab ko’rinadi. Bolalarning vazifasi ular bilan bog’liq narsalarni aniqlaydi. Bolaning qo’lida nima borligini bilgach, u tarbiyachi tomon yugurdi.

O’rta maktabda tabiiy tarix darslarida ekologiya asoslari o’rganiladi, ammo o’yindan ko’ra murakkabroq ko’rinishda. Geografiya va biologiya elementlari mavjud. Bolalarning oldindan olgan bilimlarini yaxshilash, ekologiya bo’yicha turli amaliy mavzularni bajarish. Issiq mavsumda, ular parkdagi yoki boshqa tabiiy maydonlarda zilziladan keyin o’tkaziladi, undan keyin stolda darslarga yordam beradi.

Ekologiya, atrof-muhit, jonli-jonsiz tabiat, ekologik ong ekologik madaniyat, kamolot, shallar, usullar. Ekologik tarbiya ekologiya fanini maqsadini amalda yuzaga keltirish, atrof-muhitni biz xoxlagan darajada tabiiyroq, ekologik toza bo`lishidagi ishlarni o`rgatadi ko`rsatmalar beradi. «Ekologiya» yunoncha so`z bo`lib tirik mavjudodlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o`zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga kelgan qonuniyatlarini o`rganadagin fandir. Ekologiya fani qadimdan yuzaga kelgan fan emas. Ekologiya fani insonni qiziqishi, bilishdagi fikr mulohaza yuritishlardan kelib chiqkan fan emas, ekologiya fani zaruriyatidan inson o`z manfatini ko`zlab uni tabiiy ko`rinishlarini buzib, undan to`xtovsiz foydalanib uni ko`rimsiz bo`lgan ahvolga solib qo`ygach va endi yana o`z manfati uchun kelajak avlod oldidagi o`z burchini xis etgan xolda tabiiy ko`rinishini o`z xotasida xulosa chiqargan xolda tiklash zaruriyatdan kelib chiqqan fan deyish mumkin. Ekologiya fani tabiiysi, yevropada kelib chiqkan. Chunki insoniyatning o`zi ijtimoiy rivojlanishida, atrof muhitni tabiiyligini ta`siri dastlab yevropada edi. Chunki insonni ijtimoiy ong rivojlanishi, inson manfati qilingan ishlab chiqarishdagi yutuqlari, jamiyat rivoji dastlab yevropada edi. Ekologiya atamasini 1866 yilda nemis zoolog olimi Geksel tomonidan fanga kiritilgan edi. Yaqin vaqtlargacha bu atama faqat mutaxassislargagina ma’lum edi. Endilikda atrofmuhitga tabiat boyligiga e’tiborsiz bo`lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq bo`lib qoldi. Inson bilan tabiat o`rtasidagi munosabatdlar muammolarini yechiqh zarurati tug‘ildi. Shu borada ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo`lib qoldi. O`quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, bularda

tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo`lishni o`rgatish pedagogika nazariyasi va maktablar amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi. Chunki insonning onggi oshgan sari progressiv jamiyat ko`rinish bergan sari, insonning yer yuzasidagi roli oshgan sari yer yuzasi uni soni oshgan sari tabiatdan faqat foydalanigina qolmay, undan keyin foydalana borish uchun endi u haqda o`ylash, fikrlash, unga munosabatni to`g‘ri yo`lga qolish kerak bo`lib qoldi. O`zbekiston Konstitutsiyasining 18 moddasida yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o`simlik va hayvonot dunyosini qo`riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko`paytirib borishni ta’minlash insonning atrof-muhitni yahshilash uchun chora va tadbirlar ko`rishi zarurligi ta’kidlangan. O`zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrdagi qabul qilingan «Tabiat muxofaza qilish to`g‘risida» gi qonuni, «Sog‘lom avlod uchun» ordenining ta’dbik etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta’lim-tarbiya konsepsiyasi» ning ishlab chiqilishi, Eqosan jamg‘armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, umum ta’lim maktablarida ham ekologik yo`nilishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarining shakllanishi yosh avlod maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruxida tarbiya berishga astoydil kirishilganini ko`rsatadi. Maktabni bitirib mustaqil hayotga qadam qo`ygan har bir yosh, qanday ixtisos egasi bo`lishidan qat’iy nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo`lishi kerak. Tabiatni muhofaza qilish xozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo`lib qolganini o`quvchi ongiga 1-chi navbatda singdiriladi. Haqiqatan tabiiy boyliklardan haddan tashqari darajada ko`p foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o`zlashtirish oqibatida ekologik muvozanat keskin o`zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ayniqsa paxta yakka xosimligi, qishloq xo`jaligining noto`g‘ri rejalashtirish, kimyoviy o`g‘itlarni me’yoridan ortiq ishlatilishi tabiat muammolarini ko`payishiga sabab bo`ldi. Bu xolat hayvonot olamiga ham o`simliklar dunyosiga ham o`zining salbiy ta`sirini ko`rsatmoqda. Keyingi 30 yil ichida tabiiy boyliklardan shunchalik ko`p foydalanilganki, bu butun insoniyat tarixi davomida foydalanilgan tabiiy boyliklarga tengdir. Demak jamiyatni iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo`lsa uning tabiatga ta`sir etish darajasi ham shunchalik ko`p bo`ladi. Aholi sonining tez o`qib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko`payib bormoqda. Faqatgina aholini yer suv energetika oziq-ovqat bilan ta’minlash butun Dunyo bo`yicha global muammoga aylanib bormoqda. Tabiatga zarar keltiradigan ko`pgina zavodlarning osar suvga yaqin joylashganligi sababli suv xavzalari ifloslanmoqda. Markaziy Osiyo xududida yashayotgan fukarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko`payib bormoqda. Orol bo`yi rayonlari Qoraqalpoqg‘iston Rekpublikasi,

Xorazm viloyatida turli xil kasalliklar ko`p tarqalmoqda. Shu tariqa yer qirrasida insonning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechiqhga bog‘liq bo`lib qoldi. Ekologik muammolarning ilmiy iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik yo`nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammo inson faoliyati natijasida kelib chiqadi. Eng muhimi ayni pedagogik-ekologik muammo yo`lga qo`yilsa, boshqa ekologik muammolar yechilishiga zamin yaratiladi. Pedagogik yo`nalishda ekologik ta’lim va tarbiya berish ko`zda tutiladi. Ekologik ta’lim deganda, tabiat bilan inson oraqidagi munosabatni ifodalovchi bilimlarni o`quvchilarga yetkazish tushuniladi. Ekologik tarbiya atrof-muhit nisbatan munosabat tarbiyasidir. Ekologik ta’limtarbiya umumiy ta’lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo`lib, maktabda barcha fanlar qatori o`qitiladi. Uning bosh maqsadi yosh avlodda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy ong darajasi past bo`lgan yuqori tabaqa Xalq uchun ikkinchi darajali bo`lgan Xalqlar ekologik tushkunlikdan osonlikcha chiqib keta olmaydi. Ular tabiat haqida kuyunuvchilar bo`lsayam qilayotgan ishlari bunga ziddir. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor berishga va bu borada ibratli an’analarni vujudga keltirishgan. Oila davrasida farzandlarga: «Suvga tupurma! Uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichiqhadi,» «Gullab turgan meva shoxini sindirma, u meva beradi, uni O`zing iste’mol qilasan» deganlar. O`lkamizning tabiiy O`simliklar dunyosi, ularning foydasi bu boyliklarni muhofaza qilishni yoshlarga uqtirish, ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Ekologik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o`z ichiga oladi: - Atrof-muhit va uning shaxs ma’naviy dunyosiga ta`siri; - Tabiat va uning ahamiyatini aniklash; - Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi; - O`z shaxrini, kishlok va maktab xovlisini ko`kalamzorlashtirishda o`simliklarni parvarishlashga qizikishni oshirish; - Atrof-muhit muhofazasida bolalar vazifalari; - Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning namunali o`rni; - Oiladagi, maktabdagi tabiatni, o`simlik va hayvonot dunyosini e’zozlashga o`rgatish; - Tabiatni ongli munosabatda bo`lish; Yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an’ana va udumlarni qayta tiklash. Ekologiyani o`zgartirish uning ifloslanishini mikdorini mikdoran son jihatdan ko`rsatkichlarini bildirish, matematika fanidan beriladigan ekologik tarbiyaga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Ekologik yo`nalishdagi to`garaklardagi bolalar tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go`zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishga o`rgata boradi. To`garak mashg‘ulotlarida o`qiladigan «Tabiatni e’zozlaylik», «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so`raydi», kabi mavzular o`quvchilarda tabiatga qiziqishi yanada oshiradi. O`quvchilar ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarurdir. - Tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ularning bog‘likligi; - Tabiat

boyliklaridan tejab foydalanish va ularni muhofaza qilish; - Atrof-muhit ifloslanishlardan saqlash; - Tabiat kelajak avlodlar uchun tabiiy xolda qoldirishga intilish. Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash o`quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg‘otadi, tabiatni ximoya qilish uchun kurashishga, uning go`zalligini asrab-avaylashga olib keladi.

1. Ekologik mafkura nafaqat umuminsoniy, balki tabiat va inson xayoti uchun yagona bo’lgan umumxayotiy qadriyatlarga tayanadi. Buning uchun o’quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ong va dunyoqarash hamda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirish lozim. Ekologik madaniyat tabiatni muhofaza qilish madaniyati bo’lib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik tizimni ongli o’zgartirish madaniyatidir. Umumta’lim maktablari o’quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish quyidagicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O’quvchining hissiyotiga ta’sir etish;
2. O’quvchilar qalbida tabiatga, atrof-muxitga muxabbat uyg’otish;
3. O’quvchilar ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona munosabatni shakllantirish;
4. Ekologik ta’lim-tarbiyani olishni uzluksiz davom ettirish;
5. Olingan nazariy bilimlarni amalda qo’llash. malaka va ko’nikmalarni shakllantirish zarur va x.k. Bunday sifatlarni o’quvchi yoshlarda shakllantirish uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo’l ochish, ta’limni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Adabiyotlar:

1.Holmo’minov J. Ekologiya va qonun. T.: «Adolat», 2000.
2. Egamberdiyev R, Eshchonov R. Ekologiya asoslari. T.: «Zar qalam», 2004.
3. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T.: «O’zbekiston», 2003-y

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada tabiat ob’eklarini adekvat modellashtirish asosida o‘quvchilarning ekodidaktik bilimlarini takomillashtirish haqida ma’lumot berib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация по совершенствованию экодидактических знаний учащихся на основе адекватного моделирования природных объектов.

SUMMARY

This article provides information on improving students’ ecodidactic knowledge based on adequate modeling of natural objects.

INKLYUZIV TA’LIM-MUQARRAR TA’LIM SIFATIDA

Arslanova F. Z.
CHDPU Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistri
Abdujalilova Sh. A.
CHDPU Maxsus pedagogika kafedra o‘qituvchisi p.f.f.d (PhD)

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bola, nuqson, maxsus ta’lim, inklyuziv sinf, pedagog, ta’lim, tarbiya, metod, tenglik, korreksiya.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями здоровья, инвалидность, специальное образование, инклюзивный класс, педагог, образование, воспитание, метод, равенство, коррекция.

Key words: inclusive education, child with disabilities, disability, special education, inclusive class, pedagogue, education, upbringing, method, equality, correction.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi. Davlatimiz tomonidan bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslar va alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga yo‘naltirish, ular uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor kuchaytirilgan. Bunining natijalarini davlatimiz rahbarining qo‘llab-quvvatlanishi hamda qabul qilinayotgan farmon hamda qarorlaridan ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda jamiyatimizda har bir sohaga berilayotgan e’tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Ayniqsa ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlarni bo‘lmoqda. Diqqatga sazovor tomoni esa alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limidir. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘z sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta’lim maktablarida bilim olishi, do‘stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo‘ravonlik hamda kamsitishlikka yo‘l qo‘ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta’lim-tarbiya olishi ko‘zda tutilgan.

Inklyuziv ta’limning maqsadi: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita hamda metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvini ta’minlash, bola jamiyatga to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladi.

Undan tashqari:

– o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlaydi;
– ta’lim muassasasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratib beradi;
– ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshiriladi;
– o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlaydi;
– jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondiradi;
– ijtimoiy hayotga erta moslashtirish uchun xizmat qiladi;
– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqaradi;
– jamiyatda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish kabilarni ta’minlaydi.

O‘quvchi qanday imkoniyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtoj bo‘ladi. Uni alohidalash yoki alohida nom bilan “Anomal bolalar”, (ko‘r bolalar), (kar bolalar) va hakozo tushunchalar bilan ajratib ko‘rsatish insonparvarlik nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmaydi. Ushbu tushunchalar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning huquqlarini kamsitish bilan bir qatorda ota-onalarga ham salbiy ta’sir etadi.

Ushbu jarayonda inklyuziv ta’limning vazifalari esa quyidagilardan iborat:
– rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
– jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;
– ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
– barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
– o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’lim-alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda umumta’lim muassasalarida barcha uchun teng imkoniyatlarni ta’minlagan holda beriladigan ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim umumta’lim maktablarida sinf sifatida tashkil etiladi, sog‘lom o‘quvchilar bilan bir qatorda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar birga bir sinfda ta’lim-tarbiya oladilar va **“Inklyuziv ta’lim sinfi”** deb ataladi.

Umumta’lim maktabida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bir xil nuqsonli 8-12 nafar o‘quvchi alohida bir sinfda ta’lim-tarbiya oladi va ushbu sinf **“Boshlang‘ich tayanch korreksion sinfi”** deyiladi.

Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

– o‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
– tengdolariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;
– ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish–insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
– o‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi;
– yoramga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.

Inklyuziv ta’lim alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nima beradi?

– o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi;
– mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
– dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
– o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
– o‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
– ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
– yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar taklifi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi buyrug‘iga ko‘ra tashkil etiladi. Nodavlat ta’lim

tashkilotlariga ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo‘lgan taqdirda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin, faqat nodavlat ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish tegishlicha hududiy xalq ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Maktabning inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etilishi belgilangan. O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan. Psixologik-tibbiy pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo‘llanmasi o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi. O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o‘quv yili boshlanguncha hamda o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

– eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
– ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
– somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar); - nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
Maqolada talabalarning raqamli madaniyatini shakllantirish zarurati, uni rivojlantirish yo‘llari, talabalarga raqamli xavfsizlikni o‘rgatish, o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va talabalar o‘rtasida raqamli axloqni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается необходимость формирования цифровой культуры студентов, способы ее развития, обучать студентов цифровой безопасности, введения цифровых технологий в образовательный процесс и формирования у студентов цифровой этики.

SUMMARY

The article discusses the need to form a digital culture of students, ways to develop it, to teach students digital security, the introduction of digital technologies in the educational process and the formation of digital ethics among students.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

TARIX O‘QITUVCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGI

Rashidova G. G‘.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali dotsenti

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, ijtimoiy-madaniy, funksiya, ijtimoiy xotira, tamaddun, ilmiy – kognitiv, bashoratlash.

Ключевые слова: компетентность, социокультурная функция, социальная память, цивилизация, научно-познавательная, предвидение.

Key words: competence, socio-cultural, function, social memory, civilization, scientific-cognitive, prediction.

Kirish va dolzarbligi. Bir qator hukumat hujjatlarida har tomonlama bilimli, turli masalalarni ijodiy hal qilishga va tez o‘zgaruvchan ijtimoiy va ishlab chiqarish sharoitlariga moslashishga qodir barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi sifatida yuqori axloqli, ma’naviy madaniyatga ega bo‘lgan, bag‘rikenglik ko‘rsatadigan, boshqa xalqlarning tillari, urf-odatlari va madaniyatiga hurmat ko‘rsatadigan mutaxassislarning yuqori darajada ijtimoiylashishi tushuniladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish fanining o‘quv vazifalari sharoitida va talabalarni tarix o‘qitishning maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Ta’lim muassasalarida tarix o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati bu tarix fanining tarkibida ijtimoiy funksiyalarning mavjudligidir, bu fanni o‘qitish mazmuni va uslublarida amalga oshirilishi kerak.

Tarix fani quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi:

1. Ijtimoiy xotira funksiyasi.

Ijtimoiy xotira - bu barcha o‘tgan avlodlar tajribasini to‘plash va insoniyat xotirasida saqlash, tarixiy ongni shakllantirishdir. Tarixiy ong, ta’rifi bo‘yicha, ommaviy hisoblanib, ongning huquqiy, siyosiy, milliy, axloqiy va boshqa shakllari bilan bir qatorda ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Tarixiy ong inson va umuman jamiyat ongida zamonlarning - o‘tmish, hozirgi va kelajak aloqalarini anglatadi. Tarixiy ong - bu insoniyatning o‘ziga xos genetik xotirasidir. Jamiyatning barqarorlik darajasi, uning tanqidiy sharoit va vaziyatlarda omon qolish qobiliyati

tarixiy ong holatiga bog‘liq. Barqaror tarixiy ong - bu jamiyat barqarorligining eng muhim ko‘rsatkichidir. Tarixiy ongning yemirilish holati yaqinlashib kelayotgan inqirozning dalilidir. Ijtimoiy xotiraning vazifasi oldingi avlodlar tajribasini to‘plash va saqlashni o‘z ichiga oladi. Tarix zamonlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi, avlodlar o‘rtasida o‘ziga xos vositachi rolini o‘ynaydi. Tarixiy xotira jamiyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini berishga qaratiladi. Shunday qilib, tarixiy ong jamiyat va shaxsni o‘zini o‘zi aniqlashning eng muhim usuli, ijtimoiylashuv vositasi, insonning jamiyatdagi “yo‘nalishi” va irqiy, milliy, madaniy va tamaddunga mansubligini anglatadi. Tarixiy dunyoqarash qanchalik keng bo‘lsa, odam uchun atrof olamda yo‘nalish olish osonroq bo‘ladi.

2. O‘xshashlikni shakllantirish funksiyasi.

Bu tarixning eng muhim ijtimoiy va madaniy funksiyalaridan biridir. Bunda o‘xshashlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- *ijtimoiy* (ko‘pincha oila, klan, turar-joy tarixi sifatida rivojlanib boradigan ma’lum bir ijtimoiy qatlamga mansub);
- *madaniy* (ma’lum bir madaniy an’anaga tegishli, masalan, ma’lum bir hayot madaniyati, axloq qoidalari, estetik qadriyatlar va boshqalarga rioya qilish);
- *milliy* (yoki etnik - ularning ma’lum bir xalqqa, millatga mansubligini anglash);
- *tamaddun (sivilizatsiya)* (Osiyo, Yevropa sivilizatsiyasi);
- *davlat* (“biz o‘z mamlakatimiz fuqarosimiz” va boshqalar).

Ushbu holatlarning barchasida tarixiy urf-odatlar, misollar, analoglar va tarixiy dalillar o‘zlikni anglash to‘g‘risida g‘oyalarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Ko‘pincha, tarixiy dalillar ma’lum bir o‘ziga xoslik uchun hal qiluvchi, asosiy bo‘ladi. Tarixni asosli identifikatsiya qilish “do‘st yoki dushman” tizimida madaniy kodlarni shakllantirishda talab qilinadi. Odatda, ma’lum bir kodlar tizimiga rioya qilish tarbiya, ta’lim, atrof-muhit, ya’ni tarixiy an’ana kontekstida shakllanadi. Tarixiy endoidentlik (o‘z-o‘zini tasavvur qilish) va ekzoidentiklik (boshqalarni tasavvur qilish) o‘rtasidagi farqni ajratish odatiy holdir.

3. Tarixning ilmiy-kognitiv funksiyasi.

Tarix ilmiy-kognitiv funksiyaga ega, chunki tarix fani ijobiy ijtimoiy ongni shakllantirish, ma’lum bir jamiyat rivojlanishini bashorat qilish, jamiyat va uning individual sohalari va jarayonlarining rivojlanishini boshqarish uchun ilmiy zaruriyatlarni yaratadi. Tarix davlat, sinflar, millatlar kelib chiqishini tushuntiradi, madaniy an’ana, sivilizatsiya shakllanishining boshlang‘ich nuqtasini belgilaydi.

4. Tarixning ijtimoiy va madaniy funksiyalari.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari tarixiy tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. Tarix fan sifatida bo'lmasa, ushbu funksiyalarni amalga oshirish imkonsiz bo'lar edi.

5. Tarixning tarbiyaviy vazifasi.

Bu fuksiya vatandoshlar o'rtasida yuksak axloqiy va fuqarolik fazilatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Yosh avlodni tarbiyalash shaxsni jamiyat axloqiy qadriyatlariga yo'naltirish uchun ta'kidlash kerak bo'lgan ideallar asosida amalga oshiriladi. Ushbu funksiya, ayniqsa tarix o'qituvchisi faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega. Shuni anglash lozimki, o'qitishning u yoki bu qadriyatlarga yo'naltirilishi, o'qituvchining avtoriteti va o'rniga bog'liq bo'lib, tarbiyalanuvchilarga ta'sir qilish kuchiga ega. Xuddi shunday tarixiy, siyosiy va milliy masalalarni tinglovchilar oldida taqdim etish orqali yoki vatanparvar shaxsni, yoki beparvo, beg'am insonni tarbiyalash mumkin.

6. Tarixning amaliy va tavsiya etuvchi funksiyasi.

Tarixning amaliy va tavsiya etuvchi funksiyasi jamiyatni oqilona boshqarish va puxta davlat siyosatini amalga oshirish uchun zaruriy shart bo'lgan ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini tarixiy tahlil qilishdan iborat. Amaliy-tavsiya funksiyasi tarixiy tajribaga asoslangan ilmiy asoslangan siyosatni ishlab chiqishga imkon beradi.

7. Tarixning bashoratlash funksiyasi.

Mazkur fuksiya hozirgi kunni yaxshiroq tushunish va kelajakni taxmin qilish uchun tarixiy o'tmishni o'rganish vazifasini bajaradi. Kelajakni bashorat qilishga urinish inson uchun ham, jamiyat uchun ham juda muhimdir. Bashoratlash zamonlar aloqasining ajralmas elementi bo'lib, kelajak kategoriyasi tarixiy ong tarkibiga kiritilgan; kelajak haqida tasavvursiz, uni amalga oshirishni rejalashtirmasdan, unga ishonchsiz tarixiy ong mavjud bo'lmaydi. Tarixning bashorat qiluvchi funksiyasi ehtimollik xususiyatiga ega va faqat global miqyosda kuzatilgan umumiy tendensiyalar darajasida mavjud bo'lishi mumkin. Muvaffaqiyatli bashorat qilish holatlari ham ko'pincha ehtimoliy va tasodifiy xususiyatga ega. Bunda tarixchining bashorati olim, tabiatshunos yoki shifokorning bashoratidan tubdan farq qiladi. Shifokor kelajakda kasallikning borishi va bemorning ahvolini bashorat qilish ehtimoli yuqori, ammo tarixchi aniq kelajakni hech qachon bashoratlay olmaydi.

8. Tarixning madaniy funksiyasi.

Bu funksiya aniqroq qilib aytganda madaniy-ma'rifiy, ko'ngil ochish funksiyasi bo'lib, aynan fan mavzusi va "Tarix" predmetining maftunkorligida ko'zga tashlanadi. Tarix qiziqarli, chunki u syujet va voqealar fonida, yodgorliklarni

o‘rganishga asoslangan bo‘lib, uni ko‘plab madaniy hodisalar va san’at janrlari bilan bog‘laydi. Deyarli butun dunyoning geografik maydonini qamrab oladi.

Tarixiy voqealarning turli faktlar bilan, dramatik voqeliklar bilan boyitilishi tarixning ulkan madaniy, ma’rifiy va tarbiyaviy rolini belgilaydi. Tarix yuqori intellektual faoliyat sohasiga tegishli. Tarixiy mavzularda badiiy asarlar yaratiladi, filmlar suratga olinadi, tarixiy diqqatga sazovor joylar bilan bog‘liq muzeylar va turistik marshrutlar yaratiladi. Tarixiy adabiyotning o‘zi juda keng tushuncha sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda tarixiy rekonstruktorlarning ommaviy harakati rivojlanib bormoqda , ular ilmiylikdan tashqari ta’lim va ko‘ngilochar funksiyalarini ham bajaradilar.

Tarixiy rekonstruktorlar (qayta tiklovchilar) - arxeologik, tasviriy va yozma manbalardan foydalangan holda ma’lum bir tarixiy davr va mintaqaning moddiy va ma’naviy madaniyati ob’ektlarini qayta qurishadi [167, 59- b.].

Mazmunini tasviriy san’at asarlari, adabiyot, musiqa va boshqalar bilan boyitish orqali tarix fani talabalar ongida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantiradi, madaniy o‘ziga xoslik va etnik guruhlarning o‘zaro ta’siriga qiziqishni rivojlantiradi, gumanitar va diniy sohalarda bag‘rikenglikni tarbiyalaydi.

O‘zbek olimlari A.Erkaev, S.K.Annamuratova, E.Umarov, M.Abdullaev, E.Hakimov, F.R.Yuzlikaev, N.M.Egamberdeva, K.Usmonov, I.B.Mirzaevlar ta’limning madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va kasbiy elementlarining o‘zaro bog‘liqligini hamda fuqaro va mutaxassisni - uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirish jarayonining ajralmas mulki deb biladi [21,142,198, 202,225,226,227].

Tarix o‘qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish masalasini hal qilishda hozirgi paytda ta’limning o‘zi ham ijtimoiy institut sifatida qaralishini yodda tutish kerak. Shu ma’noda, o‘qituvchilar jamiyatda ikki muhim rol o‘ynaydi: bir tomondan, ular “ijtimoiy buyurtma” ning bevosita ijrochisi, ikkinchi tomondan, mustaqil ijtimoiy kuch sifatida harakat qiladi, buning natijasida, jamiyatdagi ta’limning yetakchi roli yosh avlodni ijtimoiy ideal va shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiradi.

Hozirgi vaqtda ilmiy, pedagogik va uslubiy adabiyotlarda ta’lim ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Funksional jihatdan ta’lim shaxsni ijtimoiylashtirishning yetakchi sharti, kasbiy faollik va mobillik, shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilash hisoblanadi. U shaxs o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirish sharti sifatida: o‘z-o‘zini baholash, xulq-atvor motitvatsiyasi, qadriyatli yo‘nalishlar, ehtiyoj va manfaatlarni shakllantiradi va bu o‘zini boshqarishning asosi hisoblanadi.

Ta’lim g‘oyasining o‘zi barcha odamlarning tajribasi va har bir insonning shaxsiy tajribasini shakllantirish va amal qilish usuli sifatida xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida jamiyatning ijtimoiy tajribasi individual tajribaga kiritiladi. Shaxsni madaniyat bilan yaqinlashtirishda aynan ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim makonida inson o‘z xalqining etnik madaniyatini, mintaqaning milliy o‘ziga xosligini va ular orqali butun dunyo umuminsoniy madaniyatini o‘rganadi. Etnik guruhlar, millatlar, jamoalar madaniy merosining yetaklovchisi o‘qituvchidir, u kelajak avlodni turli madaniy qadriyatlarga, urf-odatlarga jalb qiladi, o‘z etnik-milliy madaniyati tashuvchisi va etnik o‘ziga xoslikning ilhomlantiruvchisi bo‘lishga da’vat etadi. Ushbu jarayonda tarix o‘qituvchisi asosiy rolni o‘ynaydi.

Tarix o‘quv predmeti yosh avlodni tarixiy tajriba, turli xil hayotiy vaziyatlarda inson xulq-atvori, qadriyati bilan, inson hayotining turli jabhalarida axloqiy (axloqsiz) munosabat tajribasi bilan tanishtirish vositasidir. Tarix o‘qituvchisining asosiy vazifasi yosh avlodning individual tarixiy ongini rivojlantirishdan iboratdir. Tarix o‘qituvchisi faoliyatining biri tarix ta’limi sifatini oshirish, talabalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylash-tirishga qaratilgan tarixiy ta’limni modernizatsiyalashning (zamonaviylashtirish) mazmuni va protsessual jihatlarini innovatsion yangilanish bilan bog‘liq tadqiqotlardan iborat.

Tarixni bilish o‘quvchi uchun nafaqat o‘tmishini anglashga yordam beradi, balki zamonaviy muammolarni ko‘rib chiqishga, hayotda o‘z yo‘lini tanlashga va kelajak yo‘lni belgilab olishga imkon beradi. Xalqimizning boy, haqiqatan ham noyob o‘tmishini eng muhim tarixiy faktlar, voqealar, hodisalar, jarayonlar prizmasi orqali o‘rganish, buyuk ajdodlarimizning jahon tamaddumi xazinasiga qo‘shgan hissasi, keng ommaviy faoliyati, ularning kurashlari, Vatan ravnaqi va gullab-yashnashi, ularning ozodligi va mustaqilligi uchun; qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bizning mintaqamizning tarixiy rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini jahon tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qilish orqali talaba shaxsini rivojlantirish hamda axborot jamiyatining tez o‘zgaruvchan dunyosida unga qadriyatlar, zamonaviy aloqa shakllarini o‘rgatish, muloqotning zamonaviy shakllariga o‘rgatish, ishlash qobiliyatlari va ma’lumotni o‘zlashtirishini rivojlantirish, samarali qarorlar qabul qilishga o‘rgatish - uni hayotga tayyorlashning asosidir, (Ye.Ye. Vyazemskiy, A.Yu. Strelova).

Yosh avlodga O‘zbekiston tarixini uning yorug‘ va qorong‘u tomonlari bilan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari hamda jamoaviy rivojlanish istiqbollari bilan, insonning qaynoq ehtirosi va shaxslar to‘qnashuvi, barcha qiyinchilik va qarma-qarshiliklari bilan tanishtirish; yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, yangi plyuralistik jamiyatda biz uchun hayotiy

ahamiyatga ega bo‘lgan turli pozitsiyalarga, turli xil yondashuvlarga, ko‘p partiyali tizimga ega bo‘lgan ijtimoiy mo‘ljalni shakllantirish orqali yosh avlodda yuksak ma’naviyat va axloqiylikni shakllantirish kerak.

Tarix fanning qiymati uning o‘ziga xosligidadir – u tafakkur tizimining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi, u insonga tarixiy makonda erkin harakt qilishga, uni tarixiy tajriba bilan qurollantirishga hamda unga zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni to‘g‘ri baholay bilishga imkon beradi. Bundan tashqari, tarixiy bilimlar insonning o‘z nuqtai nazarini shakllantirishga, uni mustaqil baholashga hissa qo‘shadi va shu bilan birga, boshqalarning fikrlarini qadrlashga va hurmat qilishga o‘rgatadi. Tarixiy fanlar, shuningdek, shaxsda zamonaviy jamiyatda hayot uchun muhim bo‘lgan tafakkur va dunyoqarashning kengligi, bag‘rikenglik, fuqarolik jasorati, ijodiy xayol kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Natijada, tarixiy bilimlar yoshlarni zamonaviy dunyoda mustaqil hayotga tayyorlaydi, turli madaniy, etnik, tilshunoslik va diniy an’analarni ifodalovchi odamlar o‘rtasida o‘zaro tushunish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, insonni nafaqat o‘z mamlakati, mintaqasining vakili, balki dunyo fuqarosi sifatida o‘zini anglashga yordam beradi. Bularning barchasi yosh avlodda ushbu muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, ularsiz hozirgi bosqichda demokratik jamiyatlarning rivojlanishi imkonsizdir.

Tarix fani o‘qituvchisi yoshlarni fuqarolik tarbiyasida, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta’lim va tarbiya vazifalariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Tarix ta’limini modernizatsiya qilishning markaziy vazifalaridan biri bu ko‘pmadaniyatlilik, ko‘p millatlilik va ko‘p konfessiyalilik jamiyatda ta’limning o‘zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy sharoitida yangi o‘qituvchini tayyorlash vazifasi turadi. Maktabda tarix ta’limi yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishning eng keng tarqalgan kanallaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qadriyatli yo‘nalishlari, o‘z faoliyatini jahon va mahalliy tajribaga mos ravishda qura olishlari, unda urf-odatlar va yangiliklarning hisobga olinishi tarix fani o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlariga bog‘liq.

Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlarida malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim elementi bitiruvchining ijtimoiy-madaniy kompetentlikka egaligini o‘z ichiga olgan qo‘shimcha fazilatlarini shakllantirishdir.

Oliy kasbiy ta’lim davlat standartida bakalavriat ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish natijalariga qo‘yiladigan talablarda mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetentlikni egallashini nazarda tutadi, chunki mutaxassis ijtimoiy va madaniylikni bag‘rikenglik bilan qabul qilishga, tarixiy meros va madaniy an’analarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga tayyor bo‘lishi kerak.

Pedagogika OTM talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning muvaffaqiyati ushbu jarayon ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan dunyo va til modellarining izchilligiga bog‘liq. Kommunikativ niyatlarni amalga oshirish uchun sheriklar ijtimoiy-madaniy bilimlardan, amaliy muloqot qobiliyatlaridan foydalanadilar. Bugungi kunda pedagogika fanida tarixni o‘qitish maqsadi bo‘yicha yakdil fikrlar mavjud emas.

Yu.V.Begunova bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashning global maqsadi yaqin atrof-muhit, davlat va xalq hayotida, butun insoniyat hamjamiyatida faol va ijodiy rol o‘ynashga qodir shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir, deb hisoblaydi.

Bu boradagi o‘zgacha qarashlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

– o‘quvchilarni o‘z xalqiga va Vataniga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash;
– vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usini tarbiyalash, milliy ongni shakllantirish, o‘z davlati va butun dunyo xalqlarining tarixiy va madaniy merosiga hurmat bilan qarash (YeE Vyazemskiy) [55];
– ko‘p madaniyatli va plyuralistik jamiyatda yashashga qodir fuqaroni shakllantirish;
– jahon ma’naviy va moddiy-madaniy merosiga ehtiyotkorlik, qimmatli va faol munosabatni ko‘rsatib, yuqori madaniyatga ega insonparvar shaxsni shakllantirish; o‘tmish xotirasini hurmat qilish va o‘tmish avlodlar merosi bilan shaxsiy hissiy aloqani o‘rnatish;
– boshqa madaniyatlar va xalqlarga mehribonlik, tolerantlik munosabatni shakllantirish;
– shaxsni o‘z vatandoshlari va butun insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy muhitga kiritish va ijtimoiy muloqot va jamoat xatti-harakatlarida foydali bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish;
– talaba shaxsi va uning qadriyatlarini shakllantirish, uni tez o‘zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlash, axborot jamiyati, uning zamonaviy aloqa shakllarini o‘rgatish, ish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma’lumotni o‘rganish, samarali qaror qabul qilishga o‘rgatish.

Olimlarning yuqoridagi fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, har bir fikrda tarixiy ta’limning ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismi mavjud. Shu munosabat bilan S.Sh. Alimovning quyidagi ta’rifi ishonchliroq: o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi kasbiy pedagogik kompetentlikning ajralmas qismi bo‘lib, u mutaxassisning integral xarakteristikasi sanaladi va u milliy madaniyat, til, din to‘g‘risidagi o‘z mamlakati ta’limi va pedagogika fani bo‘yicha kompleks ijtimoiy-madaniy bilimlarini o‘z kasbiy faoliyati jarayonida qo‘llashga tayyorligi

va qobiliyatlarini taqozo qiladi [20]. Natijada, o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni va ta’lim tizimidagi umumiy vaziyatni hisobga olgan holda, pedagogik jarayonni tashkil qilishning eng optimal variantlarini tanlashga, uning natijalarini bashorat qilishga, o‘z vaqtida navigatsiya qilish, zamonaviy sharoitlarga moslatirish, qiyin vaziyatlarni oldindan bilish va ortda qoldirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi-mutaxassisga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining mazkur fazilatlarini shakllantirishga pedagogika oliy o‘quv yurtlari faoliyati yo‘naltirilishi kerak. Maktab o‘z xalqining milliy zamin va ildizlaridan ajralmasdir hamda u milliy madaniyatni shakllantiradi va avaylab asraydi, shuning uchun yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashning tashkil etilish shakl va usullari uning ming yillik tarixi, asl an’analari, milliy madaniyati, umumiy insoniyat madaniyatining eng yaxshi yutuqlari bilan boyitilishini hisobga olgan holda qurilishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan mualliflarning konsepsiyasida ta’limning milliy va xalqaro asoslari, mamlakatda yashovchi barcha millatlar, elatlar va milliy guruhlarni o‘zaro boyitishning haqiqiy usullarini qidirib topishga intilish kuzatiladi. Bu bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining milliy-madaniy tiklanish sharoitda kasbiy-pedagogik tayyorlash tizimini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda yuqori darajadagi ichki madaniyati rivojlangan tarix o‘qituvchilarga talab ortmoqda.

O‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish quyidagilarga bog‘liq:

- jamiyatning tarixiy va madaniy rivojlanish xususiyatlariga;
- o‘qituvchilarning ijtimoiy va professional hamjamiyat sifatidagi o‘rniga;
- zamonaviy ta’limning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida rivojlanishiga;
- ma’lum ta’lim muhitining ijtimoiy-ta’lim holati faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga;
- kasbiy faoliyatni shakllantirishning shaxsiy mexanizmlariga;
- o‘qituvchi tomonidan ta’limning gumanistik paradigmasini o‘zlashtirishi va uni amal oshirishiga.

O‘qituvchining o‘quvchi shaxsi va ijtimoiy-ma’rifiy vaziyatni rivojlanishiga ta’sir qilish usullari va imkoniyatlarini aniqlash uchun o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va kasbiy va shaxsiy yo‘nalishini belgilovchi omillarni, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojalari hamda kasbiy roliga mosligini aniqlash kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning ijtimoiy-pedagogik asoslarining yaxlit konsepsiyasi, uni, bir tomondan, ijtimoiy siyosatning ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’siri to‘plami sifatida, ijtimoiy-ma’rifiy vaziyat, ta’lim muassasalari modellarida va ularning tashkiliy va

madaniy muhitida ko‘rib chiqadi, boshqa tomondan, o‘z kasbiy rolini tanlaydigan, qabul qiladigan va bajaradigan o‘qituvchining o‘z harakatlari kiritiladi, lekin u hali yaratilmagan.

Bozor munosabatlari sharoitida zamonaviy mutaxassisga qo‘yilayotgan talablar birmuncha o‘zgarmoqda. Mazkur o‘zgarishlar bugungi kunda mutaxassislarni tayyorlash fan dasturi va rejalari mazmunida yetarli darajada hisobga olinmagan. Ushbu yangi talablar u yoki bu fan bilan qat’iy bog‘liq emas, balki ular sub’ektiv xususiyatga ega va o‘zining universalligi bilan ajralib turadi. Ularning shakllanishi yangicha mazmunni talab qilmaydi, balki davrga mos innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, u kompetentlikni rivojlantirishga, mehnat faoliyatini amalga oshirishga va integratsiyalashgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvning aniq yo‘nalishi bilan bog‘liq zaruriy kompetensiyalarni har tomonlama o‘zlashtirishga yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’limning amaliyotga yo‘naltirilganligini, uning pragmatik, amaliy-professional jihatlarini kuchaytiradi.

Адабиётлар:

1. Сластенин, В.А. Проблемы формирования содержания педагогического образования на современном этапе. // Формирование личности учителя: Сб. науч. тр.– М., 1995.– С. 24–33.

2. Баранников А.В. Содержание общего образования: компетентностный подход. – М.: ГУ ВШЭ, 2002. – 98 с.

3. Новые методы преподавания истории в современных средних школах Российской Федерации. Международный семинар. Волгоград, 21-22 июня 2000 г. – 91 с.

4. Файзулина С.Х. Формирование профессиональной компетентности будущих учителей в системе непрерывного образования// Современные технологии в учебно-воспитательном процессе. – Ташкент: Фан, 2009. – С. 88-95.

5. Hasanov B.V. O‘zbekiston tarixi: Ma’ruzalar kursi. IIV Akademiyasi. - Toshkent, 2005. - 251 b.

РЕЗЮМЕ

Tarixni bilish o‘quvchi uchun nafaqat o‘tmishini anglashga yordam beradi, balki zmonaviy muammolarni ko‘rib chiqishga, hayotda o‘z yo‘linitanlashga va kelajak yo‘lni belgilab olishga imkon beradi Ushbu maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligi qay darajada bo‘lishi haqida fikrlar keltirilgan. Maqolada tarix fani o‘qituvchilarining bir nechta ijtimoiy funksiyalari mavjud bo‘lib, ushbu funksiyalar maqolada yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Знание истории не только помогает учащемуся понять свое прошлое, но и позволяет рассмотреть современные проблемы, выбрать собственный жизненный путь и определить будущий путь данности. В статье указаны несколько социальных функций учителя истории, и эти функции освещены в статье.

SUMMARY

Knowledge of history not only helps the student to understand his past, but also allows him to consider modern problems, choose his own path in life and determine the future path. given. There are several social functions of history teachers in the article, and these functions are covered in the article.

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANISHINING TARIXIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Eshchanova X. X.
UrDU mustaqil tadqiqotchisi
Xodjaniyozov S. U.
taqrizi ostida UrDU professori, p.f.d (Dsc)

Tayanch so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, madaniy meros, muhaddis, madaniy yodgorlik.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, оздоровительный туризм, лечебный туризм, культурное наследие, мухаддисы, памятник культуры.

Key words: tourism, pilgrimage tourism, health tourism, health tourism, cultural heritage, muhaddiths, cultural monument.

Kirish. XX asr boshida ijtimoiy zaruratdan kelib chiqqan holda ijtimoiy turizm vujudga keldi va yoyildi. Uning asosiy belgilari: ommaviylik, intensivlik, dam olishni sanoatga aylantirish. Bugungi kunda turizm bir tomondan ommalashib, umumlashib, ikkinchi tomondan ixtisoslashib bormoqda. Turistik talab motivatsiyasi murakkablashmoqda: rekreativ (dam olish) tomonlari bilan birga turizmning ta’limiy, kommunikativ va investitsiyaviy aspektlari o‘sib boryapti. Turizm (Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra) yer yuzi ishlab chiqarish-xizmat ko‘rsatish bozori mablag’ aylanmasining 10% ni ta’minlaydi.

Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotida 2015 yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2016 yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1 milliard 235 millionga ya’ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2020–2022 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin [1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon

standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakat o‘zining salohiyati, geografiyasi, tarixi va bugungi kunidan kelib chiqib, turizmning turli yo‘nalishlarini rivojlantirishga urinadi. Salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstrimal turizm, shuningdek, ziyorat turizmi singari yo‘nalishlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Turizm - mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog’i sanaladi. Mamlakatimiz turistik salohiyatini oshirishga befarq bo‘lmagan aholining oilaviy mehmon uylarini, turistlar uchun kamida besh xil xizmat ko‘rsatish turlarini tashkil etganda “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog’i” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishga oid, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlarni obodonlashtirish, keng ommaga tanishtirishga oid yangiliklar kiritilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 7 fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorlari yurtimizda sayyohlik yo‘nalishini keskin rivojlantirish, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, xorijlik mehmonlar oqimini ko‘paytirish, turizm, madaniy, tabiiy va sport salohiyatini butun jahonga namoyish etish, o‘z navbatida, ichki turizm madaniyatini shakllantirishda muhim tashkiliy huquqiy asos bo‘ldi.[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmonida “…O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to‘liq o‘rganish, ma’lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarni shakllantirish…” vazifaklari belgilab berilgan [3].

Davlatimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish, shuningdek, keljak avlod tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan ziyorat turizmining pedagogik jihatlarini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. E’tiborli jihati, hozirgi paytda turizm jamiyat hayoti mazmunining madaniy shakllarini o‘zgartirib yuboruvchi faol hodisaga aylanib bormoqda. Mazkur jarayonning faollashuvi natijasi o‘laroq madaniyat ko‘lami kengaymoqda, iqtisodiyot va fuqarolik madaniyati taraqqiy etmoqda, shaxs va jamiyatning ma’naviy olami boyimoqda. SHunga mutanosib ravishda ilmiy dunyoqarashda turizm fenomenini tadqiq qilish sezilarli jonlandi. So‘nggi yillarda ushbu faoliyat turiga iqtisodiy, sportga oid, etnografik, ekologik mazmunini o‘rganishga

bag'ishlangan asarlar paydo bo'ldi. SHuning bilan birga bu faoliyatning pedagogik va ta'lim-tarbiya imkoniyatlarini yanada puxta tadqiq qilish ehtiyoji ortmoqda.

Ziyorat turizmning jamiyat hayotidagi dolzarbligi uning huquqiy va madaniy asoslarini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Afsuski, hozirgi paytdagi dolzarb tadqiqotlar ko'p jihatdan fragmentar, ya'ni tor doirada, ular turizmni umumlashtirib o'rganishga mo'ljallanmagan. Alohida faoliyat turi sifatida turizm chuqur tarixiy ildizga ega va avvalboshdanoq sayohat bilan bog'liq bo'lgan. Qator tadqiqotchilar turizm taraqqiyotida asosiy 4 bosqichni ko'rsatadi: 1. Turizm debochasi, tamaddun shakllanishidan boshlanib XIX asr boshigacha davom yetgan; 2. Elitar turizm (XIX – XX asr boshlari), sayyohlik xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ishlab chiqaruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalardan vujudga kelishi bilan bog'liq. 3. Ijtimoiy turizm rivoji (XX asrning 1-yarmi); 4. Ommaviy turizm taraqqiyoti (II – jaxon urushidan keyin). So'nggi bosqich shunisi bilan xarakterlanadiki, bu davrda ommaviy turizm keng quloch yoyadi, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha sohalar aro kompleks sifatida turistik sanoat yuzaga keladi. Yuqoridagi davrlashtirish asosiga mualliflar tomonidan texnik – iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar qo'yilgan.[5]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijlik olimlardan T.A.Van Dijk, B.W.Ritche tadqiqotlarida turizm ta'limini boshqarish asoslari tadqiq etilgan bo'lsa Rossiyalik olimlardan A.A.Ostapets turizm pedagogikasining ilmiy - nazariy asoslarini tadqiq qilgan.

O'zbekistonlik olimlarimizdan N.T.Tuxliev, A.Taksanov, A.K.Alыmov, M.T.Alieva, M.T.Alimova, N.Ibadillaev, A.A.Eshtaev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida turizmni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va uslubiy muammolari o'rganilgan ammo ziyorat turizmi va uning pedagogik jihatlarini tadqiq qilish, rivojlantirish masalalariga oid ilimiy ishlanmalar bizda mavjud emas.

Mamlakatimiz pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida pedagog olimlarimiz yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish ularning ma'naviy axloqiy tarbiyasi masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratishgan ammo, oliy pedagogik ta'lim tizimida ziyorat turizmi asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muammolari deyarli o'rganilmagan. Jumladan, K.Xoshimov, S.Nishonova, A.Zunnunovlar O'rta Osiyo xalqlarining ta'lim – tarbiyaga oid qarashlarini tarixiy rivojlanishini, ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy ma'naviy me'rosini o'z ilmiy ishlarida tadqiq qilishgan. M.X.Toxtaxodjaeva, R.Mavlonova, A.Q.Munavvarov, I.Y.Tursunov, O'.N. Nishonaliev, N.G'aybullaev, R. Yodgorov, J.Y.Xasanboev, B.Ziyomuhammadov, O.Musurmanova, SH.Mardonov, U.Aleuov,

S.U.Xodjaniyozov [5], U.I. Mahkamov, N. Ortiqov va boshqa pedagog olimlarimiz ta'lim – tarbiya nazariyasiga oid ilmiy ishlanmalarida yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasi masalalariga u yoki bu darajada to'htalib o'tganlar.

D.Sh. Nafasov tadqiqotlarida turistik faoliyatda talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan [6].

Ijtimoiy – madaniy hodisa sifatida turizm madaniyat dinamikasi va ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Antik davrda turizm ana shu madaniyat va ijtimoiy munosabatlar, xususiyatlari orqali baholangan. Bu sayohatlar bilan bog'liq bo'lgan, sayohatlar esa savdo va davolanish zaruratidan kelib chiqqan. Holbuki, antik madaniyat bellashuvlik bilan xarakterlanar ekan, barcha xohlovchilar uchun o'zini madaniyatning turli yo'nalishlarida - hunarda, sportda, notiqlik san'atida, teatr tomoshalarida-sinab ko'rish imkoniyati ochildi. Ushbu tomoshalar Qadimgi Yunonistonning turli shaharlarida o'tkazilgan. O'rta asrlar madaniyatida sayohatlar diniy mazmunga ega bo'lgan va muqaddas qadamjolarga ziyorat bilan bog'liq bo'lgan.

Ziyorat turizm bilan bog'liq sayohatlar umumjahon tarixida buyuk mutafakkirlarimizning hayotiy yo'llari va ilmiy izlanishlari bilan bog'liq holda alohida ahamiyatga ega.

Ziyoratchi-olimlarning eng mashhuri deb tan olingan buyuk muhaddis Imom Ismoil Al-Buxoriy turistik-sayyohlik faoliyatini 17 yoshida boshlab, o'z onasi bilan Arabistonga haj ziyoratiga borib bir necha yil o'sha yerda yashaydi. U fiqh hadislarini yig'ish maqsadida Bog'dod, Damashq, Balx, Nishopur, Misr va boshqa ko'pgina arab shaharlarida 40 yil davomida sayohat qilib, hadislarni to'playdi. Ziyoratchi, sayyoh-olimlardan yana biri Imom Al-Buxoriyning zamondoshi Abu Iso Muhammad At –Termiziy hisoblanadi. At –Termiziy ham Bog'dod va boshqa ilm-fan rivojlangan shaharlarga ilm izlab sayohat qilgan va ko'pgina shogirdlari yetishib chiqqan.

Buyuk muhaddislarimiz sayohat qilishlarining yana bir sababi arab xalifaligiga kirgan Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda mahalliy tillarda yozilgan asarlari yo'q qilinishi bo'ldi. Movarounnahrda yetishib chiqqan tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari Damashq, Qohira, Bog'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishgan va arab tilida ijod qilishga majbur bo'lishadi. Bu o'z navbatida allomalarimizning bir qancha shaharlarda sayohat qilishlariga, yerlik xalqning tili, dini, madaniyatini, urf-odatlarini, an'analarini, ijtimoiy munosabatlarga kirishishidagi milliy xususiyatlarini, yosh avlod ta'lim - tarbiyasidagi o'ziga xos uslublarini o'rganishga zamin yaratgan.

IX asrda Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi Bog'dodda Bayt-ul hikma –Donishmandlar uyi Sharqning o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan. Bayt-ul hikmada katta kutubxona hamda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud bo'lgan. Bu yerdagi ilm ahli tadqiqotlar olib borish bilan birga qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanganlar. Bu yerda o'rta asar il-faniga katta hissa qo'shgan ko'pgina Movarounnahr va Xurosonlik olimlar ijod qilishgan.

Markaziy Osiyolik allomalarimiz butun hayoti davomida sayohat qilishlari, turistik faoliyatning bir jihati bo'lgan ziyorat turizmi bilan shug'ullanishlari natijasida ilmlarini boyitib, hayotiy tajriba orttirishgan, o'zlaridan boy ma'naviy meros qoldirishgan.

Xorazm ilmiy maktabining ilk ko'zga ko'ringan namoyondasi Muhammad Xorazmiy bo'lib, u amerikalik Sharqshunos D.Sarton ta'biri bilan aytganda, «Barcha zamonlarning eng ulug' matematiklaridan biri edi». Muhammad Al-Xorazmiy Xorazmda tug'ilgan bo'lsada ilm izlab, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish maqsadida ko'pgina mamlakatlarda, shaharlarda bo'ladi va Bag'dodda vafot etadi. Al-Xorazmiy o'z sayohatlaridan olgan taassurotlari, ma'lumotlari asosida geografiyaga doir asarlar ham yaratib, o'z asarlarida hammasi bo'lib 537 joyning nomi, shaharlar, tog'lar (203 ta nom), dengizlar va orollarning nomlarini keltiradi, oxirida esa daryolar nomlarini alohida keltirgan. Uning asarlarida Qizil dengiz, Hind va Atlantika okeanlari kabi nomlar uchraydi. SHuningdek, Azov dengizi, Nil daryosi havzalariga izoh berilgan. Italiyalik Sharqshunos K. Nallino – «Evropadagi hech bir xalq al-Xorazmiy erishgan yutuqqa erishgan emas va bunday asar yaratishga qobil emas edi» – deb yozgan edi. Al-Xorazmiyning sayohatlari natijasida yaratilgan geografik g'oyalar bu fanni yangi pog'onaga ko'tarib, IX asr boshlarida Sharqda yangi geografiya fanining yaratilishiga olib keldi.

Ziyoratchi, sayyoh-olimlardan yana biri Ahmad Farg'oniy hisoblanadi. Ahmad Farg'oniy Farg'onada tug'ilgan va dastlabki ilmni shu yerda olib voyaga yetgan. Farg'oniy ilmiy izlanishlarini davom qildirish maqsadida uzoq sayohatga chiqadi va o'sha zamonda Sharqda mashhur bo'lgan Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» akademiyasida Muhammad al-Xorazmiy bilan ishlash baxtiga muyassar bo'lgan. Ahmad Farg'oniy Quyosh va Oy tutilishlarini ham ilmiy jihatdan isbotlab bergan, yulduzlar ilmining sultoni deyilgan Mirzo Ulug'bekdan besh asr oldin Quyosh va yulduzlarning harakat yo'nalishlarini, Yer shar shaklida ekanligini va u qutblar deb ataluvchi ikki o'q atrofida harakatlanishini ham isbotlab bergan. Oradan 800 yil o'tgach, Xristofor Kolumb

hamda yer shari bo‘ylab aylanma sayohatni oshirgan Fernando Magellan ham Ahmad Farg’oniyning Yer shari hajmini hisoblash uchun ishlatgan bir daraja meridian uzunligi haqidagi hisob- kitoblarning naqadar to‘g’ri ekanligini yozib qoldirgan. Ahmad Farg’oniy Misrga sayohatini davom qildirib Nil daryosining suvini doimiy o‘lchab turuvchi nilometr asbobini yasagan. Bu asbob bo‘yicha butun Nil daryosi havzasida muvafaqqiyatli dehqonchilik qilingan. Bu asbob bo‘yicha Nil daryosining toshqinli davrlari oldindan ma’lum bo‘lgan. Misr hukumati vatandoshimiz Ahmad Farg’oniyning ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o‘rnatishga qaror qildi.

Sayohatchi-ziyoratchi allomalardan biri bo‘lgan Abu Rayhon Beruniyning umri doimo sayohat va bir shahardan ikkinchisiga ko‘chib yurib, tadqiqotlar o‘tkazish bilan o‘tgan. Bag’dodda oy tutilishini isbotlab bergan. Agar Beruniyning butun umri davomida qilgan sayohatlarini sarhisob qilsak, u shimolda Xorazmga, janubda Hindistonga, g’arbda Kaspiy dengizi sohili va Bag’dod oralig’ida sayohat qilgan.

Ziyoratchi, sayyoh-olimlardan yana biri Abu Ali ibn Sino hayoti davomida tez-tez sayohat qilgan va ko‘p yurtlarni kezgan. Buxorodan keyin Xorazmda, Turkmanistonda, Eron shaharlarida va Kaspiy dengizi sohillariga sayohat qilgan. Ibn Sino Kasbiy dengizi bo‘yida, Marv daryosi bo‘ylarida va Qoraqum sahrosini kesib o‘tishda, Eron, Turkmaniston mamlakatlariga sayohatlari davrida dorivor o‘simliklarning o‘sish areallari, ularning shifobaxshlik xususiyatlarini o‘rganish davomida joylarning geografik xaritalardagi o‘rni, tabiiy iqlim sharoitlari, ayniqsa, buloqlar, betakror tabiiy go‘shalar, issiq suvlarning davolash xususiyatlari haqida juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z asarlarida qayd etgan.

Sayohatchi-olim Nosir Xisrav Balx shahri yaqinidagi Qobodiyon qishlog’ida tug’ilgan. U 1045-yilning kuzida Murg’ob daryosi bo‘ylab janubga sayohat qilib, daryoning boshlanishigacha yetib borishda ko‘rganlarini o‘zining esdaliklariga tushirgan. Ikkinchi sayohatini 1046-yil Arabistonga qarab boshladi. Manbalarda keltirilishicha, uning bu safari XI asrda amalga oshirilgan eng uzoq muddatli, qiziqarli va ma’lumotlarga boy bo‘lgan sayohatlardan biri hisoblanadi. Mazkur sayohat Marvdan boshlanib, Eronning shimoliy qismi, Armaniston, Turkiya janubi, Arabistonning Makka va Madina shaharlari, Livan va hozirgi Isroil yerlaridan o‘tib, Misrgacha davom etgan. SHundan keyin olim Hindistonning shimoliy viloyatlariga sayohat qilgan. Uning «Safarnoma» asari jahon geografiyasidagi eng nodir asarlardan biri sifatida qabul qilingan.

Mahmud Koshg'ariy Xitoyning Koshg'ar shahrida tug'ilgan. Manbalarga ko'ra, u Janubiy-G'arbiy Osiyoning ko'plab shaharlariga ziyorat qilish va ilm o'rganish maqsadida sayohat uyushtirgan, Bag'dodda ham yashagan. Turkiy tillarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida olim ko'p yillar davomida Rumdan Mochingacha O'rta yer va Qora dengizlari bo'ylaridan to Xitoygacha sayohat qilgan, turkiy qabilalar yashaydigan yerlar, shahar va qishloqlarni kezgan. Uning safar yo'nalishlari davomidagi tabiiy geografik mintaqalarning iqlim xususiyatlari va ulardagi farqlar haqidagi ma'lumotlari hozirgi geografiya, turizm va pedagogika fanlarini rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Abdulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamahshariy 1075-yilning 19-martida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U hayoti davomida tinmay sayohat qilgan va muqaddas qadamjolarni, avliyolarning maqbaralarini ziyorat qilgan. Sayyoh-olim Sharq, xususan, musulmon mamlakatlarini 1100–1122 va 1127–1139 yillarda ikki marta aylanib chiqqan. Zamaxshariy Xuroson, Eron, Arabiston, Iroq, Yaman, Suriya, Marv, Nishopur, Isfaxon, Bag'dod, Hijoz, Damashq va Makka shaharlariga sayohat qilib asarlari uchun boy manbalar to'plagan. Uning tilshunoslikka oid «Asos al-balog'a» (So'zga ustalik asoslari), «Samim al-Arabiya» (Arab tili mag'izi) va «Al- Kashshof» Qomusiy asari Qur'on tafsiriga oid asarlar o'rtasida eng mukammali ekanligi Sharqshunos va arabshunos olimlar tomonidan tan olingan. SHu sababli, mazkur asardan dunyoning turli mamlakatlari universitetlarida asosiy darslik sifatida hozirgacha qo'llanilib kelinmoqda [6]. Az-Zamaxshariyning turistik sayohatlari o'z ilmini boyitish, hayotiy tajribalarini orttirishi, ziyorat qilish bilan birga pedagogika ilmining boyishiga ham katta hissa qo'shgan, kelajak avlodga boy ma'naviy meros qoldirgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda qadimgi sayyohlik, shuningdek, ziyorat turizmi Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, IX–XII asrlarda rivojlangan sayyohlik tufayli insonlarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turizmning yangicha turiga asos solingan, ziyoratchilikning rivojlanishi bilan diniy turizm ham keng tarqala boshlagan. Shu bilan birga turizmning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ta'lim-tarbiya tajribasi ham uzviy bog'liqlikda va hamohang tarzda shakllanib kelgan.

Adabiyotlar:

1. Jahon turizm tashkiloti. //www.unwto.org/ru

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoev. Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida Toshkent sh., 2018 yil 7 fevral, PQ-3514-son //www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni. //www.lex.uz

4. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. М.: Академия, 2005. – стр 85.

5. S.U.Xodjaniyozov. Xorazm mutafakkirlarining tasavvufiy dunyoqarashi asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish. Ped.fan.dok,...dis.T.:2022.-152 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ziyorat turizmini rivojlanishining tarixiy-pedagogik jihatlari yoritib berilgan bo‘lib, bugungi kunda turizmning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni, ziyorat turizmning jamiyat hayotidagi ahamiyati va dolzarbligi, ijtimoiy - madaniy hodisa sifatida ziyorat turizmi madaniyati dinamikasi, O‘zbekistondan ziyorat turizmini rivojlanishining tarixiy-pedagogik jihatlari, ziyorat turizmi bilan bog’liq sayohatlar jahon tarixida buyuk allomalarimizning hayotiy yo‘llari va ilmiy izlanishlari bilan bog’liqligi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются историко-педагогические аспекты развития паломнического туризма, роль туризма в развитии экономики страны на сегодняшний день, значение и актуальность паломнического туризма в жизни общества, динамика культуры паломнического туризма как социокультурный феномен, историческое развитие паломнического туризма из Узбекистана - Освещаются педагогические аспекты, поездки, связанные с паломническим туризмом, связанные с жизненными путями и научными изысканиями наших великих ученых в мировой истории.

RESUME

This article highlights the historical and pedagogical aspects of the development of pilgrimage tourism, the role of tourism in the development of the country’s economy today, the importance and relevance of pilgrimage tourism in society, the dynamics of the culture of pilgrimage tourism as a sociocultural phenomenon, the historical development of pilgrimage tourism from Uzbekistan - Pedagogical aspects are highlighted, trips associated with pilgrimage tourism related to the life paths and scientific research of our great scientists in world history.

BO'LG'USI PEDAGOGLARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Nafasov D. Sh.
Urganch davlat pedagogika instituti "Pedagogika, boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, (PhD)
Atamuratova S. Q.
Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
***Xodjaniyazov Sardor Umarovichning** tahriri ostida*
Urganch davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Tayanch so'zlar: kompetentlik, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, kognitiv, aksiologik, kommunikativ.

Ключевые слова: компетентность, социокультурная компетентность, когнитивная, аксиологическая, коммуникативная.

Key words: competence, sociocultural competence, cognitive, axiological, communicative.

Kirish. Talaba-yoshlarning ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish, ularda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Fan va texnologiya rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Davlatimizning strategik rivojlanish dasturi ushbu maqsadlarni ko'zlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida barkamol avlodni shakllantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassilar tayyorlashni jahon ta'limi darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoni qatnashchilariga maqbul sharoitlar yaratib berish hamda pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirib borish maqsad qilib qo'yilgan[1].

O'zbekistonda ta'lim tizimi islohotlarini amalga oshirish jarayonida shaxsning har tomonlama kamol topishi, yoshlarning samarali ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus

va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur hayotiy bilim, ko'nikma va bilimlarni shakllantirish lozim[2]. Bo'lgusi pedagoglarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda faol ishtimoiy fuqarolik pozitsiyalarni tarkib toptirish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

So'nggi yillarda «ijtimoiy-madaniy kompetensiya» atamasi pedagogik, kasbiy hamda me'yoriy-uslubiy adabiyotlarda eng keng tarqalgan mavzu va tushunchalardan biriga aylandi. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani ta'riflashda turlicha yondashuvlarga asoslanganligi sababli, har xil ma'nolarni keltirib, "kompetentlik", "kompetensiyalarga asoslangan yondashuv" kabi murakkab pedagogik xodisalarning muhim xususiyatlarni aniqlashda, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning tuzilishiga hamda uni ta'limning turli bosqichlari va darajalarida yagona mantiqqa muvofiq metodologiyasini shakllantirishda muayyan qiyinchiliklar kelitirib chiqarmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya masalalari E. I. Vorobyova, Yu. I. Kostyushina va boshqalar tadqiqotlarida o'rganilgan[3]. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya inson shaxsining ijodiy-yaratuvchanlik faoliyatida namoyon bo'ladigan tizimli xarakteristikasi sifatida qaraladi va u yaratgan mahsulotlarda, faoliyat natijalarida o'z aksini topadi. Uni yaxlit pedagogik jarayonda shakllantirish zarurati bir qator sabab va asoslarga tayanadi:

– davlat siyosatining dolzarb muammolarini bilish;
– ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; xorijiy tillarni birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlarni mohiyatini tushunishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi" lozim.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning fenomenologik asoslarini ishlab chiqishda tadqiqotchilar quyidagi asosiy holatlarga diqqatini qaratadilar:

– ijtimoiy borliq va ijtimoiy hayotga aloqador kompetentsiyalarning shaxs sotsiumi bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri "ijtimoiy individ" kabi keng kamrovli tushuncha sifatida ta'riflanadi;

– ijtimoiy-madaniy kompetensiya o’z tarkibiy tuzilmasi va mazmunga ega;
– ijtimoiy-madaniy kompetensiya yosh xususiyatlari va ularning dinamik o’zgarishlari bilan bevosita bog’liq;
– konseptual jihatdan ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibida shaxslararo faoliyatda nima aniqlanishi hamda uni qay tarzda turli muloqot vosita va shakllari orqali namoyon bo’lishi muhimligi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning psixologik va pedagogik jihatlarini taxlil qilishda mualliflar uning bir qator muhim xususiyatlarini ta’kidlashadi: shaxsning psixologik harakatchanligi va ijtimoiyligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va madaniy bag’rikengligi (A.Ya.Flier), harakatlarning ijtimoiy kontekstini idrok etish qobiliyati (Ya.G.Bagdasaryan, G.V. Panina), ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorligi, shaxsning muayyan ma’anviy-axloqiy qadriyatlarga egaligi, muloqotchanligi (D.P.Sadoxin), odamning jamiyat hayotiga moslashuvchanligi va ijtimoiy integratsiya qobiliyatlari (O.N.Astafyeva, O.A.Zaxarova) [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya, odatda, individning ma’lum ijtimoiy-madaniy sharoitda ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni o’z vaqtida hal qilish uchun zarur bo’lgan qobiliyatlar, shuningdek hamkor bilan shaxsiy madaniyatiga oid bilimlarga ega holda muloqotga kirishishga tayyorligi sifatida ta’riflanadi

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning muhim xususiyatlarini batafsil o’rganishda uning funksiyalariga ham murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bular qatorida, birinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya insonning ma’lum bir ijtimoiy guruhga mansubligida aks ettirilishi, guruh jamoasida ijtimoiy harakatlar holatlarida namoyon bo’lishidir. Ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya ichki madaniy ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning o’zi mansub bo’lgan madaniyat stereotiplari bilan hamohang tarzda o’zligini anglab borishini bildiradi.

Pedagogik, psixologik va sotsiologik tadqiqotlarning tahlili asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning quyidagi asosiy semantik (ma’no) jihatlarini ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

1. Yoshlarning ijtimoiy hayotga tayyorligini aks ettiruvchi minimal talablarga muvofiqligi ijtimoiy buyurtmasining in’ikosi;

2. Ijtimoiy muloqot va faoliyat muammolarini hal qilishda amaliy va nazariy bilimlardan o’zaro bog’liq holda foydalanilishi;

3. Ta’lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarida o’quvchi yoki talabaning individual-madaniy xususiyatlarining aks ettirilishi.

1. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani semantik ma’nolari bilan bir qatorda uni shakllantirish tamoyillari, tarkibi va tuzilishi masalalarini o’rganish ham

muhim ahamiyatga ega. Qator psixologik tadqiqotlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya tuzilmasining tarkibiy qismlari sifatida nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar, balki kognitiv (o'z madaniyatini bilish), aksiologik (madaniy qadriyatlar), kontseptual (kasbiy, ijtimoiy-madaniy faoliyatga oid bilimlar), hissiy-axloqiy (shaxsning ijimoiy-madaniy mas'uliyati), kommunikativ (verbal va noverbal muloqot texnikasi); baholi-refleksiv (mustaqil fikrlash, refleksiya, o'z-o'ziga baho berish); shaxsiy-operatsion (shaxslar va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish); harakatli-faoliyatli (motivatsiya, refleksiya va kreativlik) komponent va elementlarni kiritadilar[5].

Tadqiqotchi N. G. Muravyova ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning tuzilishida quyidagi elementlarning muhimligini ta'kidlaydi:

- kognitiv - axborot (o'z mamlakati va boshqa mamlakatlarning tili va madaniyati to'g'risidagi ma'lumotni qabul qilish va foydalanish qobiliyati);
- aksiologik (axborotga ongli munosabatda bo'lish, idrok, bag'rikenglik, madaniyatga qiziqish, motivatsiya, aks ettirish);
- kommunikativ-faoliyatli (muloqotga kirishishga tayyorlik, aloqa usullari va uslublari, shaxs mustaqilligi, ijodkorligi, ijtimoiy harakatchanligi haqida bilim)[6]. Binobarin, ijtimoiy-madaniy kompetentsiya nafaqat ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy muloqotning ma'nosini belgilaydigan muhim ko'rsatmalarni ham o'zida aks ettiradi.
- Axborot jamiyati imkoniyatlarini faol anglash jarayonida bo'lgan inson o'ziga xos madaniy tajribani o'lashtiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayonida talaba nafaqat ma'lumot oladi va undan foydalanadi, balki o'z madaniy tajribasini boyitadi hamda jamiyatdagi ustuvor qadriyatlarni ongiga singdiradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibida ijtimoiy-madaniy ma'lumot va axbortlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish va uni individual tajribaga aylantirish muhimligini ta'kidlash zarur: axborotni idrok etish (sub'ektiv tajribani aktuallashtirish); axborotni tushunish (ong va ijtimoiy-madaniy tajribaning sintezi); orttirilgan tajribani o'z faoliyatining samarali shakllariga tadbiq qilish (ijodiy faoliyatda qiymat-semantik holatini aniqlash); baholash va taqqoslash (talqin qilish, shaxsiy qadriyatlar ustuvorligini ishlab chiqish).

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibidagi ijtimoiy-madaniy bilimlar va ko'nikmalar tizimi bilim va vaziyat o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish imkoniyati, muammoni aniqlash, uni hal qilishning samarali usulini topishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy mahoratni shakllanishi bevosita talabaning ijtimoiy-madaniy moslashish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalarga

turli xil faoliyat shakllarida madaniy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishga imkon beradigan texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning madaniyatshunoslikka oid paradigmasida ijtimoiy-madaniy kompetensiya insonning ajralmas xarakteristikasi sifatida qaraladi, turli xil ijtimoiy madaniyat (axloqiy, milliy, huquqiy, konfessional) sohalarida bilimlarning mavjudligida namoyon bo'ladi; uni o'rganishga qiziqish; uning qadriyatlariga muvofiq turli xil hayotiy vaziyatlarda odamlar bilan muloqot qilishga tayyorligi; xulq-atvorning ijtimoiy ahamiyatga ega motivlarining shakllanganligini bildiradi.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya asosini jamiyatning ijtimoiy madaniyati, ustuvor ma'naviy-axloqiy qoidalar, shaxslararo muloqot shakl va usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi. Umuman olganda, talaba sotsium yoki jamiyatni asosan keng (dunyo, mamlakat) va tor (oila,maktab, mahalla) ma'nolarda anglaydi hamda uning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini aynan shu ikkita, o'zaro bog'liq tushunchalarni qay darajada o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Bunda gap nafaqat jahon, muayyan mintaqa, mamlakat yoki xalqning madaniy xususiyatlari, maktab va oila kabi ijtimoiy institutlar, balki insonlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, an'ana va urf-odatlar, odob-axloq qoidalari bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi haqida ham ketadi.

3. Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri bu talabalarda ijtimoiy-madaniyat, uning namoyon bo'lishi xususiyatlari, odob-axloq qoidalari hamda xar bir konkret holatda insonlararo munosabatlar va o'zaro ta'sir ko'rsatish jihatlari haqidagi mustahkam bilimlarni shakllantirishdir.

Insonning jamiyat, boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sirini tavsiflovchi ijtimoiy-madaniy kompetentlik unga jamiyatdagi hayot normalari va qoidalarini yetarlicha bajarishga imkon beradi. Demak, ijtimoiy-madaniy kompetensiya-bu muayyan ijtimoiy guruhning ijtimoiy rollari, odob-axloq me'yorlari va qoidalari, ustuvor qadriyatlari, madaniy xulq-atvor namunalarining yig'indisi bo'lib, shaxsning aynan shu jamiyatga xos xususiyatlarga asoslangan holda o'zini anglashidir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya deganda uning ijtimoiy va madaniy tarkibiy qismlari bir-birini to'ldirishi va o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turishini ham ta'kidlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. Lex.uz

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”. Toshkent sh., 2020- yil 6- noyabr. PF-6108- son. Lex.uz

3. Костюшина Ю. И. Формирование социокультурной компетенции на занятиях по русскому языку как иностранному с использованием произведений живописи // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2015. № 1 (43): в 2-х ч. Ч. 2. С. 104-108

4. 5110900 – Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari. – Toshkent, TDPU, 2020, 7-b.

5. Полякова Е. И. Социокультурная, коммуникативная и профессиональная составляющие языковой подготовки будущих специалистов // Альманах современной науки и образования. 2015. № 2 (92). С. 100-102

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo’lg’usi pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: ijtimoiy kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchalarining mazmuni va mohiyati, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning tuzilishi hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik jihatlari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены педагогические основы развития социокультурных компетенций у будущих педагогов: содержание и сущность понятий социальная компетентность, социокультурная компетентность, структура социокультурной компетентности, педагогические аспекты развитие социокультурной компетентности.

SUMMARY

This article presents the pedagogical foundations for the development of sociocultural competencies among future teachers: the content and essence of the concepts of social competence, sociocultural competence, the structure of sociocultural competence, pedagogical aspects of the development of sociocultural competence.

DAXLDORLIK-INSONNING MAFKURAVIY IMMUNITETI SIFATIDA

Abdullayev S. S.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: pedagogika, ta’lim, jarayon, talabalar, ijtimoiy daxldorlik, fazilat, rivojlantirish, mazmun.

Ключевые слова: педагогика, образование, процесс, студенты, социальная активность, качество, разработка, содержание.

Key words: pedagogy, education, process, students, social involvement, quality, development, content.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida inson huquq va erkinliklari, tinchlik, barqarorlik, osoyishtalikni ta’minlash, boy ma’naviy merosimiz orqali o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini mustahkamlash, ijtimoiy voqelikka daxldorlik hissini qaror toptirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Yoshlarimizni ona vatanimizga, mustaqillik g‘oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste’dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida boshlagan katta ishlarni bundan buyon ham qat’iyat bilan davom ettirish” yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olingan. Bu esa, talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli, amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda “yangilanish jarayonlari tufayli odamlarimizning ongu tafakkuri, ularning Vatan taqdiriga, yon-atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabati tubdan o‘zgarmoqda. O‘tmish qoliplaridan voz keshgan jamiyatimiz a’zolari hayotdagi o‘z o‘rnini yangicha tasavvur etmoqda. El-yurtimizda yuksak ma’naviy fazilatlar, demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda, eng muhimi, aholimizning amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlarga daxldorlik hissi, mamlakatimizning kelajagiga bo‘lgan ishonchi ortib bormoqda”. Bu ham jamiyatda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirmoqda.

Har qanday jamiyatning istiqbolli sivilizatsiyasi uning ta’lim-tarbiya maqomiga, yangicha ta’lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma’rifatu madaniyatiga bog‘liq. Zotan, yuksak ta’lim-tarbiya darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta’minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti – bu loqaydlik kayfyatidan xalos bo‘lib, daxldorlik fazilati bilan yashashdir. Loqaydlikni bartaraf qiladigan va daxldorlik fazilatini shakllantiradigan kuch – bu ma’naviyatdir”. Ma’naviy qashshoqlashuv o‘z-o‘zidan odamning o‘z xalqi, vataniga daxldorlikning zaiflashuviga olib keladi. Axborot hurujiga va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy mmunitetning shakllanishi ham daxldorlikning darajasiga bevosita bog‘liq. Chunki daxldor insonning mafkuraviy immuniteti kuchli bo‘ladi. Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan shaxsning esa ma’naviyati yanada yuksalib boradi. Sababi unga ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Shu bilan birga, u ana shu xurujlarga qarshi kurashishni yaxshi o‘rganib oladi, loqayd bo‘lmaydi. Shu sababli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda daxldorlik masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bularning barchasi bizni fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida aholi, eng avvalo, yoshlarning islohotlarga daxldorligini mustahkamlashni ta’minlaydigan ijtimoiy axloqni himoya qilish va ma’naviyatni yuksaltirish muammolarini tahlil qilishga undaydi.

Ijtimoiy daxldorlik masalasi ko‘plab tadqiqot ishlarining ob’ekti bo‘lgan va bugungi kunda ham turli soha vakillari tomonidan mazkur mavzuning ayrim jihatlari tadqiq etilmoqda. Jumladan, daxldorlik kategoriyasining falsafy, sotsiologik, siyosiy asoslari N.Komilov, A.Ochildiyev, S.Mamashokirov, A.Xolbekov, V.Karimova, A.Erkayev, O.Bazarov va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida ko‘plab olimlar jumladan, S.Nishonova, M.Quronov, Sh.Qurbonov, A.Ro‘zmetov, O.Jamoldinova, Sh.A.Abdullayeva, N.Shodiyev, Z.Kurbaniyazova, R.Aripova, Sh.Akramovalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ijtimoiy dahldorlik murakkab va integral fazilat bo‘lib, u o‘zida hayotiy faoliyat sifatlarining butun majmuini ifoda etadi. Ijtimoiy dahldorlikni rivojlantirish jarayoni murakkab ijtimoiy hodisa sifatida milliy, diniy, tarixiy, axloqiy va huquqiy omillar bilan uzviy bog‘liq. SHu ma’noda, milliy va diniy qadriyatlar nafaqat xalqning falsafiy, tarixiy-ma’naviy merosi, balki barkamol shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning ham muhim omili hisoblanadi.

Ijtimoiy dahldorlik sub’ektning jamoa, guruh va uyushmalar bilan muloqotda bo‘lish, atrofidagilar bilan hamkorlik qilish, tengdoshlari va katta-

kichik oldida ma’lum majburiyatlarni ijodiy bajarish, tadbirkorlik ko‘rsatish, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va boshqa jarayonlarda faol ishtirok etish malakalarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy dahldorlikning yuqori darajasi insonning shaxsiy takomillashishiga, ya’ni individual rivojlanishi, takomillashishiga yo‘nalgan ongli va tizimli faoliyati – o‘z-o‘zini tarbiya qilishga intilishdir. Ijtimoiy dahldorlik insonda birdaniga shakllanmaydi, balki umri davomida kamol topib boradi. SHaxs faoliyati ma’naviy ishlab chiqapish sohasi bilan belgilangan holda ham ongning, ham o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va namoyon bo‘lishini, shuningdek, tafakkup faoliyatini qampab oladi. Yoshlarda daxldorlik fazilatini muvaffaqiyatli rivojlantirishda quyidagi chora tadbirlarni nazarda tutish alohida ahamiyatga ega:

– mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning ma’no va mohiyatini yoshlar ongiga chuqur singdirish, ularning jamiyatdagi yangilanishlar yo‘lini keng qo‘llab-quvvatlashi va ushbu jarayonlardagi ijtimoiy faolligiga erishish;
– yoshlarda islohotlarning borishi to‘g‘risida bilimlarini oshirish orqali jamiyat hayotida ongli fuqaro, erkin shaxs sifatida ishtirok etish malakalarini shakllantirish;
– ta’lim muassasalarida islohotlar natijalarini milliy mafkuramizning asosiy tamoyillarining ro‘yobi sifatida keng targ‘ib qilish maqsadida o‘smirlarning yoshiga mos ravishda ko‘rgazmali, video va audio mahsulotlar, bosma nashrlar tayyorlash, ma’rifiy tadbirlar uyushtirish;
– ta’lim muassasalarida o‘tadigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlarini, taniqli olimlar, ijodkor ziyolilarni, peshqadam tadbirkorlar va qishloq xo‘jalik, ishlab chiqarish korxonalari rahbarlarini jalb etish orqali yoshlarda daxldorlik fazilatini namoyon qilishlari uchun qulay sharoit yaratish, bu orqali ularni Vatan, el-yurt uchun xizmat qiladigan, jonkuyar, fidoyi farzandlar etib tarbiyalash;
– har bir yoshning Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalari ro‘yobi haqidagi bilimlarini mustahkamlash masalasini ilmiy-pedagogik ta’minlab borish taqozo etilmoqda.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini quyidagicha asoslash mumkin:

Oliy ta’lim talabalarda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalash bilan birga ularda makonga nisbatan tegishlilik, tug‘ilib o‘sgan joyga nisbatan mas’uliyat va ijtimoiy muhitga nisbatan daxldorlik fazilatlarini ham singdirish

muhim pedagogik vazifalardan biriga aylandi. Chunki bugungi global raqobat muhitida, globallashuv sharoitida madaniyatlararo munosabatlar zo‘riqib borayotgan sharoitda jamiyatda jipslik, ijtimoiy birdamlik va jamoaviy birlikni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. “Jahonda shiddat bilan o‘zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimiz osoyishta hayotini ta’minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda”. Shu bilan birga, “bugungi notinch va tahlikali zamonda yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan turli xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganini barcha yaxshi biladi. Ularga qarshi kurashda xalqimizning boy tarixi va madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jasorati, jonajon O‘zbekistonimizning milliy manfaatlari biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘lib xizmat qiladi”.

Bugungi kunda vatan degan tushunchani tan olmaydigan, qayerga borsa o‘sha joyni vatan sifatida biladigan kosmopoliten yoshlarning ko‘payib ketayotganligi, terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq tahdidlarni ham ko‘lami kengayib borayotganligi, jamiyatda beparvolik va loqaydlikni avjiga chiqayotganligi ham ijtimoiy daxldorlikni shakllantirishning yangicha metodologiyasini ishlab chiqishni ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. Tadqiqotchi E.Shermanov fkricha, “...daxldorlik fazilatini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik maqsadga erishish, ularda ushbu fazilat talab etayotgan ko‘nikma va malakalarini vujudga keltirish, tarbiyalash va takomillashtirish uzluksiz, bosqichmabosqichli, murakkab jarayondir. Shu sababli daxldorlik tarbiyasini ilmiy asosda tashkil qilish masalasi pedagoglar malakasini oshirish tizimi mazmuniga ham o‘zgartish va yangiliklar kiritishni taqozo qiladi”. O‘zida daxldorlikni shakllantira olga inson avvalo oilasiga, mahallasiga va yurtiga mas’uliyatni, millatparvarligini ko‘rsatadi. Daxldorlikni anglamagan inson bo‘lsa, loqayd va beparvo bo‘lib qolaveradi. Bugungi kunda jamiyatimizdagi barcha salbiy jarayonlar, o‘zgarishlar, jinoyatlar va terroristik tahdidlar ijtimoiy munosabatlarda beparvolik va loqaydlikning xosilasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bunga qarshi kurashda, jamiyatda barqarorlik va tolerant ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun ham yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni shakllantirish dolzarblik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, talaba yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan bog‘liq. Chunki daxldorlikni anglagan talabaning mafkuraviy immuniteti kuchli bo‘ladi. Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan talabaning esa, ma’naviyati yanada yuksalib boradi. Sababi unga ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Talaba har

qanday masalaning o‘zi uchun muhim yoki nomuhim ekanligin anglashi, shunga mos ravishda ish tutishi undagi daxldorlik fazilatining qay darajada shakllanganini bildiradi.

Adabiyotlar:

1. Файзиев И.Ш. Дахлдорлик тарбияси орқали фуқаролик жамиятини шакллантириш. // «Science and Education» Scientific Journal. October 2020 / Volume 1 Issue 7 –Б. 492.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017.

3. Shermanov E.U. O‘smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. - Samarqand, 2020.

4. Axmedov T. Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari //Arxiv Nauchnix Publikasiy JSPI. - 2020.

5. B. S. Siddiqov, & sh. N. Mexmonaliyev (2022). Pedagogik amaliyotning bo’lajak o’qituvchining kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o‘rni. Academic research in educational sciences, 3 (1), 10-16. Doi: 10.24412/2181-1385¬ 2022-1-10-16

РЕЗЮМЕ

Oliy ta’limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatga daxldorlik va mas’uliyatni mustahkamlash ijtimoiy manfaatlar ustuvorligiga asoslangan pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish, talabalarda ijtimoiy daxldorlikni mustahkamlash orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, millat taqdiri uchun o‘z manfaatlarini bir chetga surib qo‘ya oladigan avlodni shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

Повышение социальной активности студентов в высшей школе, вопросы усиления социальной вовлеченности и ответственности, организации педагогического процесса на основе приоритета социальных интересов на инновационной основе, формирования у студентов активной гражданской позиции за счет усиления социальной активности, формирования поколения, способного отложить собственные интересы в пользу общества. ради судьбы нации были проанализированы.

SUMMARY

Increasing the social activity of students in higher education, the issues of strengthening social involvement and responsibility, organizing a pedagogical process based on the priority of social interests on an innovative basis, developing an active citizenship position in students by strengthening social involvement, and forming a generation capable of putting aside their own interests for the sake of the nation’s destiny were analyzed.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR KELAJAKDAGI O'QITUVCHILARNING KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xurramov A. J.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Informatika va axborot texnologiyalari" kafedrasi v.b. dotsenti

Tayanch so'zlar: aqlli texnologiyalar; malaka; universal vakolatlar; kasbiy qobiliyatlar; Oliy ma'lumot; reklama va jamoatchilik bilan aloqalar; tilshunoslik; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Ключевые слова: smart-технологии; компетенция; универсальные компетенции; профессиональные компетенции; высшее образование; реклама и связи с общественностью; лингвистика; информационно-коммуникационные технологии.

Key words: smart technologies; competence; universal competencies; professional competencies; higher education; advertising and public relations; linguistics; information and communication technologies.

Oliy ta'lim yuqori darajadagi dinamiklik bilan ajralib turadi: o'qitish va bilimlarni tekshirishning yangi usullari doimiy ravishda taklif qilinmoqda, talabalarni kelajakdagi kasbining turli tafsilotlari bilan tanishtirish uchun yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning bunday doimiy o'zgarish qobiliyati kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlash darajasini voqelik, ya'ni mehnat bozori va rivojlangan shaxsni tarbiyalash talablariga moslashtirish zarurati bilan bog'liq. Ijodiy imkoniyatlarni ochish, o'zini o'zi belgilash va o'zini-o'zi anglash jarayonini yakunlash, intellektual va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshirish - universitetning o'quv jarayonining barcha bu jihatlari Smart texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Aqlli texnologiyalar va malakalar. Keling, avvalo ushbu tushunchalarning qisqacha tavsifini beraylik. "SMART – bu maqsadlarni belgilash va shakllantirish uchun taniqli va samarali texnologiya. SMART qisqartmasi aqlli maqsadni anglatadi va inglizcha so'zlarning bosh harflarini birlashtirib, haqiqiy maqsad nima bo'lishi kerakligini bildiradi: Specific (aniqliqlik) – Measurable (o'lchash mumkinligi) – Attainable (erishish imkoniyati) – Relevant (dolzarbligi) – Time-bounded (vaqtida aniqlik). Aqlli texnologiya kundalik vazifalarni bajarish va ma'lumot almashish uchun kompyuter tizimlari va mikroprotsessorlardan

foydalanishni o’z ichiga oladi. SMART qisqartmasini kiritgan birinchi olimlardan biri 20-asrning iqtisodchi, publitsist, o‘qituvchi va taniqli boshqaruv nazariyotchisi Piter Drukerdir. Natijada, Smart texnologiyalarni qo’llashning turli yo’nalishlari bosqichma-bosqich shakllandi: birinchi navbatda, iqtisodiyot va menejment, so’ngra sotsiologiya va kommunikatsiyalar sohasi, shuningdek, bizni qiziqtirgan ta’lim sohasi. Hozirgi vaqtda biz aqlli jamiyatni shakllantirish, ya’ni ma’lumotli odamlar o’z faoliyatida ishni samarali olib borish va biznes, do’stona munosabatlarni saqlash uchun eng yangi texnik vositalardan foydalanadigan yangi turdagi ijtimoiy tashkilot haqida gapirishimiz mumkin. Smart Education iborasi ham tez-tez ishlatiladi - bu universitetlarning (talabalar va o’qituvchilarning) maxsus faoliyat birlashmasi bo’lib, uning maqsadi yangi texnologiyalarni birgalikda qo’llash orqali o’quv jarayonini amalga oshirishdir. Ta’kidlash joizki, Smart-texnologiyalar bugungi kunda turli maqsadlarni, jumladan, ta’lim va kasbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun yuqori sifatli uslubiy platformaga aylanib bormoqda.

Zamonaviy ma’noda kompetentsiya tushunchasining o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqish kerak. Keng ma’noda kompetentsiya ma’lum ko’nikmalar va xabardorlikning har qanday masalalar doirasiga muvofiqligi sifatida talqin etiladi. Shaxsning faoliyat sohasiga, shaxsiy va hatto biologik sifatlariga qarab kompetentsiyaning har xil turlari mavjud. Ushbu maqola doirasida kasbiy kompetentsiyaga e’tibor berish muhimdir - mavjud nazariy va kognitiv tajribani amalda qo’llash, turli vazifalarni bajarish va biznes masalalarini hal qilishda.

Pedagogikadagi universal kompetensiyalar o’z-o’zini tashkil etish, o’z-o’zini nazorat qilish, mustaqillik, o’zini o’zi boshqarish va o’z taqdirini o’zi belgilashni o’z ichiga oladi. Asos sifatida bilim, shuningdek, undan foydalanish qobiliyati, ya’ni har doim hamkorlikka va oldindan belgilangan maqsadlar va bashorat qilinadigan natijalar bilan ko’p qirrali o’zaro ta’sirga sozlanganligiga alohida e’tibor beriladi. Kompetentsiya tushuncha va hodisa sifatida pedagogik kontekstga ega, shuning uchun u xulq-atvor va axloq normalarini faollashtiradi va shaxsning turli vaziyatlarda o’z mahorati va qobiliyatlarini safarbar qilish qobiliyatini faollashtiradi.

Kompetentsiyaning psixologik tomoni insonning kommunikativligi va o’zboshimchaligini, uning o’zini o’zi aks ettirish va o’zini o’zi bilish qobiliyatini ochib beradi. Shuning uchun kompetentsiya ko’p qirrali bo’lib, motivatsiya, sotsializatsiya, xatti-harakatlarda o’zini o’zi boshqarish va ijodkorlik bilan bog’liq. E.D. Dneprovaning so’zlariga ko’ra, bu kontseptsiya o’quvchilar yoki talabalarning har qanday muammolarni hal qilishda bilim va ko’nikmalarni

amaliy qo'llashga tayyorligini ko'rsatadi va E.F. Zeer kompetensiyasi - bu o'qitiladigan fanlar va kasbiy vazifalar o'rtasidagi qarama-qarshilik darajasini kamaytiradigan yangi psixologik-pedagogik ta'lim. Shuning uchun, E.F. Zeer kompetentsiyaning o'z-o'zini tashkil etish, mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, aks ettirish, o'zini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish kabi elementlariga ishora qiladi. J.V. Rasskazova E.N. Solovova ta'kidlaganidek, har qanday kompetentsiya bilim va undan foydalanish qobiliyatiga asoslanadi, ammo kompetentsiya ko'nikmalardan turli muammolarni hal qilish jarayonida hamkorlik va o'zaro ta'sirga psixologik tayyorligi, ma'lum axloqiy va axloqiy munosabatlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Asosiy yoki universal kompetensiyalar quyidagi turlarga kiradi:

- axborot kompetensiyasi - axborot bilan ishlashga tayyorlik;
- kommunikativ kompetentsiya - boshqa odamlar bilan muloqot qilishga tayyorlik, axborot asosida shakllanadi;
- kooperativ kompetentsiya - boshqa odamlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlik, oldingi ikkitasi asosida shakllanadi;
- muammoli kompetentsiya - muammolarni hal qilishga tayyorlik, oldingi uchtasi asosida shakllanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, universal kompetensiyalarning o'rni talabalarning kognitiv qiziqishlari konturini kengaytirish, zarur ma'lumotlarni tahliliy umumlashtirish ko'nikmalarini egallash, tanlangan kasbiy soha bo'yicha bilim darajasini oshirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat, har qanday faoliyat sohasida majburiy asosni tashkil etuvchi. «Vaziyatlar» so'ziga nisbatan qo'llaniladigan «universal» epiteti bizga har bir insonning ushbu shaxsiy fazilatlarini yangilash muhimligini ko'rsatadi - ular kundalik muloqotda ham, jiddiy faoliyatda ham ajralmasdir.

"Tilshunoslik" va "Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy va universal kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat universitetning o'quv jarayonida, balki Smart texnologiyalardan foydalanishni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Ta'limda ancha vaqtdan beri mavjud bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asta-sekin boshqa o'qitish usullari bilan to'ldirilmoqda. Aytishimiz mumkinki, oliy ta'limning axborot maydoni yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish hisobiga mavjud: B.A. Abdrahmonovning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonini AKTdan foydalanish bilan muvofiqlashtirish qiyin va bu qiyinchiliklar hech qanday tarzda bartaraf etilmaydi, balki doimiy ravishda o'sib bormoqda, ba'zan ekzotik shakllarga ega bo'lmoqda, masalan, global kompyuter tarmog'ida mutlaqo norasmiy ta'lim jamoalarini yaratish;

«haqiqiy» ta’lim muassasalarini «virtual»larga almashtirish. Natijada, o’quv jarayonida va talabalarning kompetentsiyalarini shakllantirish jarayonida Smart texnologiyalarning kontseptual dizayni faktini ta’kidlash mantiqan to’g’ri keladi.

Masalaning mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tilshunos talabalar yoki PR mutaxassislarini Smart texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlash plazma panel, interfaol doska va jadvallar, Smart displey va ekranlar, istalgan internet tarmog‘iga doimiy ulanish kabi yangiliklar tufayli amalga oshirilayotganini ta’kidlaymiz saytlar (yangiliklar, ta’lim). «Tilshunoslik» yo’nalishi bo’yicha o’rganish jarayoni ko’pincha multimedia globusidan foydalanish bilan birga keladi, bu sizga nafaqat Yerning statik tasvirlarini, balki real vaqt rejimida hayotdagi o’zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik taqdimotlarni ham ko’rsatishga imkon beradi. Mamlakatlar va turli qit’alarda - ob-havodan tortib yangi madaniy diqqatga sazovor joylargacha. Bugungi kunda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish har bir darsga quyidagi texnologiyalarni majburiy kiritish bilan qurilgan: Smart displey bilan ishlash ko’nikmalari yangilanadi, bu sizga bir vaqtning o’zida turli darajadagi murakkablikdagi ma’lumotlarni yuklab olish va kerakli ma’lumotlarni qidirishga ko’p vaqt sarflamasdan ham guruh, ham individual vazifalarni bajarish imkonini beradi.

Tilshunos-tarjimonlar, gidlar tayyorlash bugungi kunda lingafon laboratoriyalaridan foydalanish tufayli ancha osonlashmoqda: ushbu tizim grammatika va talaffuzning nozik jihatlarini o’rgatish jarayonini axborotlashtiradi, chunki u har qanday mavzuni vizual tarzda taqdim etadi - masalan, til video-turlari yordamida, ona tilida so’zlashuvchi bilan Skype aloqasini tashkil qilish. Bilimlarni tekshirish interfaol doska yordamida ham amalga oshiriladi - grammatik testdan o’tish yoki leksik bilimlarni tekshirish jarayoni soddalashtirilgan. To’g’ri talaffuzni sozlash audio va video resurslardan foydalanmasdan deyarli mumkin emas: universitetlararo video konferentsiyalar tez-tez tashkil etiladi, bu esa ma’ruzachilar nutqining ravshanligini to’liq saqlab, masofadan turib muloqot qilish imkonini beradi.

«Ta’lim jarayonini bog’laydigan asosiy element - bu faol ta’lim mazmuni bo’lib, uning asosida vaqt va makon chegaralarini olib tashlashga imkon beradigan yagona omborlar yaratiladi.» Tilshunoslar yoki reklama va jamoatchilik bilan aloqalar bo’yicha menejerlarni tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni har doim ham elektron ta’lim texnologiyalari bilan hal qilib bo’lmaydi va «aqlli ta’lim» tushunchasi multimedia texnologiyalarining moslashuvchanligi va darajasiga mos keladigan maksimal miqyos bilan tavsiflanadi. Shu asosda biz bo’lajak tilshunoslarning kasbiy kompetentsiyasini

rivojlantirish haqida gapirish mumkin - ularning chet tilini bilishi, tarjima usullari video seanslar tufayli doimiy ravishda yangilanadi, turli saytlarga tashrif buyurish va interfaol ekran yoki interaktiv ekran yordamida amaliy vazifalarni bajarish imkoniyati va aqlli displey. Umumjahon kompetensiyalarga kelsak, Smart texnologiyalar, albatta, tegishli aloqa, axborot kompetensiyasi va muammoli muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, chunki video tizimlar va nusxa ko'chirish taxtalari tufayli kerakli faktlarni olish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi.

Shunday qilib, Smart texnologiyadan foydalanish talabalarning uzluksiz o'zini-o'zi rivojlantirish yo'lini ochadi va universitetning ta'lim muhiti asta-sekin Smart muhitga, ya'ni klassik va zamonaviy usullarni o'z ichiga olgan juda moslashuvchan va keng ko'lamli o'quv maydoniga aylanmoqda. Aqlli texnologiyalar analitik kompetentsiyani, ya'ni murakkab savollarga javob izlashga mantiqiy yondashish qobiliyatini, shuningdek, innovatsiyalarga ochiqlikni rivojlantiradi - tilshunoslar va reklama va jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi mutaxassislar uchun bu kompetensiya juda muhimdir. Bugungi kunda aqlli texnologiyalar asta-sekin har qanday ta'lim innovatsiyalarining asosiga aylanib, o'quv jarayonining turg'unlik holatiga o'tmasligiga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Smart kontseptsiyasi ta'limda tabiiy ravishda paydo bo'ldi: «professional faoliyat va shaxsiy hayot jarayonini osonlashtiradigan turli gadjetlarni (smartfon, aqlli uy, aqlli avtomobil - aqlli avtomobil, smart doska - interaktiv intellektual elektron) joriy etish orqali. doska, aqlli qattiq disk o'z-o'zini diagnostika tizimi kompyuter). Biroq, bu qurilmalarning barchasi Smart kontseptsiyasi ta'sirida o'zlarining qobiliyat darajasini sezilarli darajada oshirdi va ta'lim muhitini kengaytirish jarayoniga ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi - bu bilimlar, axborot texnologiyalari va amaliy qo'llanilishining butun maydoniga aylanmoqda.

«Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar» yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qitish har doim Smart hujjat kameralaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, ular har qanday faylni ko'rish imkonini beradi - faqat pochta orqali olingan, skanerlangan yoki chop etilgan. Kamera har qanday ob'ektning eng kichik shrifti va tafsilotlarini taniy oladi, uni turli miqyosda ko'rsatadi - kichik guruhlar uchun ham, katta auditoriya uchun ham. Natijada o'quvchilarda hamkorlik va muammolarni hal qilish, qaror qabul qilishda mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi malakalar shakllanadi. PR-menejerlar va tilshunoslarni tayyorlash interfaol jihozlar (Smart Boards interaktiv doskalari, Sympodium interaktiv displeylari) yordamida amalga oshiriladi, bu ma'ruzachiga nutq davomida

to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdimot qilish, misollar va boshqa qimmatli faktlarga zaruriy urg‘u berishga yordam beradi. “Interfaol smart doskalarda siz maxsus marker bilan yozishingiz, o‘quv materialini namoyish qilishingiz, ekrandagi tasvir ustida yozma mulohaza yuritishingiz mumkin. Shu bilan birga, “Smart Board” interfaol doskada yozilgan barcha ma’lumotlar o‘quvchilarga uzatiladi, magnitli tashuvchilarda saqlanadi, chop etiladi, darsda bo‘lmagan o‘quvchilarga elektron pochta orqali yuboriladi. “Smart Board” interaktiv doskasida ma’ruza davomida yaratilgan o‘quv materiali o‘rnatilgan videoregistrator orqali yozib olinadi va uni bir necha marta o‘ynatish mumkin”. Interfaol doskalarning barcha imkoniyatlaridan foydalanish dasturiy ta’minot (Smart Notebook, Bridgit, SynhronEyes) ta’sirida amalga oshiriladi. Har bir dastur o’z resurslariga va o’ziga xos funksiyalariga ega: masalan, Smart Notebook matn va ma’lumotlar bilan har qanday ishni tashkil qiladi, Bridgit sharhlarni qabul qilish imkoniyati bilan masofaviy taqdimotlar o’tkazadi, SynhronEyes to’plami talabalarning ishini nazorat qiladi va bilim natijalarini ko’rsatadi, doskada test qiladi yoki umumiy doskadan hamma narsaga material yuboradi.

Xulosa. Umumiy xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, universitetdagi o’quv jarayoni kasbiy va umumbashariy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlarini belgilab, ijodiy xarakterga ega bo’la boshlaydi, aqlli texnologiyalar bilimga qiziqish va uni egallash motivatsiyasini oshiradi, ijodiy fikrlashni shakllantiradi va bir muammoni hal qilishning turli usullarini taklif qilish qobiliyati. Ta’limdagi yangi texnologiyalar bugungi kunda hatto 10-15 yil oldingiga qaraganda tez sur’atlar bilan paydo bo’lmoqda, bu tajriba, ma’lumot, bilim va biznes ko’nikmalarini almashish qiymatini oqlaydi. Jamiyat tomonidan talab qilinadigan tilshunos yoki PR menejeri kabi mutaxassisliklar bo’yicha o’qitish jarayoni, albatta, Smart kontseptsiyasiga muvofiq ishning barcha bosqichlaridan o’tadi: bu kasbiy sohalar ham intellektual, ham ijodiy faoliyatni, kommunikativ moslashuvchanlikni va fikrlash mantiqini o’z ichiga oladi. Va bu barcha vakolatlar Smart makonda rivojlanmoqda.

Adabiyotlar:

1. Абдрахманова, Б.А. Смарт-технологии в образовании / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.zkoipk.kz/b2/369-conf.html (дата обращения: 22.04.2018).

2. Smart / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.mental-skills.ru/dict/Smart/ (дата обращения: 22.04.2018).

3. Smart-технологии в высшем образовании / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://library.fa.ru/exhib.asp?id=199 (дата обращения: 21.04.2018).

4. Smart-технологии изменят систему образования / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.trainings.ru/library/ education_experience/?id=14024 (дата обращения: 21.04.2018).

РЕЗЮМЕ

Maqola zamonaviy ta’limda aqlli texnologiyalar hodisasini universal va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan nazariy ko’rib chiqishga bag’ishlangan. Universitetda talabalarni o’qitish jarayoni innovatsiyalarga murojaat qilishni o’z ichiga oladi, chunki yangi texnologiyalardan foydalanish o’qitish va bilim olish chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi va amaliy faoliyatda mavjud ko’nikmalarni qo’llaydi.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена теоретическому рассмотрению феномена смарт-технологий в современном образовании с позиций развития универсальных и профессиональных компетенций. Процесс обучения студентов в вузе предполагает обращение к инновациям, поскольку применение новых технологий существенно расширяет границы и преподавания, и получения знаний, и применения имеющихся умений и навыков в практической деятельности.

SUMMARY

The article is devoted to the theoretical consideration of the phenomenon of smart technologies in modern education from the standpoint of the development of universal and professional competencies. The process of teaching students at a university involves turning to innovations, since the use of new technologies significantly expands the boundaries of both teaching and acquiring knowledge, and applying existing skills in practical activities.

TALABALARNING ILMIY KO'NIKMALARI ASOSIDAGI ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH

Turdiyev U. Sh.
Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Yangiyer filiali Avtomatika va texnologik jarayonlar kafedrasi stajor o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ilmiy faoliyat, tadqiqot, amaliyot, rabototexnika, texnologiya, laboratoriya klasteri, virtual laboratoriya.

Ключевые слова: научная деятельность, исследования, практика, робототехника, технология, лабораторный кластер, виртуальная лаборатория.

Key words: scientific activity, research, practice, robotics, technological, laboratory cluster, virtual laboratory.

Respublikamizda tabiiy fanlarga jumladan, fizika ta'limining sifat va samaradorligini, ilm-fanning natijadorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi Prezident ta'lim Involta Ilmiy Jurnali Involta Ilmiy Jurnali Vol. 1 No.5 (2022) 431 muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risidagi № ПФ-106 sonli Farmoni va shu kabi huquqiy hujjatlarda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida «Ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish» Respublikamizda ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish va bular bo'yicha qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ishlar amalga oshirish, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratish va xalqaro baholash tizimida kuchli 30 talikka kiruvchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish vazifalari belgilib berish ishlari amalga oshirilmoqda.

Amaldagi o'quv dasturi talabalarda ilmiy munosabatlarni shakllantirish tabiat hodisalarini: kimyo, fizika, biologiya fanlarini o'rganishda o'z tushunchalari va ularni amaliyotda qo'llash uchun tajribalar o'tkazishlarini anglab yetishlariga

ko’mak beradi. Talabalarning shaxsiy ko‘nikmalari, his-tuyg‘ulari va ijobiy harakatlari ilmiy munosabatlarning uchta asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, ular faol, mustaqil, tanqidiy-mantiqiy tuzilgan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun ilmiy usullardan foydalanish mumkin.

Ilmiy munosabat talabalarga ilmiy faoliyat yoki ilmiy jarayonlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari ko‘pgina laboratoriyalarni bajarishda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasa jarohatlanish xavfi mavjud. Shu bilan birga laboratoriya ishlarini bajarishda texnik vatexnologik omillarga qat’iy e’tibor berishimiz, o‘zimiz va atrofimizdagilarning salomatligi uchun javobgarlikni his qilishimiz kabi bir qancha majburiyatlarni yuklaydi. Shu kabi, texnik va texnologik omillarni chetlab o‘tish uchun, ko‘pgina xorijiy davlatlar fizika fani elektr bilan bog‘liq laboratoriyalarida virtual laboratoriyalardan foydalanishga qaror qilishgan. Lekin bu usul orqali talabaga mavzuni va jarayonlarni to‘liq tushuntirish kerakli natijaga erishish bo‘lmaydi.Inson tafakkuri eshitish, kurish va sezish orqali malumotni katta qismni anglay oladi. Shunday ekan labaratoriya ishlarini bajarish orqali kerakli natijaga erishamiz.

Talabalar bilan labaratoriyalarni bajarish jarayonda bir biriga uxshash labaratoriya ishlarini bir vaqtni o‘zida o‘tkazish orqali talabada jarayonni bir biriga taqqaslash kamchilik yutuqlari va uni amaliyotga tadbiq qilish kabi tushunchalarini uyg‘ata olish natijasiga erishish mumkin.

Fizika fanini to‘liq anglash esa asosan laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘liq amalga oshirish va jarayon mohiyatini tushunish bilangina erishish mumkin.

Shunday ekan talabalarga fizika fanidan laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etishning klaster usuli orqali mavzularni bir-biriga bog’lash orqali mustahkamlanishi va bu orqali ta’lim sifatiga sezilarli erishish mumkinligi ko‘zda tutilgan.

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, u ta`lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o`ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Ushbu metod har xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta`lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta`minlashga xizmat qiladi[6]

Fan va ta’limni rivojlantirishning klasterli mexanizmlari Y.A. Arutyunov, S.V. Golovanova, S.M. Kadochnikov, G.A. Koretskiy va boshqalarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. Ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash yo‘llari S.Y. Batishev, L.A.Volovich, G.I.Ibragimov, K.N.Katxanov, A.V.Leontyev, va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Rossiyada va xorijda ta’lim klasterlarining faoliyati A.A. Golodova, S.V. Danilov, A.G. Zalyalova, YE.A.

Korchagin, R.S. Safin, va boshqalarning asarlarida yoritilgan. P.N. Zaxarov, S.Y. Matveyeva ning asarlarida ta'lim va OTM majmualari faoliyatining turli muammolari yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi faoliyatining yana bir o'ziga xos xususiyati uning samaradorligi darajasidir. N.V. Kuzmina quyidagi besh darajani belgilovchi tasnifni ishlab chiqdi: reproduktiv (o'qituvchi o'zi bilgan narsalarni aytib berishi mumkin); moslashuv (o'qituvchi o'z xabarini ma'lum bir auditoriyaning xususiyatlariga moslashtira oladi); talabalar bilimini mahalliy modellashtirish (o'qituvchi kursning ma'lum bo'limlarida o'quv strategiyasi, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib, bu unga pedagogik maqsadni shakllantirish, vazifalarni aniqlash, ularni hal qilish algoritmini ishlab chiqish va talabalarni o'quv-bilish faoliyatiga jalb qilishning pedagogik vositalarini qo'llash imkonini beradi); talabalarning tizimli-modellashtiruvchi bilimlari (o'qituvchi umuman fan bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish strategiyalariga ega); talabalarning faoliyati va xulq-atvorini tizimli modellashtirish (o'qituvchi o'z intizomini talabaning shaxsini, uning o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini shakllantirish vositasiga aylantirish strategiyasiga ega).

Birinchi ikki daraja asosan yangi o'qituvchilarda (yordamchi) namoyon bo'ladi. Bu yerda pedagogik faoliyatning kommunikativ komponenti ustunlik qiladi. Uchinchi bosqichda tashkiliy va konstruktiv vazifalar faollashadi. Oxirgi darajalarda loyihalash va refleksiya aniq ifodalangan bo'lib, bu ishning aniq pedagogik yo'nalishiga ega bo'lgan dotsent va professorlarning faoliyati uchun xosdir .

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyati quyidagilarni birlashtiradi: maqsadlilik (maqsadlar, vazifalar); obyektivlik (obyekt, predmet); vositachilik (vositalar, shakllar, metodlar); motiv atsiya va xabardorlik (ma'no); mahsuldorlik (darajalar, natija); vazifalar va faoliyat turlari. Biroq, texnika oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi har doim ham o'z kasbiy va pedagogik faoliyatining metodik tarkibiy qismini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turmaydi. Pedagogik faoliyat ko'nikma va malakalarini diagnostika qilishning to'g'ri yo'lga qo'yilgan tizimining yo'qligi pedagogik mahoratning o'sishiga yordam bermaydi; texnika oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisini psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash zarur.

Oliy ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan paradigmaning joriy etilishi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlashda kompetentli yondashuvda namoyon bo'ldi. Bu yondashuv ish beruvchining talablarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonining amaliy yo'nalishiga asoslanadi. U ishlab chiqarish qobiliyati,

modulliligi, fanlararoligi, pragmatizmi, talabalarda mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. O‘qituvchining roli rahbar-boshqaruvchi lavozimidan murabbiy (maslahatchi, yordamchi) lavozimiga o‘tishdir.

Shakllangan kasbiy kompetentlik lavozim vazifalarini samarali bajarishga tayyorligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, innovatsiyalar nazariy asoslar bilan uzviylik, uzluksizlik va optimal munosabatni saqlab qolgan holda tashkiliy-pedagogik; ko‘p subyekt munosabatlariga o‘tish; talabaning bilish va ijodiy faoliyatini aktuallashtirish sharoitlarni o‘zgartirishni talab qiladi .

Ta’limga kompetentli yondashuvni joriy etish Rossiyaning innovatsion iqtisodiyotga o‘tishi, Boloniya jarayoni hujjatlarini amalga oshirish va Yevropa ta’lim tizimini qabul qilish jarayonida amalga oshirildi. Ta’limda kompetentli yondashuv zarurligi Rossiya ta’limini modernizatsiya qilish strategiyasida qayd etilgan. Yevropa Kengashi Simpoziumining materiallari kompetentli yondashuvning amaliy yo‘nalishini belgilab berdi, unda ta’lim natijalari uchun nafaqat “NIMA”ni, balki “QANDAY” o‘qitish kerakligini ham bilish kerak. Shunday qilib, kompetentli yondashuv ta’limning amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyatini, uning fan-kasbiy va pragmatik jihatlarini kuchaytiradi, bu “Umumiy ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasi” (L.Bogolyubov, V.Lednev, N.Nikandrov, M.Rijakov va boshqalar) ishlab chiquvchilar tomonidan ko‘rsatilgan.

Kompetentli yondashuvni asoslash uchun biz quyidagi qoidalarni taqdim etamiz:

1. Rivojlantiruvchi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning psixologik-pedagogik konsepsiyalari kontekstida shakllantirilgan umumiy va shaxsiy rivojlanish g‘oyalari kompetentli yondashuv haqidagi zamonaviy g‘oyalarning tabiiy genetik prototipi hisoblanadi. Binobarin, kompetentlik an’anaviy bilimlar va umumlashtirilgan ko‘nikmalarning har xil turlarini o‘zida mujassamlashtirgan subyektdan tashqari va ortiqcha shakllanishlar sifatida qaraladi.

2. Kompetentli yondashuvning toifali asosi o‘quv jarayonining maqsadliligi va maqsadga muvofiqligi g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda kompetentlik talaba ko‘nikmasi va malakasining eng yuqori, umumlashtirilgan darajasini belgilaydi.

3. Kompetentli yondashuv doirasida ikkita asosiy tushuncha ajratiladi: kompetensiya va kompetentlik. Shu bilan birga, kompetensiyalar kasbiy va universal (asosiy)ga ajratiladi.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining faoliyatiga tayyorligi universal kompetentlik va kasbiy-pedagogik kompetentlik majmuasiga ega bo‘lishni anglatadi. Universitet o‘qituvchisining kasbiy mahorati o‘quv

jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq va malakali tashkil etishni ta’minlovchi pedagogik bilim va ko‘nikmalar bilan ifodalanadi .

Shunday qilib, “kompetentlik” tadqiqotchilar tomonidan subyektning kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlari va kompetensiyalarni birlashtirishga tayyorligi sifatida ta’riflanadi, “kompetensiya” esa subyektini “kasbiy faoliyat jihatdan harakatlar davomiyligini” samarali bajarish uchun sharoit yaratadigan shaxsiy fazilatlar, bilimlar, ta’lim va ko‘nikmalar yig‘indisidir .

Ushbu tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, maqsad–o`quvchilarning fanga bo`lgan ilmiy munosabati va tanqidiy fikrlashini yaxshilash va bu borada laboratoriya mashg`ulotlarini shunchaki kuzatuv usulli bilan emas atrof-muhitimizda sodir bo`ladigan fizik jarayonlar orqali bog`lab o’qitish va o’qitishni shunga o`xshash usullar orqali joriy etishdan iborat. Ta`limda bo`layotgan islohotlar fizika fani va bu fan orqali erishilayotgan yutuqlar fanning imkoniyatlari haqida chuqurroq o`ylashga chaqirmoqda. Ilmiy laboratoriyalar klasterlarini yaratish va ularning faoliyati bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun klasterli yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “Prezident ta’lim “Involta” Ilmiy Jurnali Involta Ilmiy Jurnali Vol. 1 No.5 (2022) 431 muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog’ini kengaytirish to‘g’risida”gi № ПФ-106 sonli Farmoni.

2. S. Bozorova, N. Kamolov “Fizika” Toshkent- 2007yil

3. I.G. Tursunov, D.A. Begmatova “Fizika” Toshkent -2020 yil

4. https://cyberleninka.ru

5. https://www.researchgate.net

6. L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva «pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtiri»

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy talim muassalarida talabalarning ilmiy ijodiy faoliyatini tashkil etish, ularning amaliy jihatlari hamda tegishli mavzularni o‘zlashtirishlari uchun yaratiladigan zaruriy pedagogik sharoitlar haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются необходимые педагогические условия организации научной и творческой деятельности студентов в высших учебных заведениях, их практические аспекты и овладение актуальными темами.

SUMMARY

This article discusses the necessary pedagogical conditions for the organization of scientific and creative activities of students in higher educational institutions, their practical aspects and mastery of relevant topics.

ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA ASOSLARI FANINI O‘QITISHNI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(oliy harbiy bilim yurtlari misolida)

Ramonova S. K.
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so’zlar: elektrotexnika, fizika, matematika, oliy harbiy ta’lim, kursant, kasbiy kompetentlik, axborot taxnologiyalari.

Ключевые слова: электротехника, физика, математика, высшее военное образование, курсант, профессиональная компетентность, информационные технологии.

Key words: electrical engineering, physics, mathematics, higher military education, cadet, professional competence, information technologies.

Kirish. Bugungi kunda dunyo tajribasida zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti sharoitida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlarda nanotexnologiya va nanoo‘lchamli materiallar fizikasi, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar va mobil aloqa vositalarining ta’lim muhitining takomillashishishiga ta’siri keng miqyosda o‘rganilmoqda. Yevropa davlatlari harbiy sohasini modernizatsiya qilish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, harbiy bilim yurti mutaxassisliklarida fizika fanining amaliy jihatlariga ustuvorlik berish asosida o‘qitish bo‘lajak ofitserlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish, YuNESKO tomonidan “ta’lim konsepsiyasini hayot davomida amalga oshirish” tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta’limidagi innovatsion o‘zgarishlar bo‘lajak harbiy mutaxassislarning zamonaviy strategiyasini, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, ko‘p variantli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash hamda harbiy muhandislik kasbiy ta’limining metodik ta’minotini boyitishning ilmiy asosini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa harbiy bilim yurtlari ta’lim muhitida zamonaviy texnika va texnik jihozlar, xususan, harbiy texnika va unda qo‘llanilayotgan elektron qurilmalar, avtomatlashgan boshqaruv vositalari ularning ishlash prinsipini va

o‘rnini anglashda mutaxassisdan intergatsion zaruriy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Zero, harbiy texnikalar asosini elektrotexnika va elektronika asbob-uskunalari tashkil etadi. Shu bois oliy harbiy bilim yurtlari (trenajyor va amaliy mashg‘ulotlar) kursantlarida zaruriy kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik tamoyillarini boyitish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda oliy ta’lim sohasini rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan tadqiqotlar markazida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim shakllarini, ta’limning innovatsion klasterli yondashuvida ta’limning barcha bosqichlarida ko‘p variantli ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Harakatlar strategiyasida “sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada oliy harbiy ta’lim jarayoniga, jumladan, elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab, fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish asosida kompetentli harbiy muhandislarni tayyorlash zaruriyatga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari tomonidan Oliy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, fanni o‘qitishning zamonaviy muammolari va didaktik ta’minotiga doir ishlar A.I.Xonboboev, N.A.Xalilov, A.S.Karimov, M.Ibadullaev, V.Abdullaev, X.K.Aripov, M.M.Mirhaydarov, Sh.A.Pazilova, T.A.Maxmudov kompetensiyaviy yondashuv asosida fanni o‘qitish hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalarida U.I.Inoyatov, N.Sh.Turdiev, J.E.Usarov, G.O.Ernazarova, B.Boboev fanni o‘qitishda axborot-

ta’lim resurslarini qo‘llash masalalari A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, O.X.Turakulov, M.M.Aripov, N.I.Taylaqov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlari A.S.Kasatkin, V.V.Afonin, S.A.Borminskiy, N.A.Makenova, L.V.Ravichev, A.E.Kaplyanskiy, D.D.Dondokov, O.V.Filimonova, A.I.Shimarov, V.Sapenko tomonidan elektrotexnika va elektronika asoslari fanining o‘qitish metodikasini rivojlantirishga doir ishlar tadqiq etilgan. I.V.Robert, Ye.S.Polat, S.S.Velikanova, Yu.Serousov, I.Jeleznyak va boshqa olimlar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Shuningdek, xorijda Don Johnson, B.L.Theraja, K.Charles, A.Matthew kabi olimlar tomonidan elektrotexnika va elektronika asoslari fanining nazariy-metodologik asoslari o‘rganilgan.

Muammoni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tahlillarga ko‘ra, oliy harbiy bilim yurti elektrotexnika va elektronika asoslari dasr mashg‘ulotlarida kursantlarning o‘quv faoliyatini jadallashtirishga imkon beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini pedagogik muammo sifatida o‘rganish zarurati mavjud.

Tadqiqotlar metodalogiyasi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishning metodik xususiyatlari ratsionallik va emotsionallik, nazariy va empirik bilimlarning birligi, elektrotexnikaning hayot va amaliyot bilan bog‘liqligi kabi umumdidaktik tamoyillarini kompyuterli chizmatexnik modellashtirish jarayonlariga komparavistik tarzda tatbiq etish orqali aniqlashtirilgan;

elektrotexnika va elektronika asoslari fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning metodik tuzilmasi (komponentlari, bosqichlari)ning elektr zanjirlarni almashtirish chizmasi, modellashtirish, vektorli diagrammalar, analitik metodlarni axborot texnologiyalarini qo‘llashga imkon beruvchi chizma-tasviriy modellar (mental kart, mantiqiy graf, freym) bilan modifikatsiyalashning produktivligini ta’minlash asosida o‘rganilgan;

elektrotexnika va elektronika asoslari fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning didaktik modeli konstruktiv-texnik masalalarni yechish jarayonida ijodiy texnik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy bilish shakl va metodlarining (kuzatish, eksperiment, taqqoslash, farazlarni ilgari surish, analogiya, analiz, sintez, umumlashtirish) majmuaviy qo‘llash algoritmini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishning metodik ta’minoti elektron dasturiy vositalarni (Virtual bread board, NI Multisim 14, Proteus 8 Professional, ARDUINO platasi dasturlari) izlanishli-tadqiqotchilik faoliyat jarayonida texnik intellektni rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirishga xizmat qiladigan test-kartlarni adaptiv tarzda ishlab chiqish orqali rivojlantirilgan.

Tahlil va natijalar. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining xotira, fikrlash va kuzatuvchanligini rivojlantirishga, yangi materialni o‘rganish va mustahkamlash, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga imkon beruvchi dacturiy vositalar, nazorat topshiriqlari, test sinovlari va dars ishlanmalaridan mashg‘ulot jarayonida foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish uchun “Elektrotexnika va elektronika asoslari fanidan amaliy mashg‘ulotlar to‘plami” hamda “Elektronika va raqamli texnika fanidan amaliy ishlari uchun uslubiy ko‘rsatma”(1,2-qism), “Elektronika va sxemotexnika fanidan amaliy ishlar uchun uslubiy ko‘rsatma (maxsus fakultet talabalari uchun)” nomli o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqildi va amalda foydalanilmoqda.

Respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tajriba-sinov ishlarining tahlili, yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha dasturiy metodik ta’minot, ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar oliy harbiy bilim yurti kursantlarining ijodiy (izlanuvchanlik, tadqiqotchilik, konstruktorlik) qobiliyatlarini rivojlantirishi, ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi hamda kursantlarda o‘quv bilish faoliyatining faollashtirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy harbiy ta’limda elektrotexnika va elektronika asoslari fanini kursantlar an’anaviy va aralash ta’lim sharoitida mustaqil o‘rganishlari uchun imkon yaratadi hamda o‘quv jarayonining samarasini oshirish uchun xizmat qiladi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtirish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitish metodik xususiyatlarini ratsionallik va emotsionallik, nazariy

va empirik bilimlarning birligi, elektrotexnikaning hayot va amaliyot bilan bog‘liqligi kabi umumdidaktik tamoyillarini kompyuterli chizmatexnik modellashtirish jarayonlariga komparavistik tarzda tatbiq etish orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan “Elektrotexnika va elektronika asoslari fanidan amaliy mashg‘ulotlar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2021 yil 8 sentyabrdagi 10/1984-son ma’lumotnomasi). Natijada oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilgan;

elektrotexnika va elektronika asoslari fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning metodik tuzilmasini elektr zanjirlarni almashtirish chizmasi, modellashtirish, vektorli diagrammalar, analitik metodlarni axborot texnologiyalarini qo‘llashga imkon beruvchi chizma-tasviriy modellar bilan modifikatsiyalashning produktivligini ta’minlash asosida aniqlashtirish, elektrotexnika va elektronika asoslari fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishning didaktik modeli konstruktiv-texnik masalalarni yechish jarayonida ijodiy texnik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy bilish shakl va metodlarini majmuaviy qo‘llash algoritmini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan OT-Atex-2028-519 “Kompyuterda immitatsion modellar asosida virtual resurslar Web ilovasini dasturiy ta’minotini yaratish” (2018-2020 yy.) amaliy loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2021 yil 8 sentyabrdagi 10/1984-son ma’lumotnomasi).

Natijada oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ko‘maklashgan;

elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishning metodik ta’minoti elektron dasturiy vositalarni izlanishli-tadqiqotchilik faoliyat jarayonida texnik intellektni rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirishga xizmat qiladigan test-kartlarni adaptiv tarzda ishlab chiqish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Elektrotexnika va elektronika asoslari” o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Mudofaa vazirligining 2021 yil 8 sentyabrdagi 10/1984-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak ofitserlarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Xulosa. Elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitish metodikasi fizika, matematika va umumtexnik fanlari bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan berilayotgan ma’lumotlarning

ilmiyligi, ko‘rgazmaliligi, tushunarli bayon qilinishi, o‘qituvchining ta’lim resurslar, texnik vositalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan mashg‘ulotlar jarayonida samarali foydalanishi hamda o‘qituvchining ta’lim berish mahorati o‘qitishda yuqori muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida elektrotexnika asoslari fanini o‘qitish metodikasi A.E.Kaplyanskiy ilg‘or pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar asosida ishlab chiqishda quyidagi didaktik tamoyillarga: ilmiylik; nazariya va amaliyot a’loqa; o‘qitishni faollashtirish; tizimli va tushunarli bayon qilish; o‘qitishda ko‘rgazmalilik kabilarga alohida e’tiborni qaratgan. Metodist olim ma’ruza darslarida namoyishli tajribalarni (masalan, ossillografda) o‘tkazish davomida mantiqiy va texnik fikrlash orqali muhim natijalarga erishish mumkinligi e’tirof qilgan.

Tadqiqotimiz davomida oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika asoslari fanlarini o‘qitish va mazkur yo‘nalishda kompetentli mutaxassislarni tayyorlash muammosiga ta’sir ko‘rsatuvchi ayrim ziddiyatlar o‘rganildi. Bular: birinchidan ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika fanlari o‘qitilayotgan an’anaviy o‘qitish metodikasi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga yuksak talablar qo‘yayotgan zamonaviy sharoitda yaxshi samara bermayotganligida bo‘lsa, ikkinchidan elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanishning yorqin ifodalangan tendensiyalariga ega bo‘lgan dasturiy ta’minoti ishlab chiqilmaganligida, uchinchidan hayotiy ehtiyojlarimizga elektrotexnika va elektronikaga oid zamonaviy elektr va elektron qurilmalarning jadal kirib kelishi va bu qurilmalar haqidagi ma’lumotlarning amaldagi o‘quv adabiyotlarimizda aks etmaganligi, to‘rtinchidan oliy harbiy ta’lim muassasalarida elektrotexnika va elektronika fanlari o‘quv rejada auditoriya dars soat hajmi kam ajratilganligi.

Bizning fikrimizcha o‘quv jarayonlari reproduktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda, o‘qituvchi bir juftlik mashg‘ulot davomida tinglovchilarga katta hajmdagi ma’lumotlarni berishi mumkin, ammo bu ma’lumotlarni tinglovchi tomonidan o‘zlashtirish yoki ularni uzoq muddatga yodda saqlash imkoniyatlari chegaralangan. Bu usulda mashg‘ulot o‘tilganda aksariyat holda o‘qituvchi faol, ammo tinglovchi esa passiv bo‘ladi. O‘qitishning produktiv (samarali) usuli esa bugungi kunda o‘quv amaliyotiga keng joriy qilinmoqda. O‘qitishning bu usulida tinglovchi muammoli vaziyatlarni hal etishda, jumladan loyiha va o‘quv tadqiqot ishlarini bajarishda ijodiy yondashgan holda faol ishtirok etadi.

O‘quv jarayonida o‘quv ma’lumotlari tinglovchilarga turli usullarda, ya’ni ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim orqali taqdim qilinadi.

Ma’ruza - o‘qitish jarayonining bir bo‘g‘inidir. Ma’ruzadagi asosiy didaktik maqsad – tinglovchilar tomonidan o‘quv materialini kelgusida o‘zlashtirishi uchun yo‘naltirilgan asoslarni shakllantirishdir. Ma’ruza mashg‘ulotlarini olib borish metodikasi muammoli o‘qitish tamoyillarini amalga oshirishga, ma’ruza kurslari mazmunida berilayotgan nazariy ma’lumotlarni va uning amaliyotdagi dolzarb o‘rnini anglatishga, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini aks ettirishga, tinglovchida ilmiy dunyoqarashni va tafakkurni shakllantirish uchun imkon yaratishga, xotirani chiniqtirishga, mantiqiy va fikriy tafakkurni rivojlantirishga qaratiladi.

Muayyan kursning asosiy ilmiy-nazariy qoidalari va ko‘rsatmalari faqat ma’ruzalar asosida taqdim etilishi mumkin. Ma’ruzada voqea va hodisalarning ilmiy asoslari beriladi, o‘rganilayotgan masalaning mohiyatini ochib berish usullari o‘rganiladi. Pedagog olim M.Djoraev “ma’ruzaning didaktik vazifasi tinglovchilarni fanga olib kirish, mavzuning asosiy tushunchalarini berish, o‘rganilayotgan fanning qonuniyatlariga, uning uslubiy asoslarini egallashga yo‘naltirishdan iborat”- deb ta’kidlaydi [20]. Bu bilan muayyan fan bo‘yicha tinglovchining kelgusidagi barcha faoliyatining mazmuni va xususiyati belgilanadi, unda o‘rganishga qiziqish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Ma’ruzalar o‘quv faoliyatining barcha turlari: amaliy, laboratoriya, mustaqil va boshqa mashg‘ulotlar bilan o‘zaro aloqa bog‘laydi. S.I.Arxangelskiy ma’ruzaning asosiy vazifalaridan biri, o‘qitishning o‘quvchilarning mustaqil va qo‘shimcha mustaqil ishlari bilan aloqa o‘rnatish zarur ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra ma’ruza orqali tinglovchilarni turli o‘quv adabiyot va darsliklarga murojaat qilishni taqozo etadi, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga chorlaydi.

A.V.Usova “ma’ruza o‘quvchilardagi bilimlar tuzilmasini tahlil qilish natijasida aniqlangan quyidagi asosiy unsurlarni (ilmiy dalillar; tushunchalar; qonunlar; nazariya; olamning yagona manzarasi) o‘z ichiga olgan bilimlar tizimi shakllanishining yuz berishi”- deb ta’kidlagan.

Ma’ruza singari mustaqil ta’lim o‘quv faoliyatining eng yuqori shakli bo‘lib, undan ta’limning turli (umumta’lim, o‘rta-maxsus va oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi magistratura) bosqichlarida tashkil etish masalasi ta’lim mussasalarida keyingi paytlarda keng muhokama etilmoqda. Mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi psixologik-

pedagogik munosobatlar muhim sanaladi. Pedagogik amaliyotdan ma’lumki, agar shaxsda mustaqil anglash faoliyati yaxshi shakllangan bo‘lsa, ta’lim jarayonining o‘qitish samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Shuningdek, mustaqil ta’limni tashkil etishda talabaning qabul qilish qobiliyatini inobatga olgan holda individual yondashuvning amalga oshirilishi ob’ekt – talabada kognitiv va kreativ sifatlarini rivojlanishiga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A.M., Ramonova S.K. Raqamli mantiqiy qurilmalarni loyihalashtirish fanidan amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma (“Digital logic design Methodical instructions for performing practical work”). - Toshkent: TATU nashriyoti, 2017.- 90 b.

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent:«Moliya», 2003. - 192 b.

3. Andreev V.M., Aripov Kh.K.,Abdullayev A.M., Toshmatov Sh.T. Metodы postroeniya nagruzochnых xarakteristik tverdotelnых usiliteley мощnosti na mop-tranzistorax. Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering. Tom 1, vыpusk 6. 2019. - 34-40 c.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada elektrotexnika va elektronika asoslari fanini o‘qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtirish metodikasi (oliy harbiy bilim yurtlari misolida) ma’lumot keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о методике совершенствования преподавания электротехники и электроники с помощью информационно-коммуникационных технологий (на примере высших военных учебных заведений).

SUMMARY

This article provides information on the methodology of improving the teaching of electrical engineering and electronics with the help of information and communication technologies (in the example of higher military educational institutions).

ТЕХНИК УНИВЕРСИТЕТДА ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШДА КОМПЬЮТЕР МОДЕЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Иркабаев Дж. У.
Тошкент давлат техника университети Олмалиқ филиали

Таянч сўзлар: кредит-моодул, таълим сифати, компьютер моделлари, компьютер-тренажер.

Ключевые слова: кредитный модуль, качество обучения, компьютерные модели, компьютерный тренажер.

Key words: credit module, quality of education, computer models, computer trainer.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 19 мартдаги № ПҚ-5032 қарори асосида «Физика соҳасида таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида ўқув жараёни ва уни такомиллаштиришда ахборот технологиялари ва компьютерларни жамият ҳаётига, кишиларнинг турмуш тарзига, умумий ўрта таълим мактаблари, ўрта махсус, касб-хунар таълими ва олий таълим муассасалари ўқув жараёнига жадаллик билан олиб кириш ғояси илгари сурилган. [5]

Республикамиз таълим тизимига янги ўқитиш технологияларнинг кириб келиши (ўқитишнинг кредит-моодул тизими) бу соҳада фаолият кўрсатаётган ходимларнинг зиммасига катта масъулият юклаб, улардан замонавий ахборот ва педагогик технологияларни пухта ўзлаштиришни талаб этмоқда. Шу нуқтаи назардан қараганда, ҳозирги шароитда ҳар бир касб эгаси ўз мутахасислиги бўйича етук билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиши лозим. Шунингдек таълим тизимида фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар ўқув жараёнида тез суратларда ривожланаётган ахборот технологиялари ва замонавий компьютерлар билан бирга Интернет тармоғидан фойдаланишни билиши жуда муҳим аҳамиятга эга. Буни муваффақият билан амалга оширишнинг муҳим омилларидан бири таълим муассасаларида ўқитиладиган ўқув предметлари бўйича педагогик дастурий таъминотларни яратишдир. Бу жарённинг самарали ўтиши

учун давлатимиз томонидан бир қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилган ва чиқилмоқда.

Физика таълимида ахборот ва компьютер технологиясини қўлланишнинг истиқболли йўналишларидан бири бу физикавий жараёнларни ва тажрибаларни компьютерда моделлаштириш ҳисобланади. Компьютер моделлари бу анъанавий ва ноанъанавий дарс жараёнларини фаоллаштиради ва ўқитувчининг дарс ўтишига кўпгина енгилликлар туғдиради, физикавий жараёнларни ойдинлаштиради, эффектларни сақлашга, мониторда (экранда) ўқувчиларга намойиш этиб ва бир неча марта такрорлаб кўрсатиш учун катта имкониятлар яратади[1].

Физика дарсида компьютер дастурларини қачон ва қайси вақтда қўллаш керак? Аввало шуни тушуниб етиш керакки, ўқитишнинг анъанавий тури билан солиштирганда етарли даражада устунликка эришадиган компьютер технологияларини таълимда қўллаш ўз-ўзини оқлайди. Ахборот технологияларини физика дарсини ўқитишда қўллаш юқорида кўрсатилган ҳоллардан бири сифатида қаралади. Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, физикавий топшириқларда учрайдиган кўп жараёнларда ёки идеаллаштирилган ҳолларда компьютер слайдлари динамикаси физикавий тажрибаларнинг ва жараёнларнинг кўргазмалилик, тасвирларнинг эсда сақланарлик, реал тажрибаларни кузатганда кўринмай қоладиган, тажрибанинг нозик қирраларини юзага чиқаришга имконин беради. Компьютер ёрдамида ўқитишда моделлаштириш вақт масштабини, параметрларни кенг оралиқда танлаб ва тажриба шартларини ўзгартиришга, тажрибада мумкин бўлмаган ҳолларни номойиш этиш имкониятларини ярата олади. Айрим ҳолларда тажрибани характерловчи катталикларнинг вақтга боғлиқлик графигини экранга олиб чиқиш имкониятларини кенгайтиради. Бу графиклар ўтказилаётган тажриба билан бир вақтда экранга чиқади, унга махсус равшанликни беради ва ўрганилиаётган жараённинг умумий қонуниятини тушунишни осонлаштиради. Бу вақтда компьютер ёрдамида ноанъанавий ўқитиш натижаларини график усулда акс эттириши (тасвирланиши), олинаётган маълумотнинг катта ҳажмини ўзлаштиришни енгиллаштиради (ихчамлаштиради) [2].

Ўқитишнинг усулларига кўргазмали (намойишли) ўқув қуроллари, техникавий ўқитиш услублари, дидактик материаллар ва ҳ.к. ҳам киради. Бугунги кунда ўқитиш усуллари тубдан ўзгариб бормоқда. Ахборот технологияларининг шиддат билан ривожланиб бориши билан муаммоли ўқитиш жараёнининг янги, компьютерлаштирилган муаммоли ўқитиш тури юзага келди.

Ўқитишнинг бошқа усилларини қўллаш каби ўқитиш жараёнига ахборот технологияларини қўллашда педагогик-психологик ҳолатлар билан боғлиқ бир қатор муаммолар юзага келади. Ўқитиш жараёнини маълумот билан таъминлаш имкониятларини компьютерлар амалга оширади. Ўқитиш жараёнига ахборот технологияларини киритиш, унинг моҳир етакчилигини танлаш салмоқли кўп аспектли муаммони пайдо этади, бу унинг барча имкониятларини қўллашга имкон беради ва педагогик жараён сифатига, инсон ўй фикрининг ривожланишига тескари таъсир этадиган иллатлардан қутулишга ёрдам кўрсатади. Шунинг учун ҳам ўқитувчи ўқув жараёнини ахборот технологияларидан фойдаланиб режалаштиришдан олдин, ахборот технологияларини қўллаб ўқитиш методикасини билиши шарт. Демак, ўқитишнинг янги технологияси ҳақидаги масалани асосли даражада қўйиши керак, натижада ахборот технологиялари воситаларини харид қилишга, унинг билан ишлаш кўникмаларига эга бўлишга, сарфланган ҳаражатларин қоплашга, ўқитишнинг самарали усули сифатида ахборот технологияларини қўллаш асосида янги махсус ечимни излаш керак бўлади. Илмий билимни таҳлил этиш ўқитишни компьютернинг қуйидаги функцияларини тизимлаштиришга ва ажратишга имконият яратади:

– техника-педагогик (ўргатадиган ва бошқарадиган дастурлар, ташхисловчи, экспертиза юритувчи, таҳлик қилувчи суҳбатлашувчи, маслаҳат берувчи, ҳисобли-мантиқий) дастурлар;
– дидактик (компьютер-тренажер сифатида, репетитор сифатида, ассистент сифатида, маълум бир холларни намаён этувчи ускуна сифатида, компьютер ўқитиш жадаллигини мувофиқлаштириш усули сифатида, ўқитувчи маҳоратининг оптимизацияси сифатида, компьютер маълум функцияларни бажарувчи восита сифатида, ўқув маълумотларини жадаллик билан тузатувчи, назорат қилувчи ва баҳолавчи сифатида).

Шунга боғлиқ равишда педагогиканинг вазифаси юқорида кўрсатилган функциялар ҳақиқий натижага эришиш ҳолатини аниқлаш ва таъминлашдан иборат.

Ўқув жараёнида ахборот технологияларини қўлланишнинг мақсадга мувофиқлиги, бугунги кунда ўқитишнинг мазмуни, формаси ва методлари билан боғлиқлигини қуйидаги мақсадлар билан ажратиш мумкин:

- вақтни тежаш;
- ўқув жараёнида ўқувчиларнинг «ўзлаштира олиш» даражаси;
- ўқувчиларнинг якка ёндошишини амалга ошириш;
- педагогик усулларни «механизациялаштириш» даражаси.

Ушбу айтиб ўтилган мақсадлардан кўринадики, ахборот технологиялари фойдаланиб ўқитиш таълим беришнинг фақат бир томондан афзалликларини эътиборга олган ҳолда, ноанъанавий ўқитиш таълимнинг мазмуни, шакл ва методларини такомиллаштиради, ўқитишни тезкор, сифатли, фаол ва илғор усулларидан, жумладан, ахборот технологияларинидан фойдаланиш, фанни ўзлаштириш имкониятларини оширишнинг илмий – услубий асосларини яратиш, ўқитиш технологияси воситасида ўқувчиларнинг билим ва кўникмаларини ривожлантириши мумкин. Шунинг учун, замонавий ўқитиш технологиясини амалга ошириш, ноанъанавий ўқув манбаларидан фойдаланиш таклифи киритилди.

Шунингдек, ноанъанавий янги ўқув турларини ташкиллаштиришга ёрдам берадиган компьютерда моделлаштирилган дастурлардан фойдаланиш имкониятларини қарайлик. Ўргатувчи комплекс тизимлардан “Crocodile Physics” дастури, “PhET”дастури ва “NILabVIEW” дастури, улар ёрдамида яратилаётган виртуал лабораториялар ўқув лабораторияларимиз шароитида бажариш имкони бўлмаган жараёнларни моделларидан фойдаланиб талабалар билимини ошириш ва мураккаб физикавий жараёнлар ҳақида маълумот бериш имконини бермоқда[1].

Компьютердан фойдаланувчи тажрибанинг дастлабки шартларини ўзгартира бориб, керакли физик тажрибаларни ўтказади ва натижа асосида хулосалар қилиш имконига эга бўлади. Айрим ҳодисларни тажриба жараёнида экранда уни тасвирлаб бериш билан бир қаторда физик катталикларнинг ўзаро боғлиқлик диаграммасини кузатишга имкон беради. Тажрибаларнинг видеокўриниши дарс жараёнининг ўзгача жонли ва қизиқарли ўтишига ёрдам беради. Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, бу ўргатувчи комплекс дастурлар ёрдамида физикавий тажриба ва жараёнларда кузатиладиган физикавий қонуниятларни боғлаб тушунтириш қатор афзалликларга эга. Яратилган компьютер тақдимотлари, анимацияли динамик моделлар физикавий қонуниятларни ўрганиш, зарур бўлганда қоғозга тушириш ва физик жараённинг боришини овозли тарзда эшитиш имкониятлари мавжудлиги янада самара беради.

Электр занжирига параллел, кетма-кет ҳамда аралаш турда улаш ва шу каби физик тажрибаларни ўтказишга мўлжалланган “NILabVIEW” ўргатувчи дастур технологиясидан ўқув жараёнида фойдаланишнинг имкониятларини қарайлик. Ушбу дастур ёрдамида физик тажрибаларни лаборатория шароитида бажаргандек электр занжирларини йиғиш, ишдан чиққан қисмларни (резистор, батарея, конденсатор ва ҳ.к.) алмаштириш каби амалларни бажара олиш имкониятига эга. Дастур ёрдамида ўтказил-

ган тажриба асосида кетма-кет, параллель ва аралаш ҳолларда уланган, учта қаршиликдан иборат занжирларни (1а, б, с-расм) ўрганиш учун яратилган моделни кўриб чиқамиз:

Биринчи схемани ўрганишда (1а-расм) қуйидаги масалани ечиш талаб қилинади:

а) ҳар бир қаршиликдан ўтувчи ток кучини ўлчаш I;

б) ҳар бир қаршиликда ва занжирнинг учларидаги кучланишни ўлчаш $U = U_1 + U_2 + U_3$;

в) ҳар бир қаршиликни ўлчаш.

Занжирнинг бир қисми учун Ом қонунига биноан:

$U_1 = R_1 I$, $U_2 = R_2 I$, $U_3 = R_3 I$ ва $U = RI$

бу ерда занжирнинг тўла қаршилиги $R = R_1 + R_2 + R_3$

Иккинчи схемани ўрганишда (1б-расм) қуйидаги масалани ечиш талаб қилинади:

а) ҳар бир қаршиликдаги ва умумий потенциал тушишни аниқлаш $U = U_1 = U_2 = U_3$;

б) Занжирдан ўтувчи тўла ток кучини ўлчаш: $I = I_1 + I_2 + I_3$.

Бу ҳолда занжирнинг бир қисми учун Ом қонунига биноан:

$U = R_1 I1$; $U = R_2 I_2$; $U = R_3 I_3$ ва $U = RI$,

Учинчи холат эса (1с-расм) юқорида муҳокама этилган икки ҳолларнинг йиғиндисидан иборат бўлади. Бу тажрибларда ишлатилган элементлардан ўтувчи ток кучини, қаршилик, кучланишни ва ўтказгич қаршилигини мультиметрнинг ўлчаш режимларини ўзгартириб ва мос равишдаги режимга қуйиб ўлчаймиз.

Компьютер мониторида яратилган виртуал тажриба занжири ва 1а,б,с-расмлардан кўринадики, бу тажрибани реал тажриба занжирида бажарадиган бўлсак, у ҳолда юқоридаги тажрибани бир ўқувчи бажариши учун тўртта амперметр, тўртта вольтметр ва қаршиликлар тўплами керак бўлади. Лабораторияда компьютер технологиясини қўллаб эса кичик гуруҳда фронтал услубда лаборатория машғулотини ташкиллаштириш ва ўтказиш учун 1 дона компьютердан фойдаланиш кифоя бўлади.

Компьютерда “NILabVIEW” ўргатувчи комплекс дастури ёрдамида моделлаштирилган виртуал тажриба стендининг кўриниши 1д-расмда тасвирланган. Расмда фақат тўлиқ занжир орқали ўтувчи ток кучини ва занжир учларидаги кучланишни ўлчашга мўлжалланган схема тасвири келтирилган. Занжининг бир қисмига туташган қаршиликни, кучланишнинг тушишини ва ундан ўтувчи ток кучини ўлчаш учун мультиметрнинг

қисқичини мос элементнинг схемадаги тугунига туташтириш талаб этилади.

Шундай қилиб “NI LabVIEW” дастури физика фани бўйича аниқ ўлчаш схемаси билан солиштириб, лаборатория ишини бажаришда дарснинг дидактик мақсади ва вазифаларини сақлаган ҳолда фойдаланиш имконини беради[4].



1-расм(а,б,с,д). Электр занжирларини ўрганишга оид электрон занжир

Шундай қилиб, физика таълими мазмунини такомиллаштиришда ахборот технологияларидан фойдаланилса, ижобий самара беришига ишонч ҳосил килиш мумкин. Компьютерда яратилган ҳар бир физикавий жараён моделини ўқувчи томонидан кузатилиши ва бажарилиши ўқув материалини енгил ўзлаштиришга олиб келади, ўқувчида дарсга бўлган қизиқиш янада ортади, тасавур қилиш қобилияти кучаяди мустақил фикрлаш ва ишлашга ўргатади.

Техника олий таълим муассасаларида физикани ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда физика таълимини ва таълим-тарбия жараёнини ноанъанавий ўқитиш методлари ва технологияси асосида ташкил этиш ўқувчиларда политехник билимларни мустақил эгаллаш кўникмаларини шакллантиради ва ривожлантиради, уларнинг фанни ўзлаштиришга бўлган қизиқишини янада оширади. Шунингдек, Интернет тармоғини мустақил ўзлаштиришга ва ундан олинган янги мавзуларни ўрганишга бўлган ўзига хос тадқиқот сифатидаги ёндашишига замин ҳозирлайди. Физика фанини ўқитишда анъанавий услублардан юз ўгирмаган ҳолда уларни замонавий ўқитиш технологиялари ва дастурлаштирилган педагогик воситалар билан бойитиб, фаоллаштириб виртуаль лаборатория ишларини яратиб, улардан унумли фойдаланиш методлари билан физика таълими мазмунини такомиллаштириш имконияти яратилади[3].

Хулоса қилиб шуни айтсак бўладики, физика таълимида (аниқ ва табиий фанлар йўналиши бўйича) фойдаланиши мумкин бўлган дарсликлар, методик қўлланмалар ва бир қанча бажарилган илмий тадқиқотлар таҳлил қилиниб, физикани ўқитишни щыув дастурий таъминотлар асосида такомиллаштириш муҳим омиллардан бири эканлиги аниқланди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йил 19 мартдаги № ПҚ-5032 қарори асосида «Физика соҳасида таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.

2. Горбунова Л.М., Семибратов А.М. Построение системы повышения квалификации педагогов в области информационно-коммуникационных технологий на основе принципа распределенности. конференция ИТО. 2015.

3. Шералиев С,С., Иркабаев Дж.У, Йўлдошев Л.Т. Физикани ўқитишда ноанъанавий ёндашувлар. VII Международной научно-практической Конференции «Наука и образование в современном мире: вызовы XXI века» – Казахистан, Нур-султан – 2020. - Б.97-100.

4. Irkabaev Dj.U. Information Technologies in teaching physics in Atechnical higher education institution. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal

РЕЗЮМЕ

Физика таълимида ахборот ва компьютер технологиясини қўлланишнинг истиқболли йўналишларидан бири бу физикавий жараёнларни ва тажрибаларни компьютерда моделлаштириш ҳисобланади. Компьютер моделлари дарс жараёнларини фаоллаштиради ва ўқитувчининг дарс ўтишига кўпгина енгилликлар туғдиради, физикавий жараёнларни ойдинлаштиради.

РЕЗЮМЕ

Одним из перспективных направлений использования информационных и компьютерных технологий в физическом образовании является компьютерное моделирование физических процессов и экспериментов. Компьютерные модели активизируют процессы урока и облегчают учителю прохождение урока, проясняют физические процессы.

SUMMARY

Computer modeling of physical processes and experiments is one of the promising areas of information and computer technology application in physics education. Computer models activate lesson processes and make the teacher's lesson easier, clarify physical processes.

STOXASTIK DUNYOQARASH VA UNI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA RIVOJLANTIRISH

Yakubjonova M. I.
Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Matematika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: dunyoqarash, stoxastik dunyoqarash, stoxastika, ehtimollar nazariyasi.
Ключевые слова: мировоззрение, стохастическое мировоззрение, стохастика, теория вероятностей.
Key words: outlook, stochastic outlook, stochastics, probability theory.

Kishilar qadim zamonlardan boshlab, borliq dunyo, tabiat nima, ular qanday tuzilgan, borliqning asosida nima yotadi, insonning o‘zi nima, u dunyoga qanday qaraydi, kabi savollarga javob berishga harakat qilib kelganlar. Falsafiy tafakkur insonning o‘z-o‘zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi. Inson bilishining obyekti bo‘lgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir.

Kishilar borliqni va unga bo‘lgan o‘zlarining munosabatlarini o‘rgana borishi, ularning o‘z turmush tajribalari asosida ongli va ongsiz ravishda hosil qila borgan tasavvurlari va qarashlari onglarida qayta ishlanib, o‘ziga xos turli xil dunyoqarashni hosil qiladi. Inson dunyoga kelar ekan, u yashashi, ulg‘ayib borishi bilan o‘z hayoti xaqida, kundalik ishlari xaqida, hayotdagi o‘z quvonch va tashvishlari, baxti va baxtsizligi haqida, o‘zining va o‘z atrofidagi kishilarning tug‘ilishi, yashashi, olamdan o‘tishi haqida, narsa va hodisalarning esa o‘zgarishi, rivojlanishi, boshqa yangi narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi haqida ma’lum tasavvurlarga, tushunchalarga ega bo‘lib boradi. Bu tasavvurlar va tushunchalar uning borliqni, o‘zi yashayotgan dunyoni qanday tushunishi, dunyodagi o‘z o‘rnini qanday anglashini ifodalaydi. Bular insonning dunyo to‘g‘risidagi oddiy ong darajasidagi qarashlaridir. Bu avvalo, inson o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.

Dunyoqarash, insonning o‘ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan muayyan ko‘nikmalari, bilimlari, malakalari

hamda uning dunyoni amaliy va nazariy o‘zlashtirishi hamdir. Dunyoqarash tushunchasi. har bir kishining dunyoga nisbatan o‘z qarashi, o‘zi va o‘zgalar, hayot va olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, xulosalari bo‘ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma’noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir.

Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi.

Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy shakllarga ega. Har bir davrning, har bir avlodning, har bir ijtimoiy guruhning, har bir kishining o‘ziga xos dunyoqarashi mavjud. Dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mifologiya, din, falsafa, fan, siyosat, huquq, san’at va axloq va shu kabi ijtimoiy-ma’naviy hodisalar sintezlashgan holda in’ikos etadi. Dunyoqarash insonning dunyoni va o‘zini ma’lum ma’noda anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo‘lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma’naviy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Inson hayotining barcha sohalarini tubdan o‘zgartirishning zamonaviy “super murakkab” dunyosida shaxsning axloqi va ma’naviyati buzilayotgan, ijtimoiy muloqotning an’anaviy shakllari o‘zgarib borayotgan, ijtimoiy subyektlarning tizimli aloqalari murakkablashib borayotgan sharoitda inson omili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o‘quvchi shaxsining dunyoqarashini rivojlantirish muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

“Dunyoqarash” tushunchasining talqini falsafa, pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik, ekologiya va boshqalar kontekstlariga singib ketgan. «Dunyoga qarash» tushunchasining o‘zi o‘z kontekstlarida o‘zining semantik ma’nolarini refleksli ravishda yangilash, aniqlashtirish, chuqurlashtirish va kengaytirish imkoniyatini qo‘lga kiritib, turli sohalarda keng faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda talaba shaxsining dunyoqarashini rivojlantirish muammosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyoqarashning murakkabligi va ko‘p qirraliligi uning yoshi va individual xususiyatlariga bevosita bog‘liqligi, shaxsning turli tomonlari (bilim, ko‘nikma, munosabatlar, motivlar, baholash va ideallar) bilan bog‘liq.

Dunyoqarashning predmet yoki kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini o‘rnatish “qisman dunyoqarash” – individual ong hodisasi kabi hodisaga olib keladi, uning manbai alohida fan bilan bog‘liq. “Qisman dunyoqarash” hodisasi

shaxsning olamga bo‘lgan munosabatini ma’lum bir fan prizmasi orqali o‘ziga xos ekstensiv to‘liqsizligi va shiddatli cheklanganligi bilan tavsiflaydi. A.L.Joxov, I.E.Karelina, A. A.Kasyanlarning zamonaviy tadqiqotlarida qisman dunyoqarash shakllaridan biri «matematik dunyoqarash» tushunchasi yoritilgan. Matematikaning alohida predmet sohalarining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish natijasida «qisman dunyoqarash» hodisasiga “stoxastik dunyoqarash” tushunchasi kiritildi. J.Qudratovning bir qator ilmiy ishlarida “stoxastika” atamasi matematikaning kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika kabi sohalarini birlashtiradi. D.V.Manevich, A.Plocki, N.S.Sedova, V.D.Selyutina, S.V.Shcherbatyhlarning ishlarida «Stoxastika» tushunchasi maktab matematika kursining stoxastik liniyasining o‘quv materialiga qo‘llanildi. O‘rta maktab o‘quvchilarining stoxastik dunyoqarashi deganda ehtimollik va statistik usullar ta’sirida shakllangan va o‘quvchilarning atrofdagi dunyoning stoxastik tarkibiy qismiga munosabatida o‘z ifodasini topadigan bilimlar, qarashlar va e’tiqodlar tushuniladi. Ehtimoliy va statistik usullar jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda yordam beradi, ular atrofdagi voqelik hodisalarini tushunishda universal vositadir.

Stoxastik dunyoqarashni ochib beruvchi muhim xususiyatlar: fikrlashning “moslashuvchanligi”, stoxastikaga moyillik, moslashuvchanlik, “stoxastik” xotira. Stoxastik dunyoqarashni uning funktsiyalari orqali o‘rganish: axborotni aks ettiruvchi, baholovchi, yo‘naltiruvchi-tartibga soluvchi, o‘rganilayotgan sifat mazmunini yaxshiroq ifodalashga yordam beradi.

Sinfda talabalar bilan tasodifiy natijalar yoki stoxastik vaziyatlarni muntazam ravishda tahlil qilish, ularni hal qilishning eng yaxshi yo‘llarini topish uchun turli xil texnika va usullarni tanlash va qo‘llash motivatsion, qadriyat va dunyoqarash munosabatlarining yaxlitligini amalga oshirishga yordam beradi. Talabalar tomonidan stoxastik muammoli vaziyatlarni hal qilish tadqiqot va muammoli-ijodiy faoliyatni tashkil etishga yordam beradi; dunyoqarash ko‘rsatmalari va fazilatlarini rivojlantirish (barqaror motivlar, ehtimollik bilimlari usullari, mavzu bilimlari).

A.L Joxov, I.E. Karelina, M.I. Morozova va boshqalar asarlarini tahlil qilish asosida 10-11-sinf o‘quvchilariga stoxastikani o‘rgatish jarayonining bosqichlarini aniqladilar: tayyorgarlik, muammoni izlash, amalga oshirish va baholash-tuzatish. Bosqichlarning har biri maqsadni belgilash bilan bir-biridan farq qiladi va stoxastik dunyoqarashni tavsiflovchi barcha funktsiyalarni takrorlash bilan belgilanadi.

Tayyorgarlik bosqichi o‘rta maktab o‘quvchilarining tasodifiy hodisalar va miqdorlarni dunyoqarashini tushunishning eng oddiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Talabalarni faoliyatga jalb qilish stoxastikaga qiziqish va motivatsiyani faollashtirish, tushunishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, qiymat yo‘nalishlarini rag‘batlantirish (talabaning ongli motivlarga muvofiq o‘z xatti-harakatlarini tashkil etish usuli) orqali amalga oshiriladi.

Muammoni qidirish bosqichi stoxastik muammoli vaziyatni yechishda ehtimollik usullaridan foydalanish imkoniyati yoki mumkin emasligini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Amalga oshirish bosqichi umumta’lim maktablari o‘quvchilarining dunyoqarash yo‘riqnomalari va sifatlarini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va muammoli-ijodiy faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyati - faoliyat obyektlari va faoliyat usullarini o‘zgartirish. Ushbu bosqichda nafaqat talabalarning bilim darajasini aniqlashga, balki vazifalarni bajarish jarayonida ham qiymat yo‘nalishini rivojlantirishga imkon beradigan muammoni taqdim etish usuli, keys usuli, eviristik usul, tadqiqot usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Baholash va tuzatish bosqichi amalga oshirilgan faoliyatning boshidanoq amalga oshirilgan harakatlarni tushunish va baholash, nazorat, diagnostika va tuzatish faoliyatini (nazorat, aks ettirish, tuzatish) tashkil etish uchun zarurdir.

Adabiyotlar:

1. Лыкова, К.Г. Методика формирования стохастического мировоззрения при изучении раздела «Случайные события. Вероятности» / К.Г. Лыкова // Психология образования в поликультурном пространстве. – 2021. – № 4 (56). – С. 67-77. (ВАК, ИФ РИНЦ 0,234)

2. Селютин В.Д. Научные основы методической готовности учителя обучению школьников стохастике. Монография-Орел: ОГУ, 2002.- 200с.; Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы. - М.: Высшая школа, 1980. - 368 с.

3. В.Д. Шадрикова. Подготовка учителя математики: Инновационные подходы: Учеб. пособие / Под ред. - М.: Гардарики, 2002. - 383 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada dunyoqarash tushunchasiga falsafiy jihatdan yondoshilgan, stoxastik dunyoqarash va uni umumta’lim maktablari o‘quvchilarida rivojlantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается философский подход к понятию мировоззрение, стохастическое мировоззрение и его развитие у учащихся общеобразовательных школ.

SUMMARY

In this article, a philosophical approach to the concept of worldview, stochastic worldview and its development in students of general education schools is covered.

XORIJIY DAVLATLAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING TUZILISHI VA TAHLILI

Nosirova D. T.
JDPU
Matematika o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: "kredit soat" tizimi, kredit-soat tushunchasi, AQSH kredit tizimi, Ispaniya kredit tizimi, Shvetsiya kredit tizimi, Gollandiya kredit tizimi, Buyuk Britaniya kredit tizimi, Yaponiya kredit tizimi, Xitoy kredit tizimi, ERASMUS ta'lim dasturi.

Ключевые слова: система кредитных часов, концепция кредитных часов, кредитная система США, испанская кредитная система, шведская кредитная система, голландская кредитная система, кредитная система Великобритании, японская кредитная система, китайская кредитная система, программа ERASMUS.

Key words: "credit hour" system, credit hour concept, US credit system, Spanish credit system, Swedish credit system, Dutch credit system, Great Britain credit system, Japanese credit system, Chinese credit system, ERASMUS educational program.

O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida kredit ta'lim tizimini jahon ta'lim sohasidagi zamonaviy yo'nalishlarni hisobga olib, xorijiy kredit-modul ta'lim tizimlarini tahlil qilib va umumlashtirgan holda joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi zamonaviy oliy ta'lim tizimi Yevropa va AQSH universitetlarida uzoq vaqt tajriba to'plash natijasida hosil bo'lgan. Universitetlarning avtonomiyasi va ta'lim jarayonidagi milliy o'ziga xoslik turli davlatlar uchun maqbul bo'lgan mutaxassis tayyorlash namunasini ishlab chiqishni qiyinlashtirgan. Universitetlar o'zlarining o'qishga qabul qilish va bilim berish tizimlariga ega bo'lishgani sababli, umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish juda qiyin kechgan. Yondashuvlarni umumlashtirish bo'yicha dastlabki qadamlar Amerika universitetlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ular fan talablariga mos bo'lgan zamonaviy biznes qoidalari asosida oliy ta'limning yagonalashtirilgan modelini taklif qilishgan. Bolonya deklaratsiyasi ham Yevropa Ittifoqi universitetlari o'rtasida shunga o'xshash modelni taqdim qildi.

Bunda birinchi bosqich – talabalarning ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ijrochilik malakalarini o'zlashtirishiga, ikkinchisi esa – ilg'or talaba yoshlarda

ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, innovatsion g'oyalar ishlab chiquvchi ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi tobora unifikatsiyalashib bormoqda. Bu unifikatsiya eng avvalo ta'lim jarayonining uzluksizligiga va har bir keyingi bosqich oldingisiga tayanishiga asoslangan.

"Kredit soat" tizimi dastlab AQSH da paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSH milliy ta'lim qo'mitasi "kollej-maktab" bo'g'inini yaxshilash, o'rta maktablarda o'quv dasturlarini standartlash maqsadida nafaqat kollejlarda, balki o'rta maktablar uchun ham "kredit" tushunchasini joriy qildi va keyinchalik bakalavriat dasturlari mazmunini baholashning kredit tizimini magistratura va doktorlik ta'lim bosqichlarigacha kengaytirdi. Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts - BA yoki Bachelor of Science - BSc) olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (ta'minan, 60-68 kredit) va u oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to'rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o'rganishga bag'ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o'rta hisobda ikki yillik o'qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo'ljallangan magistrlik dasturlaridir. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog'onasi doktorlik dasturlari bo'yicha o'qish bo'lib,u tor mutaxassislikga o'qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo'naltilgandir. Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to'plashi zarur. AQSH da qabul qilingan USCS (US Credit System) tizimida kredit-soat – bu o'qish vaqtiga asoslangan o'lchovdir. Masalan, bakalavriatda 1 kredit-soat talabaning semestr davomida har haftadagi 1 akademik soat auditoriya ishiga teng. Bundan tashqari har bir auditoriya mashg'ulotiga 2 soat (100 minut) mustaqil ish qo'shib beriladi. Magistraturada, va ayniqsa doktoranturada bu mehnat hajmida mustaqil ishning hissasi ko'payib borishi nazarda tutiladi.

AQSH da bakalavr darajasini olish uchun 4 yilda kamida 120 kredit- soat, magistr uchun 1-2 yilda mos ravishda 30-60 kredit-soat, doktorlik dasturlarida

esa 3-4 yilda mos ravishda 60-90 kredit-soat to‘plash talab etiladi. Oliy ta’lim tizimida kredit-soat tushunchasi dars jadvalini tuzish, GPA o‘rtacha ballini hisoblash, kafedralar, o‘qituvchilar va talabalarning yuklamasini aniqlash uchun asos hisoblanadi.

USCS tizimi amerika talabalarining mobilligini oshiradi, chunki bir universitetda olingan kreditlar boshqalarida ham hisobga olinadi va talabalar o‘qishlarini bir oliy o‘quv yurtidan boshqasiga sinov birliklarini saqlagan holda ko‘chirishlari mumkin. Bunday amaliyot qoldirilgan o‘qish va o‘qishga tiklash jarayonlarini o‘zaro bog‘lash uchun ham qo‘llaniladi.

Ispaniyada universitet ta’limi ko‘p pog‘onali bo‘lib quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

- birinchi ta’lim davri: u kamida 3 yil davom etadi va 180-270 ispan kreditlariga teng bo‘ladi;
- birlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4-5 yilga mo‘ljallangan bo‘lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr - 2-3 yil, ikkinchisi - 2 yil davom etadi. Ko‘rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300-500 kredit to‘plashadi.
- ikkinchi davr – yakka tartibda;
- uchinchi davr – doktorantura.

Birinchi davr yakunida talabalarga Diplomado, Arquitecto Tecnico va Ingeniero Tecnico kabi akademik darajalar berilishi mumkin. Ikkinchi davr yakunida esa - Licenciado, Arquitecto yoki Ingeniero Superior darajalari berilishi mumkin. Doktorlik darajasi uchinchi davrda o‘qishni yakunlagan va dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan talabalarga beriladi.

Ispaniyada “kredit”ni aniqlashga o‘zgacha yondashiladi – har bir kredit 10 soat auditoriya mashg‘ulotlariga mos keladi, to‘plangan kreditlar yig‘indisiga qarab talabaning o‘zlashtirishi baholanadi. Talabalar tomonidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha alohida kreditlar to‘planadi, ularni hatto auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari boshqa o‘quv ishlarini bajarib ham olish mumkin.

Shvetsiyada 1 shved krediti universitetda 1 hafta o‘qishga teng deb qabul qilingan. Bu tizim o‘quv rejalarini tuzishni va talabalarning bajargan o‘quv soatlarini hisoblashni yengillashtirish uchun joriy etilgan. Shvetsiya universitetlarida o‘quv yili 40 hafta davom etadi va kuzgi hamda bahorgi semestrlardan iborat bo‘ladi. Shunday qilib, talaba o‘quv yili davomida ma’ruza, yakka tartibdagi ishlar va boshqa ishlarni ham qo‘shib hisoblaganda 40 kredit to‘playdi.

Bakalavr darajasini olish uchun 3 yillik o‘qish davomida 120 kredit olish kerak. Magistraturada o‘qish 1-1,5 yil (60 kredit), doktoranturada esa – 2-4 yil davom etadi.

Shvetsiya kreditlarini Yevropa ECTS kreditlari bilan taqqoslash uchun ular 1,5 ga ko‘paytiriladi. Masalan bakalavriatdagi 120 shvetsiya krediti 180 ECTS kreditiga, magistraturadagi 60 shvetsiya krediti - 90 ECTS kreditiga teng bo‘ladi. Shvetsiya universitetlarida ta’lim jarayonlari ma’ruzalar, seminarlar, bahs-munozaralar (o‘qituvchi ishtirokida yoki ishtirokisiz) shaklida tashkil qilinadi. Har bir kurs yakunida imtihon seminarlari, auditoriyada topshiriqlarni bajarish va yozish ko‘rinishidagi imtihonlarni topshirish nazarda tutiladi.

Belgiyada kredit ta’lim tizimi Yevropa ECTS kredit tizimlariga moslashtirilgan va halqaro hamkorlik doirasida qo‘llaniladigan ko‘rinishda taqdim etilgan.

Gollandiya akademik dasturlari talabalarga diplom beriladigan tadqiqot sohalariga yo‘naltirilgan. Hatto birinchi o‘quv yilida ham talabalar umumiy fanlarni o‘qishmaydi. Buning sababi, bunday fanlar o‘rta ta’limning oxirgi ikki yiliga kiritilganligidir.

Gollandiya universitetlarida talabalar ularning murabbiylari bilan birgalikda tayyorlangan shaxsiy o‘quv rejalari bo‘yicha o‘qishadi. O‘quv rejalarida majburiy fanlar va tanlov fanlari ko‘zda tutilgan. Har bir fanning hajmi universitet kataloglarida ko‘rsatiladigan sinov birliklari bilan o‘lchanadi.

Universitetdagi o‘quv yili 5 semestrga ajratilgan, har bir semestrda talaba amalda faqat 2-3 fanni o‘rganadi. Buning sababi, modulli ta’lim tizimi qo‘llanilishi va har bir fan bo‘yicha dars sur’atining juda yuqoriligidir (bir fan bo‘yicha bir kunda bir necha soat dars mashg‘ulotlari o‘tilishi mumkin). O‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish va o‘z mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish universitet dasturlarining muhim qismlari sanaladi. Buyuk Britaniyada ta’lim tizimi Birlashgan Qirollikning CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to‘plash va ko‘chirish sxemasi/sistemasi) ga asoslangan bo‘lib, uning maqsadi ko‘p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar belgilash orqali tartibga solish va yagonalashtirishdir. CATS tizimi Birlashgan Qirollikda, Janubiy Afrikada va Yangi Zellandiyada keng tarqalgan.

CATS bo‘yicha akademik yil 1200 shartli o‘quv soatlari yoki 120 kreditni o‘z ichiga oladi, 1 britaniya krediti 10 shartli o‘quv soatlariga teng. SHartli o‘quv vaqti deyilganda, talaba fanni o‘zlashtirishi uchun sarflaydigan soatlar miqdori tushuniladi. Shartli vaqt auditoriya mashg‘ulotlari, asosiy amaliy ishlar, loyiha ustida ishlash, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini, imtihonlarga

tayyorgarlik va ularni topshirish kabi faoliyatlarni, ya'ni barcha turdagi o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Britaniya universitetlarida bakalavr darajasini olish uchun 3 yil davomida 360 britaniya kreditlarini qo'lga kiritish kerak. To'rtinchi yil talabalarga "imtiyozli bakalavr" (Bachelor with Honours) darajasini olishga imkon beriladi. Shotlandiyada CATS tizimiga asoslangan Shotlandiya CAT (SCOT CATS) tizimi qo'llaniladi, bu tizimda Birlashgan Qirollikning boshqa hududlaridan farqli ravishda bakalavriatda o'qish 3 yil emas, 4 yil davom etadi. Bu Birlashgan Qirollikdagi Shotlandiyaning o'ziga xos milliy tizimi hisoblanadi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida Yevropada oliy o'quv yurtlarining xalqaro ta'lim dasturlaridagi ishtiroki muhim masalaga aylandi, oliy ta'lim o'quv dasturlarini internatsionallashtirish taraqqiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. 1987 yilda Yevropa Ittifoqi asos solgan talabalar almashishning ERASMUS (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) ta'lim dasturi eng namunali deb topilib asos sifatida qabul qilindi va Yevropaning 12 ta davlatida joriy etildi. To'plangan tajribalar qayta ishlanib barcha yosh guruhlari ta'limiga ixtisoslashgan yangi SOCRATES dasturi uchun asos sifatida qabul qilindi. Bu dastur 2006 yilgacha rejalashtirildi va 31 davlatda amal qildi. Bulardan tashqari, Yevropada talabalar almashish dasturi bo'yicha Yevropaning ilm-fan va universitetlar beshigi sifatidagi imijini mustahkamlashga yo'naltirilgan Leonardo Da Vinci va Tempus-Tasis ta'lim dasturlari amalga oshirildi.

Bu dasturlarni amalga oshirishda Yevropada turli xillik va o'zaro mos kelmaslik holatlari yuzaga chiqdi, umumlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ldi. SHunday instrument ishlab chiqish zarur edi, u milliy ta'lim tizimlarini amalda yaqinlashtirishi, moslashuvchan va shaffof qilishi, ta'limdagi hujjatlar esa – oson taqqoslanadigan bo'lishi kerak edi. Bunday tizim sifatida ERASMUS dasturining tajriba loyihasi sifatida yuzaga kelgan va 1989-1995 yillarda 6 yil davomida eksperimental tekshiruvdan o'tgan ECTS (European Credit Transfer System) tizimi tan olindi. Unda Yevropaning 145 ta oliy o'quv yurti ishtirok etdi.

1999 yilning iyunida 29 ta Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Bolonya deklaratsiyasini imzolashdi, unda asosiy e'tibor ECTS va umumyevropa diplom ilovasiga qaratildi. Bunda ECTS ning vazifasi etib 2010 yilda yagonalashtirilgan oliy ta'lim tizimini yaratish emas, balki xalqaro "shaffoflik" ka erishish va mavjud ta'lim tizimlarini va malakalarini davlatlar va oliy o'quv yurtlarining ta'lim siyosati sohasidagi avtonomligini saqlab qolgan holda moslashtirish belgilandi. Hozirgi kungacha deyarli barcha Yevropa davlatlari o'z milliy oliy

ta’lim tizimlarida islohotlar o‘tkazishdi, kredit ta’lim tizimini joriy qilishdi. Biroq, ular milliy ijtimoiy-iqtisodiy masalalar echimiga qaratilganligi sababli o‘zaro jiddiy farq qilishadi. Har bir davlat o‘zining noyob ta’lim tizimini, milliy, tarixiy va madaniy an’analarini saqlab qolishga harakat qilgan.

Shunday qilib, Yevropada mantiqan rad etib bo‘lmaydigan, maksimal darajada yaqinlashish va milliy tizimlarning baholash shkalalarini umumyevropa andozasi bo‘yicha tenglashtirish uchun zarur bo‘lgan ECTS tizimi paydo bo‘ldi. Unga ko‘ra Yevropa krediti – tyutor va talaba kontakt soatlari hajmining shartli birligi hisoblanadi. O‘rta hisobda bir o‘quv yilida talaba 60 Yevropa kreditlarini to‘plashi shart. Yevropa, amerika va britaniya sinov birliklari tizimi bilan bir qatorda Osiyo-Tinch Okeani regioni uchun UCTS (University Credit Transfer System) universitet kreditlarini o‘tkazish tizimi ham mavjud. Bu tizimga regionning yirik davlatlari, masalan, Yaponiya va Xitoy umuman qo‘shilishmagan. Bu loyihaning tajriba sxemasi 5 yilga (1999-2004 yy.) mo‘ljallangan edi. Uning maqsadi UMAP (Osiyo-Tinch okeani regionida universitetlar mobilligi) tashkiloti tomonidan regionda va UMAP faoliyat sohasiga kiruvchi hududlarda va dunyoning boshqa regionlaridagi davlatlar bilan birgalikda xorijiy oliy o‘quv yurtlaridagi olingan kreditlarni kafolatli tan olish orqali talabalar almashinuvini samarali yo‘lga qo‘yishga yordam ko‘rsatish edi.

UCTS kreditlar shkalasi xuddi ECTS niki kabi bir akademik yil uchun 60 kreditni tashkil qiladi (semestrda – 30). UCTS kreditlar shkalasi faqat konvertatsiyalash shkalasi sifatida ishlatiladi. U qabul qiluvchi va o‘qishga jo‘natuvchi oliy o‘quv yurtlaridagi mavjud kreditlar tizimini (yoki o‘quv yuklamasini o‘lchashning boshqa turlarini) almashtirish uchun mo‘ljallanmagan. UCTS tizimi, akademik yil uchun 60 kredit va ECTS baholash shkalasi joriy etilganligi sababli ECTS modeliga asoslangan bo‘lib, u ECTS modelining soddalashtirilgan versiyasi hisoblanadi. UCTS tizimi institutlar o‘rtasida faqat talabalarning yuklamalari va baholarini tan olish va o‘tkazish maqsadida ishlab chiqilgan, u muayyan institutdagi mavjud tizimni almashtirishni nazarda tutmaydi. UCTS tizimida fakultet vakili faqat UCTS dan foydalanish bo‘yicha umumiy tavsiyalar beradi va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida muloqot yurituvchi shaxs hisoblanadi. Talabaning o‘zi shaxsiy xorijiy ta’lim dasturini tuzadi. Talaba dasturni tuzib bo‘lganidan so‘ng o‘qishga jo‘natuvchi va qabul qiluvchi institutlar muayyan dasturdagi fanlarni o‘rganish uchun talabaga beriladigan kreditlarga nisbatan o‘zlarining roziliklarini ma’lum qilishadi. UMAP talabalar almashinuvi shartlari batafsil ifodalangan ikki tomonlama kelishuvlarni tuzishda universitetlarga yordam beradi va ularni

qo‘llab-quvvatlaydi. Xuddi ECTS dagi kabi UCTS da ham, asosiy maqsad talabaning xorijda olgan kreditlarini o‘qishga jo‘natuvchi institut tomonidan qayta qabul qilinishini kafolatlash va shu orqali UMAP ning samarasini oshirish hamda talabalarning mobilligini oshirishga qaratilgan. Yaponiya sinov birliklari tizimi amerikaning USCS tizimi asosiga qurilgan bo‘lib, uning faqat bitta farqli jihati – “kredit-soat” tushunchasi “sinov birliklari” (units) atamasi bilan almashtirilganligidir. SHuni ta’kidlash joizki, AQSH ning bir nechta universitetlari, xususan Massachuset texnika universiteti ham ushbu atamadan foydalanadi. Yaponiyalik talaba bakalavr darajasini olishi uchun universitetda 4 yil o‘qishi kerak, undan 2 yili – keng umumta’lim tayyorgarlik, keyingi 2 yil – mutaxassislik bo‘yicha ta’lim. Fanlar majburiy va tanlov fanlariga bo‘linadi. Shunday qilib, Yaponiyada bir sinov birligi talaba semestr davomida biror fanni har haftada bir soat o‘qishini va bakalavr darajasini olishi uchun 146 sinov birligi to‘plashi zarurligini anglatadi.

Yaponiyada oliy ta’limdan keyingi ta’lim ikki bosqichdan iborat: «master course» – 2 yil davom etadi va magistrlik darajasini olish bilan yakunlanadi va «doctor course» – 3 yil davom etadi va doktor darajasini olish bilan yakunlanadi. Magistr darajasini olish uchun talaba 30 sinov birligi to‘plashi (bunda tanlov fanlari ilmiy rahbar bilan kelishib olinadi) va diplom ishini yozishi kerak. Doktorlik darajasini olishi uchun magistrlik darajasini olgandan so‘ng 3 yil davomida ilmiy rahbari nazoratida ilmiy ish bilan shug‘ullanishi, bitiruv imtihonlarini topshirishi va doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi zarur.

Xitoy ta’lim tizimini Chinxua universiteti, Pekin davlat universiteti, Pekin texnika universiteti, Jilian universitetlari misolida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Xitoy Xalq Respublikasida Amerika ta’lim tizimiga o‘xshash uch darajali ta’lim tizimi qabul qilingan. Bakalavr darajasini olish uchun 120 kreditni, magistr darajasini olish uchun – 30-60 kreditni qo‘lga kiritish kerak. O‘quv yili ikki semestrga ajratilgan va 1-sentyabrdan boshlanadi. Biroq, semestr davomiyligi Amerika tizimidan farq qilib 20 haftani tashkil qiladi. Universitetlarda o‘qish 4-5 yil, tabbiyot universitetlarida – 7-8 yil va kasbiy-texnik maktablarda – 2-3 yilni tashkil etadi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan ko‘rish mumkinki, nafaqat davlatlarning ta’lim tizimlarida, balki “kredit” atamasini tushunish va uni talqin qilishda ham sezilarli farqlar mavjud. Agar Yevropa krediti o‘z hajmi bo‘yicha barcha auditoriyadagi kontakt soatlarni va undan tashqaridagi soatlarni aks ettirsa, amerika kredit soati qat’iy ravishda faqat auditoriyadagi kontakt soatlarni o‘zida ifodalaydi va talaba ikki barobar ko‘proq mustaqil shug‘ullanishini, shu

jumladan o‘qituvchi rahbarligi ostida ham mustaqil shug‘ullanishini nazarda tutadi.

Yevropa kreditlarida doim talaba qancha vaqt auditoriyada shug‘ullanishi haqidagi masala ochiq qoladi, va bu raqam fan, o‘qituvchi yoki universitetga qarab o‘zgarishi mumkin. 2004 yilning aprelida Ednet ta’lim tarmog‘i tomonidan o‘tkazilgan “Ta’lim bozorini globallashtirish: Markaziy Osiyo universitetlari reformalari” mavzusidagi 4-Xalqaro anjumanda 1 ECTS krediti - auditoriya mashg‘ulotlari, kollokviumlar, anjumanlar, kutubxonalardagi bahs-munozaralar, tashqi tadbirlar va shu kabida qatnashishni, ya’ni barcha turdagi kontakt mashg‘ulotlarini ham hisobga olgan holda 24-36 ish soatlariga teng degan xulosaga kelingan. ECTS tizimida taxminan 60 kredit – bir akademik yil, 30 kredit – bir semestr, 20 kredit – bir trimestrdagi ta’limga mos keladi. Amerika krediti (bir semestrda auditoriyadagi 12-18 soat mashg‘ulotga teng) bilan taqqoslash uchun aytish mumkinki, Yevropa davlatlarida talabalar taxminan xuddi shuncha miqdorda auditoriyada shug‘ullanishadi, qolgan vaqtni o‘qituvchi ahbarligidagi mustaqil ish deb hisoblash mumkin. ECTS kredit– fanning o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirish uchun mehnat sarfini ifodalaydi, ish soatlari deganda esa – barcha turdagi kontakt soatlar tushuniladi, deb aytish mumkin. Kredit tizimlarining yuzaga kelgan keng qamrovli diversifikatsiyasi sharoitida ECTS tizimi ko‘p millatli Yevropa an’analarini inobatga olgan holda turli ta’lim tizimlarini yaqinlashtiradi. O‘zbekistonda kredit ta’lim tizimiga asoslangan milliy modelni ishlab chiqishda, Yevropa ECTS krediti va Amerika kredit soatlari tizimlarining yutuqlarini inobatga olgan holda yuqori ta’lim sifatini va dunyo ta’lim jarayonlariga integratsiyalashish uchun ishonchli asosni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan dunyo ta’lim tizimlari tahlilidan kelib chiqib Amerika kreditlari (USCS) ni Yevropa (ECTS) va osiyo-tinch okeani (UCTS) kreditlariga aylantirish ancha oson: 1 Amerika kredit-soati = 1 Xitoy krediti = 1 YApon sinov birligi = 2 Yevropa krediti = 2 Osiyo-Tinch Okeani krediti = 4 Britaniya krediti.

Kredit ta’lim tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta’lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko‘plab dunyo davlatlari ta’lim tizimlarida ko‘proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta’lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollikni va bilim olishga o‘zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. V.O'rinov va b. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tashkilotlarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. Toshkent. "Ma'naviyat"-2020.

2. Nosirova D.T., Pardaeva Z.O'., Xummamatova K. The main forms of organization of independent work of students in the credit-module system. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol 23, №2(2020) November. Impact factor 5.6

3. Nosirova D.T., Kamolova A, Qazibekov M. Duties Of Professor-Teachers In The Credit-Module System. The American Journal of social science and education innovatsion.Volume 2 Issue 11, 2020 Impact factor 5.525

4. Nosirova D.T. Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni. "Ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari". Xalqaro ilmiy-amaliy online konferensiyamateriallari. 2021-yil 20-noyabr

5. Мырзалиев Б.А. и др. Кредитная система обучения: опыт внедрения, проблемы и перспективы. -Шымкент, 2005.-223с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada qator xorijiy oliy o'quv yurtlarida kredit – modul tizimining tuzilishi, o'rni va ahamiyati; ustuvor tomonlari; talabalar bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qitishni kredit-modul tizimi asosida tashkil etish kredit sistemasining ijobiy tomonlaridan biri ekanligi ilmiy-metodik jihatdan tahlil etiligan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье структура, роль и значение кредитно-модульной системы в ряде зарубежных высших учебных заведений; приоритеты; Научно и методологически проанализировано, что организация обучения на основе кредитно-модульной системы в развитии знаний, умений, навыков и компетенций обучающихся является одним из положительных сторон кредитной системы.

SUMMARY

In this article, the structure, role and importance of the credit-module system in a number of foreign higher educational institutions; priorities; It is scientifically and methodologically analyzed that the organization of training on the basis of the credit-module system in the development of students' knowledge, skills, qualifications and competencies is one of the positive aspects of the credit system.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova M. B.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, будущий учитель начальных классов, компетентностный подход, инновации, инновационные технологии, учитель, обучающийся.

Key words: competence, professional competence, future primary school teacher, competence-based approach, innovations, innovative technologies, teacher, student.

XXI-asrda ta'limning rivojlanishi mamlakat obro'sini ko'taradi. Davlatimiz rahbarining „Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", degan g'oyalari hayotimizga tobora singib bormoqda. Bu ezgu tashabbus zamirida ilm-fan va ta'lim-tarbiyani taraqqiy toptirish, kelajak avlodlarni har tomonlama barkamol voyaga yetkazish, ona Vatanimizga muhabbat va istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash asosida yoshlarning iqtidorini ro'yobga chiqarishda buyuk maqsadlar ilgari surilmoqda. Ta'lim va tarbiya jamiyatning ko'zgusi hisoblanib, bu davlatning yuqori darajasini belgilab beradi.

Hozirda oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan xususiy masalalar ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada oliy ta'lim bitiruvchilari atrofdagi o'zgarishlarni yetarli darajada shakllantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiya tufayli ushbu o'zgarishlarning tezligi ortib borishi mutaxassislar uchun zarur bo'lgan kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli dastur yaratish- atrofdagi doimiy o'zgarishlar sharoitidagi faoliyatdir. Ushbu rivojlanish tendensiyalari oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonidagi ta'limning maqsadi, mazmuni, innovatsion texnologiyalar, baholash va natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan chuqur tizimli o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning aniq dolzarbligiga qaramay, «kompetensiya» va «kompetentlik», «o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi» tushunchalarining mohiyati, bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi psixologik hamda pedagogik adabiyotlarda bir xil talqin qilinmaydi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini talqin qilish asosida ikki turdagi variant mavjud bo’lib, ular bir biridan farqlanadi. Bular, mehnat bozori atamalari lug‘atida eng aniq ifodalangan, ta’lim dasturlari va o‘quv rejalari standartlarini ishlab chiqish vakolati bo’lib, quyidagicha belgilanadi:

1) bajariladigan ishni sifatli va samarali bajarish qobiliyati;

2) qo’yiladigan talablarga muvofiqligi;

3) maxsus mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati

Shuningdek, raqobat, vakolat atamasi bir xil ma’nolarda ishlatilishini, lekin odatda tavsiflovchi ma’noda ishlatilishini ta’kidlaydi. Ushbu tushunchalarni bunday identifikatsiyalash doirasida tadqiqotchilar V. A. Bolotov, V. V. Serikov, B. C. Lednev, N. D. Nikandrov, M. V. Rijakov kompetensiyalarning amaliy yo‘nalishini aniq ta’kidlaydilar - «kompetensiya - bu bilim va harakat o‘rtasidagi munosabatlar sohasi. Inson amaliyotida» va «kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’limning amaliy yo‘nalishini sezilarli darajada oshirishni nazarda tutadi».

I. A. Zimnaya ta’kidlashicha, kompetensiya tushunchasi o‘zaro bog‘liqligining ikkinchi varianti o’rganilishida kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim (kompetensiyaga asoslangan ta’lim) 70 - yillarda Amerikada 1965 yilda N. Xomskiy tomonidan taklif qilingan til nazariyasiga nisbatan «kompetensiya» tushunchasining umumiy grammatik kontekstida shakllangan.

N. Xomskiy kompetensiya (ma’ruzachi - tinglovchi tomonidan o‘z tilini bilish) va foydalanish (muayyan vaziyatlarda tildan haqiqiy foydalanish) tushunchalarini ilmiy nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatdi. Shu bilan birga, R. Uaytning tadqiqiy ishida kompetensiya toifasi shaxsiy tarkibiy qismlar, shu jumladan motivatsiya bilan to‘ldiriladi.

O‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish eng muhim vazifalar etib belgilanadi. Bu oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha fanlarning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy talablariga mos innovatsion texnologiyaga alohida e’tibor qaratish lozimdir. Mazkur innovatsion texnologiyaning asosiy mohiyati talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda professor-o‘qituvchilarning hayotiy tajribasi,

e’xtiyoji, qiziqishi hamda imkoniyatlariga tayaniladi. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda xorij tajribalaridan samarali foydalanish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish lozim. Chunki, o‘quv mashg‘uloti innovatsion texnologiyaning asosiy maydoni hisoblanib, uni tashkil qilish va boshqarishga to‘g‘ri, yangicha munosabat bo‘lishi kerak, bu jarayonda professor-o‘qituvchilar oldida muhim bir masala bo‘lib, bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim olishga hamda ularni professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash, bu kasb bilimlari va ko‘nikmalarini hamda kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz chuqurlashtirish orqali o‘quv mashg‘ulotlari sifatiga e’tibor berishga jalb qiladi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan boshqa hujjatlarning barchasida sohaga innovatsion ta’lim texnologiyalarini kiritish hamda xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab quvvatlash, ta’lim turlari integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida mavjud kamchiliklarni o‘rganish jarayonida tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta’lim sub’yektlari faoliyatidagi tarqoqlik ta’lim sifatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu sababli ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiyani yaratish bilan bog‘liq yangi tizimni o‘zining ustuvor strategik yo‘nalishi sifatida belgilab olish va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion texnologiya asosida jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta’lim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlash uzluksiz pedagogik ta’limning faoliyati sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyaning kasbiy layoqatlilik darajasi asosida raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyatini va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirish lozimdir.

Pedagogik ta’lim rivojlanishining klaster tizimi ta’lim berish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari o‘rtasida uzviylik va integratsiyani taminlash, o‘qitish shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalaridan foydalanish kabi yo‘nalishlarda xususiylashadi.

Xorijiy davlatlarning ta’lim tizimida eng oliy maqsad ta’lim oluvchilarga samarali ta’lim va tarbiya berish hisoblanadi. Ta’lim - yoshlarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayondir. Ta’limning asosini ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi tashkil etadi. Ta’lim oluvchi o‘quvchi, talaba va bir qator o‘z aql salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi, ta’lim beruvchi albatta pedagog, professor-o‘qituvchilar bo‘ladi. Barcha pedagog, professor-o‘qituvchilar ta’lim berishni to‘g‘ri tashkil etishda ijodiy yondashuv asosida pedagogik mahoratga ega bo‘lishi bilan birgalikda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llay olish ko’nikmaga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Безукладников, К.Э. Развитие профессиональной компетентности учителя Международного бакалавриата в рамках реализации регионального сетевого проекта [Текст] / К.Э. Безукладников, Б.А. Крузе // Педагогическое образование и наука. - 2009а. - № 6. - С. 62-66.

2. Болотов, В.А. Компетентность модель: от идеи к образовательной программе [Текст] / В.А Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. - 2003. - №10.

3. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании [Текст] / И.А. Зимняя. - М.: Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 40 с.

4. Зеер, Э.Ф. Психология профессионального образования: учебное пособие [Текст] / Э.Ф. Зеер. - Екатеринбург, 2000.

5. Маркова, А.К. Психологические проблемы повышения квалификации [Текст] / А.К.Маркова //Педагогика. - 1992. - №9. - С.65-67.

6. Муслимов Н.А.Касб таълими ўқитувчисининг касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари.пед.фан.док.....дисс-Т.,2007.315б

7. Оберемко, О.Г. Теоретико-методологические основы подготовки переводчика в современных условиях [Текст]: дис. ... д-ра пед. наук / О.Г. Оберемко. - Нижний Новгород, 2003а. - 422 с.

8. Павлова, Ҳ.А. Компетентностный подход в системе СПО [Текст] / Павлова ЖИ. А. // Среднее профессиональное образование. - 2006. - №8. - С.58- 62.

9. Леднев, Б.С. Государственные профессиональные стандарты в системе общего образования: теория и практика [Текст] / Б.С. Леднев, Н.Д. Никандров, М.В. Рыжаков. - М., 2002. - 184 с.

10. Хомский, Н. Аспекты теории синтаксиса [Текст] / Н. Хомский. - М., 1972. -112 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены теоретические вопросы развития профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов в высших учебных заведениях и формирования профессиональных компетенций будущих специалистов в высших учебных заведениях развитых стран.

SUMMARY

This article discusses the theoretical issues of the development of professional competencies of future primary school teachers in higher educational institutions and the formation of professional competencies of future specialists in higher educational institutions of developed countries.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK TADQIQOT MUAMMOSI SIFATIDA

Abduvaliyeva X. A.
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi, musiqiy madaniyat, musiqa effekti, pedagogik vosita, tizimdagi muammo.

Ключевые слова: система дошкольного образования, психология детей раннего возраста, музыкальная культура, музыкальный эффект, педагогический инструмент, проблема в системе.

Key words: preschool education system, psychology of young children, musical culture, music effect, pedagogical tool, problem in the system.

Kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga kelishi - bu kundalik hayot tarzining o'zgarishi, bog'chadagi o'quv jarayoniga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurati tufayli psixologiyaning o'zgarishi, bola o'qishni davom ettirganda axloqiy va tarbiyaviy muhitning o'zgarishidir. Musiqa bolaga har daqiqada hamroh bo'ladi, lekin musiqiy ma'lumotlar oqimi ko'pincha u tomonidan boshqarilmaydi va amalga oshirilmaydi. Musiqa ongni chetlab o'tib, ongsiz va ongsiz jarayonlarga bevosita ta'sir qiladi, bolaning psixikasi va somatikasiga ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshi - bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'ektning qaysi fazilatlari va xususiyatlari borligini biladi. Effektiv fikrlash shakllari yaratilgan. 5-6 yoshligida bola, shimgich kabi, barcha ma'lumotlarni so'radi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo'llab-quvvatlaydi.

Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida musiqiy qobiliyatlarini oshirishdagi muammolarni bartaraf etishda innovatsion g'oyalarni yaratish va

joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish Psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar. O'z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog'chasini o'quvchilarning oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining aksariyati san'at sohasi mutaxassislari emas. Bolalarning estetik rivojlanishida ularning roli rivojlanayotgan badiiy, shu jumladan musiqiy muhitni tashkil qilishdir. Shu bois bo'lajaktarbiyachi uchun mamlakatimiz va xorijiy musiqa madaniyati asoslari, musiqa san'atining turli janrlari, yo'nalishlari, bolalarni musiqiy tarbiyalashning ko'p asrlik an'analarining to'plangan tajribasi, ular bilan ishlash uslub va uslublarini puxta egallashi nihoyatda muhimdir. Musiqa vositasida bolalarni badiiy va estetik tarbiyalash sohasida zamonaviy pedagogikada bir qancha yo'nalishlar belgilab berilgan va faol rivojlanmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachisi musiqa taraqqiyoti jarayonida bolaning shaxsiyatini uyg'unlashtirishga qaratilgan musiqiy pedagogika asoslarini o'zlashtira oladi. maktabgacha o'qituvchisining musiqa ta'limi sohasidagi faoliyati umumiy rivojlanishga qaratilgan bo'lishi kerak bolalar musiqa orqali shakllanadi. Musiqa madaniyatini rivojlantirishda qo'shiqchilik muhim o'rin tutadi. Ovoz insonga tabiat tomonidan berilgan yagona noyob musiqa asbobidir. Ushbu cholg'uga ega bo'lish musiqa madaniyati darajasidan dalolat beradi. Vokal va xor mahoratini bilish, o'z ovozini egallash va bo'lajak o'qituvchining bola ovozi bilan ishlash qobiliyati uning uchun bolaning nutq ovozini rivojlantirish, saqlash va yaxshilash uchun asos bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari bo`lgan ushbu so`zlash, ko`rsatish va mashqlar bajarishni texnologik jarayonning uch tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Musiqa darslari jarayonida ular keng ko`lamli faoliyat sifatida namoyon bo`ladiki bu o`rinda musiqa darslarini faoliyatlar negizida tashkil etilishi bilan bog`liq katta imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik yoshdagi bog'cha bolalarining musiqiy va axloqiy tarbiyasini faollashtirish muammosi tarbiyachilar oldiga bolalarning turli xil moyilliklarini rivojlantirishga maqbul yondashuv yo'llarini topish va topish masalalarini qo'yadi. Bolalarning axloqiy madaniyati masalalariga qiziqish va e'tibor ortib borayotgani axloqning ta'sir doirasining kengayishida yaqqol namoyon bo'ladi. San'atda va hayotda go'zallik haqidagi fan bo'lib qolishdan to'xtagan axloq bugungi kunda tashqi bezak sifatida emas, balki uning mohiyati, ichki mazmunining ajralmas

qismi sifatida hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Albatta, san'at inson mohiyati, uning hayoti va faoliyati sohasi sifatida, eng to'liq ifodalash sohasi sifatida go'zallik axloqning eng muhim ob'ekti bo'lib qolmoqda va mos ravishda maktabgachamaktabda san'atning rolini kengaytiradi.

Musiqaga qiziqish, musiqaga ishtiyoq, unga mehr-muhabbat uning o'z go'zalligini bolalarga keng ochib berishi, tarbiyaviy-idrok vazifasini bajara olishi, ma'naviy madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi uchun zarur shartdir. Umumta'lim maktabi uchun musiqa dasturi darsda aniq mavzuli materiallardan foydalangan holdatarbiyachi maktab o'quvchilarida vatanparvarlik, milliy g'urur va baynalmilallik, Vatan ravnaqi yo'lidagi jasorat va qahramonlikka hayrat tuyg'ularini qanday singdirishi zarurligiga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy darslar kognitiv va aqliy faoliyatni faollashtiradi. Bolalar ishni diqqat bilan tinglash orqali ko'p narsalarni o'rganadilar. Biroq, ular faqat uning eng umumiy xususiyatlarini, eng yorqin tasvirlarini idrok etadilar. Shu bilan birga, agar bolaga topshiriqlar berilsa, hissiy sezgirlik o'z ahamiyatini yo'qotmaydi: tinglash, farqlash, taqqoslash, ifodali vositalarni ajratib ko'rsatish. Bu aqliy harakatlar bolaning his-tuyg'ulari va tajribalari doirasini boyitadi va kengaytiradi, ularga mazmunlilik beradi. Musiqiy va axloqiy tarbiyaning uyg'unligi faqat maktabgachamaktab yoshiga xos bo'lgan musiqiy faoliyatning barcha turlari qo'llanilganda, o'sib borayotgan shaxsning barcha ijodiy imkoniyatlari faollashtirilganda ko'rib chiqiladi.

Tizimdagi muammolar taxlili shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limi va tarbiyasining umumiy pedagogik va maxsus usullarining o'ziga xos birikmasi bo'lgan integral o'qitish usullarining ustunligini asoslaydi. Ularning o'ziga xosligi insonparvar shaxsga bo'lgan favqulodda hayotiy ehtiyoj, ijodkorlik va muloqotga bo'lgan tabiiy insoniy ehtiyoj, san'atning ushbu ehtiyojni qondirish, g'oyaviy, ma'naviy, axloqiy, hissiy ta'sir ko'rsatish maqsadi bilan belgilanadi. Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Turli tasniflarga ko'ra usullar umumiy didaktiklarga bo'linadi: amaliy, ko'rgazmali, og'zaki, kitob bilan ishlash, video metod, illyustratsiya, tushuntirish, mashq qilish, bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni qo'llash, ijodiy faoliyat, mustahkamlash, tekshirish. bilim, malaka, tushuntirish (axborot-reseptiv), reproduktiv; muammoli taqdimot, qisman qidiruv (evristik), tadqiqot, o'quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish usullari, o'quv va kognitiv faoliyatni rag'batlantirish va rag'batlantirish usullari, o'quv va kognitiv faoliyat samaradorligini monitoring qilish va o'z-o'zini nazorat qilish usullari.

Xulosa. Musiqiy ta’limning maxsus usullari: musiqani kuzatish usuli, musiqani majburlash emas, balki unga ishontirish, ko’ngil ochish emas, balki zavqlantirish, improvizatsiya usuli, empatiya usuli, musiqiy umumlashtirish usullari. oldinga yugurish va o’tmishga qaytish, musiqa haqida mulohaza yuritish, hissiy dramaturgiya, musiqiy suhbat usuli, badiiy-ijodiy jarayonni modellashtirish, taqqoslash usuli; badiiy kontekst yaratish usuli, Fikrlash usuli, musiqa haqida fikr yuritish kabi ko’plab usullarni qo’llash va ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo’lamiz.

Adabiyotlar:

1. Koroleva, T.P. Musiqiy ta’lim metodlari - Minsk: BSPU 2010. – 216_b
2. Musiqa. I - IV lar: o’qish. Umumiy ta’lim dasturi rus tilidagi muassasalar. - Minsk, 2009. – 32-b
3. “Musiqa” fanining ta’lim standarti (I-IV lar)/ Musiqiy va teatr mahorati: tartibga solish muammolari - 2009. - 3-son. 10-11p
4. Laptev N.G. Kichik yoshdagi o’quvchilarni musiqiy tarbiyalashning asosiy jihatlari. Astraxan: Astraxan pedagogika universiteti, 2001. – 166-b
5. Zimina A.N. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni musiqiy ta’limini rivojlantirish asoslari. M .: Vlados, 2000. – 304-b

РЕЗЮМЕ

Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni madaniyat, jumladan, musiqa asoslarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning musiqiy madaniyatini tarbiyaviy ishlarni maqsadli, tizimli va tizimli tashkil etish sharti bilan rivojlantirish mumkin. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tarbiyachisi bog’chada saboq berish davomida mashg’ulotlardan tashqari vaqtlarda tarbiyaviy ishlarni qiziqarli va rang-barang tashkil etish qanchalik muhimligini biladi. Lekin amalda u har doim ham musiqa madaniyatining ulkan imkoniyatlaridan foydalana olmaydi, chunki maxsus musiqa adabiyoti va bolalarni musiqiy tarbiyalash bo’yicha uslubiy materiallar mutaxassislar - musiqa o’qituvchilari uchun mo’ljallangan. Ushbu maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish psixologik-pedagogik tadqiqot muammosi sifatida ekanligi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

РЕЗЮМЕ

Без корней культуры, особенно музыки, невозможно представить себе развитие гармоничной во всех отношениях личности. Если образовательная деятельность организована целенаправленно, структурированно и систематически, музыкальная культура дошкольников может развиваться. Воспитатель детей дошкольного возраста знает, насколько важно организовывать образовательные мероприятия в увлекательном и красочном стиле во время занятий в детском саду в дополнение к обучению. Однако, поскольку специализированная музыкальная литература и практические материалы по музыкальному воспитанию детей предназначены для специалистов - учителей музыки, он не всегда может воспользоваться огромными возможностями музыкальной культуры. В данной статье будут представлены отзывы и данные о том, что развитие музыкальной культуры детей дошкольного возраста является проблемой психолого-педагогических исследований.

SUMMARY

Without the roots of culture, especially music, it is impossible to envision the development of a harmonious personality in all respects. If educational activities are organized in a focused, structured, and systematic manner, preschoolers’ musical cultures can develop. The Educator of children of preschool age knows how vital it is to organize educational activities in an exciting and colorful style during kindergarten sessions, in addition to training. Yet because specialized musical literature and practical materials on the musical education of children are meant for specialists - music teachers - he is not always able to take advantage of the immense possibilities of musical culture. This article will provide feedback and data on the fact that the development of the musical culture of preschool children is as a problem of psychological and pedagogical research.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA ILMIY-IJODIY FAOLIYATINI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Umarov X. E.
Guliston davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi
Kenjaboyeva S. H.
Guliston davlat universiteti 2-bosqich magistri

Tayanch so'zlar: usul, uslub, texnologiya, pedagogik mahorat, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, pedagog.

Ключевые слова: метод, стиль, технология, педагогическое мастерство, творчество, творческая деятельность, педагог.

Key words: method, style, technology, pedagogical skill, creativity, creative activity, pedagogue.

Kirish. Mamlakatimizda yosh avlodning jismonan va ma'nan barkamol bo'lib voyaga yetishiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilishi zamirida, albatta, mustaqil tafakkurli, ijodkor va yuksak ma'naviyatli shaxsni kamol toptirish maqsadi mujassam. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangicha tizim asosida yo'lga qo'yish borasida belgilangan vazifalar yoshlar ta'limtarbiyasiga daxldor muhim chora-tadbirlar ijrosini taqozo etadi. Shuningdek, 2018 yil 17 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi hamda 2019 yil 29 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan kompleks vazifalar o'z ifodasini topganligi masalaning jamiyat va millat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Mazkur hujjatlarda qayd etilgan talablar uzluksiz ta'lim tizimida qo'lga kiritilayotgan innovatsion o'zgarishlarning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'lib, asosan, boshlang'ich ta'lim jarayoniga ham tegishlidir. Chunki bu bosqichda o'quvchilar savodxonlik asoslari, hisoblash tafakkuri, mehnat ko'nikmalari va shaxs ma'naviyati elementlari bilan qurollantiriladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim

tizimi, uning maqsad va vazifalari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan muammo yechimiga mos bo'lishi kerak. Bular zamonaviy ta'lim tizimidagi sub'yektlar, xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini jamiyat taraqqiyoti darajasiga muvofiq muntazam holda yuksaltirib borishni taqozo etadi.

Yurtimizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik kompetentligi doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda, oliy ta'lim muassasasida ularning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shartsharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, takomillashtirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy hayotning modernizatsiyalash jarayonlarini harakatga keltiruvchi va kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotning bosh omilli bo'lgan insonning ma'naviyati va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda o'qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi bugungi kunda ta'lim va tarbiya berayotgan shogirtlarning kamolati bilan mamlakatimiz kelajagi ulkan poydevor qo'yadi.

Demak, bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shahsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqazo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratini ijodiy faoliyatini yanada oshirish muammosi davr talabidir.

U, avvalo, ta'lim muassasalari o'quv jarayoni va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning porloq kelajagi uchun javobgar shahsdir.

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga va mehnatni doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi.

Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi, avvalo, o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot komunikatsion texnalogiyalarning taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirilishga ham bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar orqali taqdim etilgan asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga qo'yilgan talablar ko'rinishida shakllantirilgan. Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak o'qituvchining profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga kompetentli yondoshuvni aniqlash va Davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalariga mos holda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan. V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan: - o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish; - kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish; - faoliyat mezoni (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi; - ish beruvchi talablariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish; - insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi. Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda V.I.Baydenko kasbiy kompetentlikni faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, masala va muammolarni mustaqil hal etishga, shu bilan birga o'z faoliyati natijalari, ya'ni mos ko'nikmalar, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

O.V. Xovovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta'minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat.

Yu.G. Tatur va V.Ye. Medvedevlar bo'lajak mutaxassisning kompetentligini kasbiy va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat yuritish uchun o'z imkoniyatini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy sifatlar va boshqalar) amaliyotda namoyon qilishga intilish va qobiliyat sifatida, kompetensiyani esa, bo'lajak mutaxassisning ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish uchun

o‘zining butun imkoniyatlari (bilim, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar) ni qo‘llash va uning natijasiga ongli ravishda mas’uliyatini anglashga tayyorligi sifatida ta’riflagan. G.A. Larionovaning fikriga ko‘ra, tayyorlik tuzilmasiga amaliy bilimlar majmuasi va shaxsning faoliyatga kirishini ta’minlovchi xususiyatlari kiradi. Mehnatga tayyorgarlik esa ikkita, ya’ni operasional (bilim va ko‘nikmalar) va shaxsiy (ko‘rsatma, mehnatga yo‘naltirilganlik, kasbiy motiv xususiyatlari, odat va munosabatlar tizimi, emotsional va irodaviy funksiyalar, shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlari) komponentlardan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash - kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - kasbiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Erkin va faol fikrlash, ta’lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta’lim berish va tarbiyalashning yangi g‘oya va texnologiyalarini ishlib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o‘quv reja, o‘quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta’lim jarayonini moddiy-texnik ta’minlash);

2) o‘quv-uslubiy (mashg‘ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g‘oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o‘qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o‘qitishga motivatsiyani rag‘batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo‘llash).

Bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko‘nikmalari orqali, ko‘nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo‘naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Dunyo tarbiyashunoslik ilmida bolalarning yetakchi faoliyati o’yin ekani va o’yinlarning maktabgacha yoshdagi davrda muhim sanalishihar jihatda asoslab

berilgan. O'yinlarning didaktik shakli boshlang'ich ta'lim amaliyotida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlar jarayoni zamirida o'quvchilarga ta'lim berish, olam va odam sirlarini anglatish, mustaqil mulohaza yuritishga undash hamda shular asnosida ma'naviy to'kislik sari yuz bergan shaxsni shakllantirish maqsadi yotadi. Buning hammasi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodkorligini oshiradi darslariga beradi. Bevosita bolalarning o'yinlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'yinlar nafaqat nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning, balki boshlang'ich sinflar o'quvchilarning ham asosiy ish faoliyatidan biri bo'lib, ularning shaxs sifatida shakillanishlariga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ijodkorlik o'qituvchining o'z mehnati davovomida jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi kasbiy faoliyatining ta'lim mazmunini belgilovchi o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik - bu o'qituvchining ta'lim tarbiya jarayonida sifat jihatidan yangi orginal va takrorlanmas biror ilmiy yangiliklarni paydo qiluvchi jarayondir. O'qituvchining mahsuldor ijodkorligida belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish haqida so'z ketganda, ijodkorlikning o'zi nima ekanligini aniqlash, so'ng ijodiy faoliyatni tashkillashtirish mezonini tanlash maqsadga muvofiq. "Ijodkorlik" tushunchasi ko'pgina fanlarning tahliliy asosi sanaladi. Uning ma'nolarini aniqlashda ushbu qobiliyatning serqirra ekanligi muhim o'rin tutadi. Tushuncha o'zida "ijodiy munosabat", "ijodiy faoliyat", "ijodiy mehnat", "ijodkor shaxs", "ijodiy o'ziga xoslik" kabi ma'nolarni mujassam etadi. XIX asr oxirida ko'pgina faylasuflar tomonidan ijodkorlik tushunchasiga oid qarashlar ilgari surilgan bo'lib, har birida o'ziga xos individuallik va tafakkurning turfaligi sezilib turadi. Binobarin, ijodkorlik "ijtimoiy ahamiyatga ega yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyatidir" "Ijodkorlik – bu qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan inson faoliyati ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning uchun ob'ektiv (ijtimoiy, axloqiy) va sub'ektiv shaxsiy shart-sharoit (bilim, ko'nikma, ijodiy qobiliyat) kabilar zarur, uning natijasi yangilik va taraqqiyparvarlik kasb etadi.

O'qituvchining evristik ijodkorligi, jahonda ro'y berayotga kasbiy faoliyatiga yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar, farazlar hosil qilish intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini, ehtimolligini, ishonchliligini izchil amalga oshirish va

bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobilyati, fikirlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

O'qituvchining kreativ ijodkorligida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazaryalarni yaratish mujassamlashgan, u o'zining mustaqil g'oyalar va takliflar bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Yevro'palik sotsiloglarning o'qituvchining mehnatining ijobiy holatini "oqimini his qilish", ya'ni o'za faoliyatiga to'liq kirishib ketish va faoliyat jarayonida qoniqish hosil qilish deb atashadi, bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining yuqori ichki refleksiv holati kuchli bo'lishi haqida haqida guvohlik beradi.

O'z kasbi jarayonida ijodkorlikni va mehnatidan qoniqishni beradi his qilmaydigan o'qituvchilarning mehnat faoliyati ko'pincha harakatsizlikka, asablarining tez charchashiga va g'ashlikka olib keladi.

Insoniyat ijodiyotning sub'ekti sifatida o'zini anglashi ijodkorlik muammosi va tushunchalarini ko'rib chiqishning yangi yo'nalishlarini belgiladi. Faylasuflar inson ijodiy faoliyatining mohiyatini, gnoseologik va umummetodologik xususiyatlari muammolarini o'rganadilar. Shunga ko'ra, XX asr mahalliy falsafasida "IJODKOR ODAM" muammosini hal qilishga urinish maqsadi yetakchilik qilgan. Ijodiy pedagogik faoliyatning keyingi mohiyatli tavsifi uchun "kreativlik" – ijodkorlik tushunchasiga murojaat qilish zarur, bu esa ko'rib chiqilayotgan kategoriyaning markaziy havolasi sanaladi. Kreativlik nazariyasini ishlab chiquvchilardan biri Ye.P.Torrens bo'lib, u kreativlikni muammolarga, bilimning yetishmasligi, ularning hamohang emasligi, nomuvofiqligiga nisbatan ta'sirchanlikning paydo bo'lish jarayoni sifatida belgilaydi; Dj.Gilford o'zining modeli asosida kreativlikning to'rt omilini ajratib ko'rsatadi: o'ziga xoslik, semantik moslashuvchanlik, obrazli moslashuvchanlik va semantik o'z-o'zidan yuzaga keladigan moslashuvchanlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etishga doir metodik ta'minotning yetarli emasligi; – ta'lim jarayonida talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish bilan bir qatorda kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish hamda sohaga oid yangiliklarni o'zlashtirishga qaratilgan seminar-trening va master klasslarni o'tkazishga ahamiyat berilmayotganligi; – ijodkorlikka oid topshiriq va mashqlarni bajarishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor qaratilmayotganligi va h.k. V.I.Zagvyazinskiyning "O'qituvchining pedagogik ijodkorligi" kitobida ijodiy faoliyatga "yangi pedagogika tizimini yaratish, noma'lum qonuniyatlarni

ochish, yangi g‘oyalar, usul, vositalar; yangilik yaratish, insonning ichki mohiyati asosidagi kuchlarini uyg‘otish orqali ijod qilish” ta’rifi beriladi.

Olim tomondan pedagog ijodiyotining quyidagi farqli jihatlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. Vaqt jihatidan qat’iy belgilangan va chegaralangan. Agar darsda kutilmagan holat ro‘y bersa, o‘qituvchi qisqa muddat ichida yangi qaror qabul qilishi shart.

2. Pedagogik ijodiyot o‘quv-tarbiyaviy jarayon bilan yaxlit tutash bo‘lganligi sababli u har doim ijobiy natijalarga olib kelishi lozim. Salbiylari esa faqat xayoliy sinov va taxminlardagina bo‘lishi mumkin.

3. Pedagogik ijodkorlik doimo hamkorlikdagi ijodiy ishdir.

4. Ijodiyotning sezilarli qismi odamlar oldida ommaviy tarzda (o‘zining ruhiy holatini boshqara olish ko‘nikmasi) amalga oshiriladi.

Tahlil va natija. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy faoliyatida yuzaga keluvchi qiyinchilik va muammolarning ob’ektiv shart-sharoitlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) yetarli metodik ta’minotga ega bo‘lmaslik;

b) faoliyatini baholashdagi yuzakilik;

v) ikkinchi darajali vazifalarga jalb etilishi.

Quyidagilar pedagog shaxsining o‘ziga xosliklari bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklar qatorini tashkil qiladi: – pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ichki kuch va imkoniyatlarning yetarli emasligi; – faoliyatini sohadagi islohotlarga uzviylik holda o‘zgartirishga imkon bermaydigan o‘z-o‘zini yo‘naltirish mexanizmining buzilishi; – salbiy psixologik holatlar (ishonchsizlik, asabiylik, qo‘rquv, o‘z faoliyatidan qoniqmaslik va boshqalar).

O‘qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish quyidagi strategiyalarga asoslanishni talab etadi:

1) kasbiy rivojlanish (konstruktiv strategiya);

2) psixologik muhofaza (himoya strategiyasi);

3) kasbiy deformatsiya (destruktiv strategiya).

Mahoratli pedagoglar uchun qiyinchiliklar innovatsiya to‘siqlarini yengib o‘tish bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogik faoliyatda duch kelinadigan to‘siqlar ko‘pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo‘yish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mazkur tipologiya bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda birdan ortiq strategiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Masalan, yosh o‘qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, avvalo, kasbiy rivojlanishini bosqichmabosqich takomillashtirib borish, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarni hal etishda ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘z-o‘ziga ishonch, mas’uliyat hissini qaror toptirish hamda o‘zgaruvchan

vaziyatlarda muvafaqqiyatli harakatlana olish strategiyalarini talab etadi. Tadqiqot davomida ijodkor pedagog qanday bo‘lishi kerak degan nuqtai nazarlar umumlashtirib, pedagogik faoliyat ko‘pgina amaliy muammolarni ijodiy hal qilish, ya’ni ta’lim jarayonini oldindan ko‘ra bilish, uni loyihalashtirish va tashkillashtirish, o‘quvchilarga tashxis qo‘ya olish hamda ularning rivojlanishini yaxshilash talabidir degan xulosaga kelindi. Buning uchun o‘qituvchidan kasbiga xos mahorat qirralari: mustaqillik, kasbiy sezgirlik va empatiyaga ega bo‘lish, tanqidiy fikrlay olish, muammoni his qilish, murakkab vaziyatlarni oldindan taxmin qilish, individual ijodiy uslubini yaratishga intilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish sifatlari talab etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijodkorlikka qandaydir sifatli yangilikni vujudga keltiruvchi faoliyat sifatida qaraladi.

Ijodiy fikrlash ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi bosh mezondir. Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy komponentlarini tadqiq qilgan G.Ergashevaning qayd etishicha, “jamoadagi ma’naviypsixologik iqlim ijodiy muhit yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, ijodga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni baratarf etishi lozim. Qulay psixologik muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi: barcha talabalarda ijodiy jarayonning ortishi, stereotiplarning erkinligi, muhokamalarning noqulay bo‘lmasligi, tashabbusi va mustaqilligi, ijodiy kasbiy faoliyatga qiziqish va tayyorligi”. Albatta, bu jihatlarga e’tibor qaratishda talabalardagi yaqqol ko‘zga tashlanadigan xususiyatlarga asoslanish, individual imkoniyatlarini ko‘zda tutish va rag‘batlantirish zarur. Bizningcha, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, musobaqalashish, kuch sinashish imkoniyatini berish ularda ijodiy g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashga motivatsiya uyg‘otadi. Ijodkorlik natijasi faqat qandaydir mahsulotni yaratishda emas, balki ijodkor sub’ektining o‘zini rivojlantirishida, ya’ni insoniyat faoliyati shakllarida amalga oshiriladigan taraqqiyotida namoyon bo‘ladi. Ijodiy rivojlanish barcha taraqqiyot kabi ikki ko‘rinishdagi elementni qamrab oladi: reproduktiv (mavjud narsani qaytadan tiklash) va ijodiy (ilgariga qarab intilish imkonini beruvchi yangilik). Ijodiy harakat muammoning yuzaga kelishi, hal qilishga tayyorgarlik, g‘oyaning paydo bo‘lishi, va nihoyat, uni mujassamlashtirish kabi bir necha bosqichlarga bo‘linadi.

Xulosa va tavsiyalar. Fikrimizcha, o‘qituvchi ijodkorligining asosi bo‘lib kasbiga nisbatan qiziqishi, manfaatdorligini ifodalovchi ichki motivatsiyasi, iroda sohasining rivojlanganligi va tubdan o‘zgargan faoliyatga intilishi hisoblanadi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining jamoaviy ijodiy faoliyatini tashkillashtirishda uning qiziqishlari yo‘lidagi xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, talabalar oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo‘yish hamda ijodiy faoliyatga faol jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 32-33.

2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ637-son

3. Baltamuratova A.P. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi TDPU “Ilmiy axborotlari” jurnali 11-son 2022.

4. Baltamuratova A.P. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi // UzMU xabarlari ilmiy jurnali, 1/1 2023 ISSN 2181-7324

5. Baltamuratova A.P. Efficiency of improving the creative activity of the future primary educational teacher in the process of professional training. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, JIF:7.2 56–60. Retrieved from https://www.sjird. journalspark. org/index. php/sjird/article/view/512 Berlin 10785, Germany 16 January 2023.

6. Perdebaevna, B. A. (2022). Bo ‘Lajak Boshlang’ich Sinf O ‘Qituvchi Faoliyatida Pedagogik Va Ijodiy Qobiliyat. Miasto Przyszłości, 30, 14-17.

7. Baltamuratova, A. (2022). Bo‘lajak boshlang’ich sinf o ‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik muloqotning o ‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(27), 138-148

8. Ларионова Г. А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания, действия, деятельность, самоопределение: монография. - Челябинск. - 2004. - 171 с.

9. Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жихатлари // «Ўқитувчиларнинг касбий махоратини оширишда инновация технологияларининг ахамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар.

10. Ховов О.В. Компетентность профессиональная // Энциклопедия профессионального образования: В 3-х т. - М.:АПО. - 1998.-Т.1. -С.454- 455.

11. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

12. Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(10), 69-72.

13. Maksudov, U. K. (2020). Issues of national values and social activity of students in the development of positive psychology. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396)

14. Saidkulovich, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.

15. Siddikov, B. S. (2020). The importance of sports and recreation activities for a harmoniously developed generation. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 107-111).

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ilmiy-ijodiy faoliyat kompetensiyalarini shakllantirishning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi. O’qituvchidagi ijodkorlik va uning ta’lim jarayonidagi e’tiborli jihatlari ko’rsatib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о роли и значении формирования компетенций научной и творческой деятельности у будущих учителей начальных классов. Показаны творчество педагога и его важные аспекты в образовательном процессе.

SUMMARY

This article talks about the role and importance of forming the competencies of scientific and creative activity in future primary school teachers. The creativity of the teacher and its important aspects in the educational process are shown.

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTSIYASIYALARINI ANIQLASH

Berdiyeva M. B.
Guliston davlat universiteti taynch doktoranti

Tayanch so'zlar: pedagog mahorati, kreativ yondashuv, yaratuvchanlik qobiliyatlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, творческий подход, творческие способности, учителя начальных классов.

Keywords: pedagogical skills, creative approach, creative abilities, primary school teachers.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda jamiyatga o'zgacha fikrlaydigan, ko'rsatmalarga muvofiq emas, balki harakat qilishga tayyor, yangi g'oyalarni yaratishga qodir odamlar kerak.

Ijodkorlikni rivojlantirishning ko'plab yondashuvlari mavjud, ammo asosiy g'oya bu qobiliyat ustida ishlashdir. Ko'pincha oila, ijtimoiylashuvning muhim agenti sifatida, bolaning ijodkorligini rivojlantirishga hissa qo'sha olmaydi. Keyin yordamga shaxsning bu qobiliyatini «kashf etishga» qodir yuqori malakali mutaxassislari bo'lgan ta'lim muassasalari kelishi kerak.

P.Torrensning fikricha, ijodkorlik rivojlanishining eng yuqori cho'qqilari boshlang'ich maktab yoshiga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu davrda bolaning ijodkorligini rivojlantirish juda muhimdir. Binobarin, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu muammoni hal qilishga tayyor bo'lishi va, albatta, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish sohasida bilim, ko'nikma va vositalarga ega bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, bu masalada professional malakani namoyon etishi lozim.

O'qituvchining o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan «kompetentlik» tushunchasi yaqinda, XX asrning 90-yillaridan boshlab qo'llanila boshlandi. Dastlab, bu atama «kasbiylik», «pedagogik mukammallik» tushunchalarining sinonimi sifatida ishlatilgan, ya'ni o'qituvchining kasbiy sohadagi muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashga qodir bo'lgan fazilatlarni qamrab olgan.

«Kreativ kompetensiya» atamasi birinchi marta amerikalik olim Jozef Chilton Pirs tomonidan qo'llanilgan va atrofdagi dunyoning kreativ rivojlanishini anglatadi. "Kreativ kompetensiya" tushunchasi ilmiy foydalanishga

R.Epshteyn tomonidan kiritilgan bo‘lib, olingan bilimlarni moslashtirib qo‘llash, bilimlar tizimini mustaqil ravishda to‘ldirishga tayyorlik va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishni anglatardi.

Ta’lim islohoti munosabati bilan ta’lim maydonini optimallashtirish masalasi tobora ko’proq ko’tarilmoqda. Bu jarayonda o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ko’plab ilmiy tadqiqotlarda o’qituvchiga bugungi beqaror ta’lim makonida muvaffaqiyatga erishishga imkon beruvchi xususiyatlarning optimal to’plamini aniqlashga harakat qilinadi. Bizning fikrimizcha, o’qituvchi uchun zarur bo’lgan yetakchi xususiyatlardan biri kreativ kompetentsiyadir. Bu o‘qituvchiga muammoli pedagogik vaziyatlarni hal qilishda turli strategiyalardan foydalanish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va usullarini turlicha qo‘llash, darsda monotonlik va tartibsizlikka yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi. Kreativ kompetentsiya, agar o’qituvchi unga ega bo’lsa, nafaqat talabalar uchun, balki o’qituvchining o’zi uchun ham bir qator ijobiy oqibatlarga olib keladi. Bu, birinchi navbatda, kasbiy o’sishni, o’z-o’zini takomillashtirish istagini rag’batlantiradi, shuningdek, kasbiy charchashning oldini oladi.

Kreativ kompetentsiyani shakllantirish ustida ishlash uchun uni avvalam bir aniqlab olishimiz zarur. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi - boshlang’ich sinf o’qituvchisining ijodiy qobiliyat darajasini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot savollari quyidagilardan iborat:

1. Kreativ kompetentsiya muammosining nazariy jihatlarini o’rganish.

2. Boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun tadqiqot usullarini tanlash.

3. O‘qituvchining kreativ malakasini diagnostika qilish bo‘yicha so‘rovnoma va “Polisemantik so‘zlar” metodikasining aprobatsiyasi.

4. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ qobiliyat darajasini aniqlash.

Tajriba bazasi: Guliston shahridagi 1-sonli xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internati.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ qobiliyat darajasini aniqlash uchun biz V.M. Bekhterev nomidagi Psixonevrologiya institutida moslashtirilgan «Shaxsiy differentsial» test metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan o’qituvchining kreativ kompetentsiyasini diagnostika qilish uchun anketadan foydalandik.

Ushbu usul sub’ektlarning o’z kompetentsiyalari, shu jumladan ijodkorlik, ta’lim muhitining o’zgaruvchan sharoitlariga moslashuvchan munosabatda bo’lish qobiliyati to’g’risida o’z-o’zini baholash mulohazasiga asoslanadi.

Anketada pedagogik faoliyatning turli tomonlarini, shuningdek, o’qituvchining o’zi pozitsiyalarini tavsiflovchi 25 ta qutbli bayonot mavjud.

So‘rov bilan bir qatorda o‘qituvchilarga “Polisemantik so‘zlar” og‘zaki ijodiy testi taklif etildi. O’qituvchilarga ketmaket 6 ta so’z taklif qilindi. Ularning har biri uchun iloji boricha ko’proq uyushmalarni tanlash kerak edi. Faqat variantlar soni emas, balki o’ziga xoslik, ya’ni nostandart, g’ayrioddiy, assotsiatsiyalarning kengligi ham baholandi. Uyushmalar faqat otlar (umumiy yoki to’g’ri) bilan ifodalanishi kerak, har bir so’z bilan ishlash vaqti 1 daqiqa bilan cheklangan.



1 – rasm. Pedagoglar javoblarini taqsimlanishi.

Test so’zlari: 1. Hujayra. 2. Kalit. 3. Til. 4. Kasr. 5. Bob. 6. Model.

«Polisemantik so’zlar» testi kreativ fikrlashning quyidagi ko’rsatkichlarini diagnostika qilish imkonini beradi: ravonlik, o’ziga xoslik, assotsiativ va semantik moslashuvchanlik.

Ushbu metodikani sinovdan o’tkazishda Guliston shahridagi 1-sonli xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatining 16 nafar boshlang’ich sinf o’qituvchilari ishtirok etdilar.

O’qituvchilarni so‘rovnomadan o‘tkazish natijalarini tahlil qilib, yuqori kasbiy o’zini o’zi qadrlash va ushbu xodimning pedagogik faoliyati tajribasiga ma’lum bir bog’liqlikni aniqlash mumkin.

O’z tajribasini o’tkazish bilan bog’liq bir qator savollarga javob berar ekan, o’qituvchilarning 37 foizi imkon qadar kasbiy mahorat musobaqalarida qatnashishlarini aytishadi (Respondentlarning kasbiy tajribasi 31 yildan 8 yilgacha o’zgarib turadi, bu o’qituvchilarning barchasi eng yuqori toifaga ega va bunday tanlovlarda aniq ishtirok etadilar). 43 foiz o’qituvchilar shubhalanadilar, lekin kasbiy mahorat tanlovlarida qatnashishdan bosh tortmaydilar. Xodimlarning ish staji 17 yildan 9 yilgacha o’zgarib turadi va ularning barchasi 1 toifaga ega. Qolgan 20% esa tanlovlarda ishtirok etishdan bosh tortadi, ular toifaga ega emaslar va shu bilan birga o’qituvchilik tajribasi 1 yildan 5 yilgacha (1-rasm).

Kreativ kasbiy faoliyat bilan bog’liq savollar blokiga javob berganda, o’qituvchilarning 74 foizi zamonaviy pedagogik va nostandart o’qitish usullaridan qayta-qayta foydalanishlari, o’z darslarini ishlab chiqishlari haqida xabar berishdi.



2 – rasm. Pedagoglar javoblarining taqsimlanishi.



3 – rasm. Pedagoglar javoblarining taqsimlanishi.

O‘qituvchilarning 26 foizi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi bilishini, biroq pedagogik jarayonga innovatsiyalarni kamdan-kam joriy qilishlarini ta’kidladilar (2-rasm).

O‘qitilayotgan fan bo‘yicha kompetensiya darajasi haqida so‘ralganda, o‘qituvchilarning 68 foizi yuqori bilimga; 20% - o’rtachadan yuqori; 12% - yetarli darajada bilimga ega ekanligini ta’kidladi (3-rasmga qarang).

Savollar bloklarini tahlil qilib, natijalarni kreativ kompetentsiyani diagnostika qilish uchun anketa kaliti bilan taqqosladik va kreativ kompetentsiya darajasini aniqladik: 12% (2 o’qituvchi) o’qituvchilarning kreativ qobiliyatlari yuqori. Bu o‘qituvchilar 31 va 25 yillik o‘qituvchilik stajiga va eng yuqori malaka toifasiga ega. Ular pedagogik mahorat tanlovlarida faol ishtirok etadilar, uslubiy birlashmalarda so‘zga chiqadilar. Ular tashabbus ko’rsatishadi va o’zlarini ifoda etish imkoniyatini qo’ldan boy berishmaydi. Ishda ular zamonaviy o’qitish texnologiyalaridan foydalanadilar, nostandart darslar yaratadilar.

O’qituvchilarning 32% (5 o’qituvchi) kreativ kompetentsiyaning o’rtacha darajasiga ega. Bu o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishadi, lekin ko‘pincha ularni amaliyotda qo‘llamaydilar.

O’qituvchilarning yarmidan ko’pi 56% (9 o’qituvchi) kreativ qobiliyatlari past, ular pedagogik texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun ma’muriyatni rag’batlantirish juda muhimdir (4-rasm).

Olingan ma’lumotlarga asoslanib, kreativ kompetentsiya malaka toifasiga emasiga ham, pedagogik faoliyat tajribasiga ham emas balki o’qituvchining shaxsiyatiga bog’liq degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, kreativ



kompetensiya o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyati, shablonga muvofiq emas, balki pedagogik faoliyatni amalga oshirish istaklarida nomoyon bo‘ladi.

Keyin so’rov natijalari kontent-tahlil usuli yordamida tahlil qilindi. Ochiq savollarga javoblar matnida ta’kidlangan pedagogik jarayonda ijodiy qobiliyatlardan foydalanishga oid har qanday havolalar tahlil birligi sifatida tanlangan.

Tahlil toifalari sifatida o’qituvchilar tomonidan aytib o’tilgan ijodiy qobiliyatlarni qo’llash sohalari ajralib turadi, ularning har biri bir qator belgilar va ko’rsatkichlarda namoyon bo’ladi.

1. “O‘quv-tarbiya jarayoni texnologiyasini takomillashtirish” (TK) toifasi ish uslublari va usullari xilma-xilligini oshirish yo‘li sifatida qiziqarli va samarali darslar uchun ijodkorlikdan foydalanishni ko‘rsatadigan shunday javoblarni o‘z ichiga oladi.

2. «O’quv jarayoni sub’ektlari bilan o’zaro munosabatlar» (OT) toifasi muammoli va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish jarayonida ijodiy qobiliyatlardan foydalanishni, o’quv jarayoni sub’ektlari (o’quvchilar, talabalar va ularning ota-onalari, hamkasblar, ma’muriyat) bilan ishlashda individual yondashuvni izlashni o’z ichiga oladi.

3. «Fasilitatsiya» toifasi (F) o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o’quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy fikrlashlarini shakllantirish, qulay va hissiy jihatdan farovon muhit yaratish uchun o’z ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishni ko’rsatadi.

4. “Ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan ichki ehtiyoj” (IP) toifasi o‘qituvchilarning o‘zini ijodkor, yangi narsaning yaratuvchisi sifatida his qilish, o‘z ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish istagini aks ettiradi.

5. «Sinfdan tashqari mashg'ulotlar» toifasi (ST) sinfdan tashqari mashg'ulotlar, bayramlar, kontsertlar, ofis yoki sinfni bezashda ijodiy qobiliyatlardan foydalanish bilan bog'liq javoblarni o'z ichiga oladi.

Olingan ma'lumotlarning miqdoriy tahlili har bir tanlangan toifa uchun eslatmalar sonini (1-jadvalga qarang) hisoblash imkonini berdi.

1 – jadval.

Pedagoglarning kasbiy faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni qo`llash sohalari haqidagi tasavvurlari

Kategoriya	Pedagoglar javoblari	Eslatmalar chastotasi	
		Eslatmalar soni	Eslatmalar foizi
O'quv-tarbiya jarayoni texnologiyasini takomillashtirish	1,14, 8, 5.	4	25
O'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlar	2,7,9,10,12	5	31, 25
Fasilitatsiya	13	1	6, 25
Ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga bo'lgan ichki ehtiyoj	3,15,16	3	18, 75
Sinfdan tashqari mashg'ulotlar	4,6,11	3	18, 75

Eslatma. *«Pedagoglar javoblari» ustunida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ism-shariflari shifrlangan.*

Agar ma'lumotlarni baholab, tahlil qiladigan bo'lsak, o'qituvchilarning uchdan bir qismi (31,25%) - eng katta guruh o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantirish uchun asosan o'zlarining ijodiy qobiliyatlaridan foydalanadilar. Talabalar uchun o'qituvchi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlari ularni o'z ijodiy salohiyatini ochishga undaydigan namunadir. Pedagogik ijodning ma'nosi, shuning uchun o'quvchilarning o'zini o'zi anglash va o'zini namoyon qilish istagini o'tkazishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchi «yoqilishi kerak bo'lgan mash'al» vazifasini bajaradi (V. A. Suxomlinskiy).

O'qituvchilarning to'rtdan birida (25%) ijodiy qobiliyatlarni ochish va qo'llashning ikkinchi muhim jihati - o'qituvchining o'zi ijodiy resurslari hisobiga ta'lim jarayoni sifatini oshirish.

18,75% o'qituvchilar uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlar ijodiy salohiyatni ochish uchun juda muhim sohadir. O'qituvchilarning maktabdan tashqari mashg'ulotlarga yuqori jalb etilishi fakti qayd etilgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining xuddi shunday soni (18,75%) o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'zini ijodkor, yangi narsaning yaratuvchisi sifatida his qilish muhimligini qayd etib, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun ichki ehtiyoj toifasini birinchi o'ringa qo'yishgan.

O'qituvchilarning atigi 6,25 foizi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy fikrlashlarini shakllantirish, qulay va hissiy farovon muhit yaratish uchun o'zlarining ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishni muhim deb hisoblaydilar.

«Polisemantik so'zlar» testini tahlil qilish uchun biz natijalar jadvalini tuzdik.

2 – jadval.

«Polisemantik so'zlar» test natijalari

№	Ravonlik	Originallik	Semantik egiluvchanlik	Assotsiativ moslashuvchanlik	Summa
1	7	0,524	3	4	2,42
2	9	0,689	5	4	3,12
3	6	0,501	2	4	2,08
4	6	0,501	1	5	2,08
5	12	0,95	6	6	4,16
6	11	0,931	5	6	3,82
7	8	0,567	4	4	2,54
8	9	0,689	5	4	3,12
9	7	0,524	3	4	2,42
10	13	0,98	7	6	4,51
11	8	0,567	4	4	2,54
12	6	0,501	1	5	2,08
13	9	0,689	5	4	3,12
14	9	0,689	5	4	3,12
15	6	0,501	2	4	2,08
16	9	0,689	5	4	3,12

«Polisemantik so'zlar» testi natijalarini va masshtab ko'rsatkichlarini taqqoslash:

0-1 - me'yordan past

2-4 - norma

4,5-6 - me'yordan yuqori

> 7 - yuqori daraja, biz o'qituvchilarning atigi 6,25 foizi me'yordan yuqori ijodkorlik darajasiga ega degan xulosaga keldik.

Olingan natijalarni tahlil qilib shuni ta'kidlash kerakki, ijodkorlikning normal ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'qituvchilar yuqori darajadagi semantik moslashuvchanlikka ega. L.M.Mitina pedagogik moslashuvchanlikni o'qituvchi shaxsining ajralmas xususiyati deb hisoblaydi, bu unga o'zgaruvchan muhitda keng ko'lamli kasbiy va hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotimizda olingan semantik moslashuvchanlik ko'rsatkichi intellektual moslashuvchanlikning ko'rinishidir.

Analogiyalarni birlashtirish va shakllantirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladigan fikrlashning moslashuvchanligi faqat keng va ayni paytda batafsil bilimga ega bo'lganlarda shakllanadi. Moslashuvchanlik tushunchalarning bir sinfidan ikkinchisiga o'tish, fikrlashni bir fikrdan ikkinchisiga qayta qurish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Moslashuvchan aql shablonga toqat qilmaydi.

Shunday qilib, tadqiqotda olingan natijalar yuqori darajadagi kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lgan o'qituvchining intellektual moslashuvchanligi yuqori ekanligini, o'zgaruvchan voqelik sharoitida va muammolarning o'ziga xos xususiyatlarida yangi yechimlarni ijodiy izlashga qodir ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Акмеологический словарь / под ред. А. А. Деркача. – М.: Изд-во РАГС, 2010. – 161 с.

2. Байденко В. И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. – 2004. – № 11.– С. 3–14.

3. Барышева Т. А. Психологическая структура креативности/

4. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей: учеб. пособие для студ. высш. учеб. завед. – М.: Изд. центр «Академия», – 2002. – 320 с.

5. Большая советская энциклопедия. Т. 1–30. – 3-е изд. – Т. 23. М.: Большая советская энциклопе дия, 1976. – С. 463.

6. Брякова И. Е. Критерии, показатели и стадии формирования креативной компетентности студен тов-филологов педагогического вуза // Известия Южного федерального университета. Педагоги ческие науки. – 2009. – № 1. – С. 163–173.

7. Гильбух Ю. З., Гарнец О. Н., Коробко С. Л. Феномен умственной одаренности // Вопросы психоло гии. 1990. – № 4. – С. 147–154.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada «Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativ kompetensiyasi» tushunchasining nazariy jihatlar ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida so'rovnoma o'tkazish orqali kreativ kompetenligi xususiyatlari aniqlangan. Kontent taxlil asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetensiyani amalga oshirishda yondashuvlari o'rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются теоретические аспекты понятия «творческая компетентность учителя начальных классов». Характеристики творческой компетентности определялись путем проведения анкетирования учителей начальных классов. На основе контент-анализа изучены подходы учителей начальных классов к реализации творческой компетенции.

SUMMARY

This article examines the theoretical aspects of the concept of «creative competence of primary school teacher». Characteristics of creative competence were determined by conducting a survey among primary school teachers. On the basis of content analysis, the approaches of elementary school teachers to the implementation of creativity competence were studied.

MAKTABGACHA YOSHDAGI (3-4 YOSH) BOLALARNI TARBIYALASHDA OTA-ONALAR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINING AHAMIYATI

Gaynazarova G. A.
Nizomiy nomli TDPU dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Tayanch so‘zlar: tarbiya, ota-ona, oqibat, pedagogik-psixologik bilimlar, bola shakllanishi.
Ключевые слова: воспитание, родитель, следствие, педагогико-психологические знания, формирование ребенка.
Key words: upbringing, parent, consequence, pedagogical and psychological knowledge, child formation.

“Bas, nihol ekdingmi, bergil suvni”
Jaloliddin Rumiy

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash davlatimizning siyosatini ustuvor yo‘nalishu hisoblanadi. Oila esa tarbiyaning poydevori va o‘ziga xos jarayon bo‘lib, u farzand tug‘ulmasdan ancha oldin boshlanadi. Milliy g‘urur ona suti, ota na’munasi, avlod-ajdodlarning irsiy fazilatlari, axloq-odobi mezonlari orqali farzand ongiga singdiriladi.

Bolaning shaxs sifatida kamol topishi, rivojlanishi u dunyoga kelgan kundan boshlab sodir bo‘ladi. Chaqaloq har kuni atrofdagi olamni o‘rganadi, boshqalar bilan munosabatlar o‘rnatadi, uning ma’nosi va o‘rnini anglaydi, shunga mutanosib ravishda u juda tabiiy istak va ehtiyojlarga ega bo‘la boshlaydi.

Albatta ushbu jarayon muammosiz kechmaydi va ma’lum vaqt oralig‘ida ro‘y beradi. Faqatgina ota-onalargina emas, balki barcha tavarbiyachi va pedagoglarning ham (3-4 yosh) bola tarbiyasi nima ekanligini bilib olishi maqsadga muvofiqdir.

3-4 yoshli bola endi ancha mustaqil. U o‘z his-tuyg‘ulari va istaklarini kattalarning buyrug‘isiz ham bajara oladi. Ammo ko‘p hollarda mazkur istak va tuyg‘ular kattalarning qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi. Misol uchun bir necha soniyalar avval istaigan ichimligini ichishni xoxlamaslik, magazindan sotib olinmagan o‘yinchoq va boshqalar. Afsuski bularning barchasi ota-onalar uchun

ahamiyatsiz bo‘lib tuyuladi. Natijada bolalarda injiqlik va qaysarlik odatlari paydo bo‘la boshlaydi.

3-4 yoshli bolalarni tarbiyalash ota-onalardan mislsiz sabr-toqatni talab qiladi. Chunki olamning turli-tuman ekanligin anglab olish bola uchun oson bo‘lmaydi. Endi u asta-sekin o‘zining ham ushbu olamning bir bo‘lagi ekanligini anglagan holda turli vaziyatlarda qanday harakatlar qilishi zarurligini ham tushunib boradilar.

Bu davrda bolada 3 yosh inqirozi sodir bo‘ladi. Albatta bu jarayonni rivojlanishning yosh hususiyatlari bilan bog‘liq ekanligini hamma ota-onalar ham bilmaydilar. Natijada tarbiya jarayonida ota-onalarda turli muammolar kelib chiqadi. Ho‘sh ushbu vaziyatda ota-onalar qanday yo‘l tutmoqlari darkor?

Sababsiz oqibat bo‘lmaydi. Bugungi kunda kattalar turli ijtimoiy hamda moliyaviy muammolar bilan o‘ralashib qolayotganligi sababli o‘z farzandlarining tarbiyasiga har doim ham yetarli e’tibor bermayapdilar. Bola muloqotn qanday qilib yo‘lga qo‘yishni hali bilmaydi. O‘zini sezdirish uchun bola ota-onaning e’tiborini o‘ziga qaratishga urinadi. Bunda u turli usullarni qo‘llaydi. Masalan, qichqiradi, g‘azablanadi va ota-onaning jahlini chiqara boshlaydi.

Bunday vaziyatda ota—onalarning psixologlarga murojaat qilishlari muammmolarni hal qilishga yordam beradi.

Aksariyat hollarda ota-onalar farzandi istamagan faoliyatlarga majburlash, jumladan bola uxlashni xoxlamaganda uxlashga, yegisi kelmagan taomni yeyishga majburlash, bola yoqtirgan o‘yinchoqlarini o‘ynashga izn bermasdan o‘zlari sezmagan holda bolada salbiy his-tuyg‘ularni uyg‘otib qo‘yadilar. 3-4 yoshli bolalarni axloqiy tarbiyalashda ota-onalar ibrat, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan samarali ta’sir ko‘rsatishlari mumkin bo‘ladi.

Bola tarbiyasida sabr – muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Bu davrda ota-onalar farzand bilan imkon darajada yumshoq munosabat o‘rnatishlari zarur. Ota -onalar 3-4 yoshli bolalarga berilgan tarbiya kelajakda bolaning boshqalar bilan munosabat o‘rnatishlari uchun asos bo‘lishini yaxshi anglashlari darkor.

Bolada taqlidchanlik yuqori. Mutaxassilarning e’tirof etishlaricha bola 11-12 yoshgacha ota-ona ko‘zi bilan “ko‘radi”, ota-ona qulog‘i bilan “eshitadi”. Bolada hali yaxshi yoki yomon haqidagi tushunchalar shakllantirmagan. (67%) Ota-ona yoki bolani atrofidagilarning o‘zaro samimiy munosabatlari bolada ham ana shunday munosabatlarninn shakllanishiga olib keladi.

Tabiiyki bola juda ziyrak va sezgir. Ota-onalarning tarbiya jarayonida bolalarga o‘z mehr-muhabbatlarini ko‘rsata bilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda tarbiyaning “rag‘bat”, “ibrat” va “jazo”usullaridan o‘z o‘rnida, me’yorida foydlana bilishlari muhim. Yuqorida ta’kidlangandek, bolaning injiqliklari, to‘polonlari ota-onalarning farzandlariga

munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi zarur. Chunki bolaning o'zini emas, balki uning hatti-harakatlari baxolanishi kerak.

Ota-onalar farzandini xech qachon boshqa farzandlari bilan yoki sinfdoshlari bilan solishtirmasliklari kerak. Bu narsa boolani o'z-o'zini cheklash yeki izolyatsiyalashga olib keladi. O'ziga bo'lgan ishonchini so'ndiradi va kelajakda shu bola o'zini namoyon qila olmaydi.

Bu davrda bola mustaqillikka ko'proq intiladi. "Men" iborasini tez-tez qo'llay boshlaydi. Ota-onalar bu jarayonda farzandini ko'proq qo'llab-quvvatlashlari esa keyinchalik bolada jamiyatda ijtimoiylashuvi hamda o'z o'rnini topishini yengillashtiradi

Farzand tarbiyasida kun tartibiga qat'iy rioya qilish zarur. Chunki qat'iy kun tartibi bolaning fe'l-atvorini shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bunda oilaning barcha a'zolari o'zaro kelishib olishlari esa bolaning kelgusida o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilishlari muhim ekanligini anglashlariga olib keladi.

Ota-onalar farzandlari bilan muloqot qilar ekanlar eng avvalo ularning shaxs ekanligini unutmasliklari kerak. Bolaga muomala qilishda o'zlarini xuddi kattalar bilan gaplashgandek tutishlari, ularning huquqlarini paymol qilmasliklari kelgusida bu bolaning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Mabodo bola ayb ish qilganda ham unig o'zini emas, harakatlarini tanqid qilish kerak.

Eng muhimi esa ota-onalar o'z farzandlarini tez-tez quchoqlab turishlari darkor. Shunda bola avvalo o'zini hurmat qilishni, qolaversa, boshqalarni hurmat qilishni o'rganadi. O'zini xavfsiz sezib ulg'ayadi, o'ziga ishonchi ortadi.

Bolalar kichik tadqiqotchilardir. 3-4 yoshli bola hamma narsaga qiziqish bilan qaraydi. Bu tabiiy xolat hisoblanadi. Kattalarning bolani qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashlari, uning kelajakda muayyan bir kasbni mukammal egallashlarini ta'minlaydi. Aksincha, bolada bunday qiziquvchanlikning bo'lmasligidan ehtiyot bo'lish kerak.

Ota-onalar bolaga taqiq qo'yishda ehtiyot bo'lishlari lozim. Taqiqning ham me'yorda bo'lishi maqsadga muvofiq. Biror bir hatti-harakatni nima uchun qilmaslik kerakligini bola tushunib yetgandagina bu ijobiy natija ko'rsatadi.

Ba'zan kattalar kichkintoylar bergan savollariga javob topa olmay qolishadi. Ana shunday vaziyatlarda ota-onalar o'z noqulay holatlarini bolaga bildirmaslikga harakat qilishlari zarur. Bolaning "nima uchun?" kabi savollariga javob berishga vaqt ajratishlari, ularga g'amxo'rlik qilishlari, ularni "eshita" olishlari kelajakda bolaning ham ota—onani yaxshi tinglashiga olib keladi. Bolaning turli savollariga aniq, to'g'ri va o'z vaqtida javob berish uchun esa ota-onalar ham o'z ustilarida ishlashlari, bilimlarini muttasil to'ldirib borishlari muhim.

Mabodo biz ilgari bilmagan va notanish bol‘gan biron bir murakkab zamonaviy jihoz sotib olgudek bo‘lsak, albatta, uni foydalanish yo‘riqnomasi bilan tanishib chiqib, keyin undan foydalanishga harakat qilamiz. Odatda ishlab chiqaruvchilar mijozlarni jihoz to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasdan turib uni ishlatishdan ogohlantiradilar. Aks holda biz bunday buyumlarni ishlatish mobaynida jiddiy xatoga yo‘l qo‘yamizr va oqibatda katta mablag‘ evaziga qo‘lga kiritilgan bu jihozlarning ishdan chiqishiga sababchi bo‘lamiz.

Farzand esa har qanday jihozga qarqaganda ancha murakkabdir. Bolaga to‘g‘ri tarbiya berish ota-onadan puxta bilim, yetarli tajriba va mahorat talab qiladi. Ammo hamma ham buni tan olgisi kelmaydi. Shu sababli ko‘p farzand ko‘rishga harakat qiladilaru, biroq farzand tarbiyasi to‘g‘risida har doim ham bosh qotirmaydilar, tarbiyaga oid kitob o‘qish, biron bir ma’ruza tinglash yoki mutaxassisdan maslahat so‘rash xayollariga ham kelmaydi. Shuni unutmaslik keraki, vaqtlar kelib jamiyatda bu xatoliklarning “natijalari” ko‘rinadi.

Mutaxassislar farzand tarbiyasi borasida quyidagi tavsiyalarni beradilar:

1. Tarbiya ishi juda qiziqarli va shu bilan birga o‘ta mashaqqatli ishdir

2. Tarbiya madaniyati» mavjud bo‘lib, bu o‘z ichiga bolani tarbiyalash, uning salohiyatini oshirish, tarbiya jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni bartaraf qilishda talab qilinadigan ma’lumot, tajribalarni oladi. Ota-onalar farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishlari, mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishlari zarur.

3. Oila-jamiyatning negizi hamda tarbiyaning eng muhim o‘chog‘i hisoblanadi. Oiladagi tarqoqlik, milliy an’analrning shakllanmaganligi, tarbiyaga e’tiborsizlik, o‘zaro munosabatlardagi nuqsonlar oiladagi tarbiyaning ahamiyatini kamaytirib boradi.

4. Jamiyatda yaqqol namoyon bo‘layotgan “shaharlashish” jaryoni oilaviy munosabatlarga jiddiy havf soladi. Chunki tor jamiyatlarda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro mehr-oqibat va hamkorlik darajasi ancha yuqori bo‘lib, ularning bir-birlari bilan aloqalari kuchlidir. Shu sababli bir-birlarining g‘am-tashvishlarini his qilish nisbati ham ancha yuqoridi bo‘ladi. Natijada bunday jamiyat a’zolari orasida qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va o‘rtoqlari farzandlarining xatti-harakatlaridan qandaydir ma’naviy javobgarlik hissini paydo qiladi.

5. Ta’kidlanganidek, tarbiya mas’uiiyatli va murakkab jarayon ekan, oilada tarbiya madaniyatini hosil qilish faqat ota-onaninggina vazifasi bo‘lmay, barcha oila a’zolarining birgalikdagi ishi bo‘lishi zarur.

6. Tarbiya madaniyatini hosil qilish faqat ota-onaninggina vazifasi bo‘lmay, balki bu butun oila a’zolarining burchidir. Ana shunday hamkorlik yaratilgandagina oilaviy tarbiyaning natijasi yuqori bo‘ladi.

7. Garchi bir oilada tug‘ilgan bo‘lsalar ham har bir bola o‘z xarakteriga ega bo‘ladi. Ota – onalar farzandlari bilan munosabat o‘rnatganda ana shu jihatni

unutmasliklari kerak. Demak, ota-onalarning tarbiya borasida pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

8. Va albatta biz bugun farzandlarimizga berayotgan tarbiya ota-onalarimizning bizga berganlarining natijasidir. Bizning mehnatlarimiz samarasi esa farzandlarimizning hayot tarzlarida namoyon bo‘ladi.

9. Tarbiya yetti kun, yigirma to‘rt soat amalga oshirilishi zarur bo‘lgan uzluksiz va murakkab jarayondir. Bunda hato qilish also mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash murakkab va mas’uliyatli ish hisoblanib, bu ota-onalar va tarbiyachilardan katta kuch, sabr-toqat, g‘ayrat va ijodkorlik talab qiladi. Shu o‘rinda buyuk pedagog A.S.Makarenkoning “Bolangizni u bilan gaplashayotgan, biror narsa o‘rgatayotgan yoxud unga biror ish buyurayotganingizdagina tarbiyalayapman, deya o‘ylamang. Siz uni hayotingizning har bir soniyasida tarbiyalab borasiz. So‘zingiz ohangidagi zig‘irdek o‘zgarishni ham bola sezib yoki his etib turadi, fikringizdagi ozgina burilish ham ko‘rinmas yo‘llar bilan bolangizga yetib turadiki, buni o‘zingiz sezmay qolasiz” degan hikmati mulohazalarimizga yakun yasaydi.
Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish doimiy ravishda badiiy asarlarni o‘qib borish, kino, teatr, musiqa, hunarmandchilik va tasviriy san’at namunalari bilan tanishish, asarlardan bahramand bo‘lish, ularga nisbatan shaxsiy baho berish hamda ko‘proq tabiat qo‘ynida bo‘lish asosida rivojlanib boradi. Ijodkorlik (kreativlik) ijodiy qobiliyatga ega shaxs faoliyatining muhim jihati bo‘lib, u avval mavjud bo‘lmagan sifatiga ko‘ra yangi sanaluvchi narsalarni yaratishni ifodalaydi. Ijodiy qobiliyat namoyon bo‘lishi va natijasiga ko‘ra betakror, o‘ziga xoslik, shu bilan birga ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega faoliyat mazmunini aks ettiradi. Shaxsda ijodkorlik (kreativlik) sifatlari muayyan shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan sharoitlardagina rivojlanadi. Masalan, tanqid erkinligi, ijodiy munozara, fikrlar almashinuvi va ular o‘rtasidagi o‘zaro kurash,

ijodiy qobiliyat, iqtidorni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik-psixologik va falsafiy yo‘nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar shaxs tomonidan tashkil etiluvchi ijodiy faoliyat bir necha bosqichda kechishini asoslab bergan. Jumladan, 1924 yilda angliyalik olim G.Uolles mazkur jarayonning quyidagi to‘rt bosqichdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tgan:

1) tayyorgarlik;
2) g‘oyalarning tug‘ilishi;
3) ularning to‘la aks etishi;
4) tekshirib ko‘rish (nazorat).

Dars jarayonida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish matematika darsining yetakchi vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda matematika faniga doir turli xildagi qiziqarli topshiriqlar, boshqotirmalar va krossvordlar muhim vosita bo‘la oladi. Darsda o‘quv materiallaridan tashqari turli axborot manbalari hisobiga bilimni o‘stirib borish, ayniqsa yangi axborotlar orqali hozirgi zamon ta’lim islohotlarini to‘g‘ri tushunishga oid ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bugungi kun pedagoglarning oldida turgan dolzarb masaiaiaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, har bir dars o‘z mazmuniga ko‘ra o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishni ko‘paytirishga va ularning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda to‘idirish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan darajada bo‘lishi kerak. Zero, mustaqil ishlash orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayib o‘zlashtirilgan bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmasi rivojlanishi amalda o‘z isbotini topib borayotgan sir emas. Shu o‘rinda, matematika darslarini o‘tish jarayonida kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslarini quyidagicha izohlash mumkin:

– o‘tilgan mavzular asosida mustaqil savollar tuzdirish;
– mashg‘ulot vaqtida, o‘qituvchi tomonidan tuzib kelingan savollarni o‘quvchilarga tarqatib, uning javobini toptirish;
– mavzu asosida ko‘rgazrnali qurollar tayyorlash;
– ma’lum bir mavzu yuzasidan krossvordlar tuzdirish;
– rangli rasmli plakatlar, diagrammalar ustida mustaqil ishlash;
– o‘tilgan biror bir bo‘lim yuzasidan misol va masalalarni mustaqil yechish.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy va kreativ fikrlashni shakllanishi o’quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlari, qo’yilgan muammoni hal etish yo’llarini topishlari, turli vaziyatlarda shaxsiy munosabatlarini bidirishlarini kafolatlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, g‘oyalarning tug‘ilishi va ularning aks etishi ijodiy jarayonning ongli-irodaviy boshqaruvga egaligini anglatmaydi. Aksincha, ijodiy faoliyat ko‘p holatlarda beixtiyoriy, tasodifan

amalga oshiriladi. Ana shu jihatiga ko‘ra ko‘pchilik tadqiqotchilar bu jarayonning yetarlicha samarani ta’minlay olishiga shubha bildiradilar. Biroq, keyingi 30-20 yil ichida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar beixtiyorlik, tasodifiylik ixtiyoriy va ongli faoliyatni to‘ldirib turishi isbotlandi.

Адабиётлар:

1. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz-2017[1]

2.Hennessey, B. and T. Amabile (2010), “Creativity”, Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598.[2]

3. OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.[3]

4. PISA 2022 O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKLASHLARINI BAHOLASH BO‘YICHA QO‘LLANMA 2019-yil, 3-5 aprel Adelaida, Avstralia

5. Ken Robinson (2009 yil 29-dekabr)

The Element: How Finding Your Passion Changes Everything Paperback – December 29, 2009

6. Derekleeva N.I. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo’yicha master-klass. M .: «Akademiya» -2007

7. SHaripov SH. O`quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta`minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada “Matematika darslarida kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari” mavzusi yoritilib, bu boradagi imkoniyatlarni tashkil qilish haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. Boshlang`ich sinf matematika darslarida kreativlik imkoniyatlaridan foydalanishning mahsuldorligi va natijaviyligi ko`rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается тема «Возможности творчества на уроках математики и их структурная основа» и дается краткая информация об организации возможностей в связи с этим. Показаны продуктивность и эффективность использования возможностей творчества на уроках начальной математики.

SUMMARY

This article covers the topic «Creativity opportunities in mathematics classes and their structural basis» and provides brief information about the organization of opportunities in this regard. Productivity and effectiveness of using creativity opportunities in elementary mathematics classes are shown.

GEYMIFIKATSIYA TUSHUNCHASI, TARIXI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

Xaitova N. F.
PhD JDPU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: o'yin texnologiyalari, geymifikatsiya, tarix, o'yinlar yaratish, o'yin.
Ключевые слова: игровые технологии, геймификация, история, создание игр, игра.
Key words: game technologies, gamification, history, game creation, game.

Tez rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda davr talablariga javob bera olish muhim. Kompetentli yondashuvga o'tish talab qilinayotgan bir paytda o'quvchida DTSda belgilab berilgan tayanch bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim tizimi oldiga zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish vazifasini qo'ydi. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri bu dunyoning yetakchi xalqaro ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladigan ta'limni geymifikatsiya qilishdir. Ushbu yondashuvni o'zbek ta'limi sharoitida o'rganish, rivojlantirish va qo'llash dolzarb ahamiyatga ega. Taniqli tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida geymifikatsiyadan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va natijada ularning bilim ko'rsatkichlarini oshiradi.

Ushbu yondashuvning maqsadi - maktabning birinchi sinf o'quvchilariga dars berish sifatini oshirish uchun ta'lim jarayonida geymifikatsiyadan vosita sifatida foydalangan holda bilimlarni o'zlashtirishdir.

Asosan va qisman o'yin, darsni geymifikatsiya qilish tushunchalari D.G.Mid, N.D.Ushinskiy, L.S. Vygotskiy, H. Xoagland, J. Kollarits, C. Gross, G. Spenser, F. Boytendik, E.L. Pokrovskiy, F. Shiller, F. Frebel, K. Buler, M. Lazors, G.P. Shchedrovitskiylarning asarlarida ko'rib chiqilgan. «O'yin» tushunchasiga zamonaviy yondashuvlar E. Bern, I. Xuizing, A. Leontiev, D. Elkonin, I. Kon, S. Shmakov, P. Ershov asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, o'yinlarni yaratish va rivojlantirishga oid tahlil hamda yondashuvlar T. Fullerton, Jessi Shell, Jeyn Makgonigal, Brendvayt, Raf Koster, Stiv Pig, Keti Salen, Erik Zimmerman, Skott Rojers, Ernes Adams, Kris Beytmen, Richard Boom, Devid Freeman, Kris Krouford, Richard Bartl, Devid Perri, Devid Parlett, Donald Norman. T.E. Paxomova, I. Kuryleva, L.P. Varenina, Erik Klopfer, Eli Karr-Chellman, Donald Klark, Maykl Barber, Li Sheldon, Kevin Verbax, Joel Li va Jessica Hammerlarning ilmiy tadqiqotlarida aks ettirilgan.

Ammo butun dunyo miqyosida to'plangan tajribaga qaramay, ushbu sohada zamonaviy ta'lim realliklari, xususan, boshlang'ich ta'limni geymifikatsiya qilish metodikasini yaratish shartlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarurati o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib ketdi. Va bu bizning tadqiqotimiz mavzusini belgilashga asos bo'ldi.

Geymifikatsiya atamasi so'nggi paytlarda hayotning ko'plab sohalarida juda mashhur. Ammo uning paydo bo'lishi mahsulot sotilishini oshirish istagi bilan bog'liq bo'lib, ancha yillar avval vujudda kelgan. Taxminan bir asr oldin Cracker Jack ismli tadbirkor har bir sotilishi kerak bo'lgan mahsulot qutisiga kutilmagan o'yinchoqlar solib qo'yishni boshladi. Shundan so'ng, ko'plab kompaniyalar savdo hajmini oshirish uchun o'yinlar, o'yinchoqlar va boshqa ko'ngilochar usullardan foydalanishni boshladilar. Ammo bu hodisa bugungi kunda «geymifikatsiya» atamasi sifatida tushunilganidan tushunchadan biroz farq qiladi. Biz ta'limda qo'llaydigan «geymifikatsiya» atamasi birinchi marta 1980 yilda taniqli o'yin ishlab chiqaruvchisi va Angliyadagi Essex Universitetining tadqiqotchisi Richard Bartle tomonidan MUD1 nomli loyihani ishlab chiqish paytidada paydo bo'lib, birinchi multiplayer domeni hamda ko'plab odamlar uchun birinchi keng qamrovli, bir necha geymerlarni birlashtirgan o'yin bo'lgan. Ammo uning bir qismigina o'yinga o'xshagan bo'lib, aslida universitet kompyuter tarmog'idagi matnga asoslangan tizim edi. Aynan MUD1 odamlarga umumiy virtual dunyoga kirish imkoniyatini berdi, bu «Second Life» va «World of Warcraft» kabi o'yinlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. R.Bartlning ushbu loyihadagi roli hamkorlik maydonchasini ishlab chiqish va uni o'yin holatiga keltirishdan iborat bo'lgan. Geymifikatsiya tushunchasining bugun biz anglaydigan izohi, rivojlanishning ikki turiga asoslangan:

1) MITning Sloan Business School-da ishlaydigan Tom Malone metodikasi. U birinchi video o'yinlarni ishlab chiqara boshlaganida, asosiy maqsadi video o'yinlarga asoslangan ta'limni o'quvchilar tomonidan sinash, o'rganish bo'lgan. U video o'yinlar orqali bolalar bilimlarni o'rganishlari mumkinligini ko'rsata oldi. Uning izidan bir qator ishlab chiquvchilar shunga o'xshash va undan ham chuqurroq tadqiqotlar o'tkaza boshladilar. Ulardan biri Arizona shtat universiteti xodimi Jeyms Pol. U hatto ommaviy bozor, tijorat va ko'ngilochar o'yinlarda ham insonning jiddiy tadqiqotlarida o'rganiladigan kuchli, o'rnatilgan o'quv mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan Tomb Raider seriyasi kabi kitoblarni yozgan.

2) Bugungi geymifikatsiya tushunchasini belgilaydigan rivojlanishning ikkinchi turi - «Jiddiy o'yinlar» («Serious Games») harakati. «Serious Games» dasturi 2002 yilda Ben Soyer va Devid Reetskiylar tomonidan yaratilgan va har

xil o'yin simulyatsiyalarini yaratish va ishga tushurish uchun to'liq funktsional o'yinlardan foydalangan xususiy, akademik va harbiy jamoalarni birlashtirgan.

Shuningdek, bugun biz tushunadigan geymifikatsiya atamasi 2003 yilda ingliz ishlab chiqaruvchisi va dizayner Nik Pelling tomonidan iste'mol tovarlari sanoatida geymifikatsiyani rivojlantirish uchun Conundra konsalting firmasini tashkil qilganida ishlatilgan. U apparat qismiga o'yin elementlarini qo'shishni istagan. Ushbu g'oya muvaffaqiyatsiz tugab, kompaniya juda tez yopilganiga qaramay, o'yin mexanizmlari va tushunchalari iste'mol mahsulotlari va boshqa amaliyotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi haqidagi fikrlar saqlanib qoldi. 2005 yilda Bunch Ball kompaniyasi tashkil etildi. 2007 yilda u birinchi geymifikatsiya platformasi bo'lgan mahsulotni ishlab chiqardi. O'sha paytda geymifikatsiya atamasi hali keng qo'llanilmaganligi sababli, kompaniya mahsiloti shunday nomlanmagan, ammo bu biznes maqsadlarida ball to'plash kabi o'yin mexanizmini o'z ichiga olgan birinchi platforma bo'lgan.

Coursera onlayn-ta'lim loyihasida geymifikatsiya bo'yicha ochiq kurs o'tadigan Pensilvaniya universiteti Uorton biznes maktabi professori Kevin Verbaxning so'zlariga ko'ra, geymifikatsiya bu o'yin bo'lmagan kontekst elementlarda o'yin elementlari va o'yin yaratish texnologiyalaridan foydalanishdir [5]. Verbax ushbu ta'rifning uchta tarkibiy qismini ajratadi:

1) O'yin elementlari. O'yin elementlari - bu o'yin hissi hamda zavqini yaratadigan vositalar to'plami, odatda ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: ochko, daraja, nishon, reyting, avatar, mukofot, topshiriq va hokazolar.

2) O'yinlarni yaratish texnologiyalari yoki boshqacha qilib aytganda, o'yin dizayni. O'yin texnologiyasi - bu o'yinning barcha elementlarini tartibga soluvchi, tuzuvchi va o'yin dizaynerining amaliy ko'nikmalarini talab qiladuvchi shakl, usul va vositalardir.

3) O'yin bo'lmagan kontekst. O'yin bo'lmagan kontekst deganda, o'yinning o'zi yoki undan zavq olish uchun o'ynalmaydigan faoliyat tushuniladi. Odatda bularni maqsadlari o'yindan tashqarida bo'lgan tadbirlar tashkil etadi. Masalan, ishga joylashish, kompaniya maqsadlariga erishish yoki o'qitish. Shu bilan birga, siz o'yin doirasidan tashqarida bo'lgan maqsad sari harakat qilishingiz mumkin.

Verbax nima uchun geymifikatsiya zarurligi haqiga bir nechta sabablarni keltiradi:

1) geymifikatsiya endi rivojlanayotgan amaliyotdir. Kompaniyalar, ayniqsa yirik kompaniyalar tomonidan geymifikatsiyadan foydalanishning ko'plab misollari mavjud.

2) o'yinlar jozibadorlik «kuchiga» ega, ular geymerlarni o'ziga jalb qilishi mumkin.

3) geymifikatsiya bizga boshqa bilim sohalaridagi bilimlarni ham o'rgatishga qodir.

Taniqli nemis tadqiqotchisi Sebastian Deringing boshchiligidagi mualliflar guruhi geymifikatsiya nima ekanligini va uning boshqa tushunchalar bilan qanday bog'liqligini tushuntirishda juft, ya'ni binary qiyoslashdan foydalanadilar [4].

Barcha o'yinlar yoki o'yinlarning qismlari o'rtasidagi farqlar mavjud. Boshqa tomondan, yakka, uyushmagan va uyushgan, jamoaviy o'yin o'rtasida ham tafovut bor. Uyushgan o'yin qoidalar, struktura, tizimga ega hamda pirovard natija g'alaba yoki mag'lubiyatga olib boradi. Va o'z-o'zidan o'yinlar o'yin-kulgi, sof improvizatsiya, energiya sarflaydigan va hokazo kabi turlarga bo'linadi. Mualliflar o'zlarining ishlarida o'yinlar turlarini tasvirlash uchun to'rtta to'rtburchakdan foydalanadilar. Bu haqida keyingi maqolalarimizda batafsil to'xtalamiz.

O'z navbatida ta'lim jarayonida butun dunyo bo'ylab maktablar, kollejlar, universitetlar va boshqa o'quv muassasalarida geymifikatsiyadan foydalanish soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu haqida, masalan, muallif Li Sheldon o'zining «Multiplayer classroom» kitobida ta'lim muassasasida juda muvaffaqiyatli bo'lgan va O'quvchini yaxshi o'zlashtirish, darsga qiziqtirishga yordam beradigan kurs yaratish tajribasi haqida gapirib, geymifikatsiyaning geymerlar uchun nihoyatda muhimligini, chunki, inson o'z tabiatiga ko'ra musobaqalashish, zavqli o'yinlarga qiziquvchan mavjudotligi haqida fikrlarni bergan [4]. Li Sheldon o'z kitobida o'quvchilarni baholashni darsni geymifikatsiyalashning asosiy jihati sifatida ko'rsatdi. U asosiy g'oyalari quyidagicha:

- ball tizimining mavjudligi;
- mashg'ulotlar boshida har bir o'quvchi mashg'ulotlarni "nol" (0) ball bilan boshlaydi;
- har bir topshiriq, test yoki boshqa har qanday ish ma'lum bir ball bilan baholanadi.

Li Sheldon tizimi bo'yich o'qigan o'quvchi xato qilishdan qo'rqmaydi va faqat o'rganishga e'tibor beradi. Buning sababi shundaki, qobiliyatidan qat'i nazar o'quvchi o'zining boshqa sinfdoshlari bilan teng huquqli ekanini biladi, qancha xatoga yo'l qo'ysa ham, har bir to'plangan ochko uni muvaffaqiyatga olib borishini tushunadi. Ushbu mashg'ulotning yana bir ijobiy omili - jamoaviy ish, - deydi Sheldon. Ko'pincha, sinf o'quvchilari yakka ishlaydilar, bu jarayon o'quvchi mustaqil ravishda bajarishi kerak bo'lgan uy vazifalarini tayyorlayotganda bo'ladi. Yakka tartibda ishlashning natijalsi har doim ham ijobiy bo'lmay, o'quvchi jarayonga doim ham qiziqavermaydi. Kompyuter o'yinlari, aksincha, jamoaning o'zaro munosabatini shakllantiradi. Sheldonning fikricha, maktab va universitetlarda ta'lim bir xil bo'lishi kerak, shunda o'quvchilar g'ayratli bo'ladi va materialni o'rganish jarayonida faol ishtirok etadi. Agar butun onlayn o'quv

jarayonini geymifikatsiya qilish haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu masalaga turli yondashuvlarni ko'rish mumkin:

– o'yinni boshqarish elementlarini ta'limni boshqarish tizimiga kiritish;
– ta'limni boshqarish tizimi va ta'lim tizimining parallel ravishda geymifikatsiyalash [3].

Tabiiyki, ta'limni geymifikatsiyalash amaliyoti qayerda yoki kim tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi haqida bish istagi tug'iladi. Shu sababli, quyida ta'lim uchun geymifikatsiyadan foydalanadigan taniqli xizmatlar va jamoalar ro'yxatini keltiramiz:

- World of Classcraft (WoC) - bu maktab o'quvchilarining sinf va kompyuter o'yinlari o'rtasida tanlovi dilemmasini hal qilish uchun mo'ljallangan sinf-dars tizimiga asoslangan o'yin. World of Classcraft World of Warcraft kabi an'anaviy MMORPG-o'yinlariga o'xshaydi: o'quvchilar topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganda (masalan, savolga to'g'ri javob berish yoki sinfdoshlariga yordam berish), ular tajriba ballarini olishadi va o'zlarining ballarini yoki maxsus qobiliyat ko'tarishlari mumkin. WoC-da mahluqlar - uy vazifalari, bosslar bilan jangler – savol-javoblar va testlar bo'lib, sinf xonasi - o'rganish uchun motivatsiya hamda sinfdagi «eng yuqori darajadagi jangchi» bo'lish istagini uyg'otadigan o'yin maydonidir [1].
- MinecraftEdu - Minecraft - bu onlayn simulyator bo'lib, unda geymerlar o'zlari xohlagan narsani bloklardan yaratishi va boshqa dunyodagi geymerlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. MinecraftEdu - o'qitishda Minecraft-dan foydalanadigan o'qituvchilar jamoasi. Bugungi kunga kelib ushbu o'yin AQShning 1000 ga yaqin maktablari va Shvetsiyaning maktablari o'quv dasturiga kiritilgan [1];
- Code School - dasturlashni o'rgatish bo'yicha kurslar [7];
– Motion Math Games – matematika bo'yicha mobil o'yinlar [10];
- Zombie-Based Learning [1] - o'quv kursini qurish uchun zombi va o'yin elementlari mavzusidan foydalanish. O'zining o'quvchilariga geografiyadan dars beradigan maktab o'qituvchisi Devid Xanter tomonidan taklif qilingan an'anaviy darslik o'yin elementlari mavjud bo'lgan zombi grafikasi bilan almashtirilgan;
- Mathletics - maktablar uchun o'yinlar va musobaqalar orqali bolalarni matematikaga jalb etishga qaratilgan dastur [8];
- LinguaLeo.ru - ingliz tilini o'rganishning qiziqarli va samarali usuli [9];
- Foldit - Vashington universiteti O'yin Fanlari Markazi tomonidan ishlab chiqilgan jumboqlarni yechishga qaratilgan onlayn o'yin. O'yinning mohiyati proteinlarni taxlashga qaratilgan [2];

- Radix - bu Massachusets Texnologiya Instituti o'qituvchilari bilan yaratilgan ta'limiy o'yin [6].

Xulosa qilib aytganda:

1. Xorijiy adabiyot va materiallarni o'rganish natijasida Kevin Verbax, Sebastian Deringing, Jessi Shell, Erik Klopfer, Donald Klark, Maykl Barber, Li Sheldon o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishni o'rganishga hissa qo'shganlar.

2. Geymifikatsiyani qo'llashda chet el mualliflarining yondashuvlari ancha amaliy bo'lib, ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan, shuningdek, asosiy xorijiy adabiyotlar geymifikatsiyaning paydo bo'lishi bilan hamda uning ta'limga o'tishi kuzatilishi bilan bog'liq. Geymifikatsiyaning qo'llanilishi maktab va maktabgacha ta'lim bilan cheklanib qolmasdan, balki universitet sharoitida ham yuqori samara beradi.

Adabiyotlar:

1. 5 лучших материалов о геймификации образования в 2013 году (2013). Теплица социальных технологий. URL: https://te-st.ru/2014/01/22/best-education-gamification-2013/.

2. The Science Behind Foldit. (2021). URL: http://fold.it/portal/info/science

3. Возможности применения геймификации в онлайн-обучении. (2014). Международная конференция, Москва, 14-15 Октября. Новые вызовы для педагогики и качества образования: массовые открытые онлайн курсы, облачные сервисы, мобильные технологии.– URL: http://conference2014.iite.unesco.org/wp-content/uploads/2014/11/Pavlov-Kochina.pdf.

4. Геймификация в образовании. (2012) Теплица социальных технологий.– URL: https://te-st.ru/2012/12/21/gamification-education/.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola ta'limni geymifikatsiya qilish tarixi, uning hozirgi holati va dunyoning turli mamlakatlarida o'yin elementlarini ta'limga joriy etish amaliyoti haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ta'limni geymifikatsiya qilish masalalari, ushbu jarayonning natijalari va uni ta'lim innovatsiyasi sifatida ishlatish, geymifikatsiyaning ko'p qirrali imkoniyatlari, shu jumladan, ta'lim manbalarini yaratish jarayonida geymifikatsiya elementlaridan qisman yoki to'liq foydalanilgan dasturlar va platformalar haqida ham fikrlar berilgan. Darsda geymifikatsiyadan foydalanish bo'yicha xorij olimlarining tajribalari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается об истории геймификации образования, его нынешнем состоянии и практике внедрения игровых элементов в образование в разных странах мира. Также рассматриваются вопросы геймификации образования, результаты этого процесса и его использования в качестве образовательной инновации, описываются разносторонний потенциал геймификации, также программы и платформы, которые используют частично или полностью элементов геймификации в процессе создания учебных ресурсов. Анализируется опыт зарубежных ученых по использованию геймификации в процессе урока.

SUMMARY

This article tells about the history of gamification of education, its current state and the practice of introducing game elements into education in different countries of the world. It also discusses the issues of gamification of education, the results of this process and its use as an educational innovation, describes the versatile potential of gamification, as well as programs and platforms that use partially or completely the elements of gamification in the process of creating educational resources. The experience of foreign scientists on the use of gamification in the lesson is analyzed.

KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA SHAXSIY FIKR OMILI

Boltayeva B.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d (PhD)
Axmedova M.
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Tayanch so‘zlar: shaxsiy fikr, g‘oyalar xilma-xilligi, kreativ fikrlash, ijodiy qobiliyat.
Ключевые слова: личное мнение, разнообразие идей, творческое мышление, творческие способности творческое мышление, творческая способность, творческая деятельность, умственная способность.
Key words: personal opinion, variety of ideas, creative thinking, creative ability.

Ma’lumki, bugun ijtimoiy hayotda “kreativlik”, “kreativ fikrlash”, “kreativlikni baholash” kabi jumlalar qo‘llanila boshlandi. Taraqqiyot davomida insonga eng kerakli va muhim sifatlardan biri sifatida maydonga chiqqan kreativlikni dunyo olimlari inson faoliyati jarayonida eng muhim sifat deya baholashmoqda. “XXI asr ko‘nikmalari” yoki “XXI asr kompetensiyalari” deb ataladigan bu kompetensiyalar muttasil o‘zgarib borayotgan, globallashgan va raqamlashgan jamiyatda moslasha olish va o‘z o‘rnini topish uchun juda muhimdir.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxs hiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), 2010), bu esa, o‘z navbatida, jamoaviy ish bo‘lgan innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

“Kreativ fikrlash bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta’minlaydi. Ta’limning asosiy ahamiyati o‘quvchilarni jamiyatda yutuqqa erishishlari uchun kerakli malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat” ekanligini ta’kidlanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda kreativlikni o‘rganish va uni tahlil qilish eng dolzarb mavzuga aylanib ulgurdi.

Bu kompetensiyalar kognitiv ko‘nikmalarning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini, jumladan, mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil va sintez qilish, muammolarga yakka tartibda va jamoa bo‘lib nostandart yechimlar topa olish qobiliyatlarini taqozo qiladi. Bu ko‘nikmlarni rivojlantirish esa, o‘z navbatida, an’anaviy kontentga asoslangan pedagigika va baholash usullaridan chekinib, kompetensiyaga asoslangan o‘qitish va baholashni joriy qilishni talab qiladi.

Kreativlik atamasi ham unga bo‘lgan tasavvurimizni oydinlashtirib olishimizni talab qiladi. Odatda biz “kreativlik” va “ijodkorlik” tushunchalarini o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sifatida qo‘llaymiz. Sababi “creato”- lotincha so‘z bo‘lib-yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’noni beradi. Biroq taniqli pedagoglarimiz uni o‘ziga xos alohida ma’noga ega sifat ekanligini ta’kidlashadi. Emebayl kreativlikni “yuqori darajada noodatiy qobiliyatlarga ega bo‘lish” deb baholaydi va “insonning kreativ fikrlash qobiliyatini ko‘rsatib beradigan umumiy mezon bu uning qanchalik ko‘p g‘oyalarni ilgari surishi bilan o‘lchanadi va bu ko‘pincha fikran teranlik deb ataladi” desa, Ken Robinson “kreativlik-o‘z qiymatiga ega bo‘lgan original g‘oyalar majmui” deb ta’riflaydi. Patti Drapeau kreativlikni “masala yuzasidan har tomonlama fikrlash” deya izohlaydi. Ko‘rinadiki, kreativlik biz bilgan va ko‘pincha ma’nodosh sifatida qo‘llaydigan ijodkorlikdan bir muncha farq qiladi. Shuning uchun ham ijodkorlik va kreativlik tushunchalarini ayni bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Xalqaro baholash dasturlarida 15 yoshli o‘quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta’sirchan ko‘rinishlarga olib keladigan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflanadi. Ushbu tavsif o‘quvchilarning turfa kontekst va ta’lim darajasida g‘oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o‘rganishlari kerakligiga, g‘oyaning o‘ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g‘oyani takomillashtirishga urg‘u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Demak, kreativlik –

layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi test xorijda o‘tgan asrda (1987 yil) E.P.Torrens tomonidan yaratilgan va u amaliyotga joriy etilgan. Kreativlikni anglash va uni maxsus testlar yordamida aniqlash masalalariga bizda XXI asrda, aniqrog‘i, mamlakatimizga xalqaro tadqiqot dasturlari kirib kelganidan so‘ng e’tibor berila boshlandi. Sababi xalqaro baholash dasturlari, yuqorida ta’kidlanganidek, “kreativ fikrlashning bugungi yoshlarni rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya bilan ta’minlashi va ta’limning asosiy ahamiyati ham o‘quvchilarni jamiyatda yutuqqa erishishlari uchun kerakli malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat”ligini birinchi o‘ringa qo‘yadi va buni baholaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkuri, muloqoti, his-tuyg‘ulari va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Demak, kreativlikni o‘rganish, boshlang‘ich ta’limda kreativlik sifatini shakllantirishga urg‘u berish alohida yondashuv va o‘rganishlarni taqozo etadi.

Har qanday bilim va malakaning shakllanishida asosiy poydevor bo‘lib boshlang‘ich ta’lim xizmat qiladi. O‘quvchilarning 15 yoshga yetganda xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlari, kelajakda har qanday vaziyatda original yechimlar topa oladigan malakali mutaxassis bo‘lishlari uchun ham boshlang‘ich ta’limda boshlab bunga e’tibor qaratish, amaliy ishlarni olib borish zarur.

Manbalarda keltirilishicha kreativ sifatlarni rivojlantirish yo‘llari 4 ta bo‘lib, ular o‘quvchilarda bosqisma-bosqich kreativlikni shakllantirib borishga xizmat qiladi

Kreativ sifatlarni rivojlantirishning 1-yo‘li bu kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdir. Darhaqiqat, inson biron narsani yaratishida dastlab fikr keladi, so‘ngra uning ijrosi amalga oshadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga

keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun qolip va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar ham yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi. Qolaversa, “oqim bo‘ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko‘ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha inson ongiga “so‘rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, “yangi yil” deganda to‘kin dasturxon, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo‘lida hassa tutgan, ko‘zoynakli cholni ko‘rish qolip asosida fikrlashning ko‘rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o‘zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi. Eng ajablanarli jihati, ta’lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o‘rgatib qo‘yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta’lim jarayonidagi bir xillikka ko‘nikolmagani, qoliplarga sig‘maganini ko‘rish mumkin. Topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda ko‘plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so‘raydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud bo‘lgan modellar asosida ishlashga o‘rganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun o‘quv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq.

Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko‘rinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur — hamma narsani ikki shaklda — yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko‘rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o‘zi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Maktab darsliklaridagi asar qahramonlarini o‘rganish jarayonida ham ularni ham doim ikki: ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratish ham an’anaviy ta’limning mevasi sifatida ta’limda saqlanib qolingan. Ya’ni uchinchi, ham ijobiy sifatlari bo‘lgan, ham ba’zi salbiy sifatlari bor qahramon mavjud bo‘lmagan. Anglashiladiki, yaxshi inson faqat yaxshi sifatlarga ega bo‘lishi, va boshqalar tomonidan yaratilgan “yaxshi” qolipiga mos kelishi lozim bo‘lgan va agar u biron narsani noto‘g‘ri

bajarib qo‘ysa, u darhol yomonlar qatoriga o‘tkazilgan. Shuning uchun ham ta’lim tizimimizda noto‘g‘ri ish qilib qo‘yishdan qo‘rqib, yangilik yaratmaslikka moslashtirilgan avlod vakillari tarbiyalanib kelindi.

Fikrlashni tarbiyalash uchun o‘quvchilar bilan birga muhokama asosida yechimi topiladigan mashqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga turtki bo‘ladigan kichik guruhlarda topshiriqlar bilan ishlashi, guruhlarga berilgan topshiriqlarning yechimlariga izohlarini talab qilishi, yoki oddiygina boshlangan ertak yoki hikoyani davom ettirib qo‘yish mashqlari ham muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilar shaxsiy fikrlarining shakllanishida o‘qituvchi nutqida ham “mening fikrimcha….”, “men hisoblaymanki…….” kabi fikrlarning shaxsiy ko‘rinishidagi shakli qo‘llanilsa va o‘quvchilarga nisbatan ham “demak, sizning fikringizcha…”, “sizning o‘ylashingizcha…”, “fikringizni qabul qildik”, “bu ham o‘zgacha yondashuv”, “bo‘lishi mumkin” kabi jumlalarning qo‘llanilishi bolaga o‘z shaxsiy fikrlarini yaratish va uni bildirishga turtki bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. OECD (2017), PISA 2021 Creative Thinking Strategic Advisory Group Report, Organisation for Economic Co-Operation and Development, (accessed on 26 March 2018).

2. Lucas, B. and E. Spencer (2017), Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who nerate Ideas and Can Think Critically., Crown House Publishing, https://bookshop. canterbury.ac.uk/Teaching-Creative-Thinking-Developing-learners-who-generate-ideas-and- can-think-critically_9781785832369 (accessed on 26 March 2018).

3. Ismailov A. [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Toshkent: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi”, 2021-yil. – 92 bet.

4. Umurzoqova N. O‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 1174-1177

5. Zakirova N.M. O’quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari Toshkent viloyati Chirchiq shahar 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804. 937-943 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlashga o‘rgatishda shaxsiy fikrni shakllantirishning ahamiyati, kreativ fikrlashga o‘rgatishning bosqichlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о важности формирования личного мнения при обучении творческому мышлению в начальных классах, этапах обучения творческому мышлению.

SUMMARY

This article talks about the importance of forming a personal opinion when teaching creative thinking in primary school, the stages of teaching creative thinking.

MAKTABGACHA YOSHDGI BOLALARGA TA'SVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA KOMBINOTSION QABILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI

Raxmatova G. T.
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola, tasviriy faoliyat, kambibatsion qobilyat, rivojlantirish, loy ishi, applikatsiya, vosita.

Ключевые слова: дошкольная организация, ребенок, изобразительная деятельность, камбибирующая способность, развитие, глиняная работа, аппликация, мотор.

Key words: preschool educational organization, child, visual activity, cambibative ability, Development, clay work, applique, tool.

Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim va tarbiya sohasida oid amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib so'ngi yillarda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta`lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'grisidagi qonunining[1] 8-moddasida "Maktabgacha ta"lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta talimga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuning[2]. 4- moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari sifatida har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi; har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi belgilangan.

Bugungi kunda aksariyat zamonaviy kasblar insondan ma'lum qobiliyatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari, ko'p hollarda, tegishli qobiliyatlarning past darajada rivojlanishi bilan, faoliyatni amalga oshirish shunchaki imkonsiz bo'lib qoladi.

V. I. Tyutyunnikning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, ijodiy mehnatga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyat kamida 5 yoshdan boshlab rivojlanadi. Bu rivojlanishni belgilovchi asosiy omil bola va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarning mazmuni, kattalarning bolaga nisbatan tutgan pozitsiyasidir. Bu muammolarni hal etish uchun esa faoliyatlar jaroyonida qobilyatlarini aniqlash va rivojlantirishni maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlash lozim.[3]

Asosiy qisim. Har bir faoliyat insonning jismoniy, psixo-fiziologik va aqliy imkoniyatlariga bir qator talablarni qo‘yadi. Turli mualliflar nuqtai nazarida qobiliyat tushunchalaridan shuni aytish mumkinki, odam ma’lum bir faoliyatga qodir bo‘lib tug’ilmaydi, uning qobiliyatlari to‘g’ri tashkil etilgan tegishli faoliyatda shakllanadi, rivojlanadi. Qobiliyatlar-bu tug’ma ta’lim emas, balki butun umr saqlanib qoluvchi iste’doddir.

Qobiliyatlar - bu shaxs xususiyatlarining muayyan faoliyat talablariga muvofiqligi o‘lchovidir.

Qobiliyatlar - bu odamlarni bir-biridan ajratib turadigan va turli faoliyatdagi muvaffaqiyatlaridagi farqlarni tushuntiradigan barqaror individual psixologik xususiyatlar. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, qobiliyatlar deganda shaxsning ma’lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun mos keladigan xususiyatlari yoki fazilatlari tushuniladi.[4]



Muhokama va natijalar. Fikrimizcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat turlari nafaqat bolaning ta’lim va tarbiyasi, balki qobilyatlarini rivojlanishni ta’minlovchi vosita sifatida xam ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta’lim tizimida tasviriy faoliyat rasm chizish, loy ishi (xaykaltaroshlik), applikatsiya, tabiiy va ikkilamchi materiallar bilan ishlash hamda tasviriy faoliyatning noan’anaviy ish shakllari xisoblanadi. “Tasviriy faoliyat” (mashg’ulotlar) jarayonida:

- √ qo‘lning anik xarakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
- √ bilish jarayonlari (fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilish) ni rivojlantirish;
- √ nutqiy vazifalarni amalga oshirish;
- √ kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarining namoyon bo’lishi uchun imkon yaratish kabi ta’limiy va tarbiyaviy masalalar xal etib boriladi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalardagi badiiy did, ijodiy va estetik qobiliyatlari rivojlanadi va bu orqali bolalar maktab ta’limiga tayyorlanib boriladi.

Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi xisoblanad

N.P. Sakulina, J1.C.Vigotskiy [5], B.C. Muxinalar [6] o‘z ilmiy tadqiqotlarida bilish jarayonlarining idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, qobilyatlarning rivojalanishida tasviriy faoliyatning o’rni beqiyosligini takidlashgan. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tasviriy faoliyat mashg’ulotlari, birinchi navbatda, bolaga kompleks yondashish funksiyasi bilan xam axamiyatlidir.

Tasviriy faoliyat orqali bolalardagi bir nechta qobiliyatlar xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri rivojlantirish va yuzaga chiqarish zarur. Ya’niy ta’sviriy faoliyat orqali bolalarning kombinatsion qobilyatlarini rivojlantirish mumkin.

Kambinatsiya – bu bir turdagi narsalarning yoki biror narsa turlarining ma’lum tartibda uyg‘unlashgan yoki o‘zaro izchil joylashgan, qo‘shilgan birikmasi, majmui hisoblanadi.

Kombinator qobiliyatlar mexanizmi bolalarda shakl va rang bilan tajriba o‘tkazish jarayonida namoyon bo‘ladi, ular ma’lum vositalar yordamida o‘zlarining hayotiy tajribasi ob’ektlarini takrorlash mumkin bo‘lgan tasvirlash usulini topish zarurligiga duch kelishadi.

Kombinator vazifalariga quyidagi vazifalar kiradi:

Kombinatsion muammolarni hal qilish bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy faoliyat vositasida bolalarning kombinatsion qobiliyatlari rivojlanishi tufayli intellektual darajasini oshirishga yordam beradi.





Adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, psixologiyada kombinatsion qobiliyatlarni o‘rganish uchta yo‘nalishda amalga oshiriladi. Bular

Bizning asosiy maqsadimiz kombinatsion qobiliyatlarni nazariy va amaliy rivojlantirish va asoslash, ularning maktabgacha yoshdagi rivojlanish dinamikasini o‘rganish.

Xulosa va tavsiyalar. Shuni takidlash lozimki tasviriy faoliyat vositasida 3-7 yoshdagi bolalarning kombinatsion qobilyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’sviriy faoliyat vositasida kambinatsion qobiliyatlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan taqdirdagina rivojlanishi mumkin. Bu sharoitlar:

1. Bolalarning erta jismoniy va intellektual rivojlanishi.

2. Bolaning bir nechta qobilyatlari uyg’un rivojlanishi uchun ta’sviriy faoliyat jarayonida qulay ta’lim muhitni yaratish.

3. Bolaning maksimal kuch talab qiladigan vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishi, bola o‘z qobiliyatlarining “cho‘qisiga” yetib kelganida.

4. Faoliyatni tanlashda bolaga erkinlik berish, holatlarni almashtirish, bir narsaning davomiyligi.

5. Pedagoglardan (tarbiyachilardan) aqlli, do‘stona yordam (maslahat emas).

6. Qulay psixologik muhit, kattalar tomonidan bolaning ijodkorlikka intilishini rag’batlantirish.

Mavjud vaziyatlardan kelib chiqib bizning fikrimizcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining o‘rni beqiyosdir. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishi, buning uchun muntazzam ravishda o‘z ustida

ishlashi, o‘zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko‘tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.

3. Melik-Pashayev A. A. Об источнике способности человека к художественному творчеству // Вопросы психологии. - № 1. — 1998. - С. 76 — 82.

4. Endovitskaya T. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish to’g’risida. - maktabgacha ta’lim. - 1967 yil 12-son. 73-75-betlar.

5. Vigotskiy L. S. Вопросы детской (возрастной) психологии // Собр.соч.: В 6 т. Т.4. М., 1983

6. Muxina V. S. Генезис изобразительной деятельности ребенка.- Автореф. дисс... докт. психол. н. - М.: НИИ общей и педагогической психологии, 1972. -3 9 с

РЕЗЮМЕ

Maskur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsin qobilyatlarini rivojlantirishda tasviriy faoliyat vositasidan foydalanish va “Qobiliyat” tushunchasining asosiy xususiyatlari hamda kombinatsion qobiliyatlarni nazariy va amaliy rivojlantirish va asoslash, ularning maktabgacha yoshdagi rivojlanish dinamikasini o‘rganish bosqichlari yoritilib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены основные особенности использования средств изобразительной деятельности и понятия “одаренность” в развитии комбинаторных способностей дошкольников, а также этапы теоретического и практического развития и обоснования комбинаторных способностей, изучения динамики их развития в дошкольном возрасте.

SUMMARY

The article highlights the main features of using the means of visual activity and the concept of “giftedness” in the development of combinatorial abilities of preschoolers, as well as the stages of theoretical and practical development and substantiation of combinatorial abilities, studying the dynamics of their development in preschool age.

QOIDALI O'YINLAR ASOSIDA BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISH UYG'UNLIGINI TA'MINLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova M. I.
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: xulq-atvor, maktabgacha yosh, bolalar, kognitiv, o'yin, rivojlanish.
Ключевые слова: поведение, дошкольный возраст, дети, познавательные, игра, развитие.
Key words: behavior, preschool age, children, cognitive, game, development.

Katta maktab yoshidagi bolalarda ularning xatti-harakatlarini o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham deyarli tengdir. Ba'zi holatlarda, masalan, poyga paytida, ular avvalgidan ko'ra yaxshiroq ishlashi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, umuman olganda aytish mumkinki, bolada o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda o'yin va o'yin faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bolaning aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, sub'ekt o'yin davomida, biror narsani yangi nom bilan nomlashda yoki nom o'zgartirilganda faol bo'lishga harakat qiladi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan xayoliy, taklif predmetlarining mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola tanasining moddiy shaklidan to'satdan bog'lanishning xayoliy shakliga o'tishi uchun asosga ega bo'lishi kerak, garchi u o'yinda bevosita ob'ektlar sifatida bunday boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan narsalarning ko'pini ishlatsa ham.

O'yin faoliyatida bu ob'ektlar nafaqat biron bir alomatni aks ettirish, balki ushbu asosiy narsalarni aks ettirish, shuningdek, aniq ob'ektga nisbatan tayanch nuqtasi harakati o'yinini takomillashtirish sifatida xizmat qiladi. Umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. O'yin harakatlarini qisqartirish va umumlashtirish ko'rinishidagi mantiq izchil, izchil shaklga o'tish uchun asosdir. Psixolog J.Piaje o'yinda ob'ektlarni nomlash omiliga jiddiy yondashib, bu ish ramziy tafakkurning shakllanishiga asos bo'ladi, degan xulosaga keladi. Biroq, bu vaziyatni aks ettirishning yagona yo'li bu degani emas. Shu bois,

mavzu nomini o‘zgartirib, bolaning aql-zakovati va zehni tez bo‘lishini kutish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Darhaqiqat, narsalarning nomini o’zgartirish emas, balki o’yin faoliyatining tabiatini o’zgartirish bolaning aqliy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin. Darhaqiqat, o’yin faoliyatida bolalar harakatning yangi shaklini, ya’ni uning intellektual tomonini namoyon qiladi va shuning uchun o’yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bola aqliy faoliyatning birinchi shaklini rivojlantiradi. Bu fakt bolaning aqliy rivojlanishi yoki umumiy rivojlanishi uchun o’yinning ahamiyatini ham aks ettiradi. Bola o’yin faoliyatida maktabga tayyorgarlik ko’radi, shuning uchun u aqliy faoliyatning aniq shakllarini o’z ichiga oladi.

Rolli o’yin nafaqat individual psixik jarayon, balki bolaning shaxsiy fazilatlari va fazilatlarini shakllantirish uchun ham muhimdir. Shuning uchun kattalar rolini tanlash va bajarish bolaning hissiy stimullari bilan uzviy bog’liqdir. Chunki o‘yin jarayonida bolada boshqa narsaning tashqi belgilaridan, tengdoshlari ta’sirida, shuningdek, bolaning irodasiga zid ravishda tug‘iladigan turli istak va istaklar paydo bo‘ladi. O’yin mustaqil faoliyat bo’lib, unda bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishni boshlaydilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishning umumiy tajribasi birlashtiradi. Shuning uchun o’yin do’stona munosabatlarni rivojlantirish, jamoaviy hayot ko’nikmalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yosh bolalar guruhida qo’shma o’yin bilan birlashtirilgan murakkab munosabatlar shakllanadi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o’yinga jalb qilish, bolalar o’rtasida do’stlik, halollik, tengdoshlari oldidagi mas’uliyat hissi asosida munosabatlarni o’rnatishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o’yinlari nafaqat atrofdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi, balki yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, o’yin kuchli ta’lim vositasidir. Bolalar o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. Agar bolalarning o‘yin faoliyatini chetdan kuzatadigan bo‘lsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy fazilatlari (kimning kimga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Shuning uchun bolalarning o’yin faoliyati ularning individual ta’lim olishining juda qulay vositasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda yolg’iz o’ynashadi. Bu yoshdagi bolalarda mavzuli va konstruktiv o‘yinlar orqali bilish, xotira, tasavvur, fikrlash va harakat qobiliyatlari rivojlanadi. Rolli o’yinlarda bolalar asosan kattalarning har kuni ko’rgan va kuzatadigan xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o’yini asta-sekin jamoaviy shakl sifatlariga ega bo’ladi.

Bolalarning individual xususiyatlarini, xususan, ularning jamoaviy o'yinlari orqali kuzatish qulay. Bu o'yinlarda bolalar nafaqat kattalarning ob'ektlarga munosabatini, balki ularning o'zaro ta'sirini ham aks ettiradilar. Shuningdek, jamoaviy o'yinlarda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatini aks ettiradilar. Masalan, "poyezd" o'yinini olaylik. Mashinist, ko'mir yoquvchi, konduktor, nazoratchi, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bunday bolalar jamoaviy o'yinlari rassomlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki jamoaviy o'yinda har bir bola o'z rolini yaxshi o'ynashga intiladi, shu bilan birga o'yinning umumiy mazmunidan chetga chiqmaslikka harakat qiladi. Bu har bir boladan barcha qobiliyatlarini ishga solishni talab qiladi. Muayyan rollarga bo'lingan jamoaviy o'yin bolalardan qat'iy qoidalarga rioya qilishni va kerak bo'lganda muayyan vazifalarni bajarishni talab qiladi. Shuning uchun bunday bolalar jamoaviy o'yinlari katta psixologik ahamiyatga ega. Chunki bunday o'yinlar bolalarda irodalilik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga rioya qilish, tartib-intizom kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi rolli o'yinlar endi mavzuning boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda etakchilik ko'nikmalari shakllana boshlaydi, ularda tashkilotchilik qobiliyatlari va qobiliyatlari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyati orasida tasviriy san'at ham juda muhimdir. Bolaning tasavvurining xususiyatiga qarab, uning atrofidagi hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan chizilgan rasmlar ham ularning ichki kechinmalari, kayfiyatlari, orzulari, umidlari va ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga juda qiziqadi. Rasm chizish bolalar uchun o'ziga xos o'yin shaklidir. Bola birinchi navbatda ko'rgan narsasini chizadi, keyin bilganini, eslab qolganini va o'ylab topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda muhim bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yoqimli vaqt - musobaqalarda g'alaba qozonish va g'alaba qozonishning ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qurilish o'yinlari asta-sekin mehnat faoliyatiga aylanib bormoqda. O'yinda bola oddiy mehnat ko'nikmalari va qobiliyatlarini egallashga kirishadi. Ob'ektlarning xususiyatlarini tushuna boshlaydi, amaliy fikrlash naqshlarini rivojlantiradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo`lib, aynan shunday o`yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng

yoqimli vaqt - yutish va muvaffaqiyat bo`lgan musobaqa o`yinlarining ham ahamiyati juda katta. Katta maktabgacha yoshida qurish o`yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O`yinda bola sodda mehnat ko`nikma va malakalarini egallay boshlaydi. Predmetlarning xossalarini anglay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

O'yin inson o'ziga xosligining namoyon bo'lishi, uni takomillashtirish yo'lidir. Kattalar hayotida o'yin alohida o'rin tutsa-da, bolalar uchun ayniqsa muhimdir. Uni "bolalik hamrohi" deb atash maqbuldir. Bu maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunidir. Bu mehnat va ta'lim bilan chambarchas bog'liq bo'lgan etakchi faoliyatdir. Bolaning jiddiy harakatlarining aksariyati o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsning barcha mavjud tomonlari faollashadi: bola harakat qiladi, gapiradi, tushunadi, o'ylaydi. O'yin ta'limning muhim vositasidir.

«O'yin» - bu ijtimoiy tajribani tiklash va o'zlashtirishga qaratilgan vaziyatlardagi faoliyat turi bo'lib, unda xatti-harakatlarning o'zini o'zi boshqarishi shakllanadi va takomillashtiriladi.

"Maktabga tayyorgarlik" deganda bolaning muayyan ta'lim muhitida maktab o'quv dasturini o'zlashtirishi uchun zaruriy va yetarli darajada psixologik rivojlanishi tushuniladi. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi psixologik rivojlanishning eng muhim natijalaridan biridir. O`yin texnologiyalari maktabgacha yoshda keng qo`llaniladi, chunki bu yoshdagi o`yin bu davrda etakchi faoliyat hisoblanadi. O`yin texnologiyalari yordamida mashg'ulotlarda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanadi.

O`yin texnologiyasining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyat ko`rsatish shartlariga va bolalarning rivojlanish darajasiga qarab faoliyat ko`nikmalari va ko`nikmalarini shakllantirish uchun to`liq motivatsion asosni yaratishdir. «O'yin texnologiyasi» atamasi maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil pedagogik o'yinlar shaklida tashkil etilgan keng ko'lamli usul va usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogik o`yinning oddiy o`yindan farqi shundaki, u o`rganish maqsadini, pedagogik natijani aniq ko`rsatadi.

O'yin texnologiyasining afzalliklari, o'yin bolalarning bilim jarayonlarini - diqqat, bilish, fikrlash, xotira va tasavvurni rag'batlantiradi, rag'batlantiradi va faollashtiradi; o'yin bilim talab qiladi va ularning kuchini oshiradi; Asosiy afzalliklardan biri - guruhdagi deyarli barcha bolalarda o'rganish ob'ektiga qiziqishning ortishi; o'yinga asoslangan ta'limda qisqa muddatli istiqboldan foydalaniladi; o'yin bolaga bilimlarni hissiy va mantiqiy o'zlashtirishni

uyg'unlashtirishga imkon beradi, buning natijasida bolalar kuchli, xabar va hissiy bilimlarga ega bo'ladilar.

Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Katta guruh bolalari uchun «Ishchilar nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin.

Didaktik o'yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarni amalda qollay olishga o'rganadi, ulardagi fikrlash qobiliy-atlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar.

Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojiantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qaricha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi.

Didaktik o'yinning muhim tomoni - uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'o-yadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi.

Har bir didaktik o'yinda o'yin mazmuni, g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o'ynalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatini boshqarib, kerak tomonga o'ylantirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi oTchovdir.

Didaktik o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri-noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan «U o'yin qoidasini buzib o'ynayapti» de-yishlarining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'Imaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi.

Bolalarning o’yin qoidalarini o’rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o’yin jarayonida o’zini-o’zi, o’zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi.

O’yinning natijasini ikki nuqtayi nazardan: bolalar va tarbiyachi nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Agar o’yin natijasini bolalar nuqtayi nazaridan baholaganda, unda bu o’yindan bolalar qanday ma’naviy va axloqiy ozuqa olganlarini hisobga olish lozim. Didaktik vazifalarni bajarish bolalardan ma’lum darajada zo’r berishni, ya’ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi.

Bolalar fahm-farosatlari, topag’onliklari, diqqat va xotiralarininamoyish qiladilar. Bularninghammasi bolalarning o’z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini xursandchilik hissi bilan to’ldiradi, ular bundan ma’naviy qoniqish hosil qiladilar.

Didaktik o’yinning natijasini muhokama qiladigan tarbiyachi quyidagilarga e’tibor berishi lozim: qo’yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko’zlangan nuqtayi nazardan ma’lum natijalarga erishildimi yoki yo’qmi.

Yuqorida keltirilgan ikki vazifa ham yaxshi bajarilsa, ya’ni bir tomondan, bolalarda qiziqish uyg’ota olsa va ular faoliyatini amalga oshirishga intilsalar, ikkinchi tomondan, qo’yilgan hamma maqsad, vazifaga erishilsa, bunday o’yin yaxshi natija beradi, deb hisoblash mumkin.

O’yin qatnashchilarini rag’batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun yetakchi rolni berish, ba’zan esa shu o’yinda foydalanilgan o’yinchoqni o’ynashga berish yoki mevalarni yeyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo’l bilan bu ishga intilishlariga yo’l qo’ymaslik kerak.

Harakatli o`yin.

O’yin harakatli bolalar tomonidan bajariladi. O’yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarningjoyinialmashtirish, yig’ishtirish, ularning rangiga, katta-kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokazolarda namoyon bo’ladi. Katta bolalarning o’yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o’yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o’rtasida o’zaro bog’lanish bo’lishini, harakatlarning izchillik va navbati bilan amalga oshirilishini talab etadi.

O’yin natijasi didaktik o’yinning muayyan natijasi bo’ladi, natija esa o’yinning finali hisoblanadi. Masalan: topishmoqlarni topish, berilgan o’yin topshiriqlarini bajarish, fahm-farosatni namoyon qilish kabilar o’yin natijasi bo’lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar.

O’yin mazmuni, g’oyasi, harakatlari va qoidalari o’zaro bir-biri bilan bog’langan bo’lib, hatto ulardan birortasi bo’lmasa ham o’yinni o’tkazib bo’lmaydi.

Didaktik o’yinning o’yin faoliyati sifatidagi o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o’zaro munosabatlari o’yin tarzida bo’ladi. Tarbiyachi o’yinqatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo’ladi. Bolalar ko’pincha o’yin mazmuni bilan belgilanadigan va o’yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. Masalan, «Magazin» o’yinida bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o’zlari sotib oladigan narsalarning belgilarini aytishlari, sotuvchi bolalar esa talab qilingan narsaning nimaligini xaridor aytgan belgilar bo’yicha bilib olishlari kerak. O’yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O’yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko’rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O’yin qoidalari xaridorning oladigan narsasini tanlab olish, sotuvchiga xushmuomala bo’lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko’rib chiqish va boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytish va pul to’lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa xaridor gapirganda ularni zo’r e’tibor bilan tinglash, so’zlarini bo’lmaslik, so’ragan buyumlarni olib, qog’ozga o’rab berishdan iborat bo’ladi.

Ko’pincha didaktik o’yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o’z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o’rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini namoyon qilishga talab etadi. Masalan, «Ajoyib xaltacha” o’yinida bolalarga o’zlariga tanish bo’lgan o’yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi, buning uchun esa bola o’yinchoqni boshdan - oyoq yaxshilab ko’zdan kechirishi va uning o’ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo’ladi.

Didaktik o’yinning mazmuni va turlari. Didaktik o’yinning mazmuni «MTT ta’lim-tarbiya dasturi” da bayon qilingan va quyidagilarni o’z ichiga oladi:

A) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to’g’risida bilimlar berish;

B) mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to’g’risidagi bilimlar;

V) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to’g’risidagi bilimlar;

G) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Musiqaviy o`yin

Bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o’rgatish uchun musiqaviy didaktik o’yinlar ham o’tkaziladi.

Musiqaviy didaktik o'yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o'rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg'u asboblari ovozining tembrini farq qilish («kim kuylayapti?" «Shiqildoqli childirma»), ovozning dinamikasini ajrata olish («tez, sekin kuylaymiz") uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Didaktik o'yin turlari: - narsa va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.

– Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar.
– Og'zaki didaktik o'yinlar

Didaktik o'yinda bolalar har doim o'zlarini o'ynayotgandek his etishlari kerak. **Buyum va o`yinchoqlar** bilan o`ynaladigan o`yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o`ynaladigan o`yin turi xisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o`yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to`g`risida umumiy tushuncha xosil bo`ladi. O`yinda o`ynaladigan xar bir o`yinchoq o`zining tashqi ko`rinishiga ega bo`lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o`yinlar bolalarning narsalarning shakli, xajmi, belgisi, sifati xaqidagi bilimlarini kengaytiradi.

**Stol –bosma o`yinlari** bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, umumlashtirish, tavsiflash) o`stirish imkonini beruvchi o`yin turidir. Bu o`yin turiga lotto, juft rasmlar, domino va labirint kiradi

Ogzaki so`z o`yinlari bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o`z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o`rgatadigan o`yinlar sanaladi. Bu kabi o`yinlar odatda katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o`tkaziladi Bunday o`yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta axamiyatga era. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan o`yin turlarida didaktik maqsad va o`yin materiallarining mavjudligi muxim axamiyat kasb etadi.

Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Narsalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning xususiyatlari va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari bilan, ularni ishlatish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi.

Bolalarning narsalar, ularning sifati to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash uchun har xil o'yinchoqlar, suratlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o'rni haqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy belgisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim.

Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shaklining aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni o'ylashga, aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega.

Kichik yoshdagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi.

Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jihatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkaza qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi.

Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani,qayerda qilingani, nima uchun kerakligi va hokazolar to'g'risidagi bilimi aniqlanadi hamda mustahkamlanadi.

Yuqorida sanab o'tilganlar jamoa o'yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o'yinlar topish mumkin.

Didaktik o'yinlarga rahbarlik. Boshqa o'yinlar singari, didaktik o'yinlarga ham tarbiyachi rahbarlik qilishi lozim. Birinchi navbatda didaktik o'yinni va unga kerakli materialni tanlash kerak. Hamma guruhlar didaktik jihozlarga, bo'yi 40- 50 sm keladigan qo'g'irchoqqa ega bo'lishi lozim. Uning jihoziga quyidagilar kiradi:

- ichki kiyim, ko'ylak, ishton, rezinka, uzun paypoq;
- pahmoq, satin, shoyi ko'ylak, fartuk, so'lakcha;
- qishlik palto, kuzlik palto;
- bosh kiyimlar: shapkacha, panasma, qalqopcha, shlyapacha;
- poyabzal: tufli sandal, yumshoq shippak;
- yotadigan va oshxonada ishlatiladigan narsalar - ko'rpa yostiq, matras, adyol, choyshab, ko'rpa jildi, yostiq jildi, sochiq, dasturxon, salfetka.

Didaktik o'yinlarda tabiat materiallari va oddiy narsalar ham ishlatiladi. Didaktik o'yinlarga maxsus o'rin ajratilishi va bolalar kun tartibidan malum joy olishi kerak. Didaktik o'yinlarni mashg'ulot bilan bog'lab olib borishni yaxshilab o'ylab amalga oshirish lozim.

Bu o'yinlar mashg'ulot va o'yin soatlarida o'tkaziladi. Ularni butun guruh bolalari bilan ham o'tkazish mumkin.

O'yinning mazmuni va undan kelib chiqadigan natija oldindan yaxshilab, aniq o'ylab olinadi. O'yinning g'oyasi o'yin harakatlari, qoidasi va o'yinning borishi shunga bog'liqdir.

Bu o’yindan bolalarga tovushlarni talaffuz qilishni mashq qildirish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Didaktik o’yinlarda majburiy qoidalar juda ko’p uchraydi: navbat bilan harakat qilish, faqat so’raganda javob berish, o’rtog’iga quloq solish, o’ynaganda boshqalarga xalaqit bermaslik, qoidani bajarish, o’z aybiga iqror bo’lish va hokazo.

Didaktik o’yinga rahbarlik qilishda o’yinning maqsad va mazmunini belgilash, o’yin g’oyasini o’ylab topish, o’yin qoidasi va asosiy harakatlarni tushuntirish, bolalar o’rtasidagi munosabatni yaxshilash, tarbiyaviy ta’sir orqali o’yinning borishga rahbarlik qilib borish va boshqalarni o’z ichiga oladi.

Didaktik o’yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o’yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O’yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta mahoratdir. Tarbiyachi o’yin vaqtini o’zining tushuntirishini kamaytirish hisobiga siqishtiradi.

Didaktik o’yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o’rmonda, dalada va boshqa joylarda o’tkazilishi mumkin. Bu o’yinning ta’sirchanligini, ta-assurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, didaktik o’yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish vositasi bo’lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Елконин Д. Б., А.Л. Венгер. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста tahriri ostida. — M.1988

2. F.Qodirova, Sh.Toshpo’latova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” o’quv qo’llanma. Ma’naviyat 2013-y

3. F.Qodirova Sh.Toshpo’latova, N.Qayumova, M.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” darslik. Tafakkur 2019-y

РЕЗЮМЕ

O’yin nafaqat kognitiv jarayonlarni yaxshilaydi, balki bolaning xatti-harakatlariga ham ijobiy ta’sir qiladi. Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarda xulq-atvor ko’nikmalarini shakllantirish bilan bog’liq psixologik muammolarni o’rgangan va bundan tashqari o’yinlarning turlari, xulq-atvor ko’nikmalari maqsadli faoliyatga qaraganda o’yinda osonroq va erta egallanishi haqida so’z yuroitilgan.

РЕЗЮМЕ

Игра не только улучшает познавательные процессы, но и положительно влияет на поведение ребенка. В данной статье рассматриваются психологические проблемы, связанные с формированием навыков поведения у дошкольников, а также упоминаются виды игр и то, что навыки поведения легче и раньше усваиваются в игре, чем в целенаправленной деятельности.

SUMMARY

The game not only improves cognitive processes, but also positively affects the behavior of the child. This article discusses the psychological problems associated with the formation of behavioral skills in preschoolers, and also mentions the types of games and the fact that behavioral skills are easier and earlier acquired in the game than in purposeful activities.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Қайнарова И. В.
Чирчиқ давлат педагогика университети, мустақил-тадқиқодчиси

Таянч сўзлар: инновацион фаолият, ўқиш саводхонлиги, инновацион фаолият, маҳорат, танқидий ўқиш, ўқувчининг фаол роли, билим ва кўникма, ижодий тафаккур, инновацион фаолият, назария ва амалиёт.

Ключевые слова: инновационное деятельность, грамотность чтения, инновационная активность, навык, критическое чтение, активная роль студента, знания и навыки, творческое мышление, инновационная активность, теория и практика.

Key words: innovation activities, reading literacy, innovative activity, skill, critical reading, student's active role, knowledge and skills, creative thinking, innovative activity, theory and practice.

Ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий ишлаш фаолиятларини ривожлантиришга қаратилган машғулотларни самарали ташкил этиш ўқув жараёнининг муҳим омилларидан бири бўлиб ҳисобланади. Мустақил ва ижодий ишлаш жараёнида ўқувчида мустақил фикрлаш қобилиятининг ривожланиши натижасида, ўқувчида жараёнлар ва ҳодисалар, объектлар ҳақида билимларни тизимлаштириш уларни чуқур ўрганиш ҳамда тегишли қарорлар қабул қилиш, назарий билимларни амалда қўллаш кўникмалари шаклланади.

Ўқитувчи томонидан ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий фаолиятларини ривожлантириш учун машғулотларнинг дарс ишланмаси ҳамда технологик харитаси ишлаб чиқилиши керак. Ҳар бир машғулот бўйича дарс ишланмалари ва технологик хариталарни ишлаб чиқиш ўқув жараёнини тўлақонли лойиҳалаштириш ҳамда самарали ташкил этиш имконини беради.

Ўқувчиларининг мустақил ва ижодий ишлаш қобилиятларини шакллантириш ҳамда ривожлантиришда мустақил ишларнинг аҳамияти катта. Мустақил ишлар ўқувчининг умумий ривожланишига ва касбий маҳоратини ўстиришга хизмат қилиши керак. Шунингдек, ўқувчиларнинг мустақил ва ижодий ишларини ташкил қилиш тарбиявий, таълимий аҳамиятга ҳам эга бўлиши керак.

Ўқувчиларнинг мустақил ишларини самарали ташкил этиш ва бошқариш ўқув жараёнининг асосий таркибий қисмларидан бири бўлиб ҳисо-

бланади. Мустақил ва ижодий ишларнинг турлари, шаклларини танлашда “оддийдан-мураккабга” ҳамда “умумийдан-хусусийга”, “мавҳумдан-аниқликка” тамойилларига амал қилиш лозим.

Мустакил ва ижодий иш топшириқларини ишлаб чиқишда ҳар бир ўқувчининг шахсий имкониятлари, тушунувчанлик, ўқув материалини ўзлаштириш даражаси инобатга олиниши, шахсга йўналтирилган ўқитиш технологияларини қўллаш мақсадга мувофиқ.

Машғулотларда ўқувчиларнинг ижодий ишлашига аҳамият бериш керак. Ўқитувчи ўқувчи бажарадиган мустақил ишлар ҳажмини аниқлаб, бажариш учун уларга ақлий меҳнат қилиш йўлларини ўргатади ҳамда ишни бажариш жараёнида келиб чиқадиган камчиликлар ва хатоликлар бўйича кўрсатмалар беради.

Ҳар бир фан маърузалари муаммоли тарзда бўлиши билан танқидий асосда ўқитилиши, ўқувчиларда ўрганишга, шунингдек танқидий фикр юритилган ўқув адабиётларга нисбатан қизиқишини орттиради, улар қатор фикрлар асосида ўз фикрини мустаҳкамлашга ҳаракат қилади, маъруза ўқиган ўқитувчи билан мулоқот қилиш учун интилади, ўз фикр- мулоҳазаларни ифода қилиш йўлларини топадилар.

Демак, ўқувчи ўз билимини танқидий фикрлар асосида ошириб боради ва ҳар қандай ҳолатда ҳам фикр-мулоҳаза юритиш қобилиятини намоён этади.

Ўқитиш жараёнида ўқувчиларни фаоллаштириш шуни назарда тутадики, бунда улар илмий билимларни ҳамда уларни амалда қўллаш усулларини онгли ва фаол эгаллаб оладиган, уларда ижодий ташаббускорлик, ўқув фаолиятида мустақиллик, тафаккур, нутқ ривожланади. Уларнинг фаоллиги ўқув материални эгаллаб олишида ўқув, тажриба хонаси шароитларида топшириқларни бажаришдаги ҳаракатларида намоён бўлади. Фаоллилик ўқувчиларнинг ўқув ва меҳнат фаолиятидаги мустақиллигини ривожлантириш билан мустаҳкам боғланган.

Фаол усулларини танлаш биринчидан, дарсдан кўзда тутилган ўқув мақсадларига боғлик. Масалан, агар дарснинг мақсади янги билимларни эгаллашдан иборат бўлса, ўқитувчи бу билимларни ўзи баён қилади ёки ўқувчиларнинг ўқув адабиётлари ва бошқа материаллар билан мустақил ишлашини ташкил қилади. Иккинчидан, таълим усулларини танлаш ўрганиладиган фаннинг мазмуни ва дарснинг аниқ ўқув материалига боғлик бўлади. Бир машғулотнинг ўзида бир нечта фаол усуллар қўлланилиши мумкин. Учинчидан, ўқувчиларнинг илгариги тайёргарлик даражасига ва шахсий тажрибасига боғлик. Агар янги ўқув материали уларга бутунлай нотаниш бўлса, ўқитувчи буни ўзи баён қилади, буни дидактик воситалар ва тажрибаларни кўрсатиш билан қўшиб олиб боради.

Ўқувчиларнинг билим олиш, мустақил ишлаш ва ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш, уларнинг онгли фаоллиги, мустақиллиги

ҳамда ижодкорлигини, ўқув-билиш фаолияти натижасининг сифатини характерлайди.

Ўқувчиларнинг мустақил изланувчанлик қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган машғулотлар дарс ишланмалари ҳамда технологик хариталари асосида ўқитиш жараёни ташкил этилади. Машғулотлар асосини мустақил ва ижодий иш топшириқларини бажариш ташкил этади.

Ўқувчиларга мустақил билиш, фикрлаш ва ижодий изланишга мажбур қиладиган, муаммоли ҳаётий далилларга асосланадиган вазиятли топшириқларни бериш мақсадга мувофиқдир. Ўқувчи топшириқларни ижодий фикрлаш ва мустақил ишлаш орқали бажаришлари лозим. Ўқитувчилар мустақил ва ижодий иш топшириқларини бажариш бўйича ўқувчиларнинг интилишларини олқишлаши ҳамда тўғри йўналтира олишлари лозим. Ўқувчи индивидуал ҳолда самаралироқ ишлайдими, ёки гуруҳ билан биргаликда ишлашни ёқтирадими; ёки унга электрон дарсликлардан фойдаланиш қулайроқми буни ўқитувчи яхши билиши керак.

Саволлар ёки топшириқлар орқали ўқувчиларнинг ижодий фикрлашларни ривожлантириш, номаълум ёки ноаниқ маълумотлар моҳиятини тушуниш учун мустақил изланишларини вужудга келтиради. Биз томондан олиб борилган педагогик тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ўқувчининг ижодий фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш, унинг мустақил билим олишга бўлган қизиқишини оширишда мустақил иш ижобий таъсир кўрсатар экан.

Янги педагогик технология ўқувчи фаолиятини тўғри йўналтиришга қаратилган бўлиб, аввало унинг соғлигини муҳофаза қилишни, унда турфа фазилатларни шакллантириш учун амалий ёндашув режаларини тузишни, бу режаларда ўқувчини қувноқликка, топқирликка ундовчи воситалар жамланишини, ҳозиржавобликка, сермулоазаликка, тўғри рақобат қила олишга ёки фараз қила олиши қобилиятини ривожлантиришга, ижодий тафаккур қилиш, тадбиркор бўлишга ундовчи қатор назарий ва амалий ишлар мажмуасини барқарор этишни назарда тутади.

Педагогик технологияларнинг бошланғич таълим тизимида кенг ўрин олиш ва барқарорлашиши учун истиқбол режаларда қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

- бажарилиши ва татбиқ этилиши лозим бўлган ишларни тўғри лойиҳалаш, мақсад ва вазифаларни белгилаш;
- амалий машқ ва машғулотлар тизимини яратиш;
- бошланғич синфларда ўқитиладиган фанлар бўйича атамалар тўпламини тузиш;
- синов машғулотлари, тест саволлари тузиш;
- компьютерни ўйинлар учун дастурлаштириш;

– сайр-саёҳатлар ўтказишнинг назарий ва амалий йўналишини белгилаш ва дарс режаларини ҳозирлаш;
– педагогик технологияларни ўзида акс эттирадиган ўқув дастурлари, дарслик ва қўлланмалар яратиш;
– республика ижтимоий-иқтисодий, тарихий, миллий-маънавий хусусиятларига мос равишда бошланғич таълимнинг амалий асосларини ишлаб чиқиш;
– жаҳон педагогикасининг бошланғич таълим соҳасида мавжуд тажрибаларини ўрганиш ва кенг масалаларни мактабларда жорий этиш.

Педагогик технологияларнинг бошланғич таълим тизимида кенг ўрин олиш ва барқарорлашиши учун истиқбол режаларда қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

– бажарилиши ва татбиқ этилиши лозим бўлган ишларни тўғри лойиҳалаш, мақсад ва вазифаларни белгилаш;
– амалий машқ ва машғулотлар тизимини яратиш;
– бошланғич синфларда ўқитиладиган фанлар бўйича атамалар тўпламини тузиш;
– синов машғулотлари, тест саволлари тузиш;
– компьютерни ўйинлар учун дастурлаштириш;
– сайр-саёҳатлар ўтказишнинг назарий ва амалий йўналишини белгилаш ва дарс режаларини ҳозирлаш;
– педагогик технологияларни ўзида акс эттирадиган ўқув дастурлари, дарслик ва қўлланмалар яратиш;
– республика ижтимоий-иқтисодий, тарихий, миллий-маънавий хусусиятларига мос равишда бошланғич таълимнинг амалий асосларини ишлаб чиқиш;
– жаҳон педагогикасининг бошланғич таълим соҳасида мавжуд тажрибаларини ўрганиш ва кенг масалаларни мактабларда жорий этиш.

Бошланғич синф ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришда ўйинга асосланган замонавий педагогик технологияларни қўллаш яхши самара беради. Улар олдиндан режалаштирилган ва ўз ичига кўп қиррали ўйинларни қамраб олган бўлиши керак. Ўйинга асосланган бундай технологияларнинг ўрни, аввало ўйин элементларининг функцияларини ўқитувчи, ўқувчиларга қандай тушунтиришга ва қандай етказа олишга боғлик. Иккинчидан, қуйидаги ҳолатлардагига у самарали бўлади.

Бошланғич синф ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришда ўйинга асосланган замонавий педагогик технологияларни қўллаш яхши самара беради. Улар олдиндан режалаштирилган ва ўз ичига кўп қиррали ўйинларни қамраб олган бўлиши керак. Ўйинга асосланган бундай технологияларнинг ўрни, аввало ўйин элементларининг функцияларини ўқитувчи, ўқувчиларга қандай тушунтиришга ва қандай етказа олишга боғлик. Иккинчидан, қуйидаги ҳолатлардагига у самарали бўлади.

– ДТС талабларига жавоб бера оладиган, билим ва кўникмаларни шакллантиришга асосланган бўлса;
– фанлараро узвийликни индивидуал ҳолда ва гуруҳларда қўллай олса;
– олдиндан ўқув дастурига мос ривожлантириб, замонавий технологияларига асосланган бўлса.

Ўқувчилар фаоллигини оширишда қуйидаги усуллар мақсадга мувофиқ:

– кўтаринки руҳ билан ўйинга жалб этиш;
– ўқувчининг хайриҳоҳлиги билан ўйинни олиб бориш, танқидий вазиятлардан четлаб ўтиш;
– оргинал фикрларни рағбатлантириш;
– турли муоммоли вазиятларда ўқитувчи ўз шахсий тажрибасини қўллай олиши;
– ўқувчиларга фаоллик билан савол бериш учун имконият яратиш;
– ўйинли машқларни дарсдан ташқари машғулотларда ҳам қўллай олиш.

Ўқувчиларга таълим-тарбия беришимизда бир қанча муаммоларга дуч келамиз:

– она тили фанидан имло хатолар;
– диққатни бир жойга тўплай олмаслик;
– матнни ўқиб, сўзлай олмаслик;
– ўта ҳаракатчанлик;
– бир-икки гапирганда тушуниб етмаслик;
– геометрик шаклларни фарқлай олмаслик;
– ўқув қуролларини тоза тута олмаслик;
– вазифани мустақил бажара олмаслик;
– кўчирма диктантларда ҳам қийинчиликка дуч келиш.

Бу санаб ўтилган муаммоларни ҳал этишда ҳам, ўйинга асосланган илғор технологиялар жуда самаралидир.

Бола қанчалик ёш бўлса, ўйин уларни фаолиятида шунчалик катта аҳамият касб этади. Ўқувчиларни тарбиялашда ўйининг аҳамияти етарлича баҳо бермайдиган ўқитувчи ўз ишида катта ютуқларга эриша олмайди. Дарҳақиқат, ўйин болага ором, қониқиш бахш этади. Масалан, компьютер ҳозирги кунда таълим тизимида кенг ўрин эгаллаганини биламиз. Бу ўқувчи фаолиятида ўз аксини топмоқда. Қолаверса ўқувчилар сайр-саёҳатлар ташкил этиш орқали алломаларимиз, халқ қаҳрамонлари ҳаёти-фаолияти билан яқиндан танишиб, ўзбек халқининг жаҳон халқлари қаторидаги ўринни ва нуфузини англамоқдалар.

Ўқувчи тафаккурини ҳар тамонлама ривожлантириш, дунёқарашини кенгайтиришда сайр-саёҳат дарслари кенг кўламда олиб бориш керак.

Чунки унинг билиш, янгиликларни қабул қилиш доираси кенг, ундан тўғри самарали фойдаланиш эса ўқитувчининг вазифасидир.

Ўқувчининг ҳиссий билиш, маълумот ва кўникмаларни қабул қилишга кенг имконият яратиш учун эркинлик бериш, уни ижодий ишлар қилишга, бажарган иши самарасини кўриб қувонишига, янги-янги ютуқларга йўллаш зарур.

Ўқувчиларга бериладиган билимлар, кўникмалар асосан дарс жараёнида сингдирилиши, биринчи синфда ўқув йили давомида, уйга вазифа берилмаслиги, берилса ҳам улар енгил кузатиш, таққослаш, санаб кўриш, расм чизиш, қўшиқ айтиш, сайр қилишдан иборат бўлиб, бу билан таълим элементларини аста-секин ўзлаштириб боришига эришиш мақсадга мувофиқдир

Адабиётлар:

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: ТДПУ, 2006.

2. Сайидахмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т.: РТМ, 1999.

3. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.

4. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Pedagogical development technology creativity of future teachers of history in the conditions of higher education/ Academicia an International Multidisciplinary Research journal, Vol.11., Vol 11, Issue 2, February 2021 (ISSN: 2249 - 7137) page № 532-536

5. Mullis, S., Martin, O., Foy, P., & Hooper, M. (2017). PIRLS 2016 International Results in Reading.

6. Popat, S., Lenkeit, J., & Hopfenbeck, T.N. (2017). PIRLS for Teachers. A review of practitioner engagement with international large-scale assessment results. Oxford, UK: Oxford University Centre for Educational Assessment. 3. Леонтьев А. А. (1999) Психология обучения чтению // Начальная школа: плюс-минус. № 10. С. 9-13.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада, бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантиришни таъминлашга қаратилган инновацион фаолиятни ташкил этиш, танқидий ўқиш, педагогик ҳамкорлик инновациялар тизимини ташкил этиш, ўқитишда маҳоратларни шакллантиришга умумий ёндашишни амалга ошириш масалалари ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматриваются вопросы организации инновационной деятельности, направленной на обеспечение развития учебно-познавательной деятельности учащихся начальных классов, критического чтения, организации системы педагогического сотрудничества инноваций, реализации общего подхода к формированию навыков в преподавании.

SUMMARY

This article covers the issues of organizing innovative activities aimed at ensuring the development of educational and cognitive activities of Primary School students, critical reading, organizing a system of pedagogical cooperation innovations, implementing a general approach to the formation of skills in teaching.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILLARIDA NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Bozorboyeva M. Sh.
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so`zlar: nutq, chet tili, maktabgacha yoshdagi bola, uzluksiz ta'lim.
Ключевые слова: речь, иностранный язык, дошкольник, непрерывное образование.
Key words: speech, foreign language, preschooler, continuous education.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo'nalishdagi o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchilar, talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish, rag'batlantirish kabi qarorlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilindi.

Ayniqsa bolalar va yoshlar uchun qiziqarli mavzularda maqolalar chop etish hamda teleradiodasturlar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida chet tillarida tashkil etilayotgan dasturlar hajmini va ta'sirchanligini oshirish O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga tavsiya etildi.

Keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganishni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-son qarori qabul qilindi..

Bolalar uchun esa mo'ljallangan xorijiy tildagi televizion asarlarni dublyajsiz, asl tilida, zarur hollarda o'zbek, ingliz va rus tillariga titrli tarjima qilgan holda efirga uzatishni yo'lga qo'yish; mazkur qaror mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar, brifinglar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Demak so'ngi yillarda chet tilini o'rganish inson tafakkurini rivojlantirishning bir usuli emas, balki ijtimoiy faoliyat zarurat bo'lib qoldi. Chet tilini o'qitish uzluksiz ta'lim tizimining diyarli barcha bosqichlarida ta'limning majburiy tarkibiy qismi sifatida o'qitiladi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir

tomondan, ota-onalar tomonidan til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi sifatida qaralayotgan bo'lsa - boshqa tomondan chet tilini erta o'rganishni vaqt taqazosi, ijtimoiy faoliyat talabi ekanligida deb ifodalanmoqda. Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba'zi bir sohalar ishlarida talab qilingan bo'lsa, endilikda kamida bitta xorijiy tilni bilish darajamiz har bir sohada zarurat etib qaralmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha chet tilini o'qitishda ko'p yuzaga kelayotgan muammolarning asosiy sababi o'rganuvchilarning yoshi bilan bog'liq hisoblanadi.Ulrning fikricha tilini o'rganishni ancha ertaroq boshlashni tavsiya etiladi ya'ni imkon qadar maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi 3-7 yoshligidan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir: bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular bu yoshda o'zlarining nutq tajribalarini, tilning «sirlarini» tushunishga qiziqishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab yosh avlodni chet tillarini mukammal o'rganishiga shart-sharoitlar yaratish maktabgacha yoshdagi bolalarni tillarni o'rganishga qiziqtirish hamda yo'naltirish pedagogik muommolari dolzarb hisoblanmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- O'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- Chet tillarini o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- Dunyo mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqish uyg'otish.

Chet tilni o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar yoshidan boshlashning afzalroq bo'lishining yana bir sababi, bola qancha yosh bo'lsa, uning so'z boyligi shuncha kamroq bo'ladi. Ammo shu bilan birga uning nutqini egalashga bo'lgan ehtiyojlari ham kambo'ladi: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona tili va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi juda katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi sezishlari yorqinroq bo'ladi.Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tilini o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy jihatdan nochor tashkil etilgan ingliz tili mashg'ulotlari bolalarda uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishni va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchsizlikni hosil qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak.

Taniqli rus o'qituvchisi, rus ilmiy pedagogikasining asoschisi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning keng ko'lamli asarlari orasida uning chet tillarini

o’rganish bilan bog’liq qarashlari alohida e’tiborga loyiqdir. Ushinskiy nafaqat didaktikaning umumiy qabul qilingan qoidalarini qayd etgan, balki chet tillarini o’qitish kursini to’g’ri tuzish bo’yicha qimmatli tavsiyalar bergan, masalan, darsning tez sur’ati, mashg’ulotdan doimiy foydalanish, haftada chet tili darslari sonini ko’paytirish zarurati va boshqalar. «Ikki yoki hatto to’rt emas, balki haftada olti, yetti, sakkizta dars chet tilini dastlabki o’rganishga tayinlanishi kerak, agar biz ushbu o’rganish orqali biron bir ijobiy natijaga erishmoqchi bo’lsak va boladan vaqtni behuda sarflamasak», deb ta’kidlaydi buyuk pedagog.

K. D. Ushinskiy bir vaqtning o’zida bir nechta chet tillarini o’rganish ikkita quyonni ovlashga o’xshaydi, deb ogohlantiradi: “Qachonki birinchi o’rganayotgan chet tilida bola katta erkinlikka ega bo’lganida ikkinchi chet tilini o’rganishni boshlanishi kerak”.

Buyuk Britaniya va AQSh olimlari tomonidan olib borilgan yangi tadqiqot natijalariga ko’ra ikkinchi tilni erta bolalikdan o’rganish ulg’ayganda ong va kognitiv moslashuvchanlikni oshirar ekan.

Erta bolalikdan ikki tilda gapira boshlagan kattalar diqqatli va e’tiborni turli vazifalar o’rtasida tezroq almashtirishga qodir, deb topildi.

Stenford va Kembridj universitetlari, shuningdek Angliya Raskin universiteti va Reding universiteti mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, ikkinchi tilni erta o’zlashtirgan ikki tilli bolalar ko’proq ma’lumot to’plashar ekan. Bu, o’z navbatida, ularni turli vazifalar o’rtasida tezroq o’tishga o’rgatar va «kognitiv moslashuvchanlikni» rivojlantirar ekan. Tadqiqot nufuzli Scientific Reports ilmiy jurnalida chop etilgan.

Buni isbotlash uchun olimlar ikkita tajriba o’tkazdilar, ular davomida ikkinchi tilni erta bolalikdan o’zlashtirgan odamlar va kata yoshda chet tilini o’rganishni boshlaganlar qobiliyatlarini taqqosladilar.

Birinchi tajribada ishtirokchilarga ekrandagi tasvirlarni kuzatib borish taklif qilindi, ulardan biri asta-sekin o’zgarib bordi. Natija shuni ko’rsatdiki, ikkinchi tilni yoshligidan o’rganganlar o’zgarishlarni sezilarli darajada tezroq payqashgan. Ikkinchi tajriba shuni ko’rsatdiki, ular o’zlarining diqqat e’tiborlarini ko’proq nazorat qilishar edi — xususan, ular bir rasmdan ikkinchisiga tezroq o’tishdi.

Tadqiqot mualliflarining ta’kidlashicha, bolalar ikkinchi tilni yoshligidan (0 yoshdan 3 yoshgacha) o’rganganlarida, ularning miyasi ko’proq moslashuvchan, tez o’zlashtiruvchan bo’ladi. Ularning tajribalari shuni ko’rsatadiki, ikkinchi tilni erta o’rganishning foydasi hatto balog’at yoshida ham saqlanib qoladi.

Kanadalik olimlarning yana bir tadqiqotlari esa yuqoridagi tadqiqot topilmalarni tasdiqlaydi. York universiteti mutaxassislari, ikki tilni erta o’zlashtirgan bolalar boshqotirmalarni faqat bitta tilda gapiradigan bolalarga qaraganda tezroq va samaraliroq yechishlarini ta’kidladilar.

Agar siz bolalaringiz ham ikkinchi tilni yoshligidan o'rganishni boshlashlarini istasangiz, buni uyda qilishning bir necha oson usullari mavjud, deb yozadi CNBC. Amerika assotsiatsiyasi til nutqi va eshitish (ASHA) ma'lumotlariga ko'ra, bolalarni boshqa til bilan tanishtirishning samarali imkoniyati qo'shiq aytish, shou tomosha qilish va boshqa tilda musiqa tinglashdir deb maslahat beradi.

Ma'lumki, chet tilini bilish odamlarga aloqa, hissiyotlarning yorqin ifodasi va turli xil his-tuyg'ular palitrasi orqali aloqa muhitini boyitishga yordam beradi. Shubhasiz, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu juda muhim nuqta, chunki maktabgacha yoshda hissiy aqlning shakllanishi sodir bo'ladi, shuningdek, kelajakda ta'lim va ommaviy nutqda muvaffaqiyat qozonish uchun asos yaratiladi. Chet tilini o'rganish jarayoni nafaqat kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga, balki bolalarning psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, chet tilini o'qitish jarayonida samaradorlikka erishish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilidagi nutqini rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bolaning yosh xususiyatlarini, psixologik va hissiy rivojlanishning umumiy darajasini, temperamentning xususiyatlarini, shuningdek fiziologik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kognitiv rivojlanish darajasi, bolaning o'ziga xos xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, sog'liqni saqlash tarixi kabi turli xil omillarni hisobga olgan holda chet tilini o'qitishning sifatli jarayonini tashkil etish muhim va dolzarb vazifadir va maktabgacha ta'lim muassasasining davlat umumiy ta'lim standarti talablariga javob berishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini o'qitish jarayoni bolalarning aqliy va kognitiv rivojlanish darajasini oshirishga qaratilgan, chunki bu shaxsning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun o'ziga xos asosdir. Chet tilini o'qitish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar nafaqat chet tilidagi nutq ko'nikmalarini o'rganadilar, balki o'rganilayotgan til mamlakati madaniyati bilan tanishadilar, o'z ona tilida so'zlashuvchilarga ijobiy munosabatni rivojlantiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilidagi nutqini o'qitish jarayoni nafaqat yangi asosiy aloqalarni shakllantirishga yordam beradi, balki butun dunyoga bo'lgan muhabbatni rivojlantiradi.

Tug'ilgandan ikki yoshgacha bolaning asosiy e'tibor obyekti ona va boshqa yaqin bo'lgan kattalardir, shuning uchun bu davrda chet tilini o'rganish maqbul emas. Bu vaqtda chaqaloq dunyo bilan endigina tanishib va uning nutqi endigina tug'ila boshlaydi. Biroq, uch-to'rt yoshdan boshlab diqqat boshqa odamlarga yo'naltirila boshlaydi. Bolalar atrofdagi kattalarga qiziqishadi va ular, ayniqsa, tengdoshlari bilan muloqotga qiziqishadi. Ushbu davrda bolalar birgalikdagi o'yin faoliyatiga intilishadi. Nutqni rivojlantirish sezilarli yutuqlarga erishmoqda: so'z boyligi sezilarli darajada oshadi, fonemik eshitishning rivojlanishini ko'rsatadigan turli xil qo'shiqlar, qofiyalar, she'riy asarlarga qiziqish kuchayadi.

Ko’rib turganimizdek, bu o’zgarishlar chet tilini muvaffaqiyatli o’rganish uchun juda muhim shartlardir.

Bundan tashqari, ushbu yosh davrida maktabgacha yoshdagi bolalarda yangi narsalarni bilishning asosiy usuli bu o’yin. O’yin maktabgacha va boshlang’ich maktab yoshidagi bola hayotida ta’lim va rivojlanishning asosiy vositasidir. O’yinda o’zini anglay olgan bolalardan muvaffaqiyatli, o’zini o’zi ta’minlaydigan, baxtli, yetuk va o’ziga ishongan kattalar o’sadi.

O’yin jarayoni bolaning miyasi rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O’yinning mohiyati shundaki, bu maqsad natija bo’lmagan faoliyatdir. Va aynan shu narsa miyaga kerak-turli xil his-tuyg’ular, rollar, natijaga yo’naltirilmagan barcha narsalar bilan shug’ullanish. Ishda natija har doim muhimdir va muammolardan biri shundaki, natijaga yo’naltirish zamonaviy dunyoda bolalar hayotiga erta va erta kiradi. Va haqiqiy erkin o’yin xavf ostida.

Shunday qilib, xulosa shuki, har qanday ta’lim, shu jumladan chet tilini o’qitish qat’iy ravishda o’yin orqali, o’yin tarzida taqdim etilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-son qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son

3. Ushinskiy K.D. Pedagogik hikoyalar: B 6 т. T. 2. Tuzuvchi. C.Ф.Егоров. M.: Педагогика, 1998. 120-133 b

4. https://incrussia.ru/news/bilingual-more-attentive/

5. https:// Соколова Ю.В. Особенности иноязычного речевого развития дошкольников // Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 3. ;

6. Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 3. ;www.cnbc. com/2021/01/22/growing-up-bilingual-can-improve-attentiveness-efficiency-study.html

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tillarida nutq faolligini rivojlantirish yo’llari keng ko’lamli taxlil qilinib, yosh avlodni maktabgacha ta’lim bosqichidan chet tillariga qiziqtirib o’qitilishining uzluksiz ta’lim tizimida muxim o’rin egallashi va chet el olimlarining chet tillarini o’rganishga bo’lgan qarashlari haqida e’tirof etildi. Qolaversa O`zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan ta’lim tizimida chet tillarini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar bunga yaqqol misoli ekanligi keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье был проведен обширный анализ путей развития речевой активности на иностранных языках у детей дошкольного возраста, отмечено важное место в системе непрерывного образования обучения подрастающего поколения с дошкольного этапа интересу к иностранным языкам, а также взгляды зарубежных ученых на изучение иностранных языков. Кроме того, указы и постановления, направленные на развитие иностранных языков в системе образования, принимаемые в Республике Узбекистан.

SUMMARY

The article carried out an extensive analysis of the ways of developing speech activity in foreign languages in preschool children, noted the important place in the system of continuing education of teaching the younger generation from the preschool stage to interest in foreign languages, as well as the views of foreign scientists on the study of foreign languages. In addition, decrees and resolutions aimed at the development of foreign languages in the education system adopted in the Republic of Uzbekistan.

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

BO‘LAJAK CHIZMACHILIK O‘QITUVCHILARNING ESTETIK KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpulatov F. U.
TerDPI katta o‘qituvchisi v/b dotsent

Tayanch so‘zlar: chizmachilik, ijodiy qobiliyat, metodika, mustaqil ta’lim, didaktika, didaktik o‘yin, ko‘rsatmali qurollar, ko‘rsatma, idrok, talaba, o‘qituvchi.

Ключевые слова: рисование, творческая способность, методика, самостоятельное обучение, дидактика, дидактическая игра, дидактические средства, инструкция, восприятие, ученик, учитель.

Key words: drawing, creative ability, methodology, independent education, didactics, didactic game, instructional tools, instruction, perception, student, teacher.

Kirish. Mazkur maqola tartib O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-son buyrug‘i asosida shakilanteriln.

Chizmachilik darslari o’quvchilarning mahorat va ko’nikmalarini oshirish uchun bir qator san’at elementlari va asboblaridan foydalanadi. Bu darslarda o’quvchilar qog’oz, qalam, pensil, bo’yoqlar va boshqa asboblar bilan ishlaydilar. Bu asboblar bilan chizish, rasm chizish va tarqatish, naqshlar chizish va boshqa ishlarini o’rganish, chizma asboblari, chizmachilikning tarixi va boshqa mavzularni o’rgatiladi.

Chizmachilik darslarida estetik madaniyatni rivojlantirishning bir qator metodikalari mavjud:

Ma’lumki, bolalar jim o‘tirolmaydilar, ular doimo harakatda bo‘ladilar, ya’ni o‘ynaydilar. O‘yin bolalarning tabiiy hamrohi bo‘lib, ularga olam-olam hayojonli quvonch keltiradi. Bolalar o‘yinlar orqali dunyoni, ya’ni tevarak – atrofni o‘rganadi, shu bilan bir qatorda ma’lum darajadagi tarbiyani ham oladi. O‘yin orqali mehnat qilishga o‘rganadi. O‘yin davomida o‘zining sevgan qahramoni obraziga kirib, o‘zida haqqoniylik, yolg‘on gapirmaslik, zehn

o‘tkirlik, chaqqonlik, kuchli bo‘lishlik, bardosh berishlik, tez topqirlik, g‘alaba qilishga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

O‘yin qoidalari asrlar davomida xalq tomonidan qonunlashtirilib ularning tarbiyaviy ahamiyatiga ko‘p e’tibor berilgan. Shuning uchun maroq bilan ko‘p o‘ynaydigan bolalar zehni o‘tkirligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Umuman olganda, o‘yinni go‘dak boladan tortib mo‘ysafitgacha o‘ynashi mumkin. O‘yinlarni odamlar o‘z yoshiga qarab tanlashadi. Yosh bolalar ko‘proq harakat bilan bog‘liq o‘yinlarni tanlashadi. Chunki, ularning o‘sishi, ulg‘ayishi buni talab qiladi. Yoshi ulg‘aygan sari odamlar asta-sekin ko‘proq fikr yuritadigan o‘yinlarni tanlashadi.

Har xil o‘yinlarning kelib chiqishi xalq pedagogikasining maxsuli bo‘lib, o‘qituvchilar dars berishi jarayonida shu o‘yinlarning ba’zi elementlaridan foydalanishlari zarur.

Adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarning yuqoridagi fazilatlarini o‘rganib, chizmachilik darslariga o‘yin elementlarini kiritish lozim. An’anaviy dars jarayonida o‘quvchilarning zerikishlarini, charchashini sezish bilan o‘qituvchi 5-6 minutlik mavzuga bag‘ishlangan o‘yin o‘tkazishi lozim. Chizmachilikdan o‘tkaziladigan har bir o‘yin o‘ziga hos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Bu yerda o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarning diqqatini o‘tkaziladigan qisqa muddatli o‘yinga jalb qila bilishi katta ahamiyatga ega. O‘yinda o‘quvchi faol ishtirok etishga, fikr yuritishga, mulohaza qilishga qilgan harakatlari ularning butun his tuyg‘ularini ishga soladi. O‘yinli qiziqarli va jonli o‘tishga ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq hisoblanadi.

Agar o‘qituvchi bolalar psixologiyasiga monand yo‘l tutib, ular bilan o‘ynasa, ya’ni ularning yoshiga hos bo‘lgan o‘yin elementlardan foydalansa, oliy toifali chizmachilik o‘qituvchilarning aytishicha, har bir dars kichik – kichik o‘yinlardan tashkil topgan bo‘lsa, albatta dars jonli, qiziqarli, mahsulli o‘tadi.

Didaktik o‘yinlar oddiydan asta – sekin murakkablashtirib tuzilgan bo‘lishi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarda quyidagi faoliyatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi:

- sekin-asta turli didaktik masalalarni kiritish yo‘li bilan aqliy faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlarni shakllantiradi;
- aqliy faoliyatida o‘yinga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi;
- bitta o‘yin chegarasida qator aqliy masalalar majmuasini o‘stiradi;
- barcha o‘ynayotganlarning hissiy va intelektual tuyg‘ularini bitta maqsadga yo‘naltiradi;

– o‘quvchilarda tartiblilik, tashkilotchilik, maqsad sari intiluvchanlik hislarini tarbiyalaydi.

Bunday muammolarni yangi darajada qabul qilish o‘quvchilar ongida ko‘plab kelayotgan turli axborotlarni singdira olishga olib keladi.

Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish.

O‘qitish jarayoning sifati va samaradorligini oshirish masalalarining asosini o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish tashkil qiladi. O‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantirish intelektual, axloqiy erkinlik, jismoniy kuchlarini o‘z faoliyatidagi aniq talablarni qondirishga yo‘llaydi. Faollikning o‘zi inson faoliyatini aniqlaydi.

O‘quvchilarning idrok qilish faolligini oshirish tamoyilining didaktik kansepsiyalari yangi masalalarni ishlab chiqish va yo‘llarini aniqlash, uni joriy qilish omillari bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyatini faollashtirishning didaktik omillari konsepsiyasini chizmachilikdan o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Didaktik o‘yinlarning mazmuni va o‘tkazish shakllarini takomillashtirish yo‘li yordamida idrok qilish faoliyatini rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta’sirini o‘rganish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan o‘qitish uslublarini yangitdan ishlab chiqish mumkin. Bayon qilingan maqsad va takliflarni amalga oshirish uchun qator xususiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keladi.

– didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini asoslab berish;
– o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirish uchun o‘yin mazmuni va shakllarini takomillashtirish metodlarini aniqlash;
– o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshiradigan jarayonlarda o‘qituvchining tipik qiynalishi faoliyatini ochib berish;
– o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshiradigan sharoitlarni o‘yinlar orqali aniqlash va o‘rganish;
– o‘yinlar davrida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni aniqlab o‘rganilgandan so‘ng o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirishga bo‘lgan didaktik talablarni ishlab chiqish;
– aniqlangan yutuq va kamchiliklarni o‘rganib, kamchiliklarni bartaraf qiladigan metodik ishlanmalar yaratish hamda yutuqlarga nazariy model tuzish.

O‘rtaga tashlanayotgan didaktik o‘yinlarning yutug‘i shundan iboratki, har bir qo‘yilgan savolga beriladigan javob shaxsning individual fikr yuritishga majbur qilishdadir.

Didaktik o‘yinlar jarayonida shaxsning mustaqil fikr yuritishga, mulohaza qilishga, taqqoslashga o‘rgata olinsa, fazoviy tafakkur qilish qobiliyati yanada o‘sadi shunda, o‘quvchilarning boshqa fanlarni ham yuqori saviyada o‘zlashtirishlariga imkon yaratilgan bo‘ladi, ya’ni:

– o‘quvchilarda yangi bilimlar olishga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirishga erishiladi;
– o‘quv axborotlarni o‘zlashtirishda umumiy va xususiy ko‘rinishlardagi masalalarni yechishda ijodiy fikrlashga olib keladi;
– olgan bilim va ko‘nikmalarni yangi sharoitga moslashtirishga o‘rgatiladi;
– har bir o‘quvchining idrok qilish qobiliyati faoliyatiga maksimal sharoit yaratilgan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

Darslarda didaktik o‘yinlarni o‘tkazish.

O‘yinni birinchi darsdanoq o‘tkazishga shoshilmaslik kerak. Oldin o‘quvchilarda chizmachilikdan ma’lum darajada bilim hosil qilish lozim. Shuning uchun o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajalarini o‘rganib chiqqandan keyingina o‘yin mavzusini tanlash tavsiya etiladi. Ba’zida o‘yinni yangi o‘tilgan mavzuni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini tekshirish maqsadida o‘tkazish ham mumkin. Ba’zi hollarda dars davomida o‘quvchilar mavzuni tushunishga qiynalishsalar, shu mavzuga bog‘liq bo‘lgan, ammo o‘tilgan dars yuzasidan o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘yinda sinfdagi hamma o‘quvchilarning qatnashishi yoki ular ikkita va undan ortiq komandalarga bo‘linib o‘ynashi mumkin.

Ba’zi o‘yinlarni sinfdan tashqarida o‘tkazish mumkin. Chizmachilikdan o‘tkaziladigan viktorina, olimpiyada kabi tanlovlarda ham o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Domino o‘yini.

O‘yinning sharti. Detalning ko‘rinishlarini ularning yaqqol tasvirlari bilan solishtirib o‘qish.

Maqsad. O‘quvchilarning chizmalarni o‘qish bo‘yicha olgan malakalarini, idrokini takomillashtirish.

Jihozlar. Domino toshlari o‘rniga eni 60 mm, uzunligi eniga nisbatan ikki marta katta, ya’ni 120 mm li karton qog‘ozlarda detallarning yaqqol tasvirlari va ko‘rinishlari.

Ana shu karton qog‘ozlarni teng ikkiga chiziq bilan bo‘lib, ularning bir tomoniga detallarning yaqqol tasvirlari ikkinchi tomoniga o‘sha detallarning ko‘rinishlari chiziladi. Natijada domino “toshlari” hosil bo‘ladi. Buning uchun oldin quyidagi jadval tuziladi:

0:0	1:0	2:0	3:0	4:0	5:0	6:0
0:1	1:1	2:1	3:1	4:1	5:1	6:1
0:2	1:2	2:2	3:2	4:2	5:2	6:2
0:3	1:3	2:3	3:3	4:3	5:3	6:3
0:4	1:4	2:4	3:4	4:4	5:4	6:4
0:5	1:5	2:5	3:5	4:5	5:5	6:5
0:6	1:6	2:6	3:6	4:6	5:6	6:6

Yettita detal tanlanib, ularning birinchini 0, ikkinchisini 1, uchinchisini 2, to‘rtinchisini 3, beshinchisini 4, oltinchisini 5 va yettinchisni 6 raqamlar bilan belgilab, jadvaldagiga o‘xshatib domino “toshlari” tuziladi. Shunda har bir detalning yaqqol tasviri va ko‘rinishlari yetti martadan takrorlanadi. 0:0, 1:1, 2:2, 3:3, 4:4, 5:5 va 6:6 lar dominodagidek dupl toshlar hisoblanadi (1-chizma). Qolgan kartochkalarda, masalan 1:5 da 1 detalning yaqqol tasviri, uning yonidagi



1-chizma



2-chizma

joyga ko‘rsatilgan raqamdagi detalning ko‘rinishlari chiziladi (2-chizma). Hammasi bo‘lib, kserokopiya yordamida, 49 ta “tosh” tayyorlanadi.

O‘yinning tafsiloti. O‘yinni eng kam ikki o‘quvchi ishtirokida boshlash mumkin. Chizmalar ham domino toshlari kabi aralashtirib teskarisi bilan qo‘yiladi. O‘quvchilar ularni bittalab yettitagacha oladilar. O‘yin qur’aga binoan o‘qituvchi rahbarligida boshlanadi. O‘yinchi o‘zi hohlagan “tosh”ni o‘rtaga tashlaydi. Ikkinchi o‘yinchi o‘rtaga tashlangan detalning ko‘rinishlariga mos yaqqol tasvirini yoki yoki detalning yaqqol tasviriga mos ko‘rinishlarini

“tosh”ga ulab qo‘yadi (3-chizma). O‘yin shu tartibda davom etadi. Bunda detalning yaqqol tasviriga yoki ko‘rinishlariga mos kelmaydigan chizma qo‘yilsa, noto‘g‘ri yurilgan hisoblanadi. O‘yinchining qo‘lida mos keladigan chizma bo‘lmasa, o‘rtadagi chizmalar to‘dasidan toki mos kelguncha olaveradi. Agar o‘rtadagi chizmalardan mosi topilmasa, u holda yurish navbatini o‘tkazib yuboradi, ya’ni domino o‘yinining qoidasiga rioya qilinadi. Bu yerda yaqqol tasvirga yaqqol tasvir, ko‘rinishlarga ko‘rinishlar qo‘yilmaydi. Faqat yaqqol tasvirga unga mos ko‘rinishlari qo‘yiladi. Ko‘rinishlariga esa mos yaqqol tasviri qo‘yiladi. O‘yinchilar ushbu qoidani eslab qolishlari shart hisoblanadi.



3-chizma

Kim birinchi bo‘lib qo‘lidagi chizmalarni to‘g‘ri qo‘yib tugatsa, o‘yinning g‘olibi hisoblanadi. Agar o‘yin “riba” (“baliq”) bilan tugasa, ya’ni o‘yinchilarning qo‘llarida “toshlar” bo‘lsa-yu, yurish imkoniyati bo‘lmasa, qo‘lida eng kam “toshlar” qolgan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi. Agar hammada barobar “toshlar” qolsa o‘yin durang bilan yakunlanadi.

3-chizma Eslatma. O‘yinda to‘rt nafargacha o‘yinchi o‘ynashi mumkin. Unda bir nechta komanda tuzilib, har bir komandadan ikki nafardan g‘oliblar aniqlanadi, ulardan yana komandalar tuzib, eng oxirida ikkita o‘yinchidan bittasi chempion bo‘lishi mumkin. Birinchi turda g‘olib chiqqanlardan tuzilgan komandalarga o‘rtacha murakkablikdagi, ikkinchi tur qatnashchilariga murakkabroq va final qatnashchilariga yanada murakkabroq detallarni tanlash tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan domino o‘yini jadvaliga asosan tayyorlanadigan 49 ta “tosh” quyida berilgan. Bu yerdagi raqamlar o‘yindan oldin olib tashlanadi.

Umumiy xulosa. Chizmachilik o’qituvchilarning didaktik o’yinlar, o’quvchilarni o’rganishni oshirish, o’quv jarayonini qiziqarliroq qilish va o’qishni ko’proq xatolik qilishni kamaytirishga yordam berish uchun ishlatiladigan o’yinlar hisoblanadi.

Bu o’yinlar, o’quvchilarni faol ishtirok etishni taqozo qiladi va ularni o’qishni xatolik qilishdan qaytarishni o’rganishga oshiradi. Ular shuningdek, o’quvchilarning ehtiyojlariga va qiziqishlariga mos keladigan ko’plab turli xil o’yinlarni o’z ichiga oladi.

O’yinlarning yana bir foydasi, ular o’quvchilarning o’rganish uslubini o’zgartirishga yordam berishidir. Chizmachilik o’qituvchilarning didaktik

o'yinlarining asosiy maqsadi, o'quvchilarning o'rganishini muhim ma'lumotlarni ko'rsatish va ularni qiziqarli va foydaliroq qilish orqali yaxshilashdir.

Adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohaza. Ma'rifat, 1998.
2. Rahmonov I., Valiyev A. va boshqalar. Chizmachilikni o'qitishda pedagogik texnologiyalar (I va II qismlar), T., "TDPU rizografi", 2012.
3. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi –Toshkent: RTM, 1999.
4. Hasanov R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o'qitish kontseptsiyasi. – Ma'rifat, 2005. 26 yanvar.
5. Xalimov M. Chizmachilik darslarida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash. - Xalq ta'limi jurnali. 2006. 3-son.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Chizmachilik darslarida Didaktik o'yin texnologiyasi mazmuni va mohiyati bilan tanishtirish hamda undan muhandislik grafikasi fanlari darslarida foydalanish masalalarini tahlil qilishni talabalarga o'rgatish.

РЕЗЮМЕ

В данной статье мы знакомим с содержанием и сущностью дидактической игровой технологии на уроках рисования и учим студентов анализировать вопросы ее использования на занятиях по инженерной графике.

SUMMARY

In this article, we introduce the content and essence of didactic game technology in drawing classes and teach students to analyze the issues of its use in engineering graphics classes.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

TALABA QIZLAR JISMONIY TARBIYASIDA HARAKATLI O`YINLARNI QO`LLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Danieva Y.Ch.
Termiz davlat universiteti, Sport faoliyat va boshqaruvi fakulteti dekani
Shodmonova S .Ch.
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Termiz filiali ijtimoiy -gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Tayanch so`zlar:** jismoniy tarbiya, tarbiya, talaba qizlar, jamiyat, xotin-qizlar, e`tibor, qobiliyat, qo`llab-quvvatlash.

Key words: physical education, upbringing, female students, society, women, attention, ability, support.

Ключевые слова: физическое воспитание, воспитание, студентки, общество, женщины, внимание, способность, поддержка.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham har bir ma'ruzalarida xotin-qizlar roliga alohida e'tibor berib, ularning jamiyatdagi faoliyatlarini rivojlantirib, iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratishni aniq belgilab berdilar. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasining roli yanada oshirildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, odob-axloq, tarbiya xotin-qizlar, ona va ayol haqidagi g'oyalar eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida shakllanganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Eng qadimgi yozma manbalarda odob-axloq g'oyalari zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi «Avesto»da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Muqaddas Qur'oni-Karim va Hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda ayol va xotin-qizlarga bag'ishlangan qimmatli fikrlari bayon qilingan. Hadislarda «qizlarni turmushga chiqarish to'g'risida onalar bilan maslahatlashing» deb ta'kidlangan2.

Insoniyat paydo bo'libdiki, farzand tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Har qanday jamiyat, tuzumda kelajak avlod tarbiyasi, istiqboli birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Zero, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga etayotgan o'g'il-qizlar kamoli bilan chambarchas bog'liq.

Turli xil davrlarda farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor turli darajada bo'lgan. Qaysi jamiyat o'z naslining istiqbolini o'ylamas ekan ana o'sha jamiyat inqirozga uchrashi, parokandalikka yuz tutishiga tarix sahifalari ko'p bor guvohlik bergan.

Bugun O'zbekiston aholisining ko'pchiligini yoshlar tashkil etadi. Ular manfaatini himoya qilish, barkamol bo'lib voyaga etishlari va qulay shart-sharoitlarda o'qishlari, mehnat qilishlari va imkoniyatlarning yaratilishi yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mo'ljallari, o'zlarini qanday tuta bilishlari mamlakatimizning kelajak taqdiri bilan juda uyg'un.

O'zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraladi. O'zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so'zi, o'zini tutishiyu, epchil-chaqqonligi u ko'zga ko'ringan paytdan boshlab odamlarning og'ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko'ra uning husni xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko'proq ahamiyat beriladi.

Shuning uchun hamki qizning tug'ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalarini qat'iy o'rgatib boriladi. Har bir qiz - ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Harakatli o'yinlar garmoniyasi ichki ma'naviy go'zallikni yaratadi, bu esa epchillik, harakatlar aniqligi, bu harakatlarni amalga oshirayotganda o'ziga ishonch va albatta, ko'tarinki kayfiyat ritmida namoyon bo'ladi. U o'quvchilar tomonidan muhim estetik qadriyat sifatida qabul qilinadi va baholanadi.

Harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash - maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanib, shaxsni borliqdagi go'zallikni to'liq qabul qilish va to'g'ri tushunish qobilyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. U estetik tasavvurlar, qarashlar, estetik ong va estetik did tizimini ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Bir vaqtning o'zida bu jarayon o'quvchilarda hayotiy jarayonda barcha sohalar orqali go'zallik elementlarini kirita olish qobilyati va intilishlarini tarbiyalaydi. Estetik tarbiya inson tomonidan faqatgina birgina san'at sohasi orqali namoyon bo'lishi bilangina chegaralanmaydi, u barcha ijodiy yondashilgan faoliyatda mavjuddir. Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash nafaqat mazmun, balki metodik jihatidan ham rang-barang hamda keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Harakatli o'yinlar jarayonida estetik tarbiya funksiyalari quyidagi metodlar orqali izohlanadi:

– harakatli o’yinlarning emotsional izohini ko’rsatib tushuntirish;
– harakatlarning texnik maromiga etkazdirib va emotsional tarzda izohlash, bu go’zallikka ta’sirlanish hissini keltirib chiqarish;
– harakatlarda va faoliyatlarda rohatlanish hissini namoyon etish;
– harakatli o’yinlar bilan shug’ullanish jarayonida harakat faoliyatida go’zallikni ijobiy namoyon bo’lishiga amaliy o’rgatish.

Harakatli o’yinlar vositasida boshlang’ich sinf o’quvchilarini estetik tarbiyalashni amalga oshirishni maqsad qilib qo’yilgan darsga quyidagi asosiy talablar qo’yiladi:

– jismoniy tarbiya jarayonida harakatli o’yinlarning vazifalari, o’quv materiallari mazmuni bilan o’quvchilarning bilish faoliyatlari hamda mashg’ulotlarni tashkil etishning metoddari va usullarining o’zaro uyg’unligi;
– o’yindagi vazifalarni aniq qo’yish hamda ularning asosiy harakatlariga va estetikasiga alohida e’tibor berish;
– o’quvchilarda harakatli o’yinlarning estetik sifatlarini shakllantirishni faollashtirish;
– didaktik imkoniyalardan unumli foydalanish;
– darsning mazmuni va metodlarining qulaylik holatda tuzish;
– materiallarni o’zlashtirishda harakatli o’yinlarning optimal darajasini ta’minlash (sinflar bo’yicha);
– boshlang’ich sinf o’quvchilarning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olish;
– o’quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuv;
– dars materiallarining moddiy mavjudligi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida jismoniy madaniyat va sport harakati hamda jismoniy tarbiya vositalarini maxsus tizimlar turkumi deb ishlatiladi.

Jismoniy tarbiya tizimining muhim bosqichlaridan biri jismoniy vositalardir. Ularning tarkibiy qismi esa gimnastika, sport turlari, harakatli o`yinlar va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi (quyosh, havo, suv, gigienik omillar) ta’sir kuchlaridan iborat.

Ko`rinib turibdiki, harakatli o`yinlar jismoniy tarbiya tizimining muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Harakatli o`yinlar mazmun va shakl jihatdan quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Jamoali (komanda) o`yinlar.
2. Ommaviy (ko`pchilik birgalikda o`ynaydigan) o`yinlar.
3. Yakka yoki juft tartibdagi o`yinlar.
4. Estafetali o`yinlar.

Harakatli o‘yinlar aslini olganda qadimgi xalq pedagogikasining mahsulidir. Qadim vaqtlarda ham oilalarda bolalarni ilk yoshidan boshlab topqirlikka, zukkolikka, chaqqonlikka o‘rgatadigan topishmoqlar, o‘yinlar, maqol-masallar asosida tarbiyalab kelingan, kichkintoylarga dastlabki harakat malakalari bilan bog‘liq bo‘lgan harakatli o‘yinlar o‘rgatilgan. Tez aytish, hisoblash, sanoq o‘yinlari, chori-chambar singari o‘yinlar kichik yoshdagi bolalarni o‘ziga jalb qilgan. Bolalar katta bo‘lgan sayin ularga turli xil harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan xalq o‘yinlari o‘rgatilgan. Xalq og‘zaki ijodidan olingan o‘yin folklori bugungi kunda ham o‘zining badiiy go‘zalligini, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmay kelayotganligi uchun ham eng qimmatli vosita sifatida amalda qo‘llanmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga baynalminal tarbiya berish maqsadida ularga turli qo‘shiqlar, raqslar va o‘yinlar o‘rgatish orqali mamlakatimizda yashaydigan barcha xalqlarni xurmat qilishga o‘rgatib bolrilmoqda. Shuning uchun ham turli xalqlarga tegishli bo‘lgan har xil harakatli o‘yinlarni tanlash, o‘rganish va bolalarga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Milliy o‘ziga hos o‘yin folklori namunalari bilan tanishish va ba’zi bir xalq o‘yinlarini bolalar hayotiga olib kirish turli xalqlar ijodiga, san’atiga va shu orqali o‘sha xalq vakillariga xurmat tuyg‘usini tarbiyalab boradi.

Adabiyotlar:

1. A’zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533

2. Bahodir o’g’li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – C. 521-523.

3. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/

4. Ахмедова Ф.М. Pandemiya davridagi ta’lim tizimi Журнал социальных исследований, 2020

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish haqida, O’zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor bilan qaralishi haqida, talaba qizlar jismoniy tarbiyasida harakatli o`yinlarni qo`llashning metodologik asoslari haqida so`z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет о повышении общественно-политической и общественной активности женщин в нашей стране, об особом внимании, уделяемом воспитанию девочек в узбекских взглядах, о методических основах использования подвижных игр в физическом воспитании студентки.

SUMMARY

In this article, we talk about increasing the socio-political and social activity of women in our country, about the special attention paid to the upbringing of girls in Uzbek views, about the methodological basis of using movement games in the physical education of female students.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK JARAYONNING MAZMUNI

G‘ofurov A. U.
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so’zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta’lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta’lim, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, innovasion va raqamli, ta’lim standartlari, Ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, учителя физической культуры, инновационные и цифровые, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические.

Key words: socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, continuous education, physical education teachers, innovative and digital, educational standards, Education and training, scientific-methodical.

Kirish. Bugungi kunda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida yangicha yondashuvlar va ta’lim metodikasi asosida yuksak axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalash jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir. To‘g‘ri uyushtirilgan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida uyushganlik, ongli intizom, tashabbuskorlik, topqirlik kabi axloqiy va irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni bajarish paytida mashg‘ulot rahbarlari tomonidan ongli ravishda va ustalik bilan yaratiladigan katta-kichik qiyinchiliklarni yengib yetadilar, bu qat’iylik, botirlik, sabotlilik, dadillikni tarbiyalashga yordam beradi. Jamoa mashqlarini uyushgan holda bajarish, yurishlar, musobaqalar, bayramlar, do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining jismoniy va ruhiy tayyorgarligida irodaviy sifatlarning o‘rni beqiyosdir. Bunda ularning irodaviy kuch talab etadigan mashg‘ulot jarayoniga ko‘nikishlari va jismoniy tayyorgarlikdagi turli xil bosimlarga tezda moslashishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, iroda juda murakkab jarayon bo‘lib, uni bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin: muayyan maqsadni tanlash;

maqsadga erishish yo‘llarini anglash va shakllantirish; shakllangan fikrlarni mustahkamlash; kutilayotgan ijobiy va salbiy oqibatlarni solishtirib, sabab motivlarini o‘rgangan holda, maqsad sari harakatlanish; iroda jarayoni maqsad amalga oshganidan so‘ng yakunlanadi.[1:3] Iroda to‘siqlarni yengib o‘tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo‘naltirilgan psixik faollik bo‘lib, maqsadga intilishda vujudga keladi va instinklar negizida shakllanadi.[2] Bundan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining irodaviy faolligini ijobiy – qat’iyatlilik, mustaqillik, matonatlilik, jasurlik, mardlik, chidamlilik va sabr-toqat; salbiy – beriluvchanlik, xudbinlik, yalqovlik kabi sifatlarini ajratish mumkin.

Jismoniy tarbiya – sof sport musobaqalaridan iborat bo‘lgan jarayongina emas, balki ushbu tarbiya orqali talabalarda axloqiy irodaviy xislat va fazilatlar tarkib toptirilishidir. Jismoniy mashqlarni bajarish davomida talabalarda iroda, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik tarbiyalanadi, ularning sog‘ligi mustahkamlanadi, ish qobiliyatlari, aqliy faolligi oshiriladi, jasurlik, halollik, qat’iylik, mustaqillik kabi axloqiy xulq me’yorlari tarkib topadi, yetuklik sari qadam tashlanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘qituvchi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat’iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyatini innovasion tashkil qilish, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovasion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sog‘lom shaxsgina o‘zining intellektual, ma’naviy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovasion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Insonning harakatli faoliyatida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, qayishqoqlik kabi jismoniy sifatlar muhim rol o‘ynaydi. Bunda jismoniy sifatlar doimo birgalikda, o‘zaro aloqada namoyon bo‘ladi. Bu inson organizmining ichki butunligi, uning funksiyalarining o‘zaro harakati bilan izohlanadi.

Kuch deb tashqi qarshilikni muskullar tarangligi bilan yengish qobiliyatiga aytiladi. Kuch u yoki bu darajada istalgan bir harakatda namoyon bo‘ladi. Shtanga ko‘tarish, qo‘lda tortilish, vertikal arqonga oyoqlar yordamisiz tirmashib chiqish, yadro irg‘itish va boshqalar kuchning yorqin ifodasidir.

Tezkorlik - bu kishining harakatni mumkin qadar yuqori tezlikda bajarish qobiliyatidir. Harakat tezligini va harakat reaksiyasining tezligini farqlash mumkin.

Epchillik - bu harakatni koordionasiyalash, yangi harakatlarni egallash o‘zgarib turuvchi sharoit talabiga ko‘ra bir harakatdan ikkinchisiga tezda o‘ta olish qobiliyatidir. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun yangilik va koordision qiyinchilik unsuri bo‘lib ko‘rinadigan har qanday jismoniy mashqdan foydalanish mumkin.

Chidamlilik - organizmning u yoki bu harakat faoliyatidan toliqishga bardosh bera olish qobiliyatidir. Umumiy chidamlilik uzoq vaqt davomida o‘rtacha sur’atda tinimsiz harakat faoliyatiga bardosh berish qobiliyatidir. Maxsus chidamlilik esa muayyan faoliyatdagi chidamlilikdir. Sportda tezkorlik va chidamlilik birikib keladigan tezkor chidamlilik, kuch va chidamlilik birikuvida keladigan kuch chidamliligi bo‘lishi mumkin. O‘rtacha zo‘r berishni, lekin uzoq muddat davomida bajarishni talab qiluvchi turli jismoniy mashqlar chidamlilikni o‘stirishning vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Chayirlik kishi organizmining tayanch harakat apparati zvenolarining harakatchanligi bilan xarakterlanadigan xususiyatidir. Harakat ko‘lami qayishqoqlikning ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Harakat ko‘lami tezkorlik, chaqqonlik va boshqa sifatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etadi. Qayishqoqlikni tarbiyalash uchun cho‘zilish, ya’ni harakatlar ko‘lami oshirib bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi. Bu mashqlar avvalo, qo‘llar oyoqlar, gavda, bosh uchundir. Yurishning va katta qadam turli xillari «qadamlab» sakrashlar, cho‘kkayib turgan holatda sakrashlar, chuqur o‘tirish, gimnastika devoriga yuz o‘girib yoki teskari turib - oldinga , orqaga, yon tomonlarga o‘girish mashqlari va boshqalar. Kishining jismoniy sifatlari harakat malakalari va ko‘nikmalari bilan, shuningdek, irodalilik sifatlari bilan doimo chambarchas bog‘liqdir. Bunda tezkorlik, kuch, epchillik va chidamlilikning hosil bo‘lishi tegishli chidam va sabotni ko‘pincha esa botirlikni talab etadi. Kishining jismoniy sifatlarini tarbiyalash jismoniy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizasiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovasion faoliyatning maqsadi

jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi, yoshlarni ijtimoiy muno sabatlar tomon yo‘llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni yaratish zaruratining oshishi, pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonda o‘quvchi faoliyatini boshqarish uchun loyihalangan jismoniy tarbiya darslarining barkamol shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilishi bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Innovasion faoliyat o‘qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, ya’ni bugungi kun talabalarini innovasion faoliyatga tayyorlashda quyidagi jihatlarga e’tiborni qaratishi lozim:

- bakalavriatura bosqichida tahsil olayotgan talabalarni ijodiy-motivasion yo‘naltirish, ya’ni ularning ijodiy qiziqishi, muayyan yutuqlarga intilishi inobatga olinishi zarur;
- kreativlik fazilatlarini tarkib toptirish, ya’ni ularning tanqidiy fikrlashi, baho bera olish qobiliyati, mushohada yuritish, refleksiyaga moyilligini o‘stirish;
- o‘z kasbiy faoliyatini baholashga o‘rgatish, ya’ni ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyatini shakllantirish va boshqalar;
- talabalarda qat’iyatlilik, mas’uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqa sifatlarni rivojlantirish.

Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoaning o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko‘pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovasion jarayonlarda ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovasion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o‘qituvchi bo‘ysunuvchi, ya’ni yangilikning faqat iste’molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Jismoniy madaniyat tizimining afzalliklari – bu faqat imkoniyatlardir, bu imkoniyatlarni realikka aylantirish, ro‘yobga chiqarish uchun kishilarning oqilona va astoydil faoliyati kerak, irodaviy sifatlar ham zarur, davlatimiz

jismoniy madaniyatni bevosita amalga oshirishni hamda unga rahbarlik qilishni ishonib topshirib qo‘ygan kishilar avvalo oqilona va astoydil faoliyat ko‘rsatishlari kerak. Aks holda jismoniy madaniyat tizimining imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, bu esa demokratik jamiyatga ma’naviy talafot yetkazadigan muvaffaqiyatsizlik va mag‘lubiyatlarning sababi bo‘lishi mumkin.

Jismoniy barkamollik – bu har tomonlama rivojlanishning va odamda harakat qilishga tayyor bo‘lib turishning tarixan vujudga kelgan darajasi bo‘lib, ishlab chiqarish, harbiy, turmush sharoitlariga moslanish imkoniyatini yuksak ish qobiliyatini hayotiy muhim vazifalarning me’yorida o‘sishini ta’minlaydi. Bu esa:

Birinchidan,har bir tarixiy davr uchun o‘z darajasi jismoniy rivojlanishning o‘z ideal xarakteri, eng yuksak, insonparvar jamiyatning chinakam taraqqiyotini, butun xalqning jismoniy kuchlari va salomatligining ravnaqini ifodalovchi daraja, qullik va eksplutasiya kishanlaridan xalos bo‘lgan, demokratiyaga intilayotgan jamiyat barcha a’zolari jismoniy barkamolligi darajasi bo‘ladi.

Ikkinchidan, jismoniy barkamollik, turli yoshdagi va jinsdagi kishilarning kamol topishi uchun o‘zining xususiyatlariga ega bo‘ladi

Uchinchidan, garchi taklif etilgan, jismoniy barkamollikni aniqlab beradigan ta’rifda bevosita «salomatlik» so‘zi bo‘lmasa ham, aslida ana shu ta’rifda insonning mo‘tadil salomatligini xarakterlab beradigan jamiki muhim narsalar ko‘zda tutiladi. Chunki salomatlik dastavval u yoki bu ijtimoiy sharoitlarida organizmning mehnat va ijtimoiy faoliyatini to‘la-to‘kis amalga oshirish qobiliyatini ta’minlaydigan holatdagi biologik normadir.

Natijalar. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovasion faoliyati natijasida o‘quvchilarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o‘rganilib chiqiladi, maktab va sinfdan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo‘ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta’minlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sog‘lom turmush tarzini reklama qiluvchi tarbiyaviy tadbirlar: suhbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, o‘quvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olinadi, sport to‘garaklariga jalb qilinadi, tahsil oluvchilarning jismoniy, ruhiy hamda intellektual qobiliyatlari o‘stiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muhit atroflicha o‘rganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi. O‘qituvchining innovasion faoliyati voqelikni o‘zgartirish, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. Demak, o‘qituvchi va tahsil oluvchi o‘rtasidagi «sub’yekt-sub’yekt» munosabatlari yangi muloqot namunasi sifatida o‘zgarishi innovasion faoliyat shartlaridan biridir.

Jismoniy barkamollik -bizlar intilishimiz zarur bo‘lgan ideal. Jamiyatning intilishlari, insonning o‘z intilishi tufayli bu ideal inson jismoniy rivojlanishi, sihat-salomatligi, uzoq yashashi darajasining real moddiy ko‘rsatkichiga aylanadi. Bu ideal odamga tegishli narsaga, uning mulkiga aylanib, erishgan narsalar negizida va o‘sib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlar ta’sir ostida, jumladan, ishlab chiqarish ehtiyojlari hamda insonning o‘z ichki ehtiyojlari ta’sir ostida yanada rivojlanadi. Bu jarayon cheksiz xarakterga ega bo‘lib, inson barkamolligi uchun kurash demokratik jamiyatda ham hech qachon tugamaydi.

Jismoniy madaniyat- bu umumiy madaniyatning bir qismi, xalq jismoniy barkamolligi maxsus vositalarini yaratish hamda foydalanish ishini jamiyat erishgan muaffaqiyatlarning yig‘indisidir. Sihat-salomatlik darajasi, jismoniy qobiliyatlarning har taraflama rivojlanishi, sport mahorati va kishilarning kundalik hayotiga jismoniy tarbiya vositalarining singib ketishi va ana shu erishilgan muvaffaqiyatlarga jismoniy tarbiya va vazifalarni hal etish bilan bevosta bog‘liq bo‘lgan jamiyat hayotida paydo bo‘lib, rivojlanadigan narsalarning hammasini ham kiritish kerak. Shu jihatdan qaraganda, jismoniy madaniyatni amalga oshirishga hamda unga rahbarlik qilishga da’vat etilgan jismoniy tarbiya tizimi, maxsus ilmiy tashkilotlar muhim ko‘rsatkich bo‘ladi.

Jismoniy madaniyat –muayyan tarixiy sharoitlar mahsuli.Har bir ijtimoiy-iqtisodiy davr uchun o‘zining jismoniy tarbiyasi xarakterlidir. Masalan, kishini kishi tomonidan ekspluatasiya qilishga asoslangan barcha ijtimoiy formasiyalarning jismoniy madaniyati demokratik jamiyat jismoniy madaniyatidan tamomila farq qiladi. Bu farq dastavval shundan iboratki, jismoniy madaniyat jamiyat tarixida birinchi marta xalq boyligi, mulki bo‘lib qoladi, shaxs hartaraflama barkamolligining mushtarak va majburiy sharti bo‘lib qoladi.

Jismoniy madaniyatning mazmunida o‘tkinchi bo‘lmagan, umumbashariy ahamiyatiga ega elementlar bor. Shunday qilib, jismoniy tarbiya shunday ijtimoiy hodisani, u jismoniy madaniyat sohasida ijtimoiy tarixiy tajriba jarayonida to‘plangan muvaffaqiyatlarning hammasini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya erishgan muvaffaqiyatlar jamiyat hayotida faol rol o‘ynaydi. Bu muvaffaqiyatlar kishilarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalash vositalari sifatida foydalaniladi.

Jismoniy madaniyat nazariyasining yuqorida bayon etilgan asosiy tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘langandir, chunki ushbu tushunchalarda aks ettirilayotgan hodisalar o‘rtasida ob’yektiv ichki aloqa bor. Binobarin, bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, metafiziklarcha bir-biridan

ajratib tashlash mumkin emas. Ayni paytda ularni aniq farqlash kerak, chunki ularning har biri har xil hodisalarni aks ettiradi.

Demak, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovasion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda muayyan me’yorlardan foydalanish talab qilinadi. Bunday me’yorlar yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovasiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlarini qamrab oladi. Pedagogik jarayonda yangilik ta’lim-tarbiya jarayonida kashf qilinadigan yangilik darajasi mohiyatini aks ettirsa, maqbullik o‘qituvchi va tahsil oluvchining muayyan ta’limiy natijalarga erishish uchun sarflangan kuch va vositalari, natijalilik esa o‘qituvchi faoliyatidagi salmoqli ijobiy samaralarni bildiradi.

Sport kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: sog‘liqni mustahkamlashga, umumiy jismoniy rivojlanishga, amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi va o‘zining yuksak emosionalligi bilan farqlanadi. O‘zbek sportchilari o‘zlarining ulkan yutuqlari bilan mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportning taraqqiy etganini namoyish qilib kelmoqdalar. Sportdagi yuqori natijalarga faqat sport texnikasini o‘rganish va o‘zlashtirish asosidagina erishish mumkin. Bu ham jismoniy madaniyatning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy mashqlar ta’siri ostida kishi tanasi proporsional ravishda rivojlanadi, qaddi qomati go‘zallashadi, harakati mayin, chaqqon, dadil bo‘ladi. Bayramlardagi gimnastik chiqishlar, ommaviy raqs mashqlari, estetik zavq bag‘ishlaydi. Badiiy gimnastika, konkida figurali uchish kabi jismoniy mashq turlari estetik tarbiya talablariga to‘la muvofiq keladi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan jismoniy madaniyatga doir islohotlar turli ijtimoiy, iqtisodiy omillar zamirida odamlar o‘rtasida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat xarakteri davlatning milliy mafkura va siyosati, madaniyati, axloqi, san’ati va dini, ma’rifati va tarbiyasi, shuningdek, uning ishlab chiqarish, fan va texnikasi bilan qay darajada o‘zaro bog‘liqligi orqali ifodalanadi. O‘zbekistonda jismoniy tizimi odamlar turmushining sub’yektiv va ob’yektiv jihatlarini ifodalaydi, shuning uchun ham insonning shakllanayotgan hayot va mehnat sharoiti bilan uzviy bog‘liqdir.

Oliy maktabda ham o‘yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tezkorlikni tarbiyalovchi o‘yinlar;
2. Kuchni oshiruvchi o‘yinlar.

3. Chaqqonlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
4. Chidamlilikni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
5. Egiluvchanlikni tarbiyalovchi o‘yinlar

Harakat sifatlari ya’ni, tezlik, chaqqonlik kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sportchining ish qobiliyatini belgilashda uning yuqori natijaga erishishida muhim ko‘rsatkich bo‘lib, ular harakat malakasining shakllanishida, takomillashishida birgalikda rivojlanadi. Harakat malakalari va jismoniy sifatlarning takomillashishi yagona jarayondir. Harakat sifatlari-kuch tezlik va chidamlilik harakat apparatining boshqarilishi va koordinasiya mexanizmlarini takomillashishi tufayli rivojlanadi. Shu bilan birga, jismoniy sifatlarning takomillashishi funksional va morfologik siljishlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, skelet muskullari va yurak muskulini gipertrofiyalanishi, harakat koordinisiyasining takomillashishi, harakat apparatidagi o‘zgarishlarga olib keladi.

Muskul kuchi muskulning taranglanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, u asosan muskul strukturasiga, muskul qisqarishida bo‘ladigan biokimyoviy jarayonlarga va fiziologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Muskul kuchi uning maksimal taranglanishida yuzaga kelgan kuch bo‘yicha belgilanadi.U muskulning izometrik rejimida, yoki eng ko‘p yuk ko‘targanda kuzatiladi. Muskulning izometrik rejim bilan qisqarishida yuzaga keladigan maksimal taranglik muskulning hamma tolalarini ishga jalb etilishi natijasida sodir bo‘ladi. Bunday jarayonda kuzatilgan kuch muskulning maksimal kuchi deb yuritiladi.

Kishi oxirgi imqoniyati bo‘yicha qo‘zg‘ata oladigan yuk og‘irligi uning ixtiyoriy maksimal kuchini ifodalaydi. Biroq ixtiyoriy maksimal kuchning bunday sharoitda yuzaga kelishida muskul maksimal darajada taranglanadi. Ixtiyoriy maksimal kuch bilan muskulning absalyut kuchi o‘rtasidagi farq kuch yetishmovchiligi deb yuritiladi. Kuch yetishmovchiligi sportchilarga, ayniqsa, yuqori malakali sportchilarga nisbatan sport billan shug‘ullanmaydigan kishilarda yuqori bo‘ladi. Sport faoliyatida kuchni rivojlantiradigan mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish ixtiyoriy maksimal kuchning ortishiga olib keladi. Maksimal ixtiyoriy muskul kuchini belgilaydigan faktorlarni asosan ikkita guruhga bo‘lish mumkin.Birinchisi, ya’ni periferik faktorlar va ikkinchisi, markaziy faktorlar.

Muskul kuchini periferik faktorlariga muskul tolalarining turini nisbati, muskulning qisqarishidan oldingi uzunligi kabi omillar kiradi.Markaziy faktorlarga muskullar ishini boshqaradigan, ularning koordinasiyasini ta’minlaydigan asab mexanizmlari kiradi. Markaziy asab sistemasidan muskullarga yuboriladigan impulslar soni, ularning xususiyati, qo‘zg‘aladigan harakat birliklari, ularning o‘zaro koordinasiyasi, ma’lum guruhdagi muskul tolalari, antogonist muskullar

ishini tormozlash va shunga o‘xshash hollar muskul kuchining yuzaga chiqishida muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy mashq bilan muntazam shug‘ullanish natijasida muskulda ko‘ndalang kesimning ortishi ishchi gipertrofiya deb yuritiladi. Muskullari gipertrofiyalangan kishilarda muskul to‘qimasining massasi ortib boradi. Bunday sportchilarda gavda muskullari gavda vaznining 50% ni tashqil etishi mumkin.Harakat tezligi rivojlanishining fiziologik mexanizmi, jismoniy sifatlardan biri bo‘lgan tezkorlik harakatning boshqarilish vaqti bilan ifodalanib, u yuqori tezlikda bajariladigan jismoniy mashqlar ijro etilganda rivojlanadi. Masalan, siklik xarakterli dinamik ishlarni bajarishdagi qisqa masofalar: 200 m.ga velosiped poygasi, 100-200m. ga yugurish, 25-50 m.ga suzish,kabi mashqlar, tezlik va kuch bilan bajariladigan uloqtirish, uzunlikka va balandlikka sakrash, boks, qilichbozlik, sport o‘yinlari kabi sport turlari bilan shug‘ullanish tezkorlik sifatini rivojlantiradi.

Harakatning bajarilish tezligi fiziologik nuqtai nazardan, asosan quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Birinchidan, harakat apparatining qo‘zg‘aluvchanligi, ya’ni latent (yashirin reaksiya) davriga; ikkinchidan, muskullarning qisqarish va bo‘shashish vaqtiga; uchunchidan muayyan harakatda ishtirok etadigan asab muskul to‘qimasining labilligiga. Harakatning yuqori tezlik bilan bajarilishida asab-muskul harakat birliklarining turi, harakatning koordinasiya qilinishi, muskullarda energiyaning hosil bo‘lish tezligi kabi omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Harakat bajarilishida tez qo‘zg‘aluvchan yoki sekin qo‘zg‘aluvchan harakat birliklarining nisbati harakat tezligiga ma’lum miqdorda ta’sir ko‘rsatadi. Agar bajariladigan harakatda tez qo‘zg‘aluvchan harakat birikmalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, harakat tezligi shuncha yuqori bo‘ladi. Yuqori tezlikda bajariladigan mashqlar bilan shug‘ullanish natijasida tez qo‘g‘aluvchan va sekin qo‘zg‘aluvchan harakat birikmalarining nisbati o‘zgaradi. [5:257]

Harakat koordinasiyasining harakat tezligi uchun ahamiyati haqida shuni aytish kerakki, muskul tolalari va muskul o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlar, ularning kelishib ishlashining yuqori darajada takomillashishi harakat tezligining ancha yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday qilib, harakat tezligi, tezlik, kuch bilan bajariladigan jismoniy mashqlar quvvati, harakat apparatining funksional morfologik va biokimyoviy xususiyatlari bilan belgilanadi. Yuqori quvvatda bajariladigan jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanganda bu xususiyatlar takomillashadi va harakat tezligining ortishiga sabab bo‘ladi.

Jismoniy mashqlarni bajarishda,chaqqonlik va uni belgilaydigan fiziologik omillar muhim rul o‘ynaydi.Chaqqonlik-bu yuzaga kelgan harakat vazifasini to‘g‘ri, tez, maqsadga muvofiq holda va topqirlik bilan hal etish qobiliyatidir.

Chaqqonlik sifatining rivojlanishi kuch va tezlikning rivojlanishi bilan yaqin aloqada bo‘ladi,chunki har qanday harakatni chaqqonlik bilan bajarishda sportchining tezkorligi, kuchning darajasi muhim rol o‘ynaydi. Chaqqonlikning rivojlanishida kishining tug‘ma xususiyatlari bilan bir vaqtda individual hayotda orttirgan tajribalari, ishni bajarish sharoitlari va yuzaga keladigan vaziyatlar ma’lum ahamiyatga ega. Chaqqonlikni talab etadigan jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishda markaziy asab sistemasi, ayniqsa, uning yuqori bo‘limi, bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘idagi neyronlarning qo‘zg‘aluvchanligi, ulardagi asab jarayonlari dinamikasining hususiyatlari, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘rin almashinish tezligi muskullardagi energiya hosil bo‘lish jarayonlari, fermentlar aktivligi kabi qator fiziologik hodisalar o‘zgarishining yuzaga kelishi chaqqonlikning rivojlanishida fiziologik asos bo‘ladi.

Chaqqonlikning yuzaga kelishida topqirlik asosiy omillardan biridir. Buning uchun, topqirlik omilining darajasi ko‘p jihatdan sportchining tajribasiga bog‘liq bo‘lishi, ya’ni ekstrapolyasiya hodisasi tufayli to‘satdan yuzaga kelgan vaziyatga javob berish uchun sportchining boshdan kechirgan tajribalari zarur ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yuqorida ko‘rsatilganidek chaqqonlikni rivojlanishida to‘satdan yuzaga keladigan vaziyat omillari muhim rol o‘ynaydi. Harakat vazifasini hal etishda sodir bo‘ladigan bunday omillar chaqqonlikning fiziologik mexanizmlarini takomillashtiradi. Biroq shuni aytish kerakki, chaqqonlik mexanizmining takomillashishida, chaqqonlikning rivojlanishi boshqa jismoniy sifatlar rivojlanishiga nisbatan ancha sekin bo‘ladi. Chunki chaqqonlik organizmining individual hayotida orttirgan malakalariga nisbatan irsiyat omillariga ko‘proq bog‘liq bo‘lsa kerak. Shuning uchun sportga tanlov o‘tkazilayotganda ko‘rsatilgan fikrga amal qilinsa foydadan holi bo‘lmaydi.

Chaqqonlik sifati ham boshqa boshqa jismoniy sifatlar singari kishining yoshiga bog‘liq bo‘ladi. Chaqqonlikning yuzaga chiqishida sensor sistemalar funksiyasining ahamiyati muhimdir. Sport faoliyatida, ayniqsa, vaziyatga bog‘liq sport turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalarda sportchining chaqqon harakat qilishi, ko‘p jihatdan sensor sistemalar orqali axborotni qanday tezlikda tahlil qilishiga bog‘liq bo‘ladi. Egiluvchanlik- tayanch-harakat apparatining morfologik va funksional xususiyati bo‘lib, harakat amplitudasini belgilaydi. Shuning uchun ham egiluvchanlik harakat amplitudasining o‘lchovi bo‘ladi. Egiluvchanlik ikki turga bo‘linadi: aktiv va passiv.

Aktiv egiluvchanlik deganda, kishi tashqi yordamsiz o‘zi mustaqil yuzaga chiqara oladigan harakatning maksimal amplitudasi tushuniladi.[7:25] Bunday egiluvchanlikning yuzaga kelishida bug‘inlarning harakatchanligi muhim ahamiyatga ega, ya’ni bug‘in qanchalik harakatchan bo‘lsa, egiluvchanlik yuqori,

harakat amplitudasi shunchalik katta bo‘ladi. Passiv egiluvchanlik- sport uskunasi yoki sportchining sherigi, yohud ustozi yordamida erishiladigan bug‘inlardagi harakatchanlikdir. Passiv egiluvchanlik aktiv egiluvchanlikka nisbatan yuqori bo‘ladi. Amalda, turli jismoniy mashqlarni bajarishda, aktiv egiluvchanlik safarbar etiladi, bu jihatdan passiv egiluvchanlikga nisbatan aktiv egiluvchanlik yuqori turadi.

Egiluvchanlik kishining yoshiga, jinsiga, bug‘inlarining harakatchanligiga, tashqi muhit omillariga, bajariladigan mashqning turiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, 10-14 yoshli bolalarda egiluvchanlik kattalarnikiga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bunday yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan ishlar, katta maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash usuliga nisbatan ikki marta samarali bo‘ladi. Egiluvchanlik razminka mashqlari, massaj kabi omillar ta’sirida ortadi. Sportning har xil turlarida egiluvchanlikka har xil talab qo‘yiladi. Bu, eng avvalo, sport mashqlarining biomexanik tuzilishi bilan bog‘liq.

Muhokama. Jismoniy mashqlarni bajarishda chidamlilik va uning turlari ham muhim ahamiyatga egadir.Chidamlilik- organizmda charchashga qarshi layoqatning ortishi bo‘lib, organizm ish qobiliyatining pasayishiga olib boradigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda rivojlanadi. Chidamlilik ortishi bilan organizmda yuqori darajadagi ish qobiliyatini saqlash muddati uzayadi. Chidamlilik bir qancha turlarga ajratiladi: umumiy chidamlilik, maxsus chidamlilik, dinamik ishlarni bajarishga chidamlilik, statik kuchlanishlarga chidamlilik, anayerob sharoitdagi ishlarni bajarishga chidamlilik, gipoksiyaga (qonda kislorod miqdorining kamayishiga) chidamlilik, issiq-sovuqqa chidamlilik va hakazo.

Yuqorida zikr etilgan chidamlilik turlarining rivojlanishi, har bir ishga tegishli sharoitlarda muntazam mashq qilish hamda charchashga olib boradigan darajadagi ishlar bilan shug‘ullanish natijasida yuzaga keladi. Chidamlilikning rivojlanishi organizm a’zolari va to‘qimalarining morfologik, biokimyoviy va funksional o‘zgarishlari oqibatida sodir bo‘ladi. Masalan, haddan tashqari uzoq masofaga yugurish, velosiped poygasi, suzish kabi siklik dinamik ishlar bilan muntazam shug‘ullanishda harakat apparati faoliyati uyg‘unligining takomillashishi ishlayotgan to‘qimalarning energiya bilan ta’minlaydigan vegetativ organlar ishining o‘zaro moslashishi natijasida bu organlarning uzoq muddat davomida yuqori darajada ishlashi yuzaga keladi.

Xulosa. Shunday qilib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta’lim tizimida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, tahsil oluvchilarning

dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Innovasiyalarga tayangan holda o‘qituvchilar uchun yangilik hisoblanmish texnologiyalar orqali diqqatni jamlash, erkin mushohada yuritish, ishonchli qaror qabul qilishga erishiladi. Innovasion texnologiyalar o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ifoda etadi.[8] Ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda muayyan metod, usul va vositalar asosida samarali boshqarish tizimi maqsadga yo‘naltiriladi. Kafolatlangan natija – jismoniy tarbiya hamda jismoniy va ma’naviy yetuklik masalasini ijobiy hal qilishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Худоёров А.А. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришнинг ўзига хос ташкилий-иқтисодий жиҳатлари. Иқтисод ва молия журнали, 2019. №8(128). – Б. 9.

2. БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти бош котиби Талеб Рифаининг ЮНВТО Ижроия Кенгаши 99-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // “Туркистон” газетаси, 2014-yil 4-oktabr, shanba № 79 (15821)

3.https://www.unwto.org/archive/global/press-release/2017-09-15/historical-decision-approval-unwto-framework-convention-tourism-ethics

5. Elisabeth Kastenholz, Maria Cam eiro, Celeste Eusebio “The impact of socio-demographics on tourist behavior - analyzing segments o f cultural tourists visiting Co im b ra” University o f Aviero, 2004.

6. Медлик, С., and Х. Инграм. «Гостиничный бизнес». 2017. – С. 240.

7. https://uzbektourism.uz. Қўқон Халқаро ҳунармандчилик фестивалида 80 га яқин мамлакат ҳунармандлари иштирок этади. 06.09.2019. 7

8. Progress in Tourism, Recreation and Hospitality Management. Department of Management Studies for Tourism and Hotel Industries, University of Surrey, 2004., - P.P.28-30, 45-54, 97-103.

9. МансуровМ.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент.

2020. – Б. 120.

10. Сативалдиева Д. Организация и совершенствование учета готовой продукции в условиях развития инновационных идей и технологий //Архив научных исследований. – 2019.

11. Witt, Stephen F., Moutinho, Luiz. Tourism marketing and management handbook.Printed by Prentice Hall

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqoladabo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni, jamiyadagi turliislohotlarni rivojlantirishto’g’risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны особенности подготовки будущих учителей физической культуры к спортивному туризму, мнения о развитии различных реформ в обществе.

SUMMARY

This article describes the peculiarities of training future physical education teachers for sports tourism, opinions on the development of various reforms in society.

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Одилов О. Н.
ўқитувчи,
“Жисмоний маданият методикаси” кафедраси
Чирчиқ давлат педагогика университети

Таянч сўзлар: ташкилотчилик компетенцияси, педагогик муаммолар, профессионал ёндашув, жисмоний билимлар, ҳамкорлик.

Ключевые слова: организаторская компетентность, педагогические проблемы, профессиональный подход, физические знания, сотрудничество.

Key words: organizational competence, pedagogical problems, professional approach, physical knowledge, cooperation.

Жаҳон миқёсида олий таълим тизимини ривожлантириш, жисмоний тарбия ва спорт таълими мазмуни ва унга қўйиладиган талабларни мукаммаллаштириш, педагог ва таълим олувчилар муносабатлари самарадорлигини ошириш, педагогик муаммоларни ҳал қила оладиган ҳолатда бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиси ўз касбига профессионал ёндашиб, ташкилотчилик компетенциясини ривожлантирган ҳолатда амалий кўникмаларини ва таълим жараёнида ташкилотчилик компетентлигини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмокда. *Жаҳон жисмоний тарбия таълимида ташкилотчилик компетенциясига оид билимларни фанлар мазмунига сингдириш, ташкилотчилик маданиятини оммавий ахборот воситалари орқали шакллантириб бориш, замонавий жисмоний билимларни таркиб топтиришни такомиллаштириш, таълим-тарбия жараёнида ўқитувчиларнинг ташкилотчилик компетенциясига оид билимларини ривожлантириш шакл, усул ва воситаларини такомиллаштириш бўйича илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда. Жаҳон тажрибасида жисмоний тарбия фанига шунчаки машғулот ўтказиш эмас, балки бутун бошли тизим сифатида қаралгани боис бу фанга муайян талаблар қўйилади.*

Халқаро ва ижтимоий ҳамкорликларни кенгайтириш, фан доирасида ва техника, таълим, маданият, соғликни сақлаш ва туризм соҳаларидаги

алоқаларни ривожлантириш учун бор имкониятларни ишга солиш, илмий ва жисмоний-тадқиқот муассасалари ўртасидаги алоқаларни ўзаро кенгайтириш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Мамлакатда юксак маданиятга эга бўлган ҳар томонлама етук ҳамда жисмонан соғлом инсонни шакллантириш мақсадида, аҳолининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малака ва билимларини орттиришга қаратилган устувор йўналишларни белгилаш, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантириш концепциялари етакчи дастурамал бўлиб хизмат қилмоқда. Шу билан бирга, жисмоний тарбия ишларини замонавий таълим технологиялари асосида ташкил килиш, ташкилотчилик компетенциясига оид устувор йўналишларни такомиллаштириш, таълим жараёнида жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг педагогик-психологик имкониятларини ривожлантириш масалаларига алоҳида аҳамият берилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз" [2, 14] мазмунидаги фикрларидан ёшларга оид давлат сиёсатининг нақадар устувор эканлигини ҳамда олий таълимда педагогик жараён самарадорлигини ошириш, хусусан, бўлажак ўқитувчиларнинг сифатли таълим олиши муҳим аҳамият касб этишини кўришимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида", 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон "Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 118-сонли қарори билан тасдиқланган "2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш концепциясини амалга ошириш чора-тадбирлари дастури" *мазкур фаолиятга тегишли вазифаларнинг ижросини таъминлашда хизмат қилади [3].*

Таълим муҳитида ташкилотчилик компетенциясини ривожлантириш усуллари ва технологияларини ишлаб чиқиш, олий таълимда бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини

ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор берилмоқда. Мактаб таълим тизимида ўқитувчиларнинг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантириш асослари Р.Жураев, Р.Сафарова, У.Толипов, Г.Давлетшин, Р.Сафарова, Ф.Шарипов, Д.Шарипова, Н.Муслимов илмий тадқиқот ишларида, В.Караев, Д.Хўжамбердиева, Ж.А.Ахмедов, А.Кенжабоевлар томонидан бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантириш тадқиқ этилган.

Ҳар томонлама баркамол, жисмонан ва руҳан соғлом инсонни тарбиялаш жамиятимиз олдида турган долзарб масалалардан биридир.

Республика раҳбарияти Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб диққат-эътиборини ёш авлод тарбиясига қаратиб келаётганлиги диққатга сазовор. Мамлакатимизда "Таълим тўғрисида"ги қонун ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"нинг қабул қилиниши, уларни хаётга тадбик этиш йўл-йўриқларини ишлаб чиққанлиги фикримизнинг ёркин далилидир.

Мустақил Ўзбекистонимизнинг маънавий ва жисмонан соғлом ёш авлодларини, бўлажак ватанпарварларини тарбиялаш вазифаси пировард натижада ўқитувчиларнинг зиммасига тушади. Уларда ташкилотчилик қобилиятлари компетенциявий талаблар асосида шаклланган, нафақат билимдон , балки, энг аввало, ана шу билимни эгаллашни ўзининг бурчи деб билувчи Миллий кадрларни шакллантиришга масъулдирлар. Миллий истиқлол мафкураси асосида ёшларимизни тарбиялаш республикамиз мактаблари олдида турган долзарб вазифаларидан биридир.

Жамият ривожининг ҳозирги босқичида ижодий, ностандарт фикрлайдиган, фан ва ишлаб чиқишда янги усулларни топа оладиган соғлом ва профессионал мутахассисларга эҳтиёж тобора ортмоқда. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисидаги" қонуни ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"да ёшларга таълим тарбия бериш ишларини тубдан ислоҳ қилиш масаласи қўйилган [1]. Жумладан, унда: "инсон, унинг ҳар томонлама уйғун камол топиши ва фаровонлиги шахс манфаатларини рўёбга чиқариш учун шароитлар яратиш, эскирган тафаккур ва ижтимоий хулқ-атворнинг андозаларини ўзгартириш Республикада амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий мақсади ва ҳаракатлантирувчи кучидир" деб таъкидланган. Шунингдек, ушбу қонунлар замирида эса юксак аҳлоқий фазилатларни ўзида мужассамлаштирган, маданиятли, эътиқодли, маърифий ва маънавий жиҳатдан баркамол, мустақил фикрлайдиган шахсни тарбиялаш каби вазифалар белгиланган.

Ташкилий ишлар ҳамда ёшлар тарбияси ва уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар изчил давлат сиёсатининг амалий ифодаси ҳисобланади. Услубий кўрсатмалар сифатида таълим сифатини лойиҳалашнинг дидактик параметрларини ишлаб чиқишга оид фаол ёндашувлар, уларнинг асосий қоидалари сифатида ишлатилади. Ушбу ташкилотчилик асосидаги ёндашувларнинг бирлаштирилиши лойиҳалаштиришнинг моҳиятини атроф-муҳит ва шахсни ўзгартирадиган фаолият сифатида кўриб чиқишга имкон берди. Шу ўринда бўлажак педагогнинг иш фаолияти негизи ўқувчиларга таълим- тарбия беришда ақл-заковати, билими ва ташкилотчи ўқитувчи бўлишини талаб этади. Бугунги кун ёшларининг замон талаблари асосида жадал ривожланиши ва ўсишини ҳисобга олсак, бу тушунчанинг ва бу тушунча омиллари мазмунини теран англашимизга тўғри келади. Таълим, энг аввало, ўқитиш жараёнининг нисбий натижаси бўлиб, у ўқувчиларда шаклланган билимлар, кўникма ва малакалар тизимида ифодаланади, шунингдек, таълим, тарбия, ўз-ўзини тарбиялаш, таъсир кўрсатиш жараёни, яъни инсон маънавий қиёфасининг шаклланиш жараёни; бунда энг асосийси ўзлаштирилган билимлар ҳажми эмас, балки билимларнинг шахсий сифатлар билан уйғунлашиши, ўз билимларидан мустақил фойдалана билиш муҳимдир [5, 65-67].

Таълим – бу мураккаб динамик, ўз-ўзини тартибга солиб турувчи, кўп даражали, ўзига хос ривожланиш омилларига эга бўлган яхлит тизим бўлиб, у кўп тусдаги, атроф-муҳит билан маълум бир ўзаро муносабатларда бўладиган, ўзаро боғланган функцияларни амалга оширади. Мана шундай мураккаб тизимни башорат қилишда башоратлаш шаклларини қўллаш алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг ўзига хос фарқли жиҳатлари тадқиқ қилинаётган объектнинг мажмуавий англанишидадир. Улар таълимни тадқиқ қилишда тизимли таҳлилнинг барча талабларидан фойдаланишга, элементларнинг иерархиклилигини ва уларнинг ўзаро бир-бирига алоқадорлигини топишга, функционал боғлиқликларини кўриб чиқишга имкон беради.

“Таълим сифати – бу ҳар бир босқичда режалаштирилган мақсадларга мувофиқ эришилган аниқ белгиланган таълим даражаси; бу ўқув жараёни иштирокчиларининг амалга оширилаётган таълим хизматларидан қониқиш кўрсаткичидир. Талаблар таълимнинг давлат таълим стандартларида белгиланган, шунинг учун профессор В.И.Андреев таълим сифатини “жараённинг юқори даражаси ва таълим натижаларини акс эттирувчи белгилар ва кўрсаткичларнинг ажралмас хусусияти” сифатида белгилайди ва

у таълим стандартлари талабларига мажбурий риоя қилинишини таъкидлайди [4, 567].

Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, ташкилот - лотинча “organizo” – “биргаликда”, “нозик кўриниш”, “тартибга солиш”. Ташкилот (жараён сифатида) бутуннинг қисмлари ўртасидаги муносабатларни таъминлайдиган ҳаракатлар мажмуи сифатида тушунилади.

Луғатимизда **ташкилотчилик** сўзларига: бирор жамоада, иш-ҳаракат йўналишида, ижтимоий гуруҳ ёки мусобақаларда ташкил этиш, уюштириш ва йўналтириш; Қобилият эса шахснинг физиологик ва психологик хусусияти, такомиллашган моҳирлик даражаси, деб таъриф берилган. Ташкилотчилик-бошқарув фаолияти субъектлараро муносабатни ифодалайди [7, 107-111].

“Ташкилотчилик қобилияти” нафақат бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиси , балки, барча педагогларга зарур бўлган хусусиятлардан бири деб ҳисоблаймиз. Демак, бу тушунчага кенг маънода таъриф берадиган бўлсак:

Ташкилотчилик қобилияти - фаолияти давомида ўқувчилар жамоасини уюштириш, ўрганиш. Уларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тарбиявий ва таълимий жараёнларни олиб бориш, муҳим вазифаларни ҳал этишга руҳлантиришдир [6, 11-14].

Соғлом турмуш тарзи, жисмоний тарбия ва спорт - ижтимоий “феноменлар” бўлиб келмоқда, бирлаштирувчи куч ва миллий ғояга айланиб, кучли давлат ва соғлом жамият ривожига ҳисса қўшмоқда. Шунга кўра, жамият ва унинг аъзоларининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасига хизмат кўрсатадиган мутахассисларни тайёрлаш сифатига, уларнинг касбий малакаси даражасига бўлган талаблари ортиб бормоқда. Шахсга йўналтирилган таълимга мурожаат қилиш педагогик таълимнинг янги мақсади, шу жумладан жисмоний тарбия пайдо бўлишини белгилайди. Агар илгари ўқитувчини тайёрлашнинг асосий мақсади технологик ўсиш бўлса, бугунги кунда унинг шахсий ривожланишига йўналтириш, бу ўз-ўзини ташкил этиш ва фаолият ҳамда шахсий тажрибани умумлаштириш натижасидир.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни 2020 йил 23 сентябрь.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016. - 14 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947, 07.02.2017 й. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда.

4. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития:

Инновационный курс / В.И. Андреев. - Казань: Изд-во КГУ,1996. - 567 с

5. Муслимов Н.А. Мутахассиснинг касбий шаклланишида масофавий таълимдан фойдаланиш йўллари // Ж.Infocom.Uz. -2004. -№ 5. - Б. 60-62.

6. Карпушин Б.А. Педагогика и профессиональная подготовка студентов вузов физической культуры // Теория и практика физической культуры. -2001, - № 10. - С. 11-14.

7. Колодезникова С.И. Научно-методические основы формирования управленческой компетентности будущего специалиста по физической культуре и спорту/ С.И. Колодезникова // Сибирский педагогический журнал. – 2013. № 2. С.107-111.

РЕЗЮМЕ

Олий таълимда бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантириш бугунги кунда долзарб масаладир. Ушбу мақолада таълим-тарбия жараёнида жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг назарий асослари ёритилган.

РЕЗЮМЕ

Развитие организаторской компетентности будущих учителей физической культуры в высшей школе является актуальной проблемой на сегодняшний день. В данной статье рассмотрены теоретические основы развития организационной компетентности учителей физической культуры в образовательном процессе.

SUMMARY

Formation of organizational competence of future teachers of physical culture in higher education is an urgent problem today. This article discusses the theoretical foundations of the formation of organizational competence of physical education teachers in the educational process.

O’SMIRLARNING SOG’LIGIGA ONGLI MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nurmatov F. A.
ChDPU Jismoniy madaniyat nazaryasi kafedra mudiri, dotsent

Tayanch so’zlar: sport psixologiyasi, o’smirlik, salomatlik, sog’lom ovqatlanish, shaxsiyat, ta’lim.

Ключевые слова: спортивная психология, подростковый возраст, здорове, здоровое питание, личност, воспитание.

Key words: sports psychology, adolescence, health, healthy eating, personality, upbringing.

Hozirgi kunda oilada o’smirlarni sog’lom turmush tarzi va o’z salomatligiga ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog’liq tadbirlar asosiy o’ringa chiqmoqda va davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylantirildi.

Aholini bolalik va o’smirlik yillaridanoq o’z salomatligiga ongli munosabatda bo’lish, salomatlikni saqlash va mustahkamlash bilan bog’liq tadbirlarni bajarishni kundalik odatga aylantirish, sport bilan muntazam shug’ullanish, shaxsiy va umumiy gigienik tadbirlarni o’z vaqtida amalga oshirish, sog’lom ovqatlanish o’quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashning muhim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021 yildagi “2017—2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi” ga bag’ishlangan 6155-sonli farmoni, “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash va aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o’sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish, Beshta muhim tashabbusni amaliyotga to’liq joriy etishga qaratilgan “Sportni sev”, “Biz—Yangi O’zbekiston yoshlarimiz”, “Biz bir jamoamiz” shiorlari ostida ommaviy sport festivallari, shuningdek, “Sport maktablari futbol ligasi” kabi sport tadbirlari va musobaqalarini tizimli o’tkazish masalalari mazmunida o’smirlarni salomatligini saqlash va mustahkamlash, ularni o’z salomatligiga

ongli munosabatda bo'lish, oila sportini shakllantirishga keng o'rin berilgan. Shuningdek, aholini ommaviy sport turlariga keng jalb qilish orqali 2021 yilda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar qamrovini hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkazish alohida vazifa sifatida ta'kidlab o'tilgan edi. Lekin yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan hozirda oilada o'smirlarning o'z salomatligiga bo'lgan ongli munosabati yuqori emas. Maktab o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini saqlab qolishi uchun an'anaviy yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish (o'quv yukini kamaytirish, jismoniy tarbiya darslarini ko'paytirish, ta'lim sharoitlariga gigienik talablarni kuchaytirish orqali) ularning deklarativ xususiyatini ko'rsatadi, bu esa o'quv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga ta'sir qilmaydi. Natijada, zamonaviy umumta'lim maktabida tashkil etilgan holat muammoni hal qilish uchun yangi, nostandart yondashuvlarni talab qiladi. Shu jihatdan, yuqoridagi muammolarni hal qilishda biz tanlagan "O'smirlarni o'z sog'lig'iga ongli munosabatni shakllantirishning psixologik xususiyatlari" mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Pedagogika - psixologiya fanlari mazmunida shu kungacha shaxsni shakllantirish muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Sport psixologiyasi yo'nalishida o'smirlarda o'z sog'lig'iga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, o'smirlarning psixologik xususiyatlari, o'smirlarning psixologik tayyorgarligi, sport mashg'ulotlarining sportchi shaxsi shakllanishiga ta'siri, sport jamoalarida shaxslararo munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit kabi muammolarni tadqiq etishga bag'ishlangan bir qator ishlar amalga oshirilgan, jumladan: A. Smit, K. Gelvessiy, M. V. Lomonosov va boshqalar, psixologlar L. Vыgotskiy, V. M. Bexterev, V. N. Myasishchev va boshqalarlarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Sport mashg'ulotlarining o'smirlarni shakllanishiga, ularning individual-psixologik xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishida muhim omil ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Psixolog olimlar tomonidan sport mashg'ulotlarining o'smirlarni o'z sog'lig'iga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga oid muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, ammo o'smirlarni o'z sog'lig'iga nisbatan ongli munosabatlarini rivojlantirish, o'smirlarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbligini yo'qotmagan.

O'zbekistonlik psixolog olim R.Z.Gaynutdinov olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari talabalarning tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha sport tayyorgarligi uchun muhim bo'lgan ba'zi psixologik xususiyatlarni o'rganishgaqaratilgan bo'lib, unda talabalarning mashg'ulot oldidan va sport mahoratini oshirish

bo’yicha o’quv yuklamalarining psixik holatini xarakterlovchi ko’rsatkichlariga ta’siri masalasi tadqiq qilingan.

Lekin shu kungacha pedagogik psixologiyada o’smirlarni o’z salomatligiga ongli munosabatda bo’lishi bilan bog’liq muammolar maxsus tadqiqot predmeti sifatida deyarli o’rganilmagan.

Biz oldimizga tadqiqotning maqsadini belgilab oldik:oilada o’smirlarni o’z salomatligiga ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o’rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalarini ishlab chiqdek:

– o’smirlarni o’z salomatligiga ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlariga bag’ishlangan ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish;
– nazariy jihatdan tanlangan hissiy, kognitiv, xatti-harakatlarning tarkibiy qismlari sog’lig’iga nisbatan sub’ektiv munosabat asosida o’z sog’lig’iga bo’lgan munosabatini tadqiq qilish;
– o’smirlarda o’zlarining sog’lig’iga ongli munosabatda bo’lishning ehtiyojlari va odatlarini shakllantirish imkoniyatlarini eksperimental tadqiq qilish;
– olingan tadqiqot natijalari asosida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan salomatlikni saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish bo’yicha ota-onalar va o’qituvchilar uchun o’quv kurslari va seminar mashg’ulotlari dasturini ishlab chiqish.

Xulosa. biz ilmiy ishimizdan shunday yangilik kutayapmiz.

O’smirlarning o’zlarining sog’lig’iga nisbatan sub’ektiv munosabatlarining tuzilishi va semantik mazmuni (hissiy, amaliy va progressiv komponentlar) aniqlanadi;

o’smirlarning sog’lig’iga va sog’lom turmush tarziga bo’lgan munosabatining sabablari (tashqi va ichki xulq-atvor omillariga, “sog’liqni saqlash” fenomenining tuzilishiga niyat, yo’nalish, yo’nalish haqida to’liq xabardor bo’lish nuqtai nazaridan) aniqlanadi;

psixologik-pedagogik shart-sharoitlar va o’smirlarni o’z sog’lig’iga ongli munosabatni shakllantirish uchun psixologik trening mashg’ulotlarining modeli ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017—2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi” ga bag’ishlangan 6155-sonli farmoni 2021.

2. А.Родионов. Влияние психологических факторов на спортивный результат. М.ФиС. 1983.

3. Н.Худадов. Психологическая подготовка боксеров. М.ФиС. 1968.

4. В.Лобзин, М.Решетников. Аутогенная тренировка. Л.Медицина.1986.-280с.

5. В.Марищук и др. Методики психодиагностики в спорте. //Учебное пособие для студентов пед. инс-тов. М.Просвещение, 1990.-256с.

6. Г.Б.Шоумаров. Реализация Национальной программы по подготовке кадров в Узбекистане. Токио.«Cumo».1998.

7. В.Каримова, Р.Суннатова, Р.Тожибоева. Мустақил фикрлаш. Ўқув қўлланма.Т. Шарқ. 2000.

8. Сафаев, Н.Мираширова, Н.Одилова. Умумий психология назарияси ва амалиёти. Т. 2013.-292 б.

9. М.Қуронов. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси.Т. Академия. 2008.-32 б.

10. Р.Джураев. Таълимда интерфаол технологиялар. Т., 2013. -87 б.

11. Ш.Қурбонов, Е.Сейтхалилов, У.Иноятов, Э.Юзликаева, Ш.Шарипов. С.Нишонова. Воспитание совершенного человека в развитиипедагогической мысли эпохи возрождения Востока. Автореф.дисс...д.п.н. Т. ТИИМСХ. 1998.-35 с.

12. О.Мусурмонова. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Т. Ўқитувчи.1996.-97б.

13. Ғ.Б.Шоумаров ва б. “1001 саволга психологнинг 1001 жавоби”.Т.2014.-290б.

14. Ғ.Б. Шоумаров, У.Қодиров, И.Ҳожибоев. “Оилага психологик ёрдам кўрсатиш асослари”. Т. 2014.-234б.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sport psixologiyasi, o’smirlarning o’z sog’lig’iga ongli munosabatini boshqarish, o’smirlar harakatining ta’siri, o’smirlarning jismoniy tayyorgarligi, sportchi shaxsini boshqarish kabi masalalar o’rganiladi.

РЕЗЮМЕ

В стате исследуются такие вопросы, как спортивная психология, управление сознателным отношением подростков к собственному здоровью, влияние подросткового движения, физическая подготовленност подростков, управление личностью спортсмена.

SUMMARY

The article explores such issues as sports psychology, managing the conscious attitude of adolescents to their own health, the influence of the adolescent movement, the physical fitness of adolescents, and managing the personality of an athlete.

BELBOG‘LI KURASHNI O’RGATISHNING NAZARIY OMILLARI

Sultonov A. I.
CHDPU katta o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: belbog‘li kurash, sport, mahorat, nazariy, tamoyil, tarbiya, pedagog, malaka, muvofiq.

Ключевые слова: борьба на поясах, спорт, мастерство, теория, принцип, воспитание, педагог, квалификация, соответствие.

Key words: belt wrestling, sport, skill, theory, principle, education, pedagogue, qualification, compliance.

Belbog‘li kurashchilami o‘rgatish tamoyillari kurashchilami tarbiyalash hamda usullami o‘rgatishni ifodalovchi umumiy-nazariy qonuniyatlaridir. Belbog‘li kurashchilami o‘rgatishda quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi. 1. Pedagogik (didaktik) tamoyillar (onglilik va faollik tamoyili, ko‘rgazmalilik tamoyili, muntazamlik va ketma-ketlik tamoyili, tushunarlilik va individuallashtirish tamoyili). 2. Sport mahoratini takomillashtirish tamoyillari (malakaning mustahkamligi va variantliligi tamoyili, muvofiqlik tamoyili va yo’naltirilgan tarzda birgalikda olib borish tamoyili). 3. Sport mashg’uloti tamoyillari (umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning birligiga erishish tamoyili, mashg’ulot jarayonining takroriyligi va uzluksizligi tamoyili, bosqichlilik tamoyili, mashg’ulot yuklamalarini asta-sekin oshirish tamoyili). Murabbiy pedagogik jarayonni tashkil etishning asosiy qonuniyatlarini ifodalovchi tamoyillami amalga oshira turib, kurashchiga maxsus bilimlar, ko’nikma va malakalami tez hamda samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Hamma tamoyillar o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Agar bir tamoyil e’tiborga olinmasa, boshqalaridan hech qaysi biri to‘liq amalga oshirilishi mumkin emas. Ulami faqat birgalikda qo‘llagan holdagina belbog‘li kurashchi tayyorgarligida yuqori natijalarga erishish mumkin. Biroq, belbog‘li kurashchining sport tayyorgarligi shakllanishining turli bosqichlarida yuqorida keltirilgan tamoyillaming ahamiyati bir xil emas. Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida pedagogik (didaktik) tamoyillar ko’proq ahamiyat kasb etadi.

Belbog'li kurashchi malakasi ortib borgan sari sport mahorati va sport mashg'uloti tamoyillarining ahamiyati ortadi.

Ko'rgazmalilik tamoyilining mohiyati belbog'li kurashda o'rgatish vazifalarini hal etish uchun sportchi analizatorlaridan maksimal foydalanishdan iborat. Ko'rgazmalilik tamoyili shunga asoslanadiki, harakat malakalarini egallash sezgilar orqali idrok etishga bog'liq. U kurashchining o4rganilayotgan harakat to'g'risidagi ko'rish, harakat va boshqa tasavvurlarini ta'minlash zaruratini ifodalaydi. Retseptiv tiplari ajratiladi – ko'rish, motor va akustik. Bu uchta tip har xil insonda birlashgan va har biri ustunroq bo'lishi mumkin. Murabbiy u yoki bu shug'ullanuvchining qaysi qo'zg'atuvchilarni ko'proq idrok qilayotganligini bilishi zarur. Bu unga ko'rgazmalilik tamoyilini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Belbog'li kurashchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarida usullarni namoyish qilish o'rgatish va takomillashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi. Murabbiy usul to'g'risida har xil video lavhalar, fotosuratlar, plakatlar yoki biror-bir shug'ullanuvchi bilan ko'rsatib berish, og'zaki tushuntirish, o'z shug'ullanuvchisining ustida uslubni bajarish yoki shu sportchi o'zi shu uslubni birov ustidan bajarishi mazkur tamoyilga kiradi. Bu tamoyilni yaxshi tushunish uchun ko'pincha sezgi organlari ishtirok etishi shart. Amaliy vositalar bir-biri bilan bog4langan holda ketma-ket va ajralgan holda aniq pedagogik masalalami (amaliy vositalar bilan) qo'llashda ishlatadi. Shug'ullanuvchilar usul to'g'risida to'g'ri tasavvurga ega bo'lganlaridan keyingina ularning e'tiborini muhim detallarga qaratish kerak, chunki usulni bajarish texnikasi shunga bog'liq bo'ladi. Murabbiy usulni bir necha bor namoyish qilib berishi lozim va shug'ullanuvchilar uni turli tomonlardan ko'ra olishlari juda muhim. Shuningdek, o'smirlar bilan ishlashda usulni namoyish qilishning yaxlit uslubidan foydalanish samaraliroq. Bunda asosiy vazifa yaqinlashtiruvchi va tayyorgarlik mashqlari tizimi bilan yengillashtiriladi.

Belbog'li kurashchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar samaradorligini oshirish maqsadida, murabbiy o'rganilayotgan usul yoki uning asosiy detallari to'g'risida tasavvurni hosil qilishga yordam beradigan ko'rgazmali vositalardan iloji boricha ko'proq foydalanishi zarur.

Tushunarlilik va individuallashtirish tamoyili: Tushunarlilik va individuallashtirishtamoyilio'quvmashg'ulotjarayonidagioptimalyuklamalami tanlashda, albatta belbog'li kurashchilaming guruh, yoshga xos va individual farqlarini hisobga olishdan iborat. Agar murabbiy kurashchilaming mehnat faoliyati, o'qishi, turmush sharoitlari va psixik xususiyatlarini yaxshi bilsa, ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlaming oqilona usuliyatni tanlashi mumkin. Belbog'li kurash mashg'ulotlari turli yoshdagi va jismoniy tayyorgarligi har xil

bo’lgan shug‘ullanuvchilar uchun murabbiy tarkibi va tayyorgarligi bo‘yicha har xil bo‘lgan shug‘ullanuvchilar guruhlariga tabaqalashgan holda yondashishi, ocquv-mashg‘ulot materialini har xil tanlab olishi va mashg’ulotlarda ruxsat etiladigan jismoniy yuklamalami belgilashi zarur. Malakali belbog’li kurashchi uchun oson bo’lgan holat, yangi boshlovchi sportchi uchun har doim ham bo’lavermaydi. Yuksak mashqlanganlik holatida turli belbog’li kurashchi katta yuklamani oson ko‘tarishi, lekin shu yuklama mashqlanmagan yoki yosh sportchi uchun og‘irlik qilishi mumkin. Agar murabbiy yuqori sport natijasi orqasidan quvib yosh kurashchilarga murakkab texnik va taktik vazifalami berishi yosh ku-rashchi uchun ogrirlik qiladi va o’z kuchiga bo’lgan ishonchning yotqolishiga, qator hollarda esa jarohatlanishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun murabbiy mashqlami shunday tanlashi hamda me’yorlashi kerakki, bunda yuklama shug‘ullanuvchilaming imkoniyatlariga aniq mos kelishi zarur. O’quv materiali, qachonki u sportchilarga tushunarli bo’lsa, shundagina uni o‘zlashtirish mumkin boiadi. Bu esa kuch sarf etadigan qiyinchiliklami yengib o4ishni nazarda tutadi. O’quv mashg’ulotlardagi yuklamalarning yosh belbog’li kurashchilar organizmiga ta’sir qilish xususiyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, agar mashg‘ulotdagi yuklama shug‘ullanuvchilar imkoniyatlariga mos kelmasa, qator hollarda ulaming sog‘ligida asab buzilishlar yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Дякин А.М., Невретдинов Ш.Т. Методика отбора борцов. (Спортивная борьба: Ежегодник). М., 1980.

2. Жбанов О.В., Царегородская Л.Д. Технология комлексного тестирования - инструмент формирования информационного питания (теория и практика физкультуры). М., 1999.

3. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. Т., 2005.

4. Керимов Ф.А. Кураш тушаман. Т., 1990.

5. Рахматов Н.А., Бакиев З.А., Тастанов Н.А. Кинематический анализ двигательных действий спортсменов. Учебное пособие. Т., 2009

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada belbog’li kurashni o’rgatishning nazariy omillari haqida qisqacha ma’lumot bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен краткий обзор теоретических факторов тренировок по борьбе на поясах.

SUMMARY

This article provides a brief overview of the theoretical factors of belt wrestling training.

ЎҚУВЧИЛАР РУҲИЯТИДАГИ САЛБИЙ ЎЗГАРИШЛАР ВА УНИ ЖИСМОНИЙ ТАЪЛИМДА БАРТАРАФ ЭТИШ ВАЗИФАЛАРИ

Исматов А.
ЖДПУ ўқитувчиси

Таянч сўзлар: жисмоний тарбия, жисмоний маданият, акмеологик тарбия, соғлом турмуш тарзи, спорттни оммалаштириш.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическая культура, акмеологическое образо- вание, здоровый образ жизни, популяризация спорта.

Key words: physical education, physical culture, acmeological education, healthy lifestyle, popularization of sports.

Бизга маълумки, талабанинг шахсияти уни ўраб турган воқелик таъсирида шак- лланади. Натижада у ижтимоий жиҳатдан аҳамиятли бўлган вазифаларни англай бошлайди ва жамиятнинг бошқа аъзолари билан мустақил муносабатга киришади ва шу тариқа талаба шахснинг ижтимоийлашуви тугалланади. Шу билан бирга талаба шахси ижтимоий тажриба элементларини ўзлаштириш, таълим олиш, маълум бир мутахассисликни эгаллаш натижасида шаклланиб боради.

Талабалар руҳиятидаги салбий ўзгаришларга таъсир этувчи объектив омил тўғрисида педагог олим Б.Умаров ушбу фикрни илгари суради: “Объектив саба- блар сифатида жамиятдаги носоғлом муҳит, шарт-шароит, иқтисодий ва сиёсий беқарорлик, кичик ижтимоий гуруҳлардаги ижтимоий-психологик шароит, киши- лар билан муносабатлар...” ни эътироф этади[2]. Демак, талабалар руҳиятидаги ўзгаришлар ҳам аввало уни ўраб турган носоғлом муҳит таъсирида содир бўлади.

Маълумки, оила ўсмир учун илк ижтимоийлашув марказидир. Айнан шу марказда ўсмирнинг ижтимоий муҳит билан муносабатга киришади, жамиятдаги ижтимоий меъёрлар ва қадриятларни ўзлаштиради. Шулар асосида ўсмирнинг хулқ-атвори шак- лланиб боради. Ота-оналар ўртасидаги муносабатларнинг у ёки бу кўриниши яъни оиладаги хотиржамлик ёки келишмовчилик, ака-ука ва опа-сингиллар ўртасидаги муносабатлар

хусусияти ўсмир ёшнинг хулқ-атворини белгилаб берувчи омиллар сирасига киради.

Айниқса, бунда оиладаги низолар, ота-оналардан бирининг номақбул хулқ-атвори ва уларнинг фарзанд тарбиясига нисбатан бефарқлиги, қаттиқ қўллиги натижасида содир бўлади. Бу борада машҳур психолог олим Геттинг тадқиқотларига назар таш- лаш кифоя. Унинг фикрича оилалардаги муаммо ва низолар ўсмирлардаги агрессив- ликни келтириб чиқариши, айниқса, уларнинг қаҳрли, жаҳлдор, қўпол бўлиб вояга етишига сабаб бўлади. Геттингнинг хулосаларига кўра, можароли оилалаларда асо- сий эътибор ўзаро зиддиятларга қаратилади, бола тарбияси эса таҳдид ва жазолашдан иборат бўлиб қолаверади.

Келажак авлод ҳақида қайғуриш, жисмоний ва маънавий соғлом авлодни тар- биялаб етиштиришга интилиш бизнинг миллий ҳусусиятимиздан биридир. Худди шундай бугунги кун ҳар бир оиласи ва жамият олдида турган муҳим вазифа ҳам шу ҳисобланади. Ота-она фарзанд кўриш ва уни тарбиялаш орзуси билан яшар экан, унинг келажакда етук инсон, комил шахс бўлишини истайди. Бу масала ҳар бир педа- гог, таълим муассасининг ҳам жамият олидаги бурчи бўлиб, ота-она каби устозлар ҳам шогирдларини етуклик сари даъват этади. Демак, оқил фарзанд нафақат ота-она, балки устоз, қолаверса жамиятнинг, юртнинг бахту-иқболидир. Шундай экан, “таъ- лим-тарбия каби муҳим ва стратегик масалага эскича қараш, эскича билим ва тизим билан ёндашиш мутлақо мумкин эмас. Бу борада энг замонавий ва илғор тизимни яратмасак, олдимизда кўндаланг бўлиб турган биронта муаммони ечолмаймиз”[1].

Бу ишларни “жамиятнинг тарбияга бўлган муносабатини бутунлай ўзгартирмасдан туриб”, амалга ошириб бўлмайди.

Психолог олим Б. Умаров мазкур муаммонинг субъектив сабабларига қуйидагиларни киритади: “Хулқ оғишининг субъектив сабабларига ўсмир шахсининг қизиқиш ва эҳтиёжлари, дунёқараш ва маънавий олами, мақсад ва йўналишлари, қадриятлари, ҳуқуқий онги, ҳаётий режалари, турмуш тарзи ва мотивлари киради.

Субъектив шарт-шароитларга эса аҳолининг демографик ва ижтимоий-психологик хусусиятлари, хусусан, этнопсихологик жиҳатлари, характери, темпераменти, ёши ва жинси мансуб. Объектив сабаблар сифатида жамиятдаги носоғлом муҳит, шарт- шароит, иқтисодий ва сиёсий беқарорлик, кичик ижтимоий гуруҳлардаги ижтимоий- психологик шароит, кишилар билан муносабатлар намоён бўлади”[2]. Худди шундай биз ҳам ўсмир ёшдаги талаба ёшларнинг руҳиятидаги салбий ўзгаришларнинг

субъ- ектив омилларига: ўсмир шахсининг шаклланиш жараёнидаги муаммолар, уларнинг темпераментидаги хусусиятларни киритдик.

Умуман олганда талаба ёшлар руҳиятидаги ўзгаришлар бирор-бир шахсга хос субъектив хулқ-атвор натижаси эмас, балки субъектив ва объектив омиллар, шарт- шароитлар, муносабатлар натижаси сифатида юзага келади. Ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришларнинг келиб чиқиш сабаблари бир неча омиллар таъсирида содир бўлади. Бизнингча улар қуйидагилар ҳисобланади: 1. Оилавий муҳитнинг носоғломлиги. Ўқувчилар руҳиятида ижобий ва салбий ўзгаришлар бўлиши оилавий муҳитнинг соғломлиги биринчи омил ҳисобланади.

Бизга маълумки, оиладаги муҳит: ота-она ва уларнинг ўсмир ёш билан муносабати, оилавий хотиржамлик, катталарнинг ўзаро бир-бирларига бўлган ишончи ва ҳурмати ўсмир хулқ-атворининг шаклланишида муҳим аҳамиятга эга. Аксинча, оиладаги келишмовчилик, низолар, ота-она ва катталарнинг номақбул ҳатти-ҳаракати ўсмир хулқ-атворига салбий таъсир этмай қолмайди. Доимий жанжал ва можароли оила- ларда тарбияланаётган ўспирин, ўсмирларда қўрқув, иродасизлик, қорқоқлик куза- тилади ва бундай ҳолатлар лоқайдлик, нописандлик, мустақил фикрнинг йўқлиги шаклида намоён бўлади, баъзиларида доимий ўзиларини бошқаларга кераксиз деб ҳисоблаш, тортинчоқлик, мослаша олмаслик, мулоқотчанликнинг пасайиши зўрайиб боради. 2. Ота-оналарда тарбия психологияси ва физиологияси, педагогикасига доир билимларнинг етишмаслиги. Афсуски, кузатишларимизга кўра айрим ота-оналарда тарбия физиологияси, психологиясига оид билимлар етишмайди. Шу боис улар фарзандлари хулқ-атворида бўлаётган салбий ўзгаришлар сабабини англай олишмайди. Натижада уларда бирмунча эгоистлик ҳосил бўлади. Ўз навбатида ўсмирнинг носоғлом физиологик ҳолати унинг психикаси, жумладан, сезги, идрок, хотира, диққат, тафаккурига салбий ўтказади. 3. Ўқувчиларнинг кун тартибини тўғри ташкил этилмаганлиги. Бугунги кунда ўқувчиларнинг кун тартибини тўғри ташкил этилмаганлиги уларнинг хулқ-атворида салбий ўзгаришларни келиб чиқишига сабаб бўлади. Ўқувчиларнинг соатлаб, кун- лаб телевизор ёки телефон ўйнаб ўтириши фикримизга яққол далил бўлади. Бун- дай ёшлар ҳаёти пала-партиш бўлиб, ўз вақтида дам олмайдилар ва ўз вақтида овқатланмайдилар. Кейинчалик эса уларда турли касалликлар авж олиши туфайли уларда тажанглик, ўз-ўзидан қониқмаслик ҳисси тез-тез учрайди. Шунинг учун биз педагоглар талаба-ёшларнинг руҳиятига ижобий таъсир кўрсата олишни уддалай олсак,

уларни хулқ-атворини самарали фаволият учун йўналтира олсак мақсадга мувофиқ иш бўлади.

Афсуски, бу каби салбий ҳолат ўқувчиларнинг нафақат маънавий-руҳий ҳолати, жисмоний ривожланишига ҳам таъсир кўрсатмай қолмайди. Бундай ўқувчилар ҳаётда иродасиз, сабр-бардошсиз, мақсад сари интилмайдиган, таваккалчи, данкасалик каби иллатлар қуршовида қолади. Жисмоний ва руҳий тарбия интеграцияси асосида тарбя- иланган ёш эса келажакда ҳар бир ишини режа асосида бажарадиган, етти ўлчаб бир кесадиган, қейинчиликлар олдида эсанкираб қолмайдиган, сабр-бардошли, иродали, энг муҳими вақтини бекорчи ишларга сарфламайдиган кишилар бўлиб етишади. 4. Ўқувчиларда ҳар қандай жамоага нисбатан адаптив жараённинг қийин кечиши. Ҳа бир инсон ўз ҳаёти давомида бир неча маротаба адаптив жараённи бошидан кечиради. Демак, инсоннинг туғилиши адаптация борасидаги илк синов- дир. Мана шу кўникиш жараёнида ёшларда турли муаммолар содир бўлади. Афсу- ски, ўқувчиларда ҳам юзага келадиган руҳий ўзгаришлар, тушкунлик, иродасизлик уларнинг характерига сингиб бориши ва унинг ҳар қандай жамоага нисбатан мос- лашувчанлигини қийинлаштириши мумкин. Бундай ёшларнинг дўстлари жуда кам, ҳатто бўлмаслиги ҳам мумкин. Улар характерида доимий нимадандир норозилик, ўз-ўзидан қониқмаслик, бўйсунмаслик, иккиланиш каби салбий иллатлар намоён бўлади. Айниқса, бундай ёшларда адаптация жараёни узоқ муддатга чузилишини кўриш мумкин. Бу салбий жиҳатларнинг асосий сабаби ўқувчининг ёш хусусияти, темпераменти, индивидуаллиги ва бошқа жиҳатлар билан боғлиқдир.

Мактаб таълимида ўқувчининг адаптацияси мактаб муҳитига морслашиш ва синфдошлари билан дўстона муносабатга кириш асосида кечади. Мана шу адап- тация жараёнидаги ўқитувчининг сабрсизлиги ёки қўполлиги туфайли ўқувчининг руҳиятида салбий ўзгаришлар юзага келади. Айниқса, бу ҳолат кўпроқ ўқувчиларнинг ўқишга, умумий кун тартибига мослашуви жараёнида кузатилади. Бунинг асосий сабабларидан бири ўқувчиларнинг оилавий муҳитга қаттиқ боғланиб қолганлигидир.

Бу жараён ўқувчи руҳиятига жуда катта таъсир кўрсатади. Натижада нафақат ўқувчининг руҳий, балки, жисмоний саломатлигига ҳам путур етиши мумкин. 5. Оммавий ахборот воситаларининг салбий таъсири. Оммавий ахборот воситалари бугунги кунда ёшлар руҳияти ва тарбиясига таъсир этувчи энг кучли воситадир.

Бу борада телевидение ва уяли алоқа воситалари етакчи ўринда турди. Ўқувчилар бу воситалар орқали турли ахборотлар билан танишадилар.

Айниқса, телевидиниеда намойиш этилаётган турли контентдаги материаллар ўқувчиларнинг руҳиятига, хулқ- атворига салбий таъсир кўрсатади. Натижада ўқувчилардаги руҳий ҳолатнинг нормал кечиш жараёни яъни диққат, идрок, тасаввур, хотира кабиларнинг бузилиши содир бўлади. Оқибатда ўқувчиларда атроф-муҳит, ҳаттоки инсонларга нисбатан ҳиссизлик, меҳрсизлик кузатилади. Энг ачинарлиси ўқувчилар реалликдан анча йироқда ўсадилар, ҳаётда ҳамма нарсага тез ва осон эришиш мумкин деб ҳисоблайдилар.

Шу сабабдан уларда доимий норозилик кайфияти ҳукмрон бўлади. Айниқса, бундай ўқувчиларда агрессивлик ва жангарилик кузатилади.

Ўқувчи руҳиятидаги ўзгаришлардан яна бири бу жисмоний таълимда педагог- нинг унга ҳаддан ташқари қаттиққўллиги ҳисобланади. Айниқса, ўқувчининг ёш ва психологик жиҳатларини инобатга олмасдан тарбиянинг бундай йўлини танлаш ўта нотўғри ёндашувдир. Ҳатто бундай ҳолатларда ўқувчи руҳиятида жиддий муаммолар кузатилади. Яъни норозилик, қўрқув ёки агрессия натижасида эмоционал ҳолатнинг бузилиши: ҳаяжонланиш, дипрессия, хотиранинг пасайиши ва шунга ўхшаш қатор салбий ҳолатларга олиб келади. Албатта, руҳий ҳолатнинг бузилиши ўз навбатида ўқувчининг жисмоний ривожланишига ҳам таъсир кўрсатади. Қўрқув ва агрессия натижасида уйқунинг бузилиши, тез чарчаш, иммун тизимининг пасайиши кабилар кузатилади. Ўқувчиларда кузатиладиган қўрқув уларнинг ўзига бўлган ишончнинг пасайиши, мустақил фикрлашдан чекланиш, ҳар қандай жамоага нисбатан мосла- шувчанликнинг қийин кечишига олиб келса, агрессия эса уларда тажаввузкорлик, жанжалкашлик, уришқоқлик каби иллатларни намоён бўлишига олиб келади.

Ғарбда бир қатор илмий тадқиқотлар муаллифлари ўз олдиларига ўқувчининг ҳар томонлама шакллантиришда оила ва оилавий муносабатлар тизимини, жисмоний таълим имкониятлари, турли тарғибот тадбирлари, талаба шахсияти тарбиясига таъ- сир этадиган омилларни ўрганишдек мураккаб вазифа қўйганлар ва бу каби муҳим ва мураккаб педагогик-психологик ижтимоий вазифани ҳал қилишга интилганлар. Бу тадқиқотларда реал амалий ҳаётда, кундалик фаолиятда амал қилувчи самарали умумпедагогик, психопрофилактик ва психологик-педагогик коррекция ва маслаҳатлар, педапсихолог ва ўқувчи тренингги дастурлари ишлаб чиқилган ва тавсия этилган.

Мазкур таклиф этилган дастурлар ўқувчи шахсини шаклланиши ва жамият ҳаётида ўз ўрнига эга бўлиши учун психо-педагогик, методик ёрдам сифатида фойдаланилади.

Ғарб психо-педагогик адабиётларида ўқувчилар руҳиятидаги ўзгаришлар уларнинг шахслараро муносабатларини тўғри йўлга қўйилмаганлиги сабабли юзага келиши каби масалаларга ҳам алоҳида эътибор қаратилган[3]. Шунингдек, бу борада тадқиқотчилар ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари ўқувчи шахсининг шаклла-ниши ва ривожланишига қанчалик ижобий таъсир қилиши ҳамда шахслараро муно- сабатлар ўз яқинларидан, ўз оиласидан ташқарида таълим олаётган синфдошлари руҳиятида албатта салбий ўзгаришларни юзага келтириши билан боғлиқ ҳолатлари билан таққослаб, бу каби тафовутларнинг сабабларини таҳлил қилиб ўтганлар. Натижада, педагог ва ўқувчи ўртасидаги шахслараро муносабатларни тўғри, самимий ва адолатли ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги маъмум бўлади.

Хулоса қилганда, юқоридаги сабаб ва омиллар туфайли талаба-ёшларнинг руҳиятида жуда кўплаб муаммолар юзага келмоқда. Бу ўз навбатида жамият аъзолари, хусусан: педагог ва психолог, ота-оналар олдига қатор вазифаларни келтириб чиқармоқда. Айниқса, бу борада оила билан олиб бориладиган профилактик ишлар самарадорлигини янада ошириш, олий таълимда талабалар психикаси, физиологияси ва педагогикаси доир билимлар беришни кучайтириш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –Б.148.

2. Умаров Б. Болалар тарбияси бузилиши ва унинг олдини олиш юзасидан ота-оналарга маслаҳатлар / Услубий қўлланма/. – Тошкент, 2012.–Б.6

3. Винце М. Кормление как одно из форм обучения взрослого и ребёнка. Особенности развития лич-ности ребёнка психологического родительского попечительства. Дети с отклоняюмся поведением. /Под ред.

В.С.Мухиной.–Москва.:1989. - С.38-43.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ўқувчилар руҳиятидаги салбий ўзгаришлар ва уни жисмоний таълимда бартараф этиш вази- фалари ҳақида сўз боради. Мақола мавзусини ёритиш мақсадида хорижий ва маҳаллий олимларнинг илмий ишланмаларидан фойдаланилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается о негативных изменениях в психике студентов и задачах по их устранению в физическом воспитании. Для освещения темы статьи были использованы научные разработки зарубежных и отечественных ученых.

SUMMARY

The article talks about negative changes in the psyche of students and the tasks of eliminating it in physical education. Scientific developments of foreign and domestic scientists were used to cover the topic of the article.

MAKTAB O‘QUVCHILARIGA GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI O‘RGATISHNING ASOSIY METODIK TAMOYILLARI

Radjapov U. R.
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri
Maxmudova M. Q.
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o`qituvchisi Zulfiya mukofati sovrindori, xalqaro toifadgi sport ustasi

Tayanch so’zlar: gimnastika, mashg’ulot, sport maydon, anjom, sog’lomlashtirish, metod, o’zlashtirish.

Ключевые слова: гимнастика, тренировка, спортивная площадка, инвентарь, реабилитация, метод, присвоение.

Key words: gymnastics, training, sports field, equipment, rehabilitation, method, appropriation.

Gimnastikadan o‘quv-mashg‘ulotlari odatda maxsus jihozlangan gimnastika zallarida yoki ochiq maydonchalarda o‘tkaziladi. Gimnastika mashg‘ulotlari quyidagidek zallarda o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Umumta’lim maktablari va internet maktablari uchun: Zallarda jihozlar uchun qo‘shimcha xonalar, instruktorlar xonalari, yechinib kiyinadigan xonalar (erkak va ayollarga), shuningdek, dush va xojatxonalar bo‘lishi kerak. Ular qulay joylarda bo‘lishi darkor. Oliy o‘quv yurtlari uchun (1-jadval).

1-jadval

Zalning nomi	O‘lchami, m.			Birdaniga necha kishi shug‘ullana olish imkoniyati
	Bo‘yi	Eni	Balandligi	
Kichik gimnastika zali.	18	9	5,4	40 tagacha
Kichik sport gimnastika zali.	24	12	6,0	60 tagacha

Gimnastikaning asosiy sport va boshqa turlari bilan shug‘ullanish uchun zallarda maxsus jihoz va inventarlar bo‘lishi kerak. Jihozlarning miqdori zalda

bir yo‘la qancha kishi shug‘ullanishiga qarab belgilanadi. Bunda mashg‘ulotning mazmuni, shug‘ullanuvchilarning toifasi kichik guruhlar taxminan qancha bo‘lishi hisobga olinadi.

Zallardan foydalanishda qo‘yiladigan gigienik talablar ham o‘z kuchiga ega. Zal ham undagi yordamchi xonalar ham doimiy supurib yig‘ishtirib turilishi kerak.

Odatda gimnastika mashg‘uloti o‘tkaziladigan zaldagi harorat 18-20 gradus saqlab turiladi. Havo namligi esa, 50-60% atrofida bo‘ladi.

Derazalarning nur tushadigan satxi pol satxining 1,5 qismidan kam bo‘lmasligi kerak. Yechinib kiyinadigan xonalar zalning yonginasida bo‘ladi. Ular ham doimiy ravishda tozalanib turilishi kerak. Har kuni, har bir mashg‘ulotdan keyin xo‘l latta bilan artiladi va 1-2 xaftada bir marta yaxshilab umumiy yig‘ishtiriladi.

Gimnastika narvoni URM bajarish va tirmashib chiqish uchun qo‘llaniladi uning balandligi 320 sm, ustunlarining orasi 100 sm.

Gimnastika narvoni tirmashib chiqishva tirmashib o‘tish mahqlarini bajarish uchun qo‘llaniladi. Uning bo‘yicha 5 m eni 48 sm. Zinopoyalarning diametri 3,5 sm, reykalar oralig‘i 25 sm bo‘ladi.

Gimnastika skameykasi URM mashqlarini, muvozanat saqlash, tayanib tirmashib chiqish va hokazo mashqlarni guruh bo‘lib bajarish uchun, shuningdek, shug‘ullanuvchilar dam olish uchun qo‘llaniladi. Uning bo‘yi 4 m eni 24 sm balandligi 30 sm bo‘ladi.

Tirmashib chiqadigan orqonni shipdagi to‘sinlarga yoki maxsus tirsaklarga osib qo‘yiladi. Uning yo‘g‘onligi qo‘l bilan ushlash uchun qulay uzunligi esa, 4-6 m bo‘lishi kerak.

Xalqalar odatda maktab zallarida bazan ship to‘sinlariga, baland zallarga osiladi.

Ularning osilgan joyi poldan 5,5 m baland bo‘ladi. Xalqlarning o‘zi poldan 2,5 m balandda ikki xalqa orasidagi masofa esa, 50 sm bo‘ladi.

Oyoq siltash uchun kon. Bo‘yi 160 sm eni 36 sm, dastaklari 40-45 sm oraliqda simmetrik o‘rnatilgan, dastaklarning kon sirtidan balandligi 12 sm, poldan esa, 120 sm bo‘ladi.

Sakrash uchun kon (ot). Uning o‘lchamlari ham dastkali konga o‘xshash bo‘ladi. Konning poldan balandligi 110-150 sm, ayollar uchun 110 sm balandlikda bo‘ladi.

Kozyol. 100 sm dan 160 sm gacha bo‘lgan balandlikda ko‘ndalang yoki uznasiga qo‘yiladi. Bo‘yi 60 sm, qalinligi 40 sm.

Bruslar. A) erkaklar parallel bruslar yog‘ochning uzunligi 350 sm, poldan 160-170 sm balandlikda o‘rnatilib oralig‘i 42-62 sm bo‘ladi.

b) ayollarning bruslari (balandligi har-xil) pastki yog‘och 130-150 sm, yuqori yog‘och 190-249 sm balandda bo‘ladi; yog‘ochlar oralig‘i 43-55 sm.

Turnik tortqichlar yordamida mustahkamlangan tik tirgovuchlari gorizontal mahkamlangan, silliqlangan diametri 28 mm temir tayoqdan iborat. Mashg‘ulotning mazmuniga qarab turnik balandligini har-xil balandlikda 120 sm dan 240 sm gacha o‘rnatsa bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar oldidan har bir jihozni maxkamlanadigan yerlarini bir ko‘dan kechirib qo‘yish albatta zarur. erkin mashqlar maydonchasi (gilami) ning o‘lchami 12x12 bo‘lib, gir aylanma oq xoshiyasi bo‘ladi. Sakrash uchun ko‘prikcha yakkacho‘p va bruslarda mashq bajarish uchun qo‘llaniladi. Uning balandligi 12 sm, eni 60 sm, bo‘yi 120 sm.

Gimnastika yakkacho‘pi muvozanat mashqlari bajarish uchun qo‘llaniladi. Uning uzunligi 5m qalinligi (pastdan yuqoriga) 16 sm, ustki va ostki satxining eni 10 sm. Sirti tekis va sirg‘anmaydigan bo‘lishi kerak. Yakkacho‘p poldan 120 sm balnd bo‘ladi. Boshlang‘ich o‘rgatish uchun pastrad 50 sm baland yoki umuman polga qo‘yilgan past yakkacho‘pdan foydalaniladi.

Orgatishning didaktik tamoyillari. Gimnastikada o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘rgatishning didaktik tamoyillari asosiy faoliyat qo‘llanmasi hisoblanadi.

Onglilik v afaollik tamoyili. Gimnastika mashqlari sportchilarning jismoniy harakat va irodaviy xislatlariga katta talablar qo‘yadi. Yangi mashqlarni o‘zlashtirish jarayonidagi onglilik va faollik tamoyili talabalardan, eng avvalo, harakatni tushunib o‘rganishni, qo‘yilgan vazifaga qiziqib va ijodiy yondashishni tarbiyalashni talab etadi.

O‘qish jarayonida harakat ko‘nikmalarini ongli o‘rganib olishlari uchun shug‘ullanuvchilarga quyidagilarni o‘rgatish darkor:

- o‘z faoliyatining natijalarini baholash;
- turli (og‘zaki, chizma, yozma holda takrorlash) usullardan foydalanib, harakat texnikasini tasvirlash;
- yangi harakatni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan turli qiyinchiliklarni yengish;
- kundalik daftar tutish va mashqlarni o‘zlashtirish rejalarini tuzish;
- o‘qituvchiga mashg‘ulotni tashkil etishda va o‘rtoqlariga hara¬katni o‘rganishda yordam berish.

Ko‘rgazmalilik tamoyili. O‘rgatish ko‘rgazmali bo‘lishiga erishish uchun murabbiy quyidagi bir qancha vosita va usullardan foydalanadi:

- harakatning mukammal ijrosini namoyish qilish, kino va fotomateriallarni, rasmlar, jadvallar va namunaviy modellarni ko‘rsatish;
- ayrim harakat topshiriqlari texnikasining detallarini og‘zaki tasvirlab berish va boshqa harakatlar bilan taqqoslash;
- qo‘shimcha vositalar ishlatish (fazadagi namunalar, harakatlarga ovoz bilan jo‘r bo‘lib turish, sekin ko‘tarib yuborish va qo‘l tekkizib qo‘yish);
- trenajor qurilmalarda, odam gavdasi namunalarida va h.k.larda o‘rganilayotgan mashq yoki uning elementlari texnikasini ko‘rsatib berish;
- alohida holatlarni to‘xtatib ko‘rsatish, taqlid qilish, murabbiy yordamida bajartirish va boshqa osonlashtirilgan harakatlar natijasida harakatni alohida, e’tibor bilan his etishni hosil qilish.

O‘rgatish usullari:

- yaxlit mashq usullari, u o‘rganilayotgan harakatni bir butun tarzda bajarishni nazarda tutadi. Bunda mashqlarni bajarish sharoitini yengillashtirish, yordam ko‘rsatish va muhofaza qilishning qo‘shimcha vositalarini qo‘llash, jihozlar balandligini pasaytirish, harakatni trenajorda bajarish, dastlabki yoki pirovard holatni soddalashtirish (masalan, past yakkacho‘pda gavdani yozib ko‘tarishni murabbiy yordamida bajarish) hisobiga bo‘lishi mumkin;
- yordamchi mashqlar uslubi (yaxlit mashq usulining o‘xshash turlaridan biri), u tarkib jihatidan asosiy mashqqa o‘xshash, Lekin, ayni vaqtda mustaqil mashq bo‘lib, ilgari o‘rganilgan harakatni yaxlit bajarishni nazarda tutadi (masalan, yakkacho‘pda gavdani yozib ko‘tarish uchun bir oyoqda ko‘tarilib, tayanish yordamchi mashq bo‘lib xizmat qiladi);
- bo‘lingan mashq usuli bu butun harakat texnikasini ayrim qism va bo‘laklarga ajratib olish hamda ularning har birini o‘zlashtirib olgandan keyin uni qayta yaxlit bajarishdan iboratdir. Mashqni bo‘laklarga bunday sun’iy bo‘lish asosiy faoliyatni o‘rganish sha¬roitini osonlashtirish maqsadida qilinadi;
- xususiy harakat vazifalarini hal qilish usuli bo‘lingan mashq usulining varianti bo‘lib, harakat texnikasining muayyan elementlari bo‘lgan o‘quv vazifalarini tanlash bilan ifodalanadi (masalan, endi boshlovchi sportchilar oyoqni kerib, tayanib sakrashni o‘r¬ganib olish uchun yerga qo‘nishni, yugurib kelishni, depsinish va so‘ng «ko‘prik» tushishni birin-ketin o‘rganishadi).

Mazkur o‘rgatish usullari talabalarga mashq haqida axborot olish va o‘rganilayotgan harakat texnikasi asoslarini bilib olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ular harakat tarkibi to‘g‘risidagi tasavvur paydo bo‘lishiga, shuningdek, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xatolarni tuzatishga yordam beradi.

Uchinchi guruh: standart mashq usuli, bu usul mashg‘ulot sharoitida harakat ko‘nikmasini mustahkamlash maqsadida harakatni mustaqil bajarish bilan ifodalanadi;

- o‘zgaruvchan mashq usuli quyidagi qiyinlashtirilgan sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi: adashtiruvchi signallar (shovqin, begona tovushlar va h.k.lar), atrofdagi sharoitning o‘zgarishi (jihozlarning odatdagidan boshqacha qo‘yilishi, yoritishni o‘zgartirish va h.k.lar), ma’lum topshiriqni bajarish haqida kutilmagan ko‘rsatma berilishi, mashqning kombinatsiyadagi joyi o‘zgarib qolishi, mashqni charchagan yoki ortiqcha hayajonlanib bajarish;
- o‘rgatishning o‘yin va musobaqa usuli talabalarning o‘zaro raqobat qilishini yoki harakatdan muayyan natijaga erishish uchun mas’uliyat sezishni nazarda tutadi. Mazkur o‘rgatish usullari harakat ko‘nikmalari barqarorligiga erishish imkoniyatini beradi.

To‘rtinchi guruhi yangi harakatni o‘rgatishning to‘g‘ri o‘quv jarayonini tashkil qilishning samarali shaklini tanlab olish imkoniyatini beradigan dasturlash usullaridan iboratdir. Mashqni o‘rgatish jarayonini algoritmlash dasturlashtirishning ilg‘or turlaridan biridir.

Yaxlit o‘rgatish usulini qo‘llanishning iloji bo‘lmaganda yoki samarasi kam bo‘lganda algoritmik turdagi topshiriqdan foydalanish kerak. Bu turdagi topshiriqdan, odatda, texnik jihatdan murakkab mashqlarni o‘rganishda foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. Гимнастика и методика преподавания, В.М. Смолевского, Издание 3-е, Переработанное и дополненное, МОСКВА, «ФИЗКУЛЬТУРА И СПОРТ», 1987г.

2. Гимнастика. Методика преподавания Под общей редакцией В.М. Миронова 978-985-475-578-6, Беларусь 2013 г., 335-с., учебник

3. Журавин М.Л., Меньшикова Н.К. Гимнастика. М., «Академия», 2009.

4. Кун Л. Всеобщая история физической культуры и спорта. М., «Просвещение», 1992.

5. Karimov M. O‘zbekistonda gimnastika. T., O‘zDJTI, 1999.

6. Смирнова, Л. А .Общеразвивающие гимнастические упражнения: Методика обучения: Учеб. пособие / Л. А. Смирнова. – Минск : Бел. навука, 1998. – 557 с.

7. Azimov I. Sport fiziologiyasi. T., O‘zDJTI, 1993.

8. Вилкин Я. Организация работы физической культуры и спорта. М., «ФиС», 1997.

9. Воропаев В.В., Пушкин С.А. Краткий курс гимнастики. М., «Советский спорт», 2008.

10. Гуревич И. Упражнения для моделирования круговой тренировки. Минск, «Полымя», 1990.

11. Дубровский В. Лечебная физическая культура. М., «Медицина», 1999.

12. Morgunova I.I. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. «ILM ZIYO» Toshkent – 2011 y.

13. Сакун Э.И. Построение учебного процесса по физическому воспитанию студентов в вузе. М., «Дашков и К», 2009.
14. Сушко Г.К.Гимнастика и методика её преподавания, «Медицина», 1996.
15. Маслякова В. Массовая физическая культура в вузе. М., «Высшая школа», 1999.
16. Миняев Б. Основы методики физического воспитания. М., «Высшая школа», 1999.
17. Т.: ILM ZIYO.-2012 г.
18. Фалин В. Основы юношского спорта. М., «ФиС», 1999.
19. CrossFit. Gymnastics training guide. Copyright 2015. P 51.
20. P. Edwards M.A. Gymnastics, London, The Royal Navy, 1999. P 39.
21. American Sport Education Program: Rookie Coaches Gymnastics Guide (1997). Human Kinetics Publishers, Inc.;
22. Hall J. (2002) Gymnastic Activities for Infants.A&C Black Publishers Ltd., London;
23. Men's Artistic Gymnastics; The NDP Set Book.(2004) Published on behalf of the
24. Men's Technical Committee of British Gymnastics

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolda sport turlarining malikasi bo'lgan gimnastika sport turining o'rgatish bosqichlaridan asosiy davrlardan biri bo'lgan maktab davrida o'rgatish metodikalari, mashg'ulotlarni olib borish tartiblari va ularni to'g'ri tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье одним из основных этапов обучения гимнастике, являющейся королевой спорта, является о методах обучения, тренировочных процедурах и их правильной организации в школьный период, который является одним из основных периодов, приводятся данные.

SUMMARY

In this article, one of the main stages of teaching gymnastics, which is the queen of sports, is about teaching methods, training procedures and their proper organization during the school period, which is one of the main periods. data are cited.

MAKTAB VALEYBOL JAMOASINING TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIGNI OSHIRISHDA KLASTER METODI ORQALI YONDASHUVINING TUTGAN O‘RNI

Xusanov Z. Z.
CHDPU magistranti

Tayanch so’zlar: sport, texnika, taktika, jismoniy madaniyat, umumiy jismoniy tayyorgarlik.
Ключевые слова: спорт, техника, тактика, физическая культура, общая физическая подготовка.
Key words: sport, technique, tactics, physical culture, general physical training.

Hozirgi vaqtda butun dunyo ta’lim sohasini berilayotgan e’tibor, millat tarannum etishida dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan O’zbekison Respusblikasida ta’lim muhitida innovatsion klasteri ishlab chiqilab, amaliy hayotga tatbiq qilinmoqda. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri jismoniy madaniyat va sport sohasida ham o’zining o’rnini egallab kelmoqda. Jismoniy madaniyat tizimining zvenolarida klaster yondashuvi jadallik bilan olib borilmoqda. Jismoniy madaniyat tizimi quyidagilardan iborat: – maktabgacha ta’lim (davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari) zvenosi; – maktab yoshidagilar jismoniy tarbiyasi (umumiy o’rta ta‟lim - I-XI sinflar) zvenosi; – o’rta maxsus, kasb-hunar ta‟limi (akademik litseylar, kasb-hunar kolledjlari) zvenosi; – oliy ta‟lim zvenosi; – qurolli kuchlar tarkibida jismoniy tarbiya zvenosi; – oliy ta‟lim va armiyadan so’nggi havasmandlik asosidagi jismoniy tarbiya zvenosi. Jismoniy madaniyat tizimining zvenolari yordamida har bir yo’nalish pedagogik, nazariy, amaliy, psixologik jihatdan rivojlanib boradi. Umumiy o„rta ta’lim tizimida ya’ni maktablarda jismoniy madaniyatdan dars va mashg’ulotlarni klaster yondashuvida tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida voleybol jamoasining texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantirishda klasterlash ya’ni mashg’ulotdagi mashqlari butun organizmga ijobiy, salbiy ta‟siri hamda jismoniy tayyorgarlikda muhim ahamiyatga egaligi izchillik bilan olib borilmoqda Umumiy o’rta ta‟lim maktablari voleybol jamoasining jismoniy texnik va taktik tayyorgarligini jismoniy madaniyatdan biomexanikada siklik, atsiklik, kompleks, aralash harakatlar berilsa, fiziologik tomondan maksimal, submaksimal, kata va

kichik quvvatdagi mashqlarni berib borish umumiy o’rta ta’lim maktabi voleybolchilarining har tomonlama garmonik rivojlanishiga yordam beradi. Maqolada quyidagi jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasining ilmiy tadqiqot metodlari yordamida tajribalar o’tkazildi. Ular quyidagilar: nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, eksperiment, matematik hisoblash ilmiy tadqiqot uslubiyati, suhbat, intervyu olish va so’rovnomadan foydalanish usullaridan foydalanildi. Umumiy o’rta ta’lim maktabda voleybolchilarning har tomonlama rivojlanganligi ya‘‘ni jismoniy, nazariy, psixologik, pedagogik, estetik tomonlarning barqaror bo’lishi uning jismoniy texnik va taktik tayyorgarligiga ham ma‘‘lum darajada ta’sir ko’rsatadi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida voleybol jamoasining texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantirishda, sport to’garaklarida klaster yondashuvi asosida har xil mashqlar berib borildi. O’tkazilgan tadqiqotlarga asosan jismoniy madaniyatning biomexanikasida berilgan mashqlar maktab voleybol jamoasining texnik va taktik jismoniy tayyorgarligini hamda maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirishga hamda har tomonlama ijobiy ta’sir ko’rsatdi. Eksperiment ya’ni tajriba guruhlariga jismoniy madaniyat fiziologiyasidagi mashqlar berildi. Ular quyidagilardan iborat: maksimal, submaksimal, katta va kichik. Submaksimal quvvatda 400, 600, 800, 1500, 3000 metr masofalariga takroriylik bilan mashg’ulotlar o’tkazildi. Katta quvvatda 5000, 8000, 10000 metr masofalarga yugurish va boshqa aerob muhitdagi mashqlar ham berildi. Tajriba va nazorat guruhlaridan olingan nazorat test natijalariga binoan, tajriba guruhidagi voleybol jamoasining o’yinchilari 1 oy muddat davomida texnik va taktik tayyorgarliklari 100% dan 23% ga ijobiy tomondan o’zgardi. Nazorat guruhida 100% dan 13 ga o„zgardi. 1 yillik silkda voleybol mashg’ulotida umumiy ko’rsatkich tajriba guruhida to’plarni qabul qilish va zonalarga zarba berishi, ochko bergan to„plar nisbatida 36 % ga ijobiy tomondan yaxshilandi. Bu ko’rsatkichlar shundan dalolat beradiki tizimli ravishda mashg„ulotlarni olib borish voleybolchilarning jismoniy texnik va taktik tomondan rivojlantiradi.

Xulosa o’rnida shuni bayon etish mumkinki har bir sport bo„yicha sport mashg„ulotlarini tashkil etishda dasturiylik (programma) ya‘‘ni mashg„ulotlarni yozma ravishda nazariy tomondan ham e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo„ladi. Har bir voleybol mashg’ulotida sport turidan kelib chiqib hamda boshqa sport turiga aloqador mashqlarni berib borish sportchining jismoniy texnik va taktik mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturы. Uchebnik dlya institutov.fiz. kulturы. M. FiS, 1991.

2. F. Xo‘jayev, T. Usmanxo‘jayev. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya, o‘quv qo‘llanma. T., “O‘qituvchi”, 1996.

3. A.Abdullayev. Jismoniy tarbiya vositalari. O‘quv qo‘llanmas.

Farg‘ona, 1999.

4. Vaynbaum Ya.S. Gigiyena fizicheskogo vospitaniya. T.: “O‘qituvchi” 1988.

РЕЗЮМЕ

Maqolada umumiy o’rta ta‘‘lim maktablari voleybol sport jamoalarining sport mashg’ulotida jismoniy texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantirish uchun beriladigan jismoniy mashqlarning turlari, ilmiy tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlaridan olingan natijalar ko’rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются виды физических упражнений, приведенные для развития физико-технической и тактической подготовки волейбольных спортивных команд общеобразовательных школ, результаты, полученные в экспериментальных и контрольных группах в научных исследованиях. предпринимательство.

SUMMARY

The article reviews the types of physical exercises that are given for the development of physical technical and tactical training in sports training of volleyball sports teams of secondary schools in general, the results obtained from experience and control groups in scientific research. Keywords: sports, technique, tactics, physical culture, general physical training.

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА ТАШКИЛОТЧИЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Одилов О. Н.
ўқитувчи,
“Жисмоний маданият методикаси” кафедраси
Чирчиқ давлат педагогика университети

Таянч сўзлар: ташкилотчилик қобилияти, замонавий педагог, услубий кўрсатмалар, аҳлоқий фазилатлар, чидамлилик, талабчанлик.

Ключевые слова: организаторские способности, современный педагог, методические установки, нравственные качества, выносливость, требовательность.

Key words: organizational skills, modern teacher, methodological guidelines, moral qualities, endurance, exactingness.

Жаҳон тажрибасида жисмоний тарбия фанига шунчаки машғулот ўтказиш эмас, балки бутун бошли тизим сифатида қаралгани боис бу фанга муайян талаблар қўйилади.

Республикада таълим соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий мақсади юксак аҳлоқий фазилатларни ўзида мужассамлаштирган, маданиятли, эътиқодли, маърифий ва маънавий жиҳатдан баркамол, мустақил фикрлайдиган шахсни тарбиялаш каби вазифалар белгилаган.

“Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз!” Бугунги тез ўзгараётган дунё инсоният олдида янги-янги, буюк имкониятлар очаётгани, шу билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор қилаётгани, ғаразли кучлар содда болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига умрига зомин бўлаётганига асло бефарқ қараб бўлмайди. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, бундай кескин ва таҳликали шароитда биз-ота-оналар, устоз-мураббийлар, жамоатчилик, маҳалла-кўй бу масалада хушёрлик ва огоҳликни янада оширишимиз керак” деган фикрлари, тадқиқот ишимизнинг долзарблигини ўзида ифодалайди [1].

Ташкилий ишлар ҳамда ёшлар тарбияси ва уларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар изчил

давлат сиёсатининг амалий ифодаси ҳисобланади. Услубий кўрсатмалар сифатида таълим сифатини лойиҳалашнинг дидактик параметрларини ишлаб чиқишга оид фаол ёндашувлар, уларнинг асосий қоидалари сифатида ишлатилади. Ушбу ташкилотчилик асосидаги ёндашувларнинг бирлаштирилиши лойиҳалаштиришнинг моҳиятини атроф-муҳит ва шахсни ўзгартирадиган фаолият сифатида кўриб чиқишга имкон берди. Шу ўринда бўлажак педагогнинг иш фаолияти негизи ўқувчиларга таълим-тарбия беришда ақл-заковати, билими ва ташкилотчи ўқитувчи бўлишини талаб этади. Бугунги кун ёшларининг замон талаблари асосида жадал ривожланиши ва ўсишини ҳисобга олсак, бу тушунчанинг ва бу тушунча омиллари мазмунини теран англашимизга тўғри келади.

“Ташкилотчилик қобилияти” нафақат бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиси , балки, барча педагогларга зарур бўлган хусусиятлардан бири деб ҳисоблаймиз. Демак, бу тушунчага кенг маънода таъриф берадиган бўлсак: ташкилотчилик қобилияти - фаолияти давомида ўқувчилар жамоасини уюштириш, ўрганиш. Уларнинг ёш ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тарбиявий ва таълимий жараёнларни олиб бориш, муҳим вазифаларни ҳал этишга руҳлантиришдир. Ташкилотчилик қобилияти асосида ўз ишини ташкил этишда маълум вазифани ёки ишни тўғри режалаштира олиш ва уни назорат қила билиш, ташкилий фаолият усулларини эгаллаш, уларни муваффақиятли амалга оширишга имкон берувчи шахснинг шахсий-психологик хусусиятлари акс этади. Ташкилотчилик қобилияти асосидаги омиллар мазмунига кўра бир қанча, замонавий педагогга зарур бўлган қобилиятларни бир-бири билан боғлайди. Масалан: Обрў орттира олиш қобилияти - ўқувчиларга бевосита эмоционал-иродавий таъсир кўрсатиш, ўз фанини чуқур билиши ва шу асосда обрў қозона олишидир. Обрў фақат шу омиллар асосидагини эмас, балки ўқитувчиларнинг ўз фанини чуқур билиши асосида ҳам қозонилади. Бу қобилият ўқитувчи шахсий сифатларининг бутун бир йиғиндисига ва унинг иродавий сифатларига (дадиллиги, чидамлилиги, қатъийлиги, талабчанлиги ва ҳ.к), шунингдек ўқувчиларга таълим ҳамда тарбия бериш маъсулиятини ҳис этишга, ўзининг бу ишончини ўқувчиларга етказа олиш кабиларга ҳам боғлиқ.

Тўғри муомала қила олиш қобилияти – ҳозирги куннинг эмоционал болаларига яқинлаша олиш, улар билан педагогик нуқтаи назардан жуда самарали ўзаро яхши муносабатлар ўрната олиш, педагогик маданиятнинг мавжудлиги.

Келажакни кўра билиш қобилияти – ўз ҳаракатларининг оқибатини кўра олишда, тарбияланувчи қандай фазилатларни тараққий эттириш лозимлигини олдиндан айтиб бера олишда ифодаланади. Бу қобилият педагогик оптимизмга, тарбиянинг қудратига, одамга ишонч билан боғлиқдир.

Диққатни тақсимлай олиш қобилияти – ўқитувчи учун диққатнинг барча хусусиятлари – ҳажми, кучи, кўчувчанлиги. Идора қилина олиши, сафарбарлиги кабиларнинг тараққий этган бўлиши муҳимдир.

Л.Н. Павлова ташкилотчиликнинг қуйидаги таркибий қисмларини белгилайди:

– функционал компонент педагогик бошқарувда функциялар орқали амалга оширилади (режалаштириш, ташкил этиш, мотивация, назорат, тузатиш);
– ахборот компоненти турли шаклларни ифодалаш ва педагогик бошқарувни амалга ошириш учун маълумотларни узатиш;
– операцион компонент бошқарув қобилиятлари тўпламидир (шу жумладан: талабага ташхис қўйиш, жамоа, педагогик мулоқотни таҳлил қилиш, мақсадларни аниқлаш ва бошқарув таъсирининг вазифалари, фаолият ва хатти-ҳаракатларни моделлаштириш, жамоавий ва индивидуал талабалар) [2, 30-31].

С.А. Виноградов ташкилотчилик ва бошқарувнинг моҳияти ва тузилиши таҳлилини ўтказган, психологик-педагогик тадқиқотлар контекстида жисмоний маданият мутахассисларининг малакаси, шунингдек, илмий ва амалий тақдимоти бошқарув малакасини ривожлантиришнинг педагогик шартларини асослаш жисмоний тарбия муассасалари раҳбарларига юкланади. Иш кўрсатиш жараёнини моделлаштиришнинг асоси сифатида интегратив-ривожлантирувчи ёндашув жисмоний маданият мутахассисларининг бошқарув малакасини ривожлантириш ва педагогик шартларни амалга ошириш методологиясини очиб берган [3, 24].

В.Н. Фефелованинг сўзларига кўра, ташкилотчилик малакаси билан боғлиқ бошқарув фаолиятини, ташкилотчилик функцияларини таъминлаш билан муайян бошқарув қарорини қабул қилиш биргаликда боради. У шундай деб ўйлайдики, бошқарув компетенциясининг тузилиши ўзаро боғлиқ, функционал ва ташкилотчилик-шахсий ресурслар тўплами; когнитив, операцион-фаолиятнинг ривожланиш даражасида намоён бўлади, мотивацион ва ҳиссий-иродавий компонентлар асос бўлади [4, 187].

Муаллифларнинг фикрларига таянган ҳолда, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг асосий шартлари мулоқот психологияси, ўз-ўзини билиш ва

ўз-ўзини ҳурмат қилиш, ўзаро таъсирнинг психологик усулларини амалиётда қўллаш қобилияти соҳаларида ётади, деган хулосага келишимиз мумкин.

Профессионал таълим тизимида педагогик илм-фаннинг ривожлантирилиши, унинг олдига мақсадли аниқ вазифаларнинг қўйилиши ва тегишли имкониятлар яратилиши, албатта, рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашни таъминлайди. Педагогик адабиётлардаги ташкилотчилик компетенциясига оид фикрлар таҳлили шуни кўрсатдики, ташкилотчилик компетенцияси жуда кенг тарқалган ходиса, ижтимоий воқелик феномени сифатида ҳам умумилмий, ҳам соҳавий кўринишда намоён бўлади. Педагогикадаги гуманистик йўналишнинг назарий асосларини узоқ ўтмишнинг буюк мутафаккирларидан бошлаб кузатишимиз мумкин. Бу қарашлар ва фикрларда ҳам профессионал ва ўз соҳасини яхши билувчи ташкилотчилик қобилиятига эга бўлган ўқитувчилар ҳақида бир қанча ижобий фикрлар юритилган. Юнон файласуфи Сократ профессионал ўқитувчиларни "фикр акушерлари" деб ҳисоблаган, у талабаларни суҳбатдошлар деб атаган ва у ўрганиш мақсадини "тайёр" шаклда узатиладиган билим сифатида эмас, балки акс эттириш натижасида пайдо бўладиган маънолар сифатида кўрган.

Ўқувчиларни бошқариш уларнинг диққатини сафарбар қилишни, ҳаракат фаолиятига тайёрлашни, машқларнинг айрим турларини ишлаб чиқишни, жисмоний фаолиятнинг андозасини таъминлайди. Ўқитувчи ўз хулқ-атворини диққатни оқилона тақсимлаш, ўқувчилар билан мулоқот қилишнинг мос оҳангини танлаш ва ўз ҳаракатларини назорат қилиш зарурати асосида қуради. Ўқувчиларнинг мустақил фаолиятини ижобий ташкил этиш ўқитувчи тажрибасининг типик белгисидир. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришга субъектив ёндашишнинг эҳтимоллиги диққатни қаратадиган даражада юқори. Шу сабабли тадқиқот ишимизда педагогик ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришнинг объектив ва субъектив сабабларини ажратиб кўрсатишга ҳаракат қилдик.

Замонавий дунёда жисмоний маданиятнинг инсон ва жамиятни такомиллаштириш омили сифатида роли сезиларли даражада ўсиб бормоқда. Жамият ва унинг аъзоларининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасига хизмат кўрсатадиган мутахассисларни тайёрлаш сифатига, уларнинг касбий малакаси даражасига бўлган талаблари ортиб бормоқда. Шахсга йўналтирилган таълимга мурожаат қилиш педагогик таълимнинг янги мақсади, шу жумладан жисмоний тарбия пайдо бўлишини белгилайди. Агар ил-

гари ўқитувчини тайёрлашнинг асосий мақсади технологик ўсиш бўлса, бугунги кунда унинг шахсий ривожланишига йўналтириш, бу ўз-ўзини ташкил этиш ва фаолият ҳамда шахсий тажрибани умумлаштириш натижасидир. Ушбу нуқтаи назардан, касбий компетенция касбий таълим даражаси, ўқитувчининг тажрибаси ва индивидуал қобилиятлари билан белгиланадиган категория сифатида кўриб чиқилади ва касбий муаммоларни ечишга техно-педагогик тайёрлик, унинг инсоний педагогик позицияси, педагогик фаолиятга бўлган қадрият ва умумий ҳамда касбий маданиятнинг юқори даражасидир. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, олий педагогик таълим маконига янги ёндашувлар ва замонавий технологияларни жорий этиш асосида ўқитувчи тайёрлаш тизимини стратегик модернизация қилиш зарурати мавжуд.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017. - 488 б.

2. Павлова, Л.Н. Управленческая компетенция педагога / Л.Н. Павлова // Профессиональное образование. Столица. – 2013. – №2 – С. 30-31.

3. Виноградов, С.А. Развитие управленческой компетентности руководителя учреждения физкультурного образования: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.08 / Виноградов Станислав Александрович. – Челябинск, 2013. – 24 с.

4. Фефелова, В.Н. Формирование управленческой компетентности специалиста по рекреации и туризму: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Фефелова Вера Николаевна. – Москва, 2010. – 187 с.

РЕЗЮМЕ

Ташкилотчилик қобилияти замонавий педагогга зарур бўлган қобилиятлардандир. Ушбу мақолада жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик қобилиятини ривожлантиришнинг назарий жиҳатлари ёритилган.

РЕЗЮМЕ

Организаторские способности – одно из качеств, необходимых современному педагогу. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты развития организаторских способностей у учителей физической культуры.

SUMMARY

Organizational skills are one of the qualities necessary for a modern teacher. This article discusses the theoretical aspects of the formation of organizational skills in physical education teachers.

GANDBOL SPORT TURI BILAN SHUG`ULLANUVCHI MAKTAB O‘QUVCHILARINING UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIKALRINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Radjapov U. R.
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi mudiri
Jo`rayeva Sh.
2-bosqich magistr talabasi

Tayanch so`zlar: Individual qobiliyatlar, mushak massasi, ixtisoslashgan, tezkorlik, kuch, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik.

Ключевые слова: индивидуальные способности, мышечная масса, специализация, скорость, сила, выносливость, ловкость, гибкость.

Key words: individual abilities, muscle mass, specialization, speed, strength, endurance, agility, flexibility.

Gandbol sport o‘yinida muvaffaqiyatga erishish, ularning jismoniy tayyorgarligiga bevosita bog’liqdir.

Malakali gandbol o‘yinchilarini tayyorlashda umumiy va mahsus jismoniy tayyorgarlik darajasining beqiyos ahamiyatini ta`kidlab ushbu jarayon tehnik mahoratni shakillanishida asosiy omil bo‘lib hizmat qilishni ko‘rsatib o‘tganlar.

Ko‘pgina mualliflar gandbol sport turi bilan shug’ullanuvchi sportchilarda barcha jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi ko‘pdan ko‘p mashqlarni va ularni qo‘llash usublarini yoritib berganlar.

Sportchining umumiy va mahsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan, ya`ni jismoniy mashqlarning chiniqish va sog’lomlashtirishning tabiiy omillari (quyoshda chiniqish, havo va suv muhitining hususiyatlari), rejm va boshqa gigenik sharoitlardan foydalanililadi. Bunda mahsus tanlangan jismoniy mashqlar asosiy rol o‘ynaydi.(31,32,36).

Sport o‘yinlarining hususiyatlari, sportchilarning indivuyudal qobiliyatlari va ularning tehnik va taktik tayyorgarligini maqsadga muvofiq holda qo‘shib olib borish gandbolchida yuksak sport mahoratini oshib borishni ta`minlaydi. Hozirgi vaqtda sportning hamma turlarida jismoniy tayyorgarlik ikki;

–umumiy va mahsus tayyorgarlikdan iborat.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik, mahsus jismoniy tayyorgarlik vazifalarini hal etishga yordam beradi.

Tehnik tayyorgarlikning o‘zi ham sportchi organizmining hamma sistemalarini, mahsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini hal etishga imkon beradi.

Organizmning hamma tizimlarini mahsus jismoniy va qo‘shimcha (yordamchi) jismoniy tarbiya vositalari bilan uzviy ravishda qo‘shib olib borilgan taqdirdagina sportchining umumiy va mahsus irodaviy harakat sifatlari muvoffaqiyatli rivojlanadi.

Bu hol sportchining har tomonlama rivojlanishini va yuqori natijalarga erishishni ta`minlaydi.

Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi deganda ular tanlagan sport turi uchun o‘ziga hos bo‘lmagan, biroq sport faoliyatida muvoffaqiyatga erishish uchun bevosita va bilvosita ijobiy ta`sir ko‘rsatadigan, har tomanlama jismoniy sifatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.(11,16,17,23).

Sportchining jismoniy tayyorgarligi sport faoliyati uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalash demakdir. (12,13,20,22,24).

Gandbol bilan shug’ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bevosita yo‘nalishiga ega bo‘lgani uchun, ayni vaqtda organizimning umumiy jismoniy rivojlanishi, mustahkamlanishi va chiniqishi bilan tamomila bog’liqdir.

Tayyorgarlikning barcha boshqa tomonlari singari jismoniy tayyorgarlik umumiy va mahsus bo‘ladi.(26,27,29,33,35).

Gandbol sport turidagi muvoffaqiyat faqat shu turning o‘ziga hos tomonlarini ifoda etuvchi ayrim qobiliyatlar bilangina emas organizmning funktsional imkoniyatlarining umumiy darajasi bilan ham belgilanadi.

Shu sababdan mahsus jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan birga qo‘shib olib boriladigan sportchining jismoniy tayyorgarligi har tomonlama bo‘lishi mumkin.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik, mahsus jismoniy tayyorgarlik uchun zamin yaratadi, ya`ni tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishish uchun zarur shart - sharoit sifatida; kuchlilik, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik xar tomonlama rivojlanishini ta`min etadi.

Sportchining jismoniy tayyorgarligini qaysi sport bo‘yicha ixtisoslashganligiga bog’liq. Biroq ihtisosligigaga qarab g’oyat katta farqlar bo‘lishiga qaramay, hamma sohadagi umumiy jismoniy tayyorgarlikda qator o‘xshash tomonlari saqlanib qoladi (32,35,37,39).

Bunga sabab birinchidan;

Sportning har hil turlari faqat bir biridan farq qilib qolmay ma`lum darajada umumiylikka ham ega ekanligida bo‘lsa;

ikkinchidan;

Umumiy jismoniy tayyorgarlikning mazmuni faqat sport faoliyatidagi vazifalarni hisobga olib belgilanmay, balki jismoniy tarbiyaning umumiy vazifalariga ham muvofiqlab belgilashdadir.

Shuning uchun bizning sharoitimizda sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa sport mahoratining dastlabki paytlarida «Alpomish» va «Barchinoy» majmuasining mezon va talablarini bajarish bilan bog’liq.

Platonov V.N fikricha umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu sportchining harakat sifatlarini har tomonlama garmonik ravishda rivojlanganlik darajasini anglatadi. Masalaga shu tarzda yondoshish oddiy sportchi sog’lig’ini shakillantirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Chunki gandbol o‘ziga hos va o‘ziga mos hususiyatlari mavjudligi tufayli ko‘proq kuch tezkorlik sifati ustun tursa, chidamlilik sifati etakchi rolni o‘ynaydi yoki uchinchi bir sport turida egiluvchanlik sifati asosiy ahamiyatiga ega bo‘ladi. Qayd etilgan fikrdan muayan sport turida ma`lum jismoniy sifat juda zarur, boshqasi esa muhim emas degan hulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, har bir sifatning muayan sport vaziyatida ozmi ko‘pmi lekin muhim ulishi mavjud bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalar sportning gandbol sport turida ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gandbol sport turiga taalluqli ilmiy uslubiy adabiyotlarda ushbu muammoga alohida etibor qaratilgan (23,25,28,30,35). So‘nggi yillarga kelib olimlar o‘rtasida malakali sportchilarni tayyorlashda jismoniy tayyorgarlikni o‘rni jumladan jismoniy sifatlarning bir biriga uzviy bog’liqligi hamda ularni sport mahoratini oshirishga bo‘lgan ta`siri haqidagi muammolar tobora katta qiziqish uyg’otib bormoqda (14,17,18,39,41).Avvaldan isbot qilingandek, kuch va tezkorlik sifatlarini o‘zaro muvofiq tarzda shakillantira borish sportchining tayyorgarligiga ijobiy ta`sir etadi (33,40,42,43,44,55). So‘z umumiy jismoniy tayyorgarlik va hususan sportchilarni tayyorlashda xarakat sifatlarini (tezkorlik, kuch, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik) bir birga bog’lab shakillantirish muhimligi haqida borar ekan, bu borada tezkor – kuch sifatiga alohida urg’u berish maqsadga muvofiqdir. Gandbolda ijro etiladigan harakat malakasi negzida tezkor –kuch sifati hal qiluvchi muhim manbaa bo‘lib hisoblanadi. Gandbolda mazkur sifat xujum yoki qarshi xujum usullarini qisqa vaqtda katta kuch bilan bajarishdir. Darhaqiqat, kuzatuv natijalariga ko‘ra gandbol bo‘yicha Jahon, Olimpiya, Osiyo va boshqa xalqaro musobaqalarda g’alabaga erishgan aksariyat gandbolchilar yuksak darajada rivojlangan tezkor kuch qobiliyatiga ega bo‘lganlar. Malakali gandbolchilarni tayyorlashda, bundan

